



SALOHİYAT – MEZON



5

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI**

SALOHİYAT – MEZON

(ilmiy maqolalar to 'plami)

5-SON

**“Namangan” нашриёти
2014**

УЎК: 812.512.133-1

КБК: 84(5Ўзб)

Х-69

Mazkur maqolalar to'plami Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasining 2013 yil 24 dekabrdagi 4-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Mas'ul muharrir: Falsafa fanlari nomzodi, dotsent Sodiqjon Norqo'ziyev

Tahrir hay'ati:

Talapov B.	t.f.n., dotsent
Mamatov O.	f.f.n., dotsent
Haydarov Z.	t.f.n., dotsent
Qozoqov T.	t.f.n., katta o'qituvchi
Topildiyev O.	t.f.n., katta o'qituvchi
Zamilova R.	katta o'qituvchi
Tillayev B.	o'qituvchi
Abdullahayev A.	o'qituvchi
Bo'ronov B.	o'qituvchi

Ilmiy to'plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2014 yil 13 fevral kungi 2-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

© NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI, 2014 YIL

ISBN 998-9943-4340-6-6

©“Наманган” нашриёти



MAFKURAGA YONDOSHUVNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

O.V.Mamatov,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi*

Hozirgi davr mafkuraviy jaryonlarning inson ongi va qalbi uchun shiddat bilan kurash ketayotganligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston ham bu jarayonlardan holi emas. «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur ... qayerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin»¹.

Shuning uchun ham mafkuraga yondoshuvda quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

1.O'zbekiston turli xil mafkuralar to'qnashgan hudud. Shuning uchun bu mafkuralarga nisbatan juda ehtiyojkorlik talab etiladi. Zero, mafkuradagi ijobji xususiyatlar bilan bir qatorda, salbiy xususiyatlar ham mavjud. Ayniqsa, mafkuradagi soxtalik, kishilar ongini aldash, ayrim yaramas guruhlarning faoliyatini oqlash kabi xususiyatlarga diqqat-e'tiborni qaratmoq lozim. Avvalambor, bu mafkura qanday maqsadlarni ko'zlagan, kimlarning manfaatlari himoya qilinmoqda, bu mafkuralar O'zbekistondagi ijtimoiy munosabatlarga aholining tinch hayotiga qanday ta'sir o'tkazishi chuqur tahlil qilinmog'i lozim. Aholi o'rtasida soxta g'oyalarning haqiqiy mohiyatini ochib tashlaydigan faoliyatni tashkil etish O'zbekistonning hozir mavjud bo'lgan tinch hayotini, totuvligini saqlab qolishda, buniyodkorlik faoliyatidan og'ishmay ilgarilab borishda muhim ahamiyatga ega.

2. Soxtalik yolg'onlik har qanday mafkuraga xos bo'lavermaydi. Shu xususiyatlar bilan birgalikda mafkura ilmiy nazariy-xususiyatga ham ega. Lekin ilmiy jihaddan ishlab chiqilgan mafkuralarning hammasini ham jamiyat uchun foydal deb bo'lmaydi. Mafkura qachonki jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilsa, jamiyatning barcha toifalarining, butun millatning manfaatini ko'zlasa, jamiyatning tengligini ta'minlay olsa yashovchan mafkura bo'la oladi. «Bizning jamiyatimiz etnik guruhlар va millatlar o'rtasidagi shu hududda yashaydigan har qanday odamga o'zini erkin va teng huquqli, deb his qilish imkonini beradigan o'zaro munosabatlar o'matilishiga intilmoqda»²

Albatta bunday mafkuralar soxtalikdan, noilmiylikdan holi bo'ladi. Bunday mafkuralarda ilmiylik va haqiqat tushunchalari birga bo'ladi. Odamlarning xissiyotini qo'zg'atadigan soxta shiorlardan ilmiy haqiqatni ifodalaydigan fikrlarni farqlash lozim. Shuningdek, mafkuralarni hamma davr uchun bir xilda qabul qilish ham yaramaydi. Mafkuraga ham tarixiy nuqtai nazardan yondoshish kerak. Bugungi kun uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan mafkura ertangi kun uchun mos kelmasligi mumkin. Buning sababi shundaki, har bir mafkura davr talabidan kelib chiqib, shu davrning vazifalarini intilishlarini belgilab beradi. Davr o'tishi bilan bunday mafkura o'z vazifasini bajarib bo'ladi yoki yolg'on soxta mafkura bo'lsa inqirozga yuz tutadi va o'rmini boshqa mafkura egallaydi.

Shuning uchun ham har qanday mafkura abadiylikka dosh qila olmaydi, har qanday haqiqat kabi nisbiylik xarakteriga ega bo'ladi.

3. Mafkura voqyelikdan yuzaga kelib, zaruriyat hisoblanadi. Ya'nij ijtimoiy muhit, jamiyatdagi munosabatlar u yoki bu mafkurani tarix sahnasiga olib chiqadi. Jamiyat bir

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin //Tafakkur, 1998.-№2.-B. 3.

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B. 83.

tarixiy taraqqiyot bosqichidan boshqasiga qadam qo'yayotganda mafkuraviy kurash keskinlashadi. Ijtimoiy ziddiyatlar qanchalik darajada keskinlashsa, jamiyatda turli xil mafkuralarning to'qnashuvi ham keskinlashadi. Shuningdek, inqirozga yuz tutayotgan mafkura ham yashab qolishga intiladi. Bu mafkura boshqacharoq shaklda namoyon bo'lsada, o'z mohiyatini o'zgartirmaydi. Mafkuraning mohiyatini uning tashqi ko'rinishidan, ya'ni jozibador shiorlar, yolg'on va'dalar, balandparvoz fikrlardan emas, balki uning maqsadi, vazifalaridan izlamoq kerak. Mafkuraning mohiyati kimlarning manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilganligini bilish orqali ham ochib beriladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi sekin-astalik bilan hal etilib yangicha munosabatlar o'z iziga tushib borgan sari bir-biri bilan to'qnash kelgan mafkuralar ichidan hayotiysi jamiyatni ilgari boshlay oladigan mafkura aholi ongiga singib boradi.

4. Mafkuraviy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlar vujudga keltiradi, o'z navbatida, mafkura ijtimoiy munosabatlarning yo'nalishini belgilab beradi. Ya'ni jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda, jamiyatning yuzini bilmoxchi bo'lsangiz, albatta uning mafkurasini tahlil qilib ko'ring. Chunki mafkura jamiyat taraqqiyotining eng muhim dasturi sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatning sog'lomligi ana shu jamiyatda hukmron bo'lgan mafkuralarning sog'lomligiga bog'iliiq.

5. Jamiyat tarixiga jamiyatda yashab o'tgan mafkuralar tarixiga e'tibor bersak, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, davlatlar o'rtasidagi kurashga doimo mafkuraviy kurash yo'ldosh bo'lib kelgan. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish muhimki jamiyatdagi osoyishtalik, tinch-totuvlik, xalqlar o'rtasidagi farovonlik ham mafkura bilan hamisha yo'ldoshdir.

6. Tarix shunday saboq beradiki, haqiqat buqiladi, lekin sinmaganidek, soxta yolg'on mafkuralar ma'lum bir muddat yashasada, o'z o'diga qo'ygan maqsadlari, vazifalarini ado etmay haloqatga yuz tutadi. Bunday mafkuralar xalqning ruhiyatiga mos kelmaydi. Faqatgina uning jozibadaor maftun etuvchi tashki qiyofasi, ya'ni shakli aholining ma'lum bir guruhini oz muddatga ortidan ergashtirib borishi mumkin, xolos.

Mafkura yashovchan bo'lishi, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishi uchun ilmiy jihatdan asoslangan butun xalqning, jamiyatning manfaatlarni ifodalagan uning taraqqiyotini ta'minlaydigan bo'lishi kerak.

7. Hyech qaysi bir mafkura to'liq shakllangan, tugallangan degan nomga da'vogarlik qila olmaydi. Mafkuraning nazariy asoslari ishlab chiqiladi, xolos. Ana shu nazariy asosdan kelib chiqqan holda aholi ongiga san'at ahloq, din, siyosat, huquq orqali singdirib boriladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, mafkuraning nazariy asosi mafkura va uni targ'ib qiluvchilar uchun muhim. Xalqqa uni soddarroq shaklda, masalan, badiiy adabiyot, san'at, axloq orqali singdirish yengilroq kechadi va xalq ongiga chuqurroq singadi.

8. Bugun O'zbekistonda mafkuraviy munosabatlarga juda katta e'tibor berilayotgani muhim ahamiyatga ega. Bundan keyin ham bu e'tibor susaymasligi kerak. Aholining ayrim toifalarining xissiyotlarini, masalan, diniy xis-tuyg'ularini salbiy tomonga yo'naltirib, ularni har xil buzz'unchi siyosiy oqimlarga ergashib ketishining oldini olish zarur.

9. Davlat va jamiyat mafkurasi tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. O'zbekistonda biror mafkuraning, hattoki milliy istiqlol mafkurasining ham davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

10. O'zbekiston aholisining juda katta qismi musulmon bo'lganligi uchun diniy fundamentalizm, ekstremizm va shunga o'xshash diniy oqimlarga e'tiborni kuchaytirish,

diniy tashkilotlar oldiga e'tiqodni siyosat bilan aralashtirib yubormaslik, dingga e'tiqod qiluvchilarini to'g'ri yo'lga solish vazifasi yuklatilishi muhim ahamiyatga ega.

11. O'zbekistonda milliy mafkuraning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Bu nazariy asos bugundayoq o'z mahsulini bermoqda. Shuningdek, uni xalqqa yetkazish uchun jamiyatning ilg'or fikrli kishilari shoirlar, yozuvchilar, siyosatshunoslar, faylasuflar mahkam bel bog'lab ishga kirishdilar. Umuman olganda tarix, falsafa, siyosat, adabiyot va boshqalar bu mafkurani xalqqa to'g'ri yetkaza bilmoqlari lozim.

Mafkuraning nazariy asoslari O'zbekiston Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan. Mafkurani xalqqa yetkazishda uning asarlari metodologik vazifani bajarmog'i lozim. Shu o'rinda noto'g'ri fikrga o'rinn qoldirmaslik kerak.

«Mafkurani Prezident ishlab chiqqan ekan, demak u davlat mafkurasi ekanda, bu Konstitutsiyaga xilof-ku» deyish noo'rin. I.Karimov O'zbekistonning milliy mafkuraning nazariy asoslarini Prezident sifatida, davlat mafkurasi sifatida ishlab chiqqan emas. Milliy mafkura o'zbek xalqining jonkuyar vakili, haqiqiy vatanparvar, insonparvar, tinchliksevar vakili tomonidan ishlab chiqilgan. Bu mafkura insonlar ongiga davlat tomonidan zo'rlik bilan singdirilayotgani yo'q. Balki, xalqning dilidagi gaplar bo'lgani uchun ongimizga singib bormoqda.

12. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy mafkuraning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunda yoshlarda o'tmish tariximizga buyuk bobokalonlarimizga hurmat xissini uyg'otish, ular bilan faxrlanish, ularning jahon tarixida tutgan o'rinnarini yoshlar ongiga singdirish Vatanimizning kelajagini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizga vorislik asosida yondoshish jamiyatimiz jipsligini ta'minlashda muhim vositadir.

13. Shu davrgacha mafkura faqat sinfiy xarakterga ega deb e'tirof etib kelingan. Lekin Temur davlati mafkurasi, garchi Buyuk Temur uni mafkura deb atamagan bo'lsada, aholining barcha tabaqalari manfaatini ifodalagan ekan, I.Karimov tomonidan mafkura nazariyasiga kiritilgan, «jamiyat mafkurasi», «xalq mafkurasi», «milliy mafkura», «mafkaraviy immunitet» kabi tushunchalarining mohiyati aholiga tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. I.Karimov «jamiyat mafkurasi»ni shunday ifodalay: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'mini aniq, ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'priq bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»³.

Mukammal shakllangan, o'tmishimizga, urf-odatlarimizga, an'analarimiz, ruhiyatimizga hamda umuminsoniy xususiyatlarga ega bo'lgan mafkurasiz jamiyatimizning olg'a qarab, buyuk kelajak sari intilishini tasavvur qilish qiyin.

MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHNING BA'ZI BIR MASALALARI

S.Norqo'ziyev
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Biz manaviy tiklanish va poklanish orqali milliy istiqlol mafkuramizni yaratish uchun harakat boshladik.

³ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalyni-xal, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Tafakkur, 2-1998.-B.3.

O'zbek xalqi asrlar mobaynida avaylab saqlanib, sayqal topib kelgan o'z milliy urfatlari, rasm-rusm, udum va ananalari, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy tur mush tarzi, huquqiy ongi, etiqodi, bir so'z bilan aytganda, madaniy-manaviy dunyosi bilan ajralib turadi. Biroq ajdodlarimiz umumbashariyat marifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularning boy madaniy merosidan foydalanish milliy istiqlol mafkurasining shakl-shamoyillarini yaratish uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

Milliy mafkuramizda vatanparvarlik asosiy o'rinni egallashi tabiiyidir. Bu mafkura tom manoda xalq mafkurasi, yani O'zbekistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, xullas, respublikamizni o'zining jonajoh Vatani deb bilgan, O'zbekiston fuqorosi ekanligidan g'ururlanadigan barcha millat vakillarining mafkurasi bo'lishi kerak.

Milliy mafkuramizda oilaga alohida ahamiyat berilishi ham maqsadga muvofiqdir. qadimdan sharqda birinchi o'rinda oila va uning manfaatlari qo'yilgan. Bu qadriyatimizni e'zozlash xalqimiz ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy davlat qurishga azmu qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy davlat qurishga madaniyat, qonunga hurmat, itoatgo'ylik milliy istiqlol mafkurasida muhim o'rinni egallashi lozim. Milliy istiqlol mafkurasi har qanday partiyaviy mafkuradan ustun bilishi zarur.

Zero, u o'zida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari- imon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdilik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlar va g'oyalar mujassamlashi lozim.

Shunday mafkuragina turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruuhlar, olim-u muhandislar, ishchiyu-dehqonlar, barcha vatanparvar fuqorolarning dunyoqarashini, g'oyalarini, kechinmalarini yakdillik, hamdo'stlik nuqtai nazariga keltirish imkonini beradi.

Milliy istiqlol mafkurasi davlatimizni barcha fuqorolarini ulug' maqsad yo'lida qalban jipslashtirishga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimiz fuqorolari O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlash uchun ongli ravishda qatiy kurash olib borgan taqdirdagina oldimizga qo'yilgan maqsadlarning uddasidan chiqamiz.

Milliy istiqlol mafkurasini yaratishdab avvalo yaqin tarixiy o'tmishimizdagagi hamma narsadan ham voz kechaverish to'g'ri bo'lmaylidi. Urush va mehnat faxriyalarimizdagagi vatanparvarlik tuyg'ularini yoshlarga o'rgatish g'oyat muhimdir.

Yoshlarimizga xalqimizga hos bo'lgan hislat- mehnatsevarlikni singdirishning ahamiyati kattadir. Vatan mustaqilligini mustaxkamlash, xalq farovonligini taminlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan kishilar rag'batlantirilishi, eng avvalo, manaviy jihatadan rag'batlantirilishi zarur. Biz fuqorolrimizda mehnatsevarlik fazilatlарini shakllantirmasdan hozirgi inqirozdan chiqishimiz oson bo'lmaydi. Bola oilada mehnatsevarlik, kamtarlik ruhida yahshi tarbiyalanmasa, muktab ham, jamoat tashkilotlari ham buning uddasidan chiqishlari mushkul. Shu boisdan, ayniqsa, jamiyatimizda onalar obro'sini oshirishga etibor kuchaytilishi lozim. Bizda ko'pincha "Yapon mo'jizasi" haqida gapiriladi. Haqiqatda ham, bu mamlakat xalqining mehnatsevarligini namuna qilib keltirish mumkin. Yaponiyada mehnat tatilida asosan bir haftadan oshmasligiga qaramasdan, xodimlar ham dam olishga chiqishga shoshilmaydilar. Ularga yoshlikdan boshlab biror firmaga mansublik uchun faxlanish his-tuyg'usi singdiriladi. Shu sababli ular o'z firmalarining shon-shuhrati uchun bilim va istedodlarini ayamaydilar.

O'tgan bobokalonlarimiz Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobi, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziyy, Xo'ja Ahmad

Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab va yuzlab hali bizga nomalum bo'lgan alloma va donishmand mutafakkirlarni puxta va chuqur o'rganishimiz zarur. Manaviy poydevorimizni atroflicha o'rganish kelajak avlodni tarbiyalashda asos bo'ladi.

Yangi mafkuramiz jur'atli va qatiy, iymon-e'tiqodli kishilarini tarbiyalab yetishtirishi lozim. Tajriba shuni ko'rsatyapdiki, bazi kishilar, ayrim rahbarlarimiz ham tarozining qaysi tomoni og'ir bo'lsa, shu tomonda turadigan bo'lib chiqayapdilar. Bundaylar qiyin paytda o'z fikrini qatiy aytolmaydilar., ximoya ham qila olmaydilar. Mafkuraning mazmuni aniq insonga qaratilishi, mavxum bo'lmasligi lozim. Demak, u jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilaga mehr-muhabbatdan boshlanishi kerak. Vatanparvarlik, do'stga sadoqat, hurmat-izzat, qadr-qimmat, mustaqillikka munosabat oiladan shakllanadi.

Istiqlol mafkurasi har bir shaxsda jamiyatga nisbatan loqaydlikni yo'qotadigan mafkura bo'lishi kerak. Bunday mafkura ongiga singgan fuqoro O'zbekiston deb atalmish yurt uchun kerak bo'lsa jonini ham fido qilib, Vatan tuyg'usini baland ko'tarsin.

Milliylik, millatga mansublilik-bu umumjahon taraqqiyoti qonuniyatidir. O'zbek millatini g'ururi, milliy iftixori quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, ona Vatanimizning buyuk ko'p ming yillik tarixiy o'tmishida, uning Sharq marifatparvarligi, umuman jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasida va unda tutgan mavqeida: ikkinchidan: bizning vatandoshlarimiz bo'l mish jahon miqyosida tan olingan fan, din, adabiyot, sanat, daholarimizning bebaho madaniyat, sanat, memorchilik yodgorliklarida ; to'rtinchidan: o'zbek xalqining o'z ona tiliga, milliy urf-odatlariiga sodiqligida: beshinchidan, o'zbeklarning buyuk islam tsivilizatsiyasi va madaniyatiga mansubliligida: oltinchidan, o'zbek davlatining tabiat boyliklaridan, serhosil yerlarida, mamlakatimizning iqtisodiy kuch-qudratida; yettinchidan, ko'p millatli O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligida, uning fuqorolari va butun xalqining istiqlol va taraqqiyotiga, buyuk kelajakka bo'lgan ishonchida; Sakkizinchidan, fuqorolarimizning jahon talablari darajasida bilim va malaka olishga, fan-teknikaga, bozor iqtisodiyoti tadbirkorligi madaniyatiga bo'lgan ishtiyoq va intilishida; To'qqizinchidan, O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatda tan olinishida va xalqaro nufuzini oshib borshida; va niyoyat, O'ninchidan, tinchlik, barqarorlikda, o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlab olib, sobitqadamlik bilan olg'a borayotganligidadir.

Bizning yurt dunyoga madaniyatning barcha sohalarida yuzlab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblarini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirop etganlar, ulkan hissa qo'shganlar. Shuning uchun ham O'zbek milliy madaniy merozi jahon madaniyatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Mustaqil O'zbekistonning, nafaqat O'zbekistonning, balki butun jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinalariga ega bo'lgan ulug'larimizni ardoqlash vaqt keldi.

To'maris va Shiroq, Spitamen va Manguberdi, Temur Malik, buyuk sohibquron bobomiz Amir Temur, Ulug'bek, Bobur va boshqa ulug'larimizni ruhini shod aylamog'imiz g'ururli Alpomish, Oybarchin, Ravshan, Hasan, Kuntug'mish dostoqlarini baralla kuylamog'imiz va eshitmog'imiz kerak.

O'zbekiston o'zining chuqur davlatchilik negizlariga ega, o'ziga hos siyosiy-huquqiy madaniy meroz sohibidir. eramizdan bir necha yuz yillar oldin, bizning hududimizda davlat huquqiy institutlar va qarashlar taraqqiy etgan Movaraunnaxrda islam marifatga, huquqshunosligi-fiqx, shariatga umuman, jahon huquqiy madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan fotihlar-huquqshunoslardan yashaganlar.

Bizning hududimizda 9 mingdan ziyod tarixiy, madaniy, memorchilik yodgorliklari, o'zbek xalqining beqiyos madaniy meroсининг тирік гувохи бол. Уларни тамirlash, tiklash, aqlab qolish va kelajak avlodlarga yetказish har birimizning manaviy, qolaversa, японий ватанпарварлик бурчимизdir.

Xullas, milliy maskuraning uzviy tarkibiy qismini boy tarkibiy meroсимиз tashkil tadi. Ma'naviyatimiz xazinasi durdonalaridan bahramand bo'lib, tarbiyalangan sog'lom vlod ruhan tetik bo'ladi.

Biz chindan ham buyuk Vatanimiz bilan faxrlansak arziydi. Buning negizida японпарварлик, farovonlik va oilaning baxtu-saodati, xalqparvarlik, Vatanga muhabbat, архе kishilarning erkinligi ijtimoiy adolat va tengligi kabi umumbashariy tuшhunchalar yotmog'i kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, agar maskura extiyojdan va hayot imkoniyatlaridan uzilib o'igan bo'lsa u davlatga ham katta zarar keltirishi mumkin. Bir so'z bilan aytanda, maskura to'g'risida jamiyatning o'zi qayg'urishi, o'z maskurasi uchun o'zi tayyor bo'lishi lozim.

Bugun ijtimoiy fan vakillari oldida katta ilmiy, nazariy va amaliy muammolar k'ondalang turibdi. Bularni hal etmasdan turib, o'zligimizni tanishimiz, istiqlolimizni anglashishimiz, iqtisodiy mustaqililikka erishishimiz jahon bozorining raqobatbardosh sibyektiiga aylanishimiz mumkin emas.

Ona-Vatan tarixini, xalqimizning tabarruk obidayu uning o'ziga xos hususiyati, b'slim darajasi, siyosiy-huquqiy madaniyati holati, farovonlik darajasini aniq bilmay turib, японпарвар inson shakllanishiga erishib bo'lmaydi. Shu sababli oliv o'quv yurtlarida hamon hukm surib kelayotgan o'zib'o'larchilik va befarqlikka chek qo'yib, ijtimoiy fanlarni o'qitishdan istiqlol maskurasi kontsepsiyasiga muvofiq keluvchi va ilmiy asoslangan muntazam tizim, tegishli moddiy -texnika zamin, puxta ishlangan darslik, qo'llanma, dastur bilan taminlash dolzarb vazifadir.

Ijtimoiy fan o'qituvchilari ijtimoiy sifati va shaxsiyatiga alohida etibor berish kerak, ishtimoiy fan o'qituvchilari iyomon-etiqodli, pokiza, keng qamrovli bilimdon, xalol, та'magirlik va chirkin poraxo'rlikni inson shaxsiga isnod keltiruvchi haqorat deb biluvchi оғномусли мө'табар kishilar bo'lishi shart. Aks holda ijtimoiy fan jamiyatagi o'z muqaddas vazifasini bajara olmaydi. Sobiq Ittifoqdagidek quruq safsataga aylanib oлади. Vaholanki, ijtimoiy fanlar istiqloq maskurasi kontsepsiysi asosida pokiza дунyoqarashni shakllantirishi lozim.

Ijtimoiy fanlar ro'yhati zamonaviy fanlar bilan boyitilishi zarur. Chunki bozor инносабатларига о'tish sharoitida "Siyosatshunoslik", "Ishtimoiy psixologiya", "Kasb et'kasi", "Mantiq"ni o'qitilishi zarur va bu fanlar fuqorolaru mutaxassislarimiz uchun benihoya ahamiyati kattadir. Biz hozirgacha modda, ijtimoiy borliq birlamchi, ong esa ikkilamehi, deb hisoblab, aql-zakovat, ma'naviyat, maskura, dunyoqarash kabi omiliarning ahamiyatini, ularning yaratuvchilik va bunyodkorchilik hususiyatlarini ўзши tushunib yetmasdik. Axir har qanday kishi biron bir ishni boshlar ekan, albatta, uning rejasini avvalambor o'z miyasida shakllantiradi. Shu bilan birga, hech qachon kub'a qurish uchun imkoniyati bor odam qasr qurishni rejalashtirmaydi.

Ikkmchi tomonidan, modda, borliq birlamchi desak-da, moddiy, mulkiy инносабатларни o'zgartirmadik, takomillashtirmadik, ularni zamonaviy dunyoqarash, siyosiy ong, axloqiy madaniyatining тағзаминига aylantirmadik. Bugunga kelib, маълакатимиз mustaqilligini mustaxkamlash, uning iqbolini taminlash huddi mana shu m'salalarni hal etishga taqalib turibdi. Zero million-million kishilarning hayotiga,

mamlakatning hayotiga dahidor ishlarni puxta o'ylamay, shoshma- shosharlik bilan zinhor amalga oshirib bo'lmaydi.

Alabatta, yuksak ma'naviyatsiz, zamonaviy mafkurasiz odam, ham yashashi mumkin. Ammo chinakam insoniy adolatli jamiyatni ma'naviyatning yuksak darajasiz qurib bo'lmaydi. Bu hol ziyolilarimizga, olimlarga birinchi galda jamiyatshunoslarga, siyosatshunoslarga alohida masulyiat yuklaydi. Chunki, yuksak ma'naviyat, ilg'or mafkura o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularni mutahassislar yaratadilar va muayyan yo'llar bilan ommanning ongiga singdiradilar. Ana shundagina ilg'or g'oyalar moddiy kuchga aylanadi.

Bunday Vatanni chinakam vatapvarvarlar quradilar hamda uni barpo etish yo'lida asl vatanpavarlar alohida shakllanadi. Vatan-bu faqat suv, yer, tog'lar, bog'lar tabiiy boyliklarga emas. Balki u odamlar, ular o'rtaсидagi shakllangan munosabatlardir.

Shunday qilib, birinchidan, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish mustaqil yo'limizning, amalga oshirayotgan islohotlarimizning eng muhim, ajralmas jihatlaridan biridir. Ikkinchidan, har qanday mafkura bir kunda bir guruh olimlari siyosatchilar, tomonidan "kampaniyabozlik" tarzida yaratilmaydi. U malum tarixiy davr mobaynida, ijtimoiy rivojlanish natijasida shakllanadi. Har qanday mafkuraning negizida xalqning tub mafkuralari va istaklari yotganadagina, u xalq mafkurasi bo'ladi.

Bunda birinchi o'rinda shu mamlakat asosiy aholisining, millatning mafkurasi chiqmog'i kerak. Shuning uchun ham bizda o'zbek milliy ma'naviyatiga asosiy etiborni qaratmoq lozim. Uchinchidan, ma'naviyat bu har qanday mafkuradan, (siyosiy, milliy, huquqiy, tarixiy va hokazo) keng tushunchadir. Rasmiy mafkura xalq, millat ma'naviyatidan yiroq bo'lsa, hech qanday natija bermaydi. Ma'naviyat mafkurani oziqlantiruvchi buloq manbaidir. To'rtinchidan, vatanparvarlik har qanday mafkuraning muhim jihatidir. Chunki, biz, har qanday fuqoro, O'zbekistonlik uchun mustaqilligimizni to'la his etmoq, mustaqillikni ezozlamoq, mustaqillik uchun jon fido qilmoq mamlakatimiz, davlatimiz kelajagini muhim asosidir.

Mustaqil O'zbekiston uchun falsafa, falsafiy qiyofa kerak. Iste'molchidan iborat hayot tarzi falsafiy bo'lishi mutloqo mumkin emas., jamiyatagi falsafaga bo'lgan munosabat, hohlaymizmi, yoki yo'qmi bizning maqsadlarimiz, yo'limiz qay darajada samimiy ekanligini holisona ko'rsatuvchi o'ziga hos mezondir. Zeroki, falsafa tabiat, jamiyat, inson, tafakkur va hokazolar kabi eng murakkab hodisalar taraqqiyotining eng umumiylarini to'g'risidagi birdan-bir fandir. Tabiiy fanlarga, ular orqali kirilsa, tabiatning o'zi yovvoyilik darajasiga tushib qolganidek, jamiyat ham undan kam bo'limgan darajada, uning ichki qonunlarini bilib o'ziga tasir etishiga extiyoj his etadi. Xususan, chinakam insoniy jamiyat to'g'risida gap ketganda, bu yerda folbinlikka sira ham o'rinn yo'q.

Falsafa ilmi quruq gapga yoki bir bezakka aylantirib qo'yilgan, xayot bilan hamnafas bo'limgan kechagi kunimiz saboqlaridan xulosalar chiqarishimiz hamda ularni qaytadan takrorlamaslika harakat qilmog'imiz zarur. Falsafa fanlik qiyofasini yo'qotsa, u safsataga aylanishini ko'rdik.

Ammo buning uchun falsafaning faqat o'zi aybdor emas. Falsafa o'zining tub mohiyatini ifoda etish uchun (huddi boshqa fanlar kabi) muayyan sharoitlar, yani falsafa ilmiga ijtimoiy xaridor zarur. Aks holda falsafa kasodga uchraydi. Amaliy muammolarni falsafa bevosita hal etmaydi. Lekin falsafasiz biron-bir ijtimoiy-amaliy muammo ham jiddiy hal etila olmaydi.

Ijtimoiy muammolarning ildizigacha chinakam falsafa yordamida yetib borish mumkin. Falsafa (nafaqat u balki, ilmning boshqa sohalari ham) o'tgan, kechagi kunni

qayd qilish, qabul qilingan yo'lni, siyosiy qarorlarni sharxlash bilan o'ralashib qolmasdan, ularni ilmiy tahlil qilish, ertangi kunning iqbolini holisona bashorat qilish, to'g'ri yo'nalishni tanlab olish uchun zamin yaratmog'i lozim.

Ammo falsafa ilmi o'zining asl vazifasini bajara olishi uchun ijtimoiy buyurtmachisi kerak. Falsafa ilmi ana shu buyurtmaning manfaatini ifodalaydi. Mustabid tuzum davrida falsafa kim "haqini to'lagan" bo'lsa, shuning hizmatini qildi. Shu bilan u, asosan, to'rachilikka tayangan tizimning falsafiy ifodasi edi.

Demokratik tuzum xalq ommasining manfaatini ifodalashga tayanadi. Avvalambor, xalqning o'zi ushbu tizimning sohibi, tayanchi, ximoyachisi bo'lishi darajasiga ko'tarilishi lozim,

Mustaqil O'zbekistonda shunday bir vaziyat vujudga keldiki, u mustaqil falsafani yaratish, falsafaning mustaqilligini taminlash, fan sifatidagi ananaviy huquqini tiklash, siyosatshunoslik faniga jiddiy etibor berilishini taqozo etadi. Millatning, shaxsning, erkin, ozod rivojlanishi uchun yot mafkuraviy, tazyiqdan qutulish uchun ilmga tayangan va unga asoslangan mafkura kerak. Ilmga tayangan siyosat o'z mazmuni va mohiyatini yo'qotib siyosatbozlik, soxta vazxonlikka yuz tutadi. Demak, ilmiy asoslangan mafkura, siyosatning buyurtmachi, ilhomchisi demokratik, huquqiy davlat barpo qilishni maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston davlati mafkurasi bo'lishi kerak. Shu asosda mafkurani samarali targ'ib qiluvchi, uni fuqarolar ongiga singdiruvchi va shunga javobgar, mutahassis davlat dasturi, tizimi targ'ib topishi shart. Aks holda mustaqillik mafkurasi moddiy kuchga aylanmaydi.

(*Mazkur magolani dunyoga kelishida X.Sulaymonovning "Istiqlol va ma'naviyat" deb nomlangan risolasidan foydalanildi*)

GLOBALASHUV VA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA INTERNETNING MAFKURAVIY TA'SIRI

O.Topildiyev,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi katta o'qituvchisi,
tarix fanlari nomzodi*

Bugungi kunda "globallashuv" so'zi eng ko'p ishlatalidigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarini, jumladan, tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan o'ta shiddatlari hamda murakkab bir vogelikni o'zida mujassam etadi. Bugungi globallashuv davrida axborot tarqatish nihoyatda zamonaqiy qiyofaga kirdi. Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Zamonaqiy odam ish kunini internetdan boshlab, u bilan tugatadigan bo'lib qoldi. Global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, uning imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Masalan, 1998 yilda dunyo bo'yicha internetga 100 million odam ulangan bo'lsa, 2008 yilda internetdan foydalanuvchilar soni 580 milliondan ortiq abonentni tashkil qildi, hozirgi kunga kelib ularning soni 2 milliarddan oshib ketdi⁴. O'zbekiston Respublikasi xalqaro global internet tarmog'iga 1996 yilda ulandi va mamlakatda 2008 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 1 million 904 ming kishidan ortiqni tashkil etgan bo'lsa⁵, 2011 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 5 milliondan ortiq abonentni tashkil qildi⁶. 2013 yilga kelib esa respublikada

⁴ Ma'rufboev B. Globallashuv xususiyatlari va yoshlar tarbiyasi //O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari. – Toshkent, 2013. B.- 45.

⁵ Xalq so'zi, 2008 yil 3 yanvar.

⁶ <http://www.pres.uz/news/>

internetdan foydalanuvchilar soni 10 millionga yetdi. Har oyda global tarmoq miqdori 7-10 foizga ortib bormoqda.

Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning yoshlar ma'naviyatiga masifikuraviy ta'siri, havf-xatarlari to'g'risida ham so'z yuritishga to'g'ri keladi. Muayyan kuchlar global tarmoqning axborotlarni tez, sifatli uzatish, tarqatish bo'yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan urish, yoshlarni o'zlar targ'ib etayotgan buzg'unchi g'oya va masifikular tomon yo'naltirishga harakat qilishmoqda. Chunki yoshlar internet auditoriyasining eng faol a'zolari bo'lib, ular internetga yangiliklarni izlash, do'stlar bilan tanishish, muloqot qilish, musiqa yozib olish va o'zlariga kerakli ma'lumotlar olish uchun kiradilar.

Ammo virtual makondan yog'ilayotgan axborot oqimi shunchalik ko'pki, uning qaysi biri foydali, to'g'ri va qaysi biri g'arazli ekanligini ajratib olishga har bir yosh yigit-qiz ham qodir emas. Ayniqsa, hali ongi to'la shakllanib ulgurmagan yoshlarning dunyoqarashiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi internet tizimi ma'lumotlarining ma'lum bir qismi asosan noxolis, shubhali ko'rinishda bo'lib, axloqiy buzuqlik, tajovuzkorlik va zo'ravonlikka undaydi. Hozir internet orqali tarqatilayotgan va yil sayin tobora keng, xilma-xil tus olayotgan virtual zo'ravonlikka, shuningdek elektron ommaviy axborot vositalarida tasvirlanayotgan jangari manzaralar, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi g'oyalar yoshlarning ma'naviyatiga ta'sir qilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida internet tarmog'i yoshlar ma'naviyatiga tahdid ham olib keldi. Sababi bugun dunyoda internet axboroti mutlaqo nazoratsiz bo'lib, kim qanday axborot tarqatib, birovg'a zarar yetkazmoqchi bo'lsa, bundan oson ish bo'lmay qoldi. Axborot urushida asosiysi dezinformatsiya ya'ni, haqiqatdan yiroq axborot tarqatish, o'zlariga ma'qul bo'lgan targ'ibot-tashviqot ishlarni amalga oshirish bilan odamlar ongiga ta'sir o'tkazishdir. Axborot tarqatishning bunday tezlashishi odob-axloq, xalqaro huquq me'yorlarining buzilishiga ham sabab bo'lmoqda. Internetda uyushgan jinoiy guruhlar va terrorchi tashkilotlarning saytlari mavjudki ular orqali nafaqat axborot almashinuv yoki yoshlarning turmush tarziga, urf-odatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan yot, buzg'unchi g'oya va masifikular targ'ib qilinmoqda. Internetning har yuzinchи sahifasining pornografik (sharmsizlik, hayosizlik) hamda sadizm (zo'ravonlik) targ'iboti mazmunga ega ekanligi voyaga yetayotgan yosh avlodning tarbiyasiga xulq-odobiga zarar yetkazishi tabiiy. Bu esa o'z navbatida jamoatchilikni tashvishga solib, yoshlarning masifikuraviy xavfsizligini ta'minlash masalasini muhim ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

Yoshlarning kelajakkagi taqdiri va istiqboli haqida o'ylar ekanmiz, internetning mohiyati uning taraqqiyoti, insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazish omillarini, axborot xavfsizligi muammolarini chuqurroq o'rganishni, noholis axborotlarga nisbatan masifikuraviy immunitetni shakllantirishni taqozo etadi. Bu o'rinda yoshlar ma'naviyatiga internetning masifikuraviy ta'sirini kamaytirish uchun quyidagi amaliy takliflarni berish o'rinni:

1. Yoshlarni zararli axborot oqimlaridan himoyalash uchun, ular ongida masifikuraviy immunitetni shakllantirish va voyaga yetmagan yoshlarning internetdan foydalanishini cheklash yoki doimiy ravishda nazorat qilish lozim;

2. Yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va internet tarmog'ida ma'naviy-ma'rifiy, masifikuraviy targ'ibotni kuchaytirish zarur;

3. Yoshlar portallari va boshqa yangi veb resurslarni yaratish;

4. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun sport to'garaklari va foydali mashhg'ulotlarga keng jalb qilish;

5. Yoshlar nazoratini amalga oshirish uchun oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligini yanada keng yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, hozirgi globallashuv jarayonida internet yoshlarning tarbiyasiga, ma'naviy rivojiga katta ta'sir qilib kelmoqda. Mamlakatda yoshlarning unumli mehnat qilishlari, samarali bilim olishlari uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy chora-tadbirlar to'la yaratilgan. Bugungi kunda axborot ham iste'mol qilinadigan maxsulotga aylangan ekan, yoshlar o'zlarida "axborotni iste'mol qilish madaniyatini" tarbiyalashlari lozim. Bu o'rinda yoshlar axborotlarni tanlab, tahlil qilib foydalansalar salbiy, noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydilar.

JAMIYAT, OILA VA SHAXS TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Rahimbayeva Dilbarxon

Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Jamiyatimiz, xalqimiz yildan – yilga islohotlarni bosqichma-bosqich, qadam ba qadam ro'yobga chiqarmoqda. Bugunning odami davlatning, Prezidentning siyosatini chuqr anglagan holda har bir chaqiriqqa bajonidil labbay deb javob berishga tayyor.

Sababi bularning negizida har bir shaxsning hayoti, taqdiri, baxti, kelajagi yotibdi. Va barchani ruhiyatidagi tetiklik, ijodiy ko'tarinkilik, mehnatga munosabat, qelajakka umid-ishonch bu, albatta eng katta boyligimiz – yaratgan bergan qimmatli ne'mat tinchligimiz, jamiyatdagi barqarorlik, ko'p millatli, ko'p dinli xalqlarning tinch-totuvligi, maqsadlar mushtarakligidir.

Oila – mutaxassislar ta'kidlaganidek kichik jamiyat yoki jamiyatning bir bo'g'inidir.

"Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyush-tirishdan iboratdir".⁷

Demak, oila bu shunchaki ikki insonning juftligidan iborat bo'lgan oddiy birlik emas. Sog'lom farzand – sog'lom naslning mevasidir. Xammamiz qadim-qadimlardan boshlab kelin yoki kuyov bo'ladigan xonodonning nasl-nasabi, xalolligi, mahalla ko'y oldidagi hurmati, qarindosh-urug'lar bilan bo'lgan munosabati, qiz yoki yigitning axloqiy tarbiyasiga, ota-onha o'rtasidagi munosabatning qay holatda ekanligiga alohida e'tibor berilgan. Doimo, bo'lg'usi qarindoshlar so'rab -surishtirilgan, kattalar bilan maslahat qilishib so'ngra bir fikrga kelingan. Bu urf-odat o'zining go'zal mazmuni bilangina emas, kelajakdag'i oilaning mustahkam poydevori uchun dastlabki qadamlar bo'lgan. Shularga amal qilgan oilalar barqaror va sog'lom bo'lgan.

Mutaxassislar oiladagi sog'lom muhit, baxtli oila ko'p jihatdan quyidagilar:

1. Sevgi; 2. Samimiylik; 3. Sog'lom turmush tarzi; 4. Ma'suliyat; 5. Farzand tarbiyasiga bog'liq deydilar.

Yuqorida qayd etilgan tushunchalarning har biri o'nlab, ko'plab tahlillarni talab etadi.

Demak, jamiyat kabi oilaning ham ko'pdan – ko'p jumboq, muammolari bo'lib, ularni barchasini yechimini topish ancha mushkul. Lekin beayb Yaratgan deydilar, sabr-toqat, og'ir-vazminlik, kechirimlilik o'zaro tushunish bilan yengib borilsa, oilada sog'lom muhitni yaratish mumkin.

⁷ Falsafa – entsiklopedik lug'at. 2010 yil, 214-bet.

Jamiyatimiz ham baxtli oilalarni, sog'lom ma'naviyatli avlodlarni tarbiyalanishidan manfaatdor. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'zbek modelining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy muhofazaga eng ko'p e'tibor berilmoqda. Prezident I. Karimov o'z ma'rzasida bu masalaga alohida etibor berib jumladan "Joriy yilda oila, birinchi navbatda, yosh oilalarga e'tibor va g'amjo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash" kabi o'ta muhim masalalar diqqatimiz markazida turibdi deya bir necha bor ta'kidlagan.⁸

Oilada shaxs tarbiyasi eng muhim masala bo'lgan, bunda asosiy mas'ul ota-onas, buvi, momo-xola, qo'ni-qo'shnilar birdek javobgarlik hissini sezganlar. Bu juda ham ahamiyatga molik odatlardan biridir. Momolarimiz mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan qizlarga doimo "boshing toshdan bo'lsin bolam", "borgan yeringda toshdek qotib qol" deya qizni kuzatgandan so'ng, og'irroq toshlarni uning orqasidan otgan ekanlar.

Buvijonim, oxiratlari obod bo'lsin, menga ham borgan yeringda suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib bo'lsa ham, sabr qilib, yugurib-yelib xizmatni qil bolam, shundan so'nggina men sendan rozi bo'laman, derdilar. Oilada ayol onalik muhabbatining nima ekanligini farzand dunyoga kelgachgina anglar ekan, bu xalqda sevimli shoira T.Sodiqovaning quyidagi so'zлari katta ma'noga ega. "Onaning muhabbatining oldida ming Layli, ming Zuhro ip esholmagay"; Ona bo'lgan zot sevgan juftidan, shirin jonidan, hatto onaizori, onai betakroridanda devonalarcha kechishi mumkin, ammo bolasidan kecholmaydi, boladan kechib bo'lmaydi.⁹

Farzand ona uchun aziz, qimmatli uning har bir hujayrasi, tomiridan oqayotgan qon ona bilan mangu bog'liqidir. Lekin farzand har qancha aziz, shirin bo'lmasin, uning tarbiyasi oila, jamiyat uchun eng muhim, mas'uliyatli masaladir.

Bu haqda I.Karimov "Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning gavrodir" risolasida "Unib – o'sib kelayotgan yosh avlodimiz ota-bobolarimizning munosib vorislari bo'lib voyaga yetishi, XXI asr talablariga har tomonlama javob beradigan insonlar bo'lib kamol topishi uchun biz bundan buyon ham kuch-g'ayratimizni ayamaymiz. Chunki, takror aytaman, ertangi kun – yoshlar qo'lida. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yanada ko'proq ishonch bildirish lozim. Bu masalaga bироqlama qaramaslik kerak. Davlatimiz jamiyatimizning bu boradagi vazifasi – kelajak avlodni hayotda har bir odam, har bir yosh yigit – qiz duch keladigan murakkab sinovlarga har tomonlama tayyorlashdan iborat",¹⁰ - degan edi.

Oilada sog'lom, samimiyl muhit bo'lsa, bu eng avvalo shu oilaning katta baxtidir.Inson doimo muayyan ijtimoiy munosabatlar negizida shakllanadi, umrining so'ngigacha shu muhitda yashaydi. Shuning uchun ham shu muhit uning uchun aziz, muqaddas, hayotining mazmuni. Bir donishmanddan, Siz baxtni qanday tasavvur etasiz, deganda hursand bo'lib oilamga oshiqishim va sevgan kasb-korimga borishimdir, - degan ekan. Oilada yoshlarga yaxshi xulq, axloq tarbiyasini bera olish uchun tarbiya beruvchining o'zi ham bu ilmdan xabardor bo'lmos'gi zolimdir. Bularga nafsni tiymoq, ilm, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmoq halollik va boshqalar kiradi.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vassalom afandimiz "Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurgan kishilar" degan ekanlar¹¹.

⁸ Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir //Xalq so'zi. 2012 yil 8 dekabr.

⁹ Sodiqova T. Muhabbat nima? – Toshkent, 2008 yil 9-bet.

¹⁰ Karimov. I. Tarixiy xotira va inson omili. – Toshkent, 2012 yil 34-35 betlar.

¹¹ Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, 1992.-16-bet.

Shuning uchun ota-onas, qarindosh-urug'lar, mahalla-ko'y, undagi katta hayot tajribasiga ega bo'lgan insonlar o'zлari namunaviy hayat tarzini yaratishalar va yoshlarga ham bu tajribalaridan namunalar ko'rsatsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Chunki inson tabiatida o'n bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq yaxshidir, degan tushuncha bor.

OILA IJTIMOIYLASHUVNING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA

O.V. Mamatov

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

"Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlanirish, oilalarning, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash uni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqyeini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida¹²" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu fikr O'zbekistonda oila davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Bizning nazarimizda, globallashuv jarayonlari oilaviy munosabatlarga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda, aynan oilaviy munosabatlar ayrim xalqlar, davlatlar, va millatlar xayotini, qolaversa taqdirini jar yoqasiga olib kelib qo'ysi.

Ijtimoiy institutlar (lotincha-ustqurma, muassasa)-bu odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilgan tarixiy turg'un shakllaridir. «Ijtimoiy institutlar» termini har xil ma'noda ishlataladi. Masalan: oila instituti, sog'liqni saqlash instituti, davlat instituti va boshqalar.

Ijtimoiy institutlar vujudga kelishining ob'yektiy shart-sharoitlari mavjud. Institutlar odamlarning u yoki bu talab-ehtiyojlarini qondirishi ijtimoiy va tarixiy shart-sharoitlar asosida vujudga keladi. Oila instituti tarixan inson ijtimoiylashuvining, aniqrog'i podanining jamiyatga aylanishining asosi sifatida yuzaga keladi. Biologik mavjudot sifatida nasl qoldirish va avlodni davom ettirish oilaning shaklan o'zgarishi tufayli ibtidoiy odamning va podanining ijtimoiylashuviga olib keladi. Jamiyat rivojlangan sari oila ham ijtimoiylashtirish vazifasini yanada mukammal tarzda amalga oshira boshlaydi. Ya'ni, oilaning jamiyatdagi mavqye'i tobora o'sib boradi.

Oila tarixi huddi inson xayotiga o'xshaydi. Inson tug'ilish, kuch quvvatga to'lib ulg'ayish, qarish va o'lim bosqichlarini boshidan o'tkazgani kabi oila ham ijtimoiylashuv instituti sifatida tarixan ana shu bosqichlarni bosib o'tgan.

Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida oila unchalik ahamiyat kasb etmagan bo'lsa-da, jamiyatning yuqoriroq bosqichlarida oila jamiyatdagи asosiy ijtimoiylashuv instituti vazifasini o'tay boshlaydi. Oila huquqiy va siyosiy munosabatlarning muhim sub'ektiga aylanadi. Bunday oilalar o'zining ijtimoiy mavqye'i va muhitiga mos tarzda bolaning ijtimoiylashuviga jiddiy e'tibor beradilar. Oila ijtimoiylashuv instituti sifatida farzandlarda ma'naviy- axloqiy, ijtimoiy- siyosiy, huquqiy sifatlarni shakllantira oladigan darajaga yetdi.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risida// Ta'lim muammolari 1/2012. -15-b.

Hozirgi davrda Yevropa, AQSh, Avstraliyada oila o'zining inqiroz pallasiga yetib keldi. Bu yerlarda oilaning buzilgan shakllari (bir jinsli nikoh) vujudga keldiki, oxir oqibatda "oila"ning bu shakllari jamiyat va davlatning inqiroziga (millat inqirozi haqida umuman gapirmasa ham bo'ladi.) olib kelishi muqarrar. Bunday "oilalar" ijtimoiylashuv u yoqda tursin, aksincha hayvoniy xususiyatlarni ham bajara olmay qoladi, ya'ni naslni davom ettira olmaydi. G'arb bugun naslni davom ettirish vazifasini ham fanga yuklamoqchi bo'ladi, ya'ni klonlashtirish orqali jamiyat davomiyligini ta'mnlamoqchi bo'ladi. Aslida klonlashtirish bugungi G'arbning tarixiy ehtiyoji sifatida yuzaga keldi. Lekin bu avlod davomiyligini ta'minlay olmaydi. Oila o'zining ijtimoiylashuv vazifasini bajara olmay qolgandan keyin jamiyat ham o'zining ijtimoiylilik xususiyatlarini yo'qota boradi. Oilaning ijtimoiylashuvi tarixan axloqdan boshlangan bo'lsa uning inqirozi ham axloqning inqirozi bilan yakun topadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, oila jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham ijtimoiylashuvning muhim instituti bo'lib kelgan. Lekin turli bosqichlarda ijtimoiylashuv muhitga mos tarzda amalga oshgan, ya'ni ijtimoiylashuv xususiyatlari jamiyat hususiyatlariga bog'liq tarzdqa amalga oshgan.

Oilada ijtimoiylashuvning amalga oshishi, jamiyat va davlat ijtimoiy talablariga juda ham bog'liqidir, shuning uchun davlat oilaga nisbatan olib borayotgan siyosat oilada ijtimoiylashuv jarayonlari qay tarzda amalga oshishini belgilab beradi. Masalan ibtidoi jamiyat oilasi urug'ni saqlab qolishga yo'naltirilgan, qul oilasi qul avlodlarini yetishtirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu jamiyatdagi ma'naviy muhit quldor oilasi muhiti bilan belgilangan. Jamiyat hayotining yuqoriqoq bosqichlarida oila va nikoh siyosiy mavqe'e ga ko'tariladi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar zanjiri oila va nikoh bilan mustahkamlanadi. Davlat ichidagi oila munosabatlarida ham yuqori tabaqalar o'rtasida quda-andachilik rishtalari muhim ahamiyat kasb etgan.

Jamiyat erkinlashib borgan sari oila ham erkinlashib boradi. Oiladagi ijtimoiylashuv jarayonlari undagi muhitga bog'liq tarzda ijtimoiy muhitga jiddiy tasir o'tkazadi. Agar oiladagi ijtimoiylashuvning salbiy jihatlari tipiklashadigan bo'lsa, jamiyatning ijtimoiy negizlari ham inqirozga yuz tuta boshlaydi.

Bugungi kunda ayrim G'arb davlatlarida erkinlikni niqob qilib, oilaning buzilgan shakllarini, hattoki, qonuniy jihatdan qo'llab quvvatlashlari oilaning va jamiyatning manaviy tanazzulidan dalolat beradi. Bu davlatlarda oila ijtimoiylashuv vazifasidan yiroqlashayotganini, hamda o'zining oilalik mohiyatini yo'qotayotganini anglatadi. Bunday oilalar o'zining ibtidoi vazifasini ham bajara olmaydi. Klonlashtirish esa ana shnday ijtimoiy va manaviy inqirozning natijasi va g'arb jamiyatining ehtiyojidir. Garb olami ijtimoiylashuv instituti sifatida oilani saqlab qolishning bundan boshqa yo'lini hozircha topa olmadи.

Jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirishda elitar oilalar farzandlari tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlash zarur. Chunki, elitar oilalar ijtimoiy talabga mos va tipik jamiyat azolarini yetkazib beradilar. Oiladan tashqari muhitda elitar oilalar farzandlari fe'l-atvori belgilovchi rol o'ynaydi.

Oilaning boshqa ijtimoiylashuv institutlari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash zarur: "Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon- etiqodli farzand nafaqat otanonning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir."¹³

Mavzuni o'zbekiston Prezidenti I. Karimovning quyidagi so'zları bilan yakunlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega: "... oila sog'lom ekan –jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir"¹⁴.

¹³ Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat– yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B. 56.

XX ASRNING 20-YILLARIDA O'ZBEK TEATRI AHVOLI

Baxtiyor Bo'ronov,

Nam DU Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasi o'qituvchisi

Azamat G'aniyev,

Nam DU Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi 206-guruh talabasi

Jadidlarning tashabbusiga ko'ra yangi tipdagi maktab, matbuot va eng muhimmi, yozma dramaturgiya, teatr yuzaga keldi, tomosha binolari qurila boshlandi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat bu harakatning boshida turdilar.

XX asr boshiga kelib og'zaki dramaturgiyaga asoslangan an'anaviy teatrning improvizatsion ijrochilik san'ati, o'ziga xos sahna makoni Turkistonligi rus teatri ta'siriga, raqobatiga chiday olmadi. Shu bilan birga yevropa tipidagi teatr tartib-qoidalarni o'zbek madaniyati muhitiga singdirilishi ham oson bo'lindi. Sahna makonining yopiq makonga joylashtirilishi, shartli "jonli dekoratsiya" dan voz kechilib, hayot illyuziyasini beruvchi maxsus dekoratsiya unsurlarining ishlatalishi, yozma dramaturgiyaga asoslangan adabiy asosning mavjudligi, rejissura va aktyorlik san'atining ma'lum sistemaga solingani bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Spektakl uchun zarur sahna bezaklari, liboslari, jihozlari ko'p hollarda teatr fidoyilarining tadbirkorligi, jonkuyarligiga bog'liq bo'lardi. Har kim o'z imkoniyati doirasida, kimdir uyidan kiyim, kimdir jihoz olib kelib, spektaklni bezagan. Bu o'sha davr uchun xos xususiyat edi. Biror teatr truppassi o'z kostyumlari, grimlari, jihozlariga ega bo'limgan. Zamon nafaqat aktyor yoki rejissyor bo'lishni, balki teatr san'atining turli sohalarida faoliyat ko'rsatishni talab qildi. Xususan, M.Uyg'ur, Ya.Bobojonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zi ko'p hollarda aktyorlarga grim qilishar, parik yasashar, suflyorlik vazifasini bajarardilar. Teatr asarlari o'ynaladigan maxsus sahnalar yetishmas, shu sabab biror bir madrasa, saroy yoki hovli tomoshaxonaga aylantirilar, sahna yasalardi. Bunday sharoitlar bo'limganda, tomoshalar to'g'ridan to'g'ri xalq orasida ko'rsatilgan¹⁴.

Ma'rifatparvarlik ruhidagi dastlabki spektakllarda hayotiy voqeqlikni sahnada aynan ko'rsatish, libos va pardozlarni ham hayotdagiday rasmiy tarzda ishlatalish uslubi qo'llangan. Bayoniylar dekoratsiya uslubi orqali sahnada voqealar taqozosi bilan rasmana choy ichish, ovqat yeyish, suv sepish, chinakam gullarni hidlash, uy, mehmonxona, mayxona, choyxona, mahkama kabi joylarni rasmana qilib qurish odat tusida bo'lganini ko'rish mumkin edi. Ammo jadid teatri biroz tajriba orttirgach, asar konfliktidan kelib chiqib, ziddiyatlari ikki tomonni bir-biriga qarama-qarshi (kontrast) tasvirlashga o'tadi.

Muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan asarlaridan biri ozarbayjon dramaturgi Said Urdubodining "Andalusning so'nggi kunlari" dramasi asosida yaratilgan spektakl bo'lib (1919, 12 avgust va 1920, 26 martda ko'rsatilgan), sahna madaniyatini o'zlashtirishda teatrning jiddiy ijodiy bosqichga ko'tarilganini namoyish qiladi. Spektakl yangi shahar istirohat bog'i (oldingi Gorkiy bog'i, hozirgi Toshkent hokimiyyati hududi) sahnasida o'ynalgan. Spektakl uchun maxsus dekoratsiya ishlangan. Aniqlashimizcha, dekoratsiyalarni ishlagan avstriyalik rassom Maks Axyberg ekan. Rassom butun mahoratini ishga solib, asar mazmun-mohiyatini to'g'ri ochib beruvchi dekoratsiya yaratgan. Uning har bir

¹⁴ Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B. 58.

¹⁵ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - Toshkent: O'zME, 8 tom, 2004. -B. 323-325

ko'rinish, voqealiga o'rni va vaqtiga hamohang dekoratsiyalar ishlashi, ularning tez-tez almashinib turishi, ilk bor teatrda nur-shu'lalarning qo'llanilishi o'z samarasini bergen. "Andalusning so'nggi kunlari" spektaklini yaratishda ko'p qiyinchiliklarga duch kelingan. Sahna anjomlari, ayniqsa, kiyimlarni topish og'ir bo'lgan. Bu narsalarni topish uchun "Kolizey"ning mutasaddisi bo'lgan Sinsadzega murojaat etishga to'g'ri kelgan. Gap shundaki, 1912 yilda Toshkentga kelgan Sudan arablarining tsirk truppassi shu binoda tomosha ko'rsatgan edi¹⁶. Bundan tashqari, 1916 yilning dekabr oyida "Layli va Majnun" musiqali dramasi sahnaga qo'yilgandi. Bu spektakl uchun tikilgan ko'p kiyimlar ham "Kolizey"da saqlanar edi. Bularning hammasi ijara olingan. "Andalusning so'nggi kunlari" spektakli har jihatdan ibratli bo'lgan. Asosiy qahramon Muso obrazining Uyg'ur tomonidan mahorat bilan gavdalantirilishi, puxta ishlangan ommaviy sahnalar (60ga yaqin kishi ishtirok etgan), qolaversa, musiqa, tovushlar, dekoratsiya, libos, chiroq nurlari, jihoz, ashyo kabi omillar - hammasi bir bo'lib spektaklning badiiy jihatdan namunali chiqishini ta'minladi.


20-yillar yozma dramaturgiya va sahna taraqqiyotini kuzatadigan bo'lsak, bu davrda sahnalarda nafaqat dramatik, balki musiqa jo'rligida ijro etiladigan asarlar ham o'rin olganini ko'ramiz.

1924 yilning 20 iyunida O'lka Namuna teatri tomonidan "Kolizey" binosida ko'rsatilgan M.Uyg'ur talqinidagi "Farhod va Shirin" (Xurshid) spektakli namoyish etildi. Spektakl "Kolizey" sahnasida o'ynalgani bois uni bezatish masalasiga alohida diqqat qilingan. Spektaklning afsonaviy-romantik ruhda talqin etilishida aktyorlik san'ati, maqom musiqasi, ariya va duetlar, umumiy raqs hamda dekoratsiya, liboslar, bezaklar, yoritgichlar muhim o'r'in tutgan. 1929 yilda "Farhod va Shirin" musiqali dramasining sahnaviy talqini birmuncha o'zgardi. M.Uyg'ur muallif Xurshid va adabiy emakdosh Cho'lpon bilan hamkorlikda asar ustida ish olib borar ekan, qissaxon ishtirokida doston uslubini tanlaydi. Mazkur talqinda sahna bezagini professional rassom Yu.Ryabchikov bajardi. Dekoratsiyalar, rekvizit, butaforiya, liboslarda hayotiylik o'z aksini topdi. Bayonchilik, sahna voqealarining sodda va aniq aks ettirilishi sahnada ham shunga monand bayoniy, tafsilotlarga boy dekoratsiyani vujudga keltirdi. Rassom bu sahnada qadimiy lola saylini eslatuvchi manzara yaratadi. Birinchi parda I-ko'rinishda xitoy naqshlari bilan bezatilgan hoqon saroyi ko'rinishini, sahna o'rtasida oltin taxtini tasvirlaydi. II-ko'rinishda xitoy hoqoni xazinasining eng so'nggi xonasi ko'rinishi tasvirlangan. Farhodning dunyo ko'zgusiga boqib, Shirin qiyofasini ko'rishi sahnasi juda ta'sirli ko'rsatilgan. Ko'zguga boqishi bilan chiroq o'chib, tog' ufqida go'zal Shirin qiyofasi namoyon bo'ladi. Chiroq yonganda, Farhod behush sahnada yotgani ko'rindi. Spektaklning ikkinchi pardasida Farhodning dengiz safari bayon etiladi. I-ko'rinishda Farhodning bog'da kuylashi, II-ko'rinishda qayiqda halokatga uchrashi, III-ko'rinishda tog'dan suv chiqarishi tasvirlari rassomning mahoratidan dalolat beradi¹⁷.

Ammo 1914-1924 yillar oralig'ida spektakllar uchun maxsus dekoratsiyalar kam ishlangan. Truppada hali tayin ishlaydigan rassomning o'zi ham bo'lмаган. Shu bois ko'rinishlar ko'pincha yig'ma dekoratsiyalar bilan shartli ko'rsatilgan. Dekoratsiyalar asosan omonat qurilib, troupe a'zolari qo'li bilan bir navi yasalgan. Teatrning bisotidagi bir-ikki mayhum orqa parda, dag'al, yog'ochdan pala-partish yasalgan stanok, xontaxta, stol, bir-ikki kursi, artistlarning kundalik hojatiga yarab turadigan tumshug'i uchgan choynak-piyola va boshqa buyumlar deyarli hamma spektakllarda ishlatalaverib,

¹⁶ O'zbekistonning yangi tarixi, 2-kitob. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. - Toshkent: Shavat, 2000. - B.261

¹⁷ Qodirova D.M. Senografiya haqida o'ylar //Teartr. - № 3. - 2003. - 15-17-b.



tomoshabinga yod bo'lib qolgan. Ba'zan dekoratsiyalar rus va tatar teatrlaridan vaqtincha olinib ishlataligan. Spektakllar sahnaviy bezagida maishiy hayot naturalistik tarzda kiritilgan. Ular sodda, ba'zida primitivligi bilan ajralib turgan.

Bu davrda ikki yo'naliш ko'zga tashlangan: biri - tarixiy yoki zamonaviy vogelikni aynan, naturalistik ko'rsatish bo'lsa (bu uslub "sharq kechalari" nomli instsenirovkalarda keng qo'llaniлgan), ikkinchisi - voqealar o'mini, tiplarni shartli belgilashdan iborat bo'lган. Shundan shartlilik birmuncha murakkabroq bo'lib, komediylar bilan dramalarning sahnaviy talqinlarida o'zaro farq qilib turgan. Shuningdek, drama sahnaviy talqinlarida tazod (kontrast) uslubi ham qo'llangan. Tarixiy asarlar talqinlarida, shu jumladan dekoratsiyalarida tarixiy haqiqatga yaqinlashish harakatida bo'lingan. Umuman olganda, deklarativlik, soddalik, xalq hayoti bilan bog'liqlik - respublikaning birinchi truppalari va ularning rassomlari qo'llagan tamoyillardir. Spektaklni bezashda soddalik va yengilik talab qilingan. Teatrda shu davrda ishlagan P.Ryabchikov kabi rassomlar keyinchalik ham sahnada plakat shakllariga sodiq qolishgan. Ko'п yillar Samarqandda ishlagan A.M.Esipov, keyinchalik, 30-yillarda ham sahnada maishiy turmushni aks ettirishga bo'lган intilishini saqlagan.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar yaratgan yevropa shaklidagi yangi o'zbek teatri o'zining ilk qadamlarida hamda oktyabr to'ntarishi tufayli sho'ro hokimiyati o'matilgan dastlabki yillarda (1917-1927) binoda, tomoshabindan ajratilgan sahnada maxsus dekoratsiyalar, libos va jihozlar, chiroqlar yordamida, yozma dramaturgiya negizida muayyan tarixiy va zamonaviy voqealarni aks ettirishga, tomoshabinlarga ma'rifatparvarlik g'oyalarini singdirish orqali ularda milliy ong, milliy g'ururni tarkib toptirishga intildi.

SHAXS TAFAKKURI SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

A.Abdullayev,

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

M.Sodirjonov

Nam DU Ijtimoiy madaniy faoliyat yo'naliши 4-bosqich talabasi

Jamiyatimizda oila qadimdan muqaddas dargoh hisoblanadi. Jamiyat kelajagi va davlat taraqqiyoti mustahkam oilalar borligi bilan ifodalanadi. Chunki, kelajagimiz bo'lган avlod, farzandlarimiz oilalarda tarbiya ko'radi. Jamiyat bir qancha oilalardan tashkil topadi. Oila ham bir maqsadga intilgan insonlardan tashkil topganligi sababli kichik jamiyat hisoblanadi. Shuning uchun ham konstitutsiyamizda oilani jamiyatning kichik yachevkasi deb ta'riflangan. Oilalarda tarbiya chirolyi, axloq qoidalariga mos ravishda berilgan bo'lsa, jamiyat obod va insonlar hayoti farovon bo'ladi.

Shaxs - barcha munosabatlarda aql bilan ishtirok etuvchi barkamol insonga berilgan ta'rif hisoblanadi. Jamiyatdagи ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy va boshqa munosabatlarda fikrini jamlab oqilona qatnashgan inson-kamolga yetgan inson hisoblanadi.

Tafakkur fikrlashdagi to'liqlikdir. Agar oilada tarbiyalangan farzandlarimiz o'z fikrlarini donolik bilan bildira olsa, bajarayotgan ishi fikriga mos bo'lsa, oilada shaxs chirolyi tafakkurli qilib tarbiyalibdi deb ayta olamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida oilada sog'lom bola tarbiya ko'rishi lozimligini e'tiborga olib, 2014 yilni "Sog'lom bola yili" deb nomlashni taklif etdi. Chindan ham bolalar kelajagimiz ularning tafakkuri oilada shakllanadi. Oilada muhit toza va sog'lom fikrga asoslangan bo'lsa, bolalarimiz fikrlash qobiliyati ham sof

donishmandona bo'ladi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tomonidan, -"Biz oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi oljanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi. Azal-azaldan har qaysi ota-onas o'z bolasining sog'lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o'r'in egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz", - degan ta'riflar bilan oilada shaxs tafakkurini chiroyli shakllantirish lozimligini ta'kidlab o'tdilar. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida, Yildan-yilga kuchayib borayotgan amaliy ishlarmizning tabiiy mahsuli va natijasini yurdoshlarimiz, avvalambor, jordan aziz farzandlarimizning turli sohalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlarida ko'rishimiz mumkin. Bu borada ba'zi bir misollarga to'xtaladigan bo'lsak, Toshkent shahrida o'tkazilgan 47-xalqaro Mendeleev olimpiadasida yurtimiz o'quvchilari bиринчи o'rinni egallagani hammamizga mammuniyat yetkazadi. Aql-zakovat musobaqasi bo'lmish shaxmat bo'yicha jahon championi unvoniga erishgan 8 yashar Nodirbek Abdusattorovni olasizmi yoki 5 yashar – e'tibor bering, 5 yashar – jajji o'g'lonimiz Islombek Sindorovning Osiyo championi degan sharaflı normga sazovor bo'lganini olasizmi, qani aytинг, aziz do'stlar, bunday yutuqlar bilan faxrlanmasdan, g'ururlanmasdan bo'ladi?

Mana, yaqinda Polshada o'tkazilgan jahon championatida yana bir mohir sport-chimiz – Ruslan Nurudinov sportning eng murakkab turi bo'lgan og'ir atletika bo'yicha keskin bellashuvlarda g'oliblikni qo'lga kirdi. Xabarингиз bor, bu pahlavon yigit "O'zbekiston iftixori" degan yuksak unvon bilan taqdirlandi¹⁸, deb faxr bilan gapirib o'tishdi. Bu faxrli farzandlarni tarbiyalagan oila, jamiyatning mo'tabar oilalariga aylandi.

Shuningdek, oilada shaxs tafakkurini oqilona tarbiyalashi lozimligi ayni vaqtida bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiysi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Biz tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtirom ifodasi deb bilamiz

Barchamiz yaxshi tushunamizki, sog'lom farzandni tarbiyalashda aholi, ayniqsa, ota-onalarning tibbiy madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom bola tarbiyasida mahalla va ijtimoiy tuzilmalarning katta o'mi va ta'siri borligi haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q. Xalqimizning "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan maqolida albatta chuqur ma'no mujassam.

Bunday vaziyatda "oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash – milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni oshirishda tayanch bo'ladi"¹⁹.

Mahallada ma'naviy ishlarning muhim va dolzarb yo'nalishi – g'oyaviy tarbiyadir. Bu esa Xotin-qizlar, farzandlar ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida maqsadli shakllantirishning ijtimoiy pedagogik jarayoni demakdir. Chunki

¹⁸ Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omiliidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanalari marosimdag'i ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2013 yil 6 dekabr.

¹⁹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.- 66-bet.

mahallada kechadigan maskuraviy ta'lim va tarbiya jarayonlari Xotin-qizlar dunyoqarashini bonyodkor g'oyalar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqni uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bular Xotin-qizlarning g'oyalar va ularning o'ziga xosliklari haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda mahalla – tom ma'noda maskuraviy tarbiyaning ilk asosi, poydevoridir. Shu sababli ham buzg'unchi maskuralar aynan mahallaga, oilaga va u orqali yosh avlodlarga o'z g'oyalarini singdirishga intilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilinsa, ularning g'oyalari islam ta'lomitidan uzoq, demokratik-huquqiy davlatlar konstitutsiyalariga zid, kishilar e'tiqodini demokratik o'lkalardagi, xususan, yurtimizdagi vijdon erkinligini suiste'mol etib, siyosiy hokimiyatga intilishdir. Bunday partiya va oqimlar siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, eng muhimmi xunrezlik sababchilaridir. Ular targ'ibot, ta'lim, tarbiya usullaridan o'z g'araz maqsadlarida foydalanmoqdalar.

Bu o'rinda gap oilada bolalarni yot g'oyalardan himoya qilish uchun yaratilgan sharoit, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lom etib tarbiyalash haqida bormoqda. Qaysi oilada muhit sog'lom bo'lmasa, o'sha yerda axloqi buzuq, noqobil fuqarolar paydo bo'lishi xavfi orta boradi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

Har bir jamiyat mana shu so'nggi turdag'i oila tarqalishiga qarshi kurashadi. Bunday oila buzilishi qancha karnaysa, u o'sha jamiyatning axloqiy jihatdan takomillashib borayotganini anglatadi. «**Muxtasar aytganda**, hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqarordir»²⁰.

MILLIY MA'NAVİYATIMIZ YUKSALISH YO'LIDA

Tillayev Bobomurod

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

Isoqov Ziyodbek

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Taraqqiyotning o'zbek modeli rivojlanish tamoyillarini to'g'ri tanlab olishda asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda demokratik taraqqiyot yo'llini tanlashda respublikaning o'ziga xos xususiyatlari, xalq an'analari va milliy urf-odatlari, turmush tarzining hisobga olingani o'z yo'limizni topa olishimizga asos bo'ldi. O'tgan yigirma ikki yil davomida mustaqillik biz uchun eng ulug', eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, ornomasimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli, ezgu orzu-intilishlarimiz, yutuq va marralarimizning hayotbaxsh manbai sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin egalladi.

Davlatiniz rahbarining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» kitobida ta'riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imyon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch - ma'naviyatga eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratildi.

²⁰ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -58-bet.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganish, u haqda xolisona fikr bildirish borasida katta imkoniyatlar yaratdi. Osori-atiqalarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni to'laqonli yoritish imkoniyati tug'ildi. Jahon madaniyatiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlash mustaqillik tufayli izchil an'anaga aylandi.

Mustaqillik tufayli istiqlolning dastlabki yillardanoq ajdodlar merosini o'rganish, xususan jadidchilik namoyondalari Munavvar qori, Ubaydulla Xo'jaev, M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Cho'Ipon, Ishqoxon Ibrat, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tariddi. Ajdodlar merosini o'rganishning ma'naviy va huquqiy asoslari ishlab chiqildi va hayotga tabbiq etila boshlandi. Ulug' ajdodlarimiz tavalludlarini o'tkazish bo'yicha ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy tajribalar vujudga keldi. Istiqlol yillarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Madaniyat, san'at, maorif, matbuot, sport sohalarida ulug' ajdodimizga bag'ishlab, turli yo'nalishdagi kitob, maqola, risolalar chop etildi, turli film va spektakllar namoyish etildi. Yuzlab muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari ommaviy muassasalar sifatida vatandoshlarimizga ma'naviy-ma'rifiy xizmat ko'rsata boshladi.

Respublika «Ma'naviyat va ma'rifikat markazi» tashkil etildi (1994) va uning viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi bo'limlari ishga tushirildi. Markazga Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat kengashi rahbarlik qila boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdag'i «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qaroriga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat kengashi faoliyati va tarkibiy tuzilishi qayta ko'rib chiqildi. Respublikamizdag'i mahalla oqsoqollari va fuqarolar yig'lnlari raislarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchilari tizimi shakllantirildi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlan-tirish va samaradorligini oshirish borasida yana qator ijobjiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlari bilan bevosita shug'ullanadigan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida 2143 dan ortiq klub muassasalari, 87 dan ortiq muzey, jumladan 18 ta tarixiy, 25 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 16 ta memorial va 18 ta boshqa yo'nalishdagi muzeylar va 60 dan ortiq madaniyat va istirohat bog'lari hamda 37 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Madaniyat va ma'rifikat maskanlari jamiyatda o'ziga xos o'r'in tutadi, ayniqsa, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni aholi o'rtasida tushuntirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda OAV, xususan televideonie madaniyatni ommalashtirishning asosiy vositasи va manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik tufayli musiqa, madaniyat, amaliy va tasviriy san'at kabi yo'nalishlar rivojiga katta e'tibor berildi. O'zbekiston mashhur musiqa va teatr festivallariga, ijrochilar tanlovleri va ko'rgazmalarga ham mezonlik qilmoqda. Xususan, yil sayin ishtirokchilar soni ko'payib borayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali butun jahon madaniy jamoatchiligi o'rtasida keng shuhrat qozonmoqda.

O'zbekiston rabbariyati aholining ko'pmillatliliginini hisobga olib, mustaqillikning ilk yillardidan boshlab millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Erishilgan yutuqlardan faxrlanish bugungi kunda fuqarolarimizda kelajak uchun mas'uliyat bilan birga Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini ham shakllantir-moqda.

O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY YUKSALISHI VA MUZEYLAR TARAQQIYOTI

B.B.Ibrohimov

NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

Mustaqillik tufayli respublikanizda muzeylarga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Xususan keyingi 10 yil ichida Davlat qaramog'idagi muzeylar soni 140 tani tashkil etdi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, o'lkashunoslik muzeylari 23 ta, Badiiy San'at Koshonalar 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat. Ayni paytda bularda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlар mavjud.

Inson tinimsiz go'zallikka intiladi, go'zallikni ijod qilmasdan, undan ma'naviyruhiy zavq olmasdan va shu orqali o'z turmushini bezatmasdan yashay olmaydi.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham juda qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o'zida aks ettiruvchi amaliy san'at asarlarini yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo'lgan xalq amaliy san'at asarları ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo'lib o'tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga ayanlib boraveradi.

Jamiyatni ma'naviy, axloqiy kamolga yetkazishga keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muzeylarning katta ahamiyat kasb etishini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'tta maxsus o'quv yurtlari, Madaniyat va sport ishlari va Xalq ta'limi Vazirligining 2002 yil iyun oyida qabul qilingan Respublika Oliy va o'rta- maxsus, kasb-xunar va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchi va yoshlari o'rtasida ma'naviy ma'rifiy ishlarni kuchaytirish to'g'risidagi qo'shimcha buyruqlari va shu asosda viloyat hokimligining qaror, tadbir-rejalari va ko'rsatmalari muzeylar va o'quv yurtlari o'rtasidagi mustahkam aloqa o'matish, hamda madaniy ma'rifiy ishlarni hamkorlikda olib borishga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

1996 yil 18 oktyabrdagi Toshkentda ochilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifiy va ma'naviy ishlarni borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik, ilmiy tafakkur markazi bo'lib qoldi. Muzey eksponatlari juda katta tarixiy qimmatga ega bo'lib, Temuriylar davri ruhini beradi. Muzeyga qo'yilgan tilla buyumlar, qurol-aslahalar, lashkarboshi va oddiy jangchilarining kiyim - boshlari, musiqa asboblari, o'sha davrga xos jihozlar, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa madaniy boyliklar shular jumlasidandir.

Shu yili 1 sentyabrda Toshkentda Osiyoda noyob va yagona bo'lgan Olimpiya shonshuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey-o'zbekistonlik sportchilarning turli jahon musobaqalarida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini, medallarini faqat namoyish etadigan joygina bo'lib qolmay, balki mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi ham bo'lib qoldi. Respublikada yana ko'plab boshqa muzeylar tashkil topdi.

Chunonchi, 1992 yil may oyida Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi ochildi. 1992 yil sentyabrda Xorazm viloyatining Xonqa tumanida milliy mumtoz musiqa va kuylarning mashhur ijrochisi, Xorazm hofizlar maktabining asoschisi Xojixon Boltaboev nomidagi o'ziga xos noyob maqomchilar muzeyi tashkil etildi. Urganchda shu oyda esa qadimgi Xorazm Amaliy san'ati va tarixi muzeyi ochildi. Bu muzey ekspozitsiyalarini uch mingga yakin turli eksponatlari tarixiy hujjatlar, qadimgi xorazmliklar foydalangan uy-joy anjomlari, tikuvchilik va gilam mabsulotlari, idish - tovoqlar, mehnat qurollari tashkil etadi.²¹

²¹ Qosimov Y. Qadimgi Farg'ona sirlari.-Namangan, 1992.-B.-29.

1992 yil noyabr oyida Buxoroda O'zbekistonda birinchi marta temirchilik muzeyi ochildi. 1992 yil dekabrda Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining Uy-muzeyi birinchi mehmonlarni qabul qildi. 1993 yil 3 sentyabrda Toshkentda o'zbek ayollari ichidan chiqqan birinchi huquqshunos olma akademik Xadicha Sulaymonova muzeyi ochildi. 1993 yil 1 sentyabrda Toshkent Davlat texnika universiteti qoshida O'zbekistonda birinchi bo'lib Politexnika muzeyi ochildi. 10 sentyabrda Toshkentda o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboeva muzeyi, 21 sentyabrda esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat Qahramoni, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi Jaboy Balimavnovning hayoti va mehnat faoliyati haqida ma'lumot beruvchi muzey faoliyat boshladи. Shu yil noyabr oyida Toshkentda ochilgan O'zbekiston Xalq ta'limi tarixi muzeyi o'z muxlislarini kutib oldi.

1994 yil may oyida Toshkent shahrida Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti muzeyi, oktyabrdan O'zbekiston xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov va uning o'g'li Akbar Rahimovlarning ko'rgazmali muzeyi ochildi. Toshkentda 1996 yil mayida O'zbekiston gidrometeorologiya xizmati muzeyi ishga tushdi. Shu yilning 30 noyabrida Toshkentda ochilgan Qimmatbaho qog'ozlar bozori tarixi muzeyiga tashrif buyurgan tomoshabinlar birinchi marta turli davrlarga sayohat qilish sharafiga tuyassar bo'ldilar.

1997 yil oktyabr oyida Buxoroda mashhur buxorolik zarb qiluvchi usta Salim Hamidov muzeyi ochildi.

MUSTAQILLIK SHAROITIDA SOG'LOM VA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI

*S.Yo'ldoshev, I.Toshpo'latov,
Farg'ona Davlat universiteti*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida" 1998 yil 10 noyabrdagi farmonini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 may «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport turlarini rivojlantirish markazini tashkil qilish bo'yicha, har bir tumanda qishloq sport-sog'lomlashtirish klublari tashkil etish, ularning faoliyatiga sportning ommaviy, milliy turlarini va xalq o'yinlarini keng joriy qilish to'g'risidagi vazifalar yuklatilgan edi²².

Joriy yilning 6 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Mazkur qaror mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'nnaviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olgan holda qabul qilingan.

2014 yilning "Sog'lom bola yili" deb nomlanishi hamda davlat dasturining qabul qilinishi ma'nnaviy, jismoniy jihatdan sog'lom avlod tarbiyasiga e'tiborning bevosita davomidir. Mana shu vazifalarni amalga oshirishda xalq o'yinlari alohida o'rinn tutadi. Dunyoda an'anaviy o'yin shakllanmagan birorta ham xalq yo'q. Chunki oilada farzand

²² Ishonch.-1999.-29 may.

dunyoga kelishi bilanoq, ma'lum vaqtan so'ng o'zini o'rab olgan tashqi olamni turli turman o'yinlar, o'yinchoqlar vositasida anglay boshlaydi. O'yin inson hayotining deyarli barcha bosqichlarida o'ziga xos tarzda ifoda etiladigan ixtiyoriy faoliyat turlaridan biri bo'lib, tarbiyaviy-axloqiy, ijtimoiy - estetik funktsiyani bajaradi.

Milliy ma'naviyatimizning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi jihatlardan biri hisoblanigan xalq o'yinlari xalqimiz maishiy turmushining ajralmas qismiga aylanib ketgan. O'yinlar ajdodlarimizning ijtimoiy-ma'naviy va estetik e'tiyoylari asosida yuzaga kelgan. Chunki har bir o'yin shunchaki bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazish vositasi emas, balki yosh avlodni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashning samarali usulardan biridir. Ajdodlarimiz o'z farzandlarini umumbashariy tuyg'ular, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida xalq o'yinlarining yuksak ma'naviy qudratidan samarali foydalananib kelishgan. O'yinlar ham xalq ommasining ijodiy salohiyati natijasida yuzaga kelganligi, asrdan-asrga an'ana tarzida yashab kelayotganligi, turli-turman variantlarda ommalashganligi, izchil tizim sifatida shakllangan harakat va ohang uzvlarida tarkib topganligiga ko'ra, mohiyatan xalqning ijodiyotining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham an'anaviy xalq o'yinlarining kelib chiqishi tarixi, yosh avlod tarbiyasidagi ijtimoiy-estetik ahamiyatini tadqiq etish bugungi tarixchilar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov tapkidlaganidek, "Oldimizda mustaqil- buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turgan bir paytda bu ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortadi. Nega deganda, har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayat barpo etish, avvalo shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bog'liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda xalqimiz farzandlarimiz iqbolini o'ylab, qattiq bel bog'lab mehnat qiladigan mas'uliyatlari bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran ma'no kasb etadi."²³ Sog'lom va ma'nан barkamol avlod tarbiyasi umum davlat ahamiyatiga molik ish deb qaralayotgan bugungi kunda xalq o'yinlarining kelib chiqishi, rivojlanish tarixini tadqiq etish shuni ko'rsatadi, o'yinlarning milliy qadriyatlar tizimini shakllantirishdagagi ijtimoiy estetik o'mi va vazifalarining ichida millatlararo totuvlikka, tinchlikni saqlashdagagi ahamiyati, imkoniyatlari cheksizligini ko'rsatadi.

Xalqimizning ruhiy kechinmalari, moddiy va ma'naviy turmushi, milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi an'anaviy o'yinlar uch ming yillik tarix davomida sayqallanib kelgan ma'naviy qadriyatlarni avaylab-asrash borasidagi umumxalq harakatining tarkibiy qismidir. Xalqimizning ommaviy sayl-tomoshalari, marosimlari ham o'yinlarsiz o'tmaydi. Shu bois an'anaviy xalq o'yinlarini o'rganish xalq ruhiyati va madaniy hayatining o'ziga xos jihatlarini anglashga imkon beradi.

Mustaqillik sharofati bilan unutilayozgan tarixiy, ijtimoiy, diniy qadriyatlarimiz kundalik hayatimizdan mustahkam o'rinni olmoqda, yangi siyosiy va ijtimoiy qadriyatlar tizimi shakllanmoqda.

Ayrim ommaviy xalq o'yinlari O'zbekistonning turli hududlarida yashovchi millatdoshlarimiz, qo'shni qirg'iz, qozoq, tojik xalqiga ham birdek xos bo'lib, o'yin tartibidagi farqlarga qaramasdan uning mazmun va mohiyatida deyarli farq sezilmaydi. O'yinlarni tadqiq qilish turli millatlar o'rtasidagi nafaqat hududiy, balki ma'naviy yaqinlik mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'yinlar millatning sahovati, mehmono'stligi, saxiyligi va bag'rikengligini belgilovchi omil bo'lib kelgan. Uni tadqiq qilish va qayta tiklash ana shu ezgu fazilatlarning

²³ Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -Toshkent: O'zbekiston, 1994.-B.127-128.

qayta tiklanishi va mustahkamlanishiga xizmat qilishi tabiiy.

“Men shuni aytishim kerakki, bizga zarba bo’lib tushgan eng og’ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma’naviy tanglikdir. Asrlar davomida qaror topgan axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni g’oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko’ra ancha mashaqqatli bo’ladi”²⁴. Xalq o’yinlarini targ’ib qilish va rivojlantirish nafaqat mintaqadagi xalqlarning o’zaro aloqalarini rivojlanishiga ijobji ta’sir qilibgina qolmay, undan sog’lom va barkamol avlodni, Mustaqil O’zbekiston fuqarolarining ijobji sifatlarini shakllantirishda ham foydalanish mumkin.

MILLIY QADRIYATLAR TIZIMIDA KURASH

Yo’ldoshev S.V.

Farg’ona Davlat Universiteti

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo’ldiki, biz bosib o’tgan yo’llarimizni tanqidiy baholab milliy davlatchiligidimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o’tmishdagi boy an’analaramizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog’imiz kerak”²⁵.

Boy an’analaramizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etishning ijobjiy natijasi sifatida, sportning milliy inofondini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni muvoffaqiyatli hal etish, millatning g’ururi iftixonini ko’tarish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va boshqa talay sohalardagi ahamiyati benihoya kattadir. O’zbek milliy kurashini jahoning ko’pgina mamlakatlarida tan olinayotgan ommaviy sport o’yinlari darajasida e’tirof etilishi o’zbek millatining jahon hamjamiyatidagi o’ziga xos o’rnini e’tirof etilishi bilan barobar. Shu o’rinda 2002 yil 24 oktyabrida O’zbekiston respublikasi Prezidentining “O’zbekiston bolalar sportining rivojlantirish jag’armasini tashkil etish to’g’risida”gi farmonini amalga oshirilishi ham yuqorida fikrlarimizning amaliy javobidir.

Barcha xalq urf-odatlari, an’analari va marosimlari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo’lib, u moddiy turmush sharoitining ta’siri natijasida paydo bo’lgan. Vaqt o’tgan sari ular tobora mustahkamlanib, ajododdalaridan avlodlarga meros bo’lib o’tib kelgan. Ana shunday juda qadimiy an’analaramizdan biri to’y marosimlari va u bilan bog’liq urf-odatlarmizdir.

Shu o’rinda aytish joizki, H.Ismoilov o’zining “O’zbek to’ylari” nomli risolasida ta’kidlaganidek “O’zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon to’y-tantanalariga va serzavq, quvnoq, ko’ngilochar o’yin-kulgiga o’ch xalqdir”²⁶. Xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini o’zida aks ettirgan to’y va unda tashkil etiladigan kurash ham asrlar osha ajododdalaridan avlodlarga asosan o’zgarmasdan o’tib kelmoqda.

Chunki xalq ruhi, millat qiyofasi uning uzoq tarixiy o’tmishi davomida yaratilgan yozma va og’zaki adabiyoti hamda o’yinlarida ifodalananadi.

Kurash-qadimiy xalq o’yinlaridan biri-bo’lib, u juda katta hududga tarqalgan, jumladan milliy kurashimiz vatanlardan biri Farg’ona vodiysida ham o’ziga xos an’ana, urf-odat bilan rivojlanib kelgan. Bu o’yin turi xalqimiz orasida ikki xil rasm bilan Farg’onacha va Buxorocha kurash deb atalib kelingan.

Kurashning har ikki turi bo’yicha, qayerda, qanday o’tkazilishidan qat’iy nazar, uning barcha qoidalariga tartib va shartlariga rioya qilishlik barcha polvonlar uchun mushtarak udum hisoblangan. Markaziy Osiyo, xususan O’zbekiston Respublikasi

²⁴ Karimov I. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O’zbekiston, 2011. – B.263.

²⁵ Karimov I.A. Vatan sajdahog kabi muqaddas.-Toshkent: O’zbekiston, 1995.- B.176.

²⁶ Ismoilov H.O’zbek to’ylari.-Toshkent: O’zbekiston, 1992.-B.186.

hududida o'tkazib kelingan to'y tomoshalarning rang-barangligi, ularning azaliy ekanligi va tashkil etiladigan kurashda qatnashadigan polvonlarni sofdil, ochiq ko'ngil, mardlik kabi xususiyatlari tomoshabinlar ko'z o'ngida aks etishi bilan katta hurmatga sazovor bo'lgan. Shuning uchun to'y sayllarda ana shunday kishilarni siylash hamda ularga hurmat belgisi sifatida xalq orasida "Polvon oshi" deb yuritish odati shakllangan.

Respublikamizning voha hududlarida "Bosh tovoq" atamasi Farg'ona vodiysida "Polvon oshi" nomi bilan atalib u asosan, xatna to'yalarida tashkil etiladi. "Polvon oshi" odati Farg'ona viloyatining Farg'ona, Rishton, Quva, Yozyovon kabi tumanlarining qishloqlarida hozirga qadar yaxshi saqlanib kelinmoqda.

Farg'ona tuman Shohimardon qishlog'ida istiqomat qiluvchi Yusuf ota Otajonovdan shaxsan o'zim ishtirokimda yozib olingen ma'lumotimizga ko'ra "Polvon oshi" tashkil etish quyidagichka amalga oshiriladi; to'y-sayllarda, mehmonlarga atab tayyorlanayotgan osh (palov) damlanishidan oldin jarchi tomonidan "kurash bellashuviga" deb e'lon qilinadi. Bu jarayonga qadar, maxsus tekis maydonga poxol yoki somon tashlanib, ustiga kiygiz yoki sholcha to'shaladi. Tomoshabinlar esa doira shaklna turib tarafkashlik asosida tomosha qiladilar. Kurash musoboqasida ishtirok etuvchi polvon urf odat tamoyiliga ko'ra ayrim irim va qoidalarga qat'iy amal qilganlar masalan, polvon hech qachon biror kishini oldida yechinim-kiyinishi mumkin bo'lмаган. Chunki, polvon badanini ko'rsatmaslikka harakat qilganligini sababi yomon nazar badaniga hech qachon tushmasligi kerak deb hisoblagan shuning uchun qadimdan polvonlar oq yaktak kiyib so'ngra ustidan to'n kiyganlar. Belbog'ni hech qachon yechish yoki kiyishda oyog'idan beliga qarab kiyishmagan (polvon belbog'i doimo xalqa sifatida tugilgan holda saqlangan) agar yechish yoki kiyinish jarayonida oyoq tomondan kiyilsa polvonlik hurmati oyoq osti qilingan deb hisoblangan.

Shu bilan birga polvon maydonga chiqishdan oldin keksalardan, ustozlardan o'z tomoshabinlaridan duolar olib maydonga, albatta ishi o'ngidan kelishi uchun o'ng oyog'i bilan qadam qo'yib "Yo Ali" qo'llasin deb kirib kelganlar. O'ttacha yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, polvonlar navbat bilan taklif etiladi. Polvonlar asosan Farg'onacha belbog'li kurash asosida bellashadilar. O'yinni tajribali, keksa polvonlar tomonidan boshqarib boriladi. Kurash musobaqasi o'z tartib qoidasiga asosan uning muqaddimasida ramziy ma'noda ikki sobiq keksa polvonlarni bellashuvi bilan boshlanadi. So'ngra eng kichik polvonlar maydonga tushiriladi dastlab yoshlik xususiyatlariga so'ng gavdasiga qarab kurashchilar davraga taklif etilgan. Kurashning kulminatsion nuqtasida eng kuchli dongdor polvonlar bellashishgan. G'olib polvonlarga to'y egasining sovrinidan tashqari, tomoshabinlar ham o'z sovrinlarini berishi mumkin. "Polvon oshi" ning o'ziga yarasha taomili bo'lib, bunga ko'ra tayyor bo'lgan palov dastlab polvonga atalib (bos tovoq deb yuritiladi) tovoqqa solinadi va g'olib polvonga tutqaziladi. G'olib polvon tovoqni ko'tarib olgach, butun to'y davrasini aylanib chiqadi. U har bir tomoshabin mehmonlarga polvon oshidan ulashib chiqadi. Polvon oshidan tomoshabinlar bir oshamdan tanovvul qilib, keksalar o'zlarining farzandlari, nabiralarni, yoshlar esa, g'olib polvonga o'xshab mard, pahlavon, doimo g'olib bo'lishligini niyat qilib, o'z sovg'alarini (pul yoki buyum) taqdim etadilar.

Biz yuqorida bellashuv yosh xususiyatlariga ko'ra bosqichli o'tkaziladi degan edik. Har bir bosqichli g'olib polvonga, sovrin bilan birga, "polvon oshi" tortiq qilinadi. Respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo kabi viloyatlarida "Polvon tovoq" deb atalib "Polvon tovoqdagi" oshni ko'tarib chiqqan polvon boshqa talabgorlar bormiyo'qmi degan ishorani bildirgan, ya'ni maydonga chaqiruv belgisi hisoblanadi. Qadimiy odatlarimizga ko'ra, polvonlar doimo e'zozlanib xalq orasida katta hurmatga ega bo'lib

kelganlar. Shu o'rinda aytish joizki xalqimizda mashhur va g'olib polvonlarga xavas qilgan holda farzandlari nabiralariga polvon ismini qo'yish o'sha polvondan duo olish hamda og'ziga tuflash (nafasini olish) kabi urf odatlar yaxshi saqlanib qolgan.

Hozirga qadar saqlanib kelinayotgan bu urf-odatlarimiz yoshlarni mard, jasur, jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashdan tashqari, vatanparvarlik ruhida tarbiya maktabini bajaradi. Chunki kurash bellashuvining o'tkazilish tartibi g'olib polvonlarni e'zozlash, ularni halol, jismoniy baquvvatligi yoshlarda xavas va o'rak olish hissini uyg'otishiga hech qanday shubha yo'q.

Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlarimiz milliylik qobig'idan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanib, xalqlarni birlashtirishga xizmat qiluvchi ko'priklarni vujudga keltirmoqda.

OILADA SHAXS AXLOQIY TARBIYASI MASALALARI

D.Abdugahhorov, I.Parpiyev, O.Abduhalilov,

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huuq q'a'limi yo'naliishi talabalari

Oilada ota-onal bolalarga Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona-yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, g'oyaviy tarbiyaning mazmun-mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi ahamyati, istiqlol yillarda yurtimizda qadriyatlarimizni tiklash va ma'naviyatimizni yuksaltirish bo'yicha olib borilayotgan ulkan ishlar hamda, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida tushunchalar berib borish lozim.

Odatdagidek, ota-onalar bilan bola o'rtasida yaqindan munosabatlар tiklanishi, ya'ni bola tomonidan berilgan savollarga yoshiga mos ravishda javoblar berishi bolaning g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamyatga ega bo'lgan o'zgarishlar sodir bo'lib, bularning hammasi irodaviy ruhiy kechinma muhitida namoyon bo'ladi. Bolada asta-sekin tevarak atrofni kuzatish, umumi qiziqish va do'stlashish hamda muloqot qilishga intilish, o'zini dadil tutish, fikrlari va xatti-harakatlarini boshqarish, chidash, qunt-matonat, tirishqoqlik, qat'iyatlik va boshqa xislatlar mustahkamlana boshlaydi.

Bolani jamiyatda qabul qilingan qonunlarga, axloqiy normalarga riosa qilishga o'rgatish oiladan boshlanadi. Ijtimoiy muhitdagi o'zgaruvchanlik doimo faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda insonning xulqida o'z aksini topadi, chunki bolaning tashqi va ichki faolligi uyg'unlashib, atrof muhit bilan o'zaro harakati ifodalanadi.

Bolaning axloqiy rivojlanishi uchun ota-onal uni doimo nazoratga olishi, uning talab va istaklariga mos ravishda javob berishi hamda doimiy e'tiborni qaratishi lozim. Bu bilan ota-onal bog'chaga boradigan farzandining moslashuvchanlik (adaptatsiya) yanada takomillashtirgan bo'ladi.

Shuningdek, pedagogik tajribadan ma'lumki, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy musiqa, qo'shiqlar muhim o'rinni egallaydi. Chunki, barchaga ayonki, musiqa tarbiya manbaidir. Masalan: alla o'zbek xalqining qadimiyl, muhim tarbiyaviy xarakteriga ega bo'lgan qo'shiq turlaridan biridir. Ona allasidan bahramand bo'lmagan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat xissi bo'lishi qiyin. Alla aytmagan alla eshitmagan qiz bola bo'limasa kerak. Alla tinglab katta bo'lgan boladan ota-onaga o'zgacha muhabbat, hurmat hissi shakllanadi. Keksalarning aytishicha, san'at insonlarni yovuzlikdan saqlab qolar ekan. Shuningdek, otabobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarni bilish, bevosita ularda ishtirot etish va aynan shu urf-odatlarni o'tkazish tartibini bilish oilada farzandlarni axloqiy tarbiyasi shakllanishida muhim ahamyat kasb etadi. Oilada

o'ziga xos qadriyatlarning yo'qolishi, oila va jamiyat hayotini belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning mavjud emasligidan dalolat beradi. Agar oilada mehnatsevarlik, do'stlik, o'zaro yordam, vatanparvarlik kabi xususiyatlar aks etmasa, keyinchalik uning o'rnnini ta'magirlilik, yulg'ichlik, pul, boylikka xirs qo'yish, xudbinlik kabi illatlar egallaydi. Binobarin, oila va jamiyatda shior qilingan maqsadlar bilan mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish o'rtasida nomutanosiblik namoyon bo'lsa, ayni bir vaqtida "Ikki xil axloq"ni o'zida mujassam etgan bola shaxsi shakllangan bo'ladi.

Olida ota-onaning onglilik darajasi, axloqi bola shaxsining ijtimoiy muhitda o'z xulq-atvorini boshqara olishiga hamda axloq va huqqoq normalarini buzgan kishilarga nisbatan munosabatini bildira olishga turtki bo'ladi. Bunday malaka va ko'nikmalarni farzandlar qalbida tarkib toptirish vazifasi avvalo oilaga va ota-onaga yuklatiladi. Oilada ota-onalar farzandlariga mehmonnavozlik malakalarini o'rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o'zini qanday tutish, ovqatlanish, odobini o'rgatishlari juda muhimdirki, bu, birinchidan, bolaning salomatligini ta'minlasa, ikkinchidan, me'yorga qarab ovqatlanishni o'rgatadi, uchinchidan, badnafslikdan qaytaradi, to'rtinchidan, tejamkorlikga o'rgatadi.

Xulosa o'rniда aytish mumkinki, insonga xos bo'lган iymон, insof, diyonat, vijdon, or-nomus kabi barcha axloqiy xislatlар oiladan shakllantiriladi, buning uchun farzandga ilk tarbiyani singdiradigan ota-ona hamda oilaning nuroni yotaxoni, mo'tabar onaxonlarning o'zлari axloqiy bilimlarga ega bo'lishlari lozim va shart. Ushbu jarayonlarning samarali tashkil etilganligi bolada bog'chada, muktabda, o'rtा- maxsus va oily ta'lim muassasalarida ijobji natijalarini beradi.

JAMIYATNING BOSHLANG'ICH ASOSI

Iqboljon Orziyev

*Nam DU Tarix yo'nalishi 401-guruh talabasi
T.Q.Qozoqov ilmiy rahbar, tarix fanlari nomzodi*

Fuqarolik jamiyatini barpo etish O'zbekiston tanlab olgan yo'lining asosiy maqsadi bo'lib, barcha islohatlar, barcha chora-tadbirlar, jamiyat tizimlari shunga yo'naltirilgan. Mamlakatda bozor munosabatlari sharoitida o'z-o'zini boshqarish keng yo'Iga qo'yildi. Bunda odamlarga erkinlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratib berildiki, odamlar o'z hayotlarini erkin ravishda o'zлari bunyod etishga kirishdilar. O'zлari istagan mehnat fa'oliyati bilan shug'ullanmoqdalar. Iqtisodiy sohami, siyosiy yoki ma'naviy sohadami, har bir inson o'z qobiliyati, o'z iqtidoriga yarasha fa'oliyat bilan band.

Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatining o'ziga xos xususiyatidir. Huquqiy madaniyat qabol qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning ijro etilishi bilan belgilanadi.

Huquqiy-demokratik davlat sifatida taraqqiy etayotgan O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishning keng yo'llari joriy etilgan. Jumladan, xalq boshqaruvining ijtimoiy instituti sifatida sinovdan o'tgan maxallalar mavqeiga alohida o'rн berilgan. O'trnishda mahalla odamlar hayotida turli ezu g'oyalarni tarqatish, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, insoniylik, mehr-muhabbatni targ'ib etish vositasи sifatida amal qilib kelgan. Shu boisdan hozirgi kunda ham mahalla oqsoqollari va fa'ollari zimmasiga xalq hayoti bilan chuqurroq shug'ullanish imkoniyatlari yaratilgan.

Qadim vaqtlardan buyon Sharqda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kuch mahalla bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, bu

ezgu an'analar mamlakatda qayta tikelan boshladi. Mahalla haqiqatdan ham ijtimoiy instituti bo'lib, bu yerda odamlarning o'zaro yaqin munosabatlari qoror topadi.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish o'rganlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'laming kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

"Mahalla arabcha so'zdan kelib chiqib, u "Mahalun", "shahar ichidagi shahar" ma'nosini anglatadi. Mahallada fuqarolar yashaydilar mehnat qiladi o'r'in joy almashadi. Mahalla juda katta tarixga ega bo'lib, uning ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Tarixchi olim Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqining boshqaruv uslubi ekanligini yozgan edi. Eramizdan avvalgi III asrdan milodiy V asr boshlarigacha faoliyat ko'rsatgan qadimgi Farg'ona (Parkana) davlatida undagi barcha ahamyatli masalalarni oqsoqollar kengashi hal qilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy – hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning "Hayratul – abror" (yahshi kishilarning hayratlanishi) asarida quydagi band uchraydi: Sharlar otini mahallot etib, Bo'ldi chu yuz shahar Hiriy ot etib". Mahallaning "shahar ichidagi shaharcha" degan mazmuni yuqoridaq tasvirdan ko'rniib turibdiki, o'rtalarda Hiriy deb atalgan Xirot shahri yuzta kichik "shaharcha" – mahallalardan tashkil topgan ekan.

O'zbekistonda mahallalar mustaqillik davriga kelibgina, o'zini o'zi boshqarish organiga aylanadi. O'zbekiston konstitutsiyasida mahallaning maqomi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish o'rgani sifatida mustahkamlanadi. Mamlakatda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'lnari o'zini o'zi boshqarish o'rganlari huqsuqiy maqomini oldilar.

Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yoga chiqarish maktabidir.

Huquqiy-demokratik davlat sifatida tarraqqiy etayotgan O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishning keng yo'llari joriy etilgan. Jumladan, xalq boshqaruvining ijtimoiy instituti sifatida sinovdan o'tgan maxallalar mavqeiga alohida o'r'in berilgan. O'tmishta mahalla odamlar hayotida turli ezgu g'oyalarni tarqatish, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, insoniylik, mehr-muhabbatni targ'ib etish vositasi sifatida amal qilib kelgan. Shu boisdan hozirgi kunda ham mahalla oqsoqollari va fa'ollari zimmasiga xalq hayoti bilan chuqurroq shug'ullanish imkoniyatlari yaratilgan.

PIFAGOR HIKMATLARI

Boyzoqova Umida,

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning qaysi sohasiga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar yuksak ma'naviy munosabatlarni o'z ichiga qamrab olgan. Globallashuv sharoitida turli xil tashqi tahdidlarning barchasida ma'naviy va axloqiy buzg'unchilik ustuvorlik qiladi. "Demokratiya eksporti" yoki "Ommaviy madaniyat", "Vijdon erkinligi"- deysizmi bularning hammasida ma'naviy buzg'unchilik, jamiyatni va davlatni izdan chiqarish maqsadlari yotishini kuzatamiz. Shuning uchun ham hozirgi davrda jamiyat xayotida ma'naviyat va axloq masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo'lib goldi.

Hattoki, qonunlarimiz ham chuur ma'naviy ozuqa bilan sug'orilganligi axloq va qonunning egizakligidan dalolat beradi. Axloqiylikka asoslanmagan qonunning asosi bo'sh, jamiyatning kelajagi esa haloqatdir.

Qadimgi yunon falsafasining yirik namoyondasi bo'lgan Pifagorning bundan 2500 yil avval yaratgan hikmatlari hozirgi kunda ham jamiyatimiz xayotida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega bo'lishga harakat qiling, zero axloq qonunning asosidir."²⁷

Pifagor axloq va huquqning umumiy jihatlarini chuur, anglab yetgan va bularning har ikkisi inson va jamiyatning hatti-harakat, faoliyat me'yorlari ekanligini ta'kidlagan.

«Ezgu axloqqa ega bo'ling». Axloq- ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishi demakdir. Ezgu axloqqa ega bo'lgan shaxs doimo o'zgalarga nisbatan manaviy munosabatda bo'ladi. Zero, axloq insof va adolat tuyg'usi, shu narsalar har bir insonda mavjud ekan hech qachon jamiyatdaadolatsizlik bo'lmaydi, faqatgina oldinga siljish bo'ladi.

Inson faoliyatining adolatga yaqin yoki uzoqligi uning aqliga, xulqiga, yashagan jamiyatiga bog'liq. Buyuk mutafakkirlarimizdan biri Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ezgu axloqqa ega bo'lgan shaxs o'zida qanday fazilatlarni mujassam etmog'i kerakligini aytib o'tgan. Axloqli inson birinchi navbatda mukammal taraqqiy etgan, sog'lom bo'lishi, fahm-farosatlari, so'zlovchining maqsadini tez anglay olish qobiliyati, zehni tez va o'tkir, nutqi ravon, bilish va o'rganishga ishtiyoqi baland, nafsiyi tiya oladigan qimor o'yinlardan jirkanadigan, xaqiqatni sevadigan, g'ururli, vijdonli, adolatli kabi xislatlarni o'zida jam qila oladi. Jamiyatning taraqqiyoti moddiy va manaviy madaniyatning rivojlanishi undagi insonlarning aqli va xulqi hamda ijtimoiy muxitning tasiriga bogliqdir. Yurtboshimiz axloq masalasiga "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarlarida alohida to'xtalib o'tganlar. Prezidentimiz "axloq ma'naviyatning o'zagi" deb bexuda aytmagانلار. Ma'naviyat botiniy qudrat sifatida o'z-o'zicha ko'zga ko'rinxmaydi u insonning madaniyatida, axloqida ilmiy- ijodiy, ijtimoiy yoki mehnat faoliyati sifatida ko'zga tashlanishi mumkin. Aslida axloqning asosida shaxs ma'naviyati yotadi. Har bir insonning xulqi o'ziga xos bo'ladi. Uning xulqiy xislatlari ma'naviyat nuri bilan yoritisla axloqiy fazilatlariga aylanadi. Insonning botiniy ma'naviy kamolot qay darajada ekanligi uning axloqiy darajasini ham belgilab beradi.

"Tartib sening muqaddas maqsading bo'lsin. Sen bu maqsad yo'lida astoydil xizmat qil. Chunki tartib hamma narsaning majmuasidir. Tabiatning mavjudligi asosida ham tartib yotadi."²⁸

Darxaqiqat, xayotiy faoliyati davomida tartib doimo insonning hamroxi bo'lmog'i darkor. Negaki, inson oldiga maqsad qo'yib shu maqsadlarini tartib asosida amalga oshirmsas ekan bu maqsadga erishib bulmaydi.

Pifagor tartib deganda, fikrimizcha, axloqiy me'yolar va qonunni nazarda tutadi. Tabiiy qonunlar, huquq va axloqiy me'yorlarga amal qiladigan inson mukammallikka erishadi.

Butun insoniyat yashab turgan tabiat ham tartib asosida tashkil topgan. Fasllarning tartib bilan almashinuvli ham insonlar xayotda tartibga asoslanib yashashlariga har bir maksadni shu asosda amalga oshirishlariga misol bo'la oladi. Insonning oddiy kuni ham tartib asosida o'tadi: ertalab turishi, ovqatlanishi, ishga borishi va ho kazolar. Insonning har kuni tartibsiz ham o'taveradi ammo, o'tgan kunidan, yashayotgan xayotidan ma'no

²⁷ Haqiqat manzaralari - Toshkent: Yangi asr avlod, 2007-B. 25.

²⁸ Haqiqat manzaralari - Toshkent: Yangi asr avlod, 2007-B. 25.

bo'lmaydi. Malum maqsadga erishish uchun avvalo inson har bir ishini reja asosida tartib bilan amalga oshirsa, shundagina, tartib uning xayot tarziga aylanadi.

“O'tgan kun haqidagi: “Men uni qanday o'tkazdim, nimalar qildim-u, nimalarga ulgira olmadim?”—degan savollarga javob topilmaguncha ko'zlarining uyquga ketmasin”²⁹.

QADIMIY MA'NAVİYATIMIZ IZLARI

Dedaxanov Ulug'bek

NamDU Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.n. O.Topildiyev

Yurtimizdag'i bizga ma'lum ilk shakllangan yaxlit ma'naviyat tizimi “Avesto” kitobida o'z aksini topgan. Bu kitob mustaqillik sharofati bilan hozirgi o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinib nashr etildi. «Avesto» kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik madaniy merozi o'z aksini topgan. Ammo uning yaxlit tizimga uyushuvi, bizgacha yetib kelgan asos mohiyati Zardo'sht nomi bilan bog'liq. Zardo'sht «goh»lari necha ming yillar davomida uni tabarruk tutgan insonlar tomonidan ilohiy vahiy, deb tan olib kelindi.

Bugun bu haqda aniq bir narsa deyish imkondan tashqari. Qur'oni karimda Zardo'sht payg'ambar sifatida, «Avesto» yoki uning uzviy bir qismi ilohiy kitob sifatida esga olinmagan. Ammo shuni ham alohida qayd etish lozimki, ilohiy kitobda Zardo'sht yolg'on payg'ambarlar sifatida fosh etilgan emas, «Avesto» haqida ham maxsus raddiya bildirilmagan Ushbu e'tiqodning asl kelib chiqishi, uning payg'ambari va «Avesto» kitobi haqida turlicha fikrlar mavjud. Kitobning asli nomi «Apastak» bo'lib, parfiyoncha «matn», yoki boshqa talqinlarga ko'ra «tayin etilgan», «muqarrar qilingan» «o'rnatilgan» ma'nolarini bildiradi. Bu kitob payg'ambar Zardo'sht («Avesto»da Zaratushtra) nomi bilan bog'lanadi. Qadim yunon tarixchisi Plutark Zardo'shtra Troya urushidan 6 ming yil ilgari tug'ilgan deb ta'kidlaydi. Agar Troya urushi milodiy eradan 1200 yil ilgari yuz bergenini nazarda tutsak, Zardo'sht yashagan davr bugungi kundan 9 ming yil oldin bo'lib chiqadi. Aristotel Zardo'sht vafotini Platon (mil. avv. 428-348 y.) vafotidan 6 ming yil ilgari bo'lgan deb ko'rsatadi. Germodor va Germini Zoroastr (yunoncha talaffuz) Troya urushidan 5 ming yil ilgari yashagan, deb hisoblaydilar.

Zardo'shiylik dini va uning tarixini jiddiy o'rgangan olim Meri Boys bu dinning shakllanish davrini milodiy eradan ilgarigi XIV-XII asrlarga taalluqli deb topadi. Qator olimlar Zardo'sht payg'ambarlik e'lon qilgan davomi milodiy eradan oldingi VII asrga oid deyidilar.

Ma'lumki eramizdan oldingi 7-asrning oxiri 6-asrning boshlarida Movoraunnaxr va Xuroson xalqlari yashagan hududlarda ko'hna sivilizatsiyaning ilk kurtaklari paydo bo'lib, insoniyat hayot kechirishi, taraqqiy qilishi va rivojlanishining asosiy omili sifatida o'zi tomonidan o'rganilgan, mustahkamlangan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni keyingi avlodga yetkazish uchun ta'lim va tarbiyaning yetakchi bo'g'in sifatida zarurligini tushunib yetgan. Qo'hna sarchashmalar va «Avesto»dagi dalillar shuni ko'rsatadiki, «ta'lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo'ladigan barcha bilimlar o'qitilgan, hunarlar o'rgatilgan.

«Avesto» dagi axloqiy-ma'naviy tarbiyaning asosini pok niyat, halol, qalban sof, ma'nani yetuk avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi tashkil qiladi. Bu musalani amalga oshirish esa ustoz va murabbiylar zimmasiga yuklatilgan.

Zardo'shiylikning haqiqiy vatani haqida «Avesto» kitobining o'z ma'lumotlariga nuyanish, bizningcha, eng maqbul yo'ldir. «Avesto»ning bugungacha saqlanib qolgan

²⁹ Haqiqiy manzaralari- Toshkent: Yangi asr avlod, 2007-B. 25.

qismalaridan biri «Vendidad» ning bиринчи bobida Axura Mazda yaratgan o'lkalardan sanaladi:

1)Ariyana Vaeja 2)Gava, 3)Mouru (Marg'av) 4)Baxdi 5)Nisaya 6)Xaroyiva
7)Vekerta 8)Urva 9)Xnenta 10)Xaraxvaiti 11)Xetumant 12)Raga 13) Chaxra 14)Varna
15)Xapta Hindav 26)Upa Aodshu Rangxaya.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida bular tahminan hozirgi quyidagi o'lkalarga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi: 1)Xorazm yoki Amu va Sir oralig'i 2)Sug'diyona 3)Marg'iyona 4)Baqtriya(Balx) 5)Nisa (Parfiya poytaxti- hozirgi Turkmanistonning janubi g'arbida) 6)Hirot 7)Kobul 8)Tus(hozirgi Eronning Xuroson viloyati) 9) Go'rgon (Astrobod) 10)Horut 11)Gilmand(hozirgi Afg'oniston shimoli) 12)Rey (Tehron) 13)Chehra(Xurosonda) 14)Varna(Kaspiy dengizi janubi) 15)Hind daryosi bo'yları 16)Rangha daryosi kelib chiquvchi joy. Albatta, ba'zi joy nomlari hanuz bahsli. Ammo «Avesto» kitobida sanab o'tilgan yerlar butun Movarounnahr va Xuroson (jumladan, hozirgi Eron va Afg'onistonning shimoliy o'lklari)ni qamrab olganligi ko'rinish turibdi. «Avesto»da Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Doytiya) ham ta'rif etiladi. Demak, dastlabki davrlardanoq Zardo'shtiylik yoki aniqrog'i, «Mazdayasna» e'tiqodi, eroni va turoni xalqlar qadimdan aralashib yashagan yaxlit bir mintaqani qamrab olgan va shu hududda tarqalgandir.

«Avesto» tili o'sha davrlardayoq juda qadimiylar til hisoblanar va Eron imperiyasining rasmiy tili bo'lmish qadim fors tilidan ham farq qilar edi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarda milliy qadriyatlarimiz tiklanishi va unda ilgari surilgan ezgu g'oyalarga berilayotgan e'tibor samarsi o'laroq unda ilgari surilgan ezgu g'oyalari bilan bemalol tanishish imkoniyati paydo bo'ldi.

MANAVIY TAHIDLAR

Boyzoqova Umida

Ma'naviyatning o'zi nima? Ma'naviyat bu-botiniy qudratdir. Insonni ongi va ruhiyat bilan chambarchas bog'lovchi kuchdir.

«Ma'naviyat – insonni ruxan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvat, imon etiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»³⁰.

Ma'naviyat botiniy kuch ekan manaviy tahdid bu-o'zligimizga ichki dunyo ongimizga o'tkazilayotgan tahdiddir. Ammo bu jarayonlar ko'pchilik ongida globallashuv tariqasida tasavvur uyg'otmoqda. Albatta globallashuvning ham ijobjiy tomonlari ham bor, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqeа yuz bermasin odamzod bu xaqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi xech kimga sir emas. Xar bir ijtimoyi hodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bulgani singari globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda yevropa davlatlaridan kirib kelayotgan ommaviy madaniyat ham yoshlар ongida salbiy fikrlarni, yurish turish jarayonlarini uyg'otmoqda. Oddiy misol qilib kecha o'tgan kunni oladigan bo'lsak, 14-fevral «Valentin avliyo ota» bayrami bu bayram o'z nomidan aytib turibdiki, Yevropa davlatlariga xos bo'lgan bayram lekin bugun yoshlardan 14-fevral qanday kun deb so'raskak aksariyat yoshlар «Sevishganlar», «Valentin» kuni deya javob bermoqda. Aslini olganda bu bayram uzbek xalki uchun umuman yod bulgan bayram. Asli 14-fevral yurtdoshimiz bobomiz Muhammad Boburning tavallud kunidir.

³⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat.-2010. B. 19.

Hozirgi kungi statistik malumotlarga ko'ra Yangi yilda sotiladigan otkritkalardan keyingi o'rinda turadigan «Den valentin» otkritkalarini ekan. Bu degani har yili 10000dan ko'p otkritkalar shu kunda sotiladi. Globallashuv jarayoning yana bir o'ziga xos jihatni shundan iboratki, hozirgi paytda u mafkuraviy tasir o'tkazishning niroyatda o'tkir quroliga aylanib bormoqda. Mafkuraviy tazyiqni, uning tasirini va oqibatlarini anglab yetish qiyin. Shuning uchun ham yurtboshimiz «bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlardan ham ko'proq kuchga ega»³¹ deganlar.

Darxakikat, manaviy tahdid okibatlarini xarbiy urish jarayonlaridan ham kuchliroq deyish mumkin. Chunki, har qanday siyosiy xarbiy kuchlarni oldini olsa yoki uni bataraf qilsa bo'ladi. Ammo mafkuraviy tasir oqibatlarini inson ko'zi bilan ko'rmaydi, ko'rgan taqdirda ham uni insonlarni xatti harakatlarda ko'rishi mumkin, lekin bunda kech buladi. Nega deganda, insonni ongini «zaharlab» bo'lгandan so'ng u insonda ma'naviyat ildizlarini tiklash qiyin.

Bugungi kunda o'zida moda deya talqin qilayotgan yoshlarning kiyinish madaniyatiga etibor beradigan bo'lsak, bu kiyinishlar bizning madaniyatimizga mos kelmaydigan holatlardir. Bundan tashqari yoshlarning muomala madaniyatiga etibor bersak, o'zlarida umuman o'zbek millatiga mos kelmaydigan madaniyat namoyon bo'ladi. Ularda boshqa insonlarga nisbatan qo'pollik, so'zlashuv nutqida jargon so'zlardan ko'p foydalanishi deyarli 50% yoshlarda uchraydi bu esa o'zbek meltaletiga to'g'ri kelmaydi.

Men xulosada shuni aytmoqchimanki, manaviy tahdidlarni oldini olish va bu narsani insonlar ongida umuman rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun bolani yoshlikdan qalbida ma'naviyatni uyg'otgan xolda tarbiyalash kerak.

«Yoshlarimizning manaviy olamida bo'shilik vujudga kelmasligi uchun ularning kalbi va ongida sog'lom xayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakillantirishimiz zarur»³².

MA'NAVİYATLI YOSHLAR YURT ISHONCHI!

Biz tayanchimiz va suyanchimiz shu g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga farzandalarimizga ishonch bilan hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat ehtirom ifodasi deb bilamiz.

I. A. Karimov

*Gavharoy Mo'minxo'jayeva
Nam Du Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi 2 bosqich 206-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: M.Tojahmedova

Farzandlarimizni bardam 'baquvvat bo'lishi bilan birga sharqona axloq odob doirasida tarbiya ko'rgan bo'lishi lozim. Sog` tanda sog'lom aql deb ta'kidlanganidek, har bir yigit-qiz ham ma'naviy jihatdan qolaversa jismoniy jihatdan yetuk bo'lishi darkor

O'zbek xalqi o'ziga bek bo'lishining zamirida oilani bir Vatan deb atalishini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham farzandlarimiz o'zlarini bilan birga ota-onalari, oila a'zolari, qarindosh urug'lari, boshqa yaqin qarindoshlari, jamiyat el-yurt va Vatan uchun yashaydi.

³¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat.-2010. B. 113

³² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat.-2008- B.115.

Bizning millatga el-elatga yolg'izlik butunlay yot. Kengashli to'y tarqamas deganlaridek, biz har qanday masalada kengashib, kelishib birlashib birgalashib ko'pchiliklning kuchiga va aqliga tayanib yashashga o'rganganmiz.

Prezidentimiz rahnamoligida istiqolimizning ilk yillaridan boshlab Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu borada amaliyotga yo'naltirilgan ko'plab qonun hujjatlari, dasturlar keng ko'lamli harakatlar mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yurtboshimiz tomonidan 2014 yilning "Sog'lom bola yili" deb e'on qilinishi yurtimizdag'i olib borilayotgan ulkan ishlarning mantiqiy davomi ekanligining yorqin dalilidir.

Har bir ota-onha o'z farzandini sog'lom va barkamol bo'lib o'sib ulg'ayishi uchun jon kuydirar ekan, avvalo o'g'li yoki qizi o'ziga o'xshagan sog'lom, mexnatsevar, odobli, aql-idrokli, ilm-ma'rifatli, milliy-diniy qadriyatlarning qadriga yetadigan avlod-ajdodiga munosib inson sifatida kamolga yetishini xohlaydi.

Yosh bolalar oila muhitida nimani ko'rishsa shundan ibrat olishadi. Ma'naviy Sog'lom bola tarbiyalashni niyat qilgan oila avvalo uyda qulay muhit yaratadi. Er-xotinlik janjali, qaynonaning mashmashasi, aka-uka mushtlashuvi yoki opa-singil tortishuvi, bobo-momoga nisbatan hurmatsizlik oiladagi bolalar tarbiyasini buzadi.

Hozir teatrda televideniya ko'rsatuvlarida er-xotin janjali yoki qaynona kelin mashmashasi bosh mavzu bo'lib qoldi.

Farzandlarimizni go'dakligidan milliy- ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda tarbiyalaganimiz ma'qul. Oilalarda 7-10-15 yashar qizlarni uy ishlariga uquvli, qariyalarni hurmat qiladigan oilani qadriga yetadigan bolajonli ruhda tarbiyalash an'anasi davom etib kelmoqda.

Bunday olıyanob fazilatlar haqida gap borganda bir narsani yodda tutamiz: ya'ni farzandimiz xorijda o'qiyotganligi yoki imkoniyati ko'p tillarni bilishi, ko'plab davlatlarda bo'lib, u yerlardagi taraqqiyot va erkinliklar darajasini ko'rishidan qat'iy nazar o'z Vataniga, xalqiga sadoqatidan judo bo'lib qolmasligi lozim.

Agar farzandlarimizni yoshligidan, ya'ni maktabdalik chog'idan boshlab vatanparvarlik ruhida tarbiyalasak bunday mehr uning yuragida muxrlanib qoladi. Mehrsizlik, yuzsizlik, munofiqlik bizning millatimizga yod illat. Farzanlarimizni bu illatlardan saqlashimiz, asrashimiz kerak. Chunki, mehr-oqibat, odamiylik yo'q joyda axillik, totuvlik bo'lmaydi. Misol uchun aka-uka, opa-singillar o'rtasida mehr-oqibat bo'lmasa jabrini ota-onha tortadi.

Shuning uchun bolalarni yoshligidan avvalo bir-biriga va boshqalarga nisbatan mehrli qilib tarbiyalash zarur. Shuningdek qorindosh urug'lar, tanish bilishlar, hamkasblar qo'ni qo'shnilar xatto begonalar o'rtasida xam mehr-oqibat bo'lishi zarur.

Yoshlar uchun odob salomdan boshlanadi. Biroq kattalar farzandi nevara-chevarasi tengilari salom berishmasa ham xafa bo'lishmaydi. Ko'chadagi avtabuslarga munkillab qolgan qariyalar chiqishadi. O'smir yoshidagi ayrim yigitchalar va qizlar esa joy berish o'rniga latifa aytib o'tiraverishadi.

Kattalarga hurmatli va kichiklarga izzatni bilmaydiganlarni ko'rganda beixтиyor xayolingizdan qanday oilada tarbiyalangan ekan degan fikr o'tadi.

Bu yil ma'naviy Sog'lom bola tarbiyalash borasidagi hayotiy tajribamiz ustida jiddiy bosh qotirib borishimiz zarur. O'z millatimizga yanada katta mas'uliyat va e'tibor bilan yondashishimiz zarur.

VORISLIK TARAQQIYOTNING MUHIM VA ZARUR SHARTI SIFATIDA

O.V.Mamatov,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi*

Vorislik muammosi taraqqiyot nazariyasida muhim va zaruriy masalalardan biri bo'lib u taraqqiyotni tahlil etishda katta ahamiyatga ega. Faylasuflar u yoki bu muammoni: tabiat, jamiyat yoki tafakkurning biror bir hodisasini hal etishda vorislik tushunchasini ishlatalarni yoki yo'qmi, bundan qat'iy nazar vorislik muammosini tavsiflovchi tushunchalardan o'zlarini bilgan yoki bilmagan holda foydalanadilar. Bugungi turfa olamning, ya'nii turli xil sifat holatiga ega bo'lgan o'simliklar va hayvonot olamining, turli xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga ega bo'lgan xalqlarning, turli xil g'oyaviy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy sababi vorislik qonuniyatidir.

Dialektik inkor va vorislik tushunchalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Aloqadorlik momenti, taraqqiyotning momenti, ijobiyni saqlab qolish xususiyatlari bilan bu tushunchalar bir nuqtada kesishadi. Dialektik inkor tushunchasi vorislik tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u yuqorida xususiyatlar bilan birgalikla yangilikka moslasha olmaydigan tomonlarni uloqtirib tashlash momentini ham o'z ichiga oladi. Dialektik inkor va vorislik mana shu nuqtada farq qiladi. Vorislik tushunchasi eskida saqlab qolning elementning rivojlanish tendensiyasini ifodalab, uning yanada takomillashgan, mukammalroq shaklda takrorlanishini ifodalaydi. Shuning uchun ham vorislik tushunchasi inkorni inkor qonunining mohiyatini ifodalaydi. Dialektik inkor va vorislik tushunchalari bir birini to'ldirib turadi. Albatta, inkor tushunchasini vorisliksiz, vorislikni inkorsiz dialektik tarzda ifodalash mumkin emas. Lekin bu tushunchalarni ishlatalishda taraqqiyotning alohida tomonlariga urg'u berilgan. Vorislik tushunchasida bu urg'u o'tmishga, eskiga bo'lgan munosabatni kuchaytiradi va bu munosabat dialektik darajaga ko'tariladi.

Vorislik tushunchasini jamiyat sohasiga tadbiq qilish insoniyatni ko'r-ko'rona zaruriyat olamidan, erkinlik olamiga olib chiqadi. «Vorislik jamiyatning ijtimoiy o'zgarishi, vaqtlar o'rtasidagi aloqadorlik, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni avloddan-avlodga uzatishdagi uzuksizlikni ifodalovchi falsafiy kategoriyaadir»¹. Chunki bu tushuncha biz o'tmishga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak, nimalarni qanday tarzda olishimiz kerak, qay tarzda rivojlantirishimiz kerak, degan masalalarni hal qilib beradi va taraqqiyot qonunlarining mohiyatini anglab olgan holda faoliyat ko'rsatishimizni belgilab beradi. Shuning uchun ham vorislik tushunchasida birinchi masala nimani uloqtirib tashlash kerak, degan masala emas, balki nimani, qay tarzda olib qolish kerak, degan masaladir. Dialektika uchun o'z-o'zidan harakat xarakterli bo'lgani kabi, dialektik inkorga ham o'z-o'zini inkor xosdir. Buning ma'nosini shuki, hodisalar o'z bag'rida vujudga keladi, o'z bag'rida rivojlanadi. Predmet, hodisalar o'zini yuqoriyoq bosqichda, takomillashgan formada vujudga keltingani uchun taraqqiyot qo'sh inkor orqali amalga oshadi. Lekin har qanday ketma-ket bo'lgan inkor ham dialektikani ifodalayvermaydi. Masalan, bug'doyni yanchib va uni iste'mol qilish hyech qanday dialektikani ifodalayvermaydi. Bu yerda o'zini o'zi inkor etish jarayoni yo'q va u dialektikaga xos emas. Agar biz biror bir o'simlik naviga ta'sir etar ekanmiz, undan yangi navni olishimiz mumkin. Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, vorislik kategoriyasining mohiyatini faqat inkorni inkor qonunidan izlamoq kerak. Lekin bundan dialektika qonunlari va kategoriyalari o'rtasida aloqadorlik yo'q, degan xulosa kelib chiqmaydi, aksincha, har bir qonun taraqqiyotni ma'lum nuqtai nazardan ifodalab bergani tufayli, ular

¹ Тухтаев Х. Преемственность в культурном наследии и её социальное значение //Общественные науки в Узбекистане.-1997.-С.77.

o'rtasida uzviy bog'liqlik bor. Masalan, professor A. A. Abdurah-monov inkor tushunchasini ziddiyat tushunchasi bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalab beradi: «Inkorni to'g'ri tushunmasdan turib, ichki ziddiyatlarning rivoj-lanishini, buyumlarning harakatlanishini bir holatdan boshqa holatga o'tishini tushunish mumkin emas. Inkor ziddiyatlarning harakati va hal etilishidir»². Yana shuni ta'kidlash kerakki, ziddiyatlarning hal etilishi predmet hodisalar rivojida vorislik orqali amalga oshishi bilan birlgilikda, bu yerda «me'yor»ning buzilishi, ya'nii miqdoriy chegara buzilib, yangi sifat holatining sodir bo'lishiga olib keladi. Bu bog'liqlik shuni ifodalaydiki, dialektika qonunlari bir predmetning, hodisaning o'z-o'zida, o'z-o'zidan rivojlanishida sodir bo'ladi.

Taraqqiyotni uzluklilik va uzlusizlikning birligi sifatida ifodaflash uchun bir qonunning o'zi kifoya qilmaydi. Bu birlikni miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va inkorni inkor qonunlari birlgilikda ifodalab beradi. Taraqqiyotning uzlukliliği nisbiy, uzlusizligi esa absolyutdir.

Vorislik kategoriyasini faqat inkorni inkor qonuni bilan bog'lashi o'rinnlidir. Lekin vorislik faqatgina progressiv harakatning momenti sifatida ifodalanishi noo'rinn-dir. Chunki taraqqiyot jarayonida yangida eskining shunday xususiyatlari saqlanib qolishi mumkinki, u salbiy natijalarni keltirib chiqaradi. Yangi va eski o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risida gapirganda vaqt (zamon)ni ham e'tiborga olish kerak. Eski o'tmishni ifodalasa, yangi hozirni ifodalaydi. «Dialektik inkor tushunchasining mazmunida zamonnning o'ziga xos xususiyati ifodalanadiki, u yangi vujudga kelishining real tarixini tashkil qiladi»³.

Yangi va eski o'rtasidagi vorislik munosabati sifat jihatidan turli holatdagagi predmet, hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Taraqqiyotda vorislik shu tariqa ifodalanadiki, predmet hodisalar inkor jarayonida istalgan yangi predmet, hodisa emas, balki o'z-o'zining inkori bo'lgan yangi predmet hodisaga aylanadi, ya'nii o'zini-o'zi takomillashgan shaklda tiklaydi. Bu fikrni isbotlash uchun istalgan sohadan misol keltirishimiz mumkin. Masalan, hyech bo'lmaganda, Charlz Darvinnning evolyusion nazariyasini e'tiborga olsak, unda vorislikning ajoyib namunalarini ko'rishimiz mumkin. Biologik turlarning vujudga kelishida yangi tur o'zidan oldingi turni inkor etadi, lekin o'zida eski turdag'i juda ko'plab xususiyatlarni saqlab qoladi. Vorislik nafaqat tabiatda, balki jamiyat va bilish taraqqiyotida ham amal qiluvchi qonuniyatdir.

Vorislik qonuniyat sifatida umumiy xususiyatga ega, lekin bu umumiylig har bir jarayonda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgani uchun har bir sohani konkret nuqtai nazardan tahlil qilmoq kerak. Tabiatning o'zidayoq vorislikning turli xil shakllarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, materiya taraqqiyotining turli darajalariga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak, anorganik va organik dunyodagi vorislik bir-biridan farq qiladi. Organik dunyodagi vorislikning o'zini esa bir necha turlarga shartli ravishda bo'lib chiqish mumkin. Chunki organizmlar, o'simliklar, hayvonlar va ho kazolardan iborat. Bizning tadqiqot ob'ektimiz vorislikning materiya taraqqiyotining turli darajalarda namoyon bo'lishi bo'lmagani uchun ular xususida batafsil to'xtalib o'tmaymiz. Maqsad vorislik konkret shakllarda namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tish xolos. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy taraqqiyotdag'i va tabiat taraqqiyotidagi vorislik bir-biridan tubdan farq qiladi. Hozirgi tabiat, shu bilan birlgilikda, uning bir qismi bo'lgan jamiyat millionlab yillar davomida dunyoning vorislik asosida rivojlanishining natijasidir. Jamiyat tabiatning bir qismi bo'lsa-da, u tabiatning quyi shakllaridan sifat jihatidan farq qiladi. Bu farqning sababi ham aynan vorislik momentidir. «Vorislik nafaqat borliqning

² Абдурахманов А. Диалектика преемственности в развитии духовной культуры.-Ташкент: 1990.- С.13.

³ Стрельченко В.Н. О диалектике преемственности в процессах отрицания химического биологическим //Современный дарвинизм и диалектика познания жизни.- Ленинград,1985-С. 183-184.

biologik shakli uchun katta ahamiyatga ega, shuni eslatib o'tish kifoyaki, ichki vorisliksiz umuman taraqqiyot yo'q, balki bir-biriga o'rin bo'shatib boruvchi o'zgarishlarning oddiy yig'indisi qoladi, xolos»⁴. Anorganik olamdan organik olamning vujudga kelganligining o'ziyoq vorislikning naqadar katta a ham iyatga ega ekanligini va uning ob'ektivligini isbotlab beradi. Vorislik odamlar o'ylab chiqqargan narsa emas. Ular hali vorislik to'g'risida tushunchaga ega bo'lmaslaridan millionlab va hattoki milliardlab yillar ilgari ham tabiat vorislik asosida rivojlanib kelgan. Barcha sohalarning, ya'ni tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanishi vorislikning umumiyligini, barcha zamонларда takrorlanib turishi uning barqarorligini ifodalaydi. Bu xususiyatlар uning boshqa xususiyatlари bilan birga qonuniyat ekanligini isbotlaydi. Jamiyat vorislik asosida tabiatdan ajralib chiqqan bo'lsa-da, tabiatdagи vorislikdan tarixiy (ijtimoiy) vorislik sifat jihatdan farq qiladi. Tabiatda ko'r-ko'rona kuchlar harakat qiladi, jamiyatda esa, ongli kishilar faoliyat ko'rsatadilar. Lekin jamiyat ham, tabiat ham hyech nimadan paydo bo'lmagani tufayli har ikkovisi ham o'z o'tmishiga va kelajagiga ega bo'ladi. Hozirni va kelajakni qay tarzda rivojlanishi vorislikning xarakterini belgilab beradi. Jamiyat hayotini qaytadan qurar ekan, u o'tmishdan meros bo'lib qolgan barcha narsalardan voz kecha olmaydi, avvalam bor, u ishlab chiqarish vositalaridan foydalananadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ishlab chiqarish vositalaridan voz kechmadi. Balki uning asosida iqtisodiy munosabatlarni jadal su'ratlar bilan o'zgartirib bordi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, vorislik umumiylik xarakteriga ega bo'lsada, u konkret shakllarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. «O'tish davrining birinchi bosqichi isloq qilish jarayonining qiyinchiliklarini, ayni vaqtida, tabiiy iqtisodiy munosabatlarni tiklashga yondoshishlar bir xil andozada va odatiy emasligini ko'rsatadi»⁵. Taraqqiyot va vorislik g'oyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Vorislik muammosini hal etishda aynan ana shu bog'liqlik principial masala bo'lishi kerak. Buni Chaloyan juda to'g'ri e'tirof etgan. «Taraqqiyot faqat vorislik asosida amalga oshadi, vorislik muammosini esa, taraqqiyotning o'ziga xosligini hisobga olmasdan tasavvur qilish mumkin emas.»⁶ Respublika Prezidenti, hukumat olib borayotgan siyosat, jamiyatda amalga oshirilayotgan har bir islohotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jamiyatimizning aynan shu o'ziga xosligini hisobga olgan holda ish olib boryotganligining guvohi bo'lamiz.

MILLIY DEMOKRATIK TARAQQIYOTGA O'TISH-OB'EKTIV IJTIMOIY ZARURIYAT

B.A.Talapov,

Nam DU, Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi mudiri, t.f.n.

XX asning so'nggi o'n yilligida muhim ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar ro'y berdi - kommunistik dogmaga qurilgan, SSSR deb atalgan totalitar tuzum tarqatilib, uning o'mniga mustaqil milliy davlatlar yuzaga keldi. Yurtboshimiz so'zları bilan aytganda: «Jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, bir tomonidan, davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning yuzaga kelishi, yagona xalqaro me'yorlar (normalar), qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomonidan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, unitar tizimlar o'mida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir.» Ushbu fikrlarini davom ettirib I.A.Karimov qayd etadi: «SSSR parchalanib ketgani, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslubini targ'ib etuvchi va yuqoridan ko'rsatma bilan (direktiv) rejalashtirishga hamda resurslarni

⁴ Кремянский В. К обсуждению философских вопросов современной генетики //Вопросы философии.-1970.-№9.-С.133.

⁵Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtrish yo'lida.- Toshkent: O'zbekiston, 1995.-B.16.

⁶ Чалоян В.К. Восток и Запад.-Москва: Наука, 1968.-C.5.

markazlashtirilgan tartibda, o'zboshimchalik bilan taqsimlashga asoslangan sotsialistik xo'jalik yuritish usulining tarixiy tajribasi barbod bo'ldi»⁷.

Totalitar tuzumning barbod bo'lgani ijobiy va qonuniy hol, albatta. Chunki, u milliy davlatlarning ichki ehtiyojlari, etnomadaniy va etnosotsial talablariga muvofiq rivojlanishiga yo'l ochib beradi. Biroq aqlu idrok, ayniqsa ilmu tafakkur ushbu fikrni shunchaki qabul qilmaydi, u butun insoniyatni, ijtimoiy borliqni larzaga va hayratga solgan yemirilishning sabablarini, etimologiyasini biliшni, anglashni istaydi. Bu shunchaki gnoseologik qiziqish yoki o'tkinchi xohishni qondirish uchun emas, balki murakkab munosabatlarga qurilgan dinamik tizimlarning yuzaga kelishi, yuksalishi va rivojlanishi qonunlarini anglash, kelgusida shunday yemirilishlar, fojealar yuz berishining oldini olish uchun zarurdir. Busiz jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash ham, davr talablariga muvofiq demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish ham qiyin.

Sho'rolar hukumati, kommunistik mafkura jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun harbiy qudratini oshirish bilan birga sotsialistik demokratiya g'oyasini jamiyatga singdirishga intildi. Shu maqsadda u umuminsoniy demokratiyaning, o'zining sinfiylik kontseptsiyasiga muvofiq, ikkiga - taraqqiyparvar va xalqparvar sotsialistik demokratiya hamda g'ayriinsoniy burjua demokratiyasiga ajratdi.

Markscha-lenincha nazariyaga ko'ra, sotsializmda kishilar asosiy mehnat faoliyatidan keyin bo'sh vaqtlarida, ixtiyoriy tarzda jamiyat va davlatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanadilar. Ushbu vazifani aholining faol, ongli qismi ishchilar (proletariat) amalga oshiradi. Shuning uchun ham sho'rolar davrida vakillik organlaridagilarning 70-75%ni ishchilar tashkil etgan.

Leninning «harbir kuxarka davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etadi» degan bashoratining to'g'rilingini tasdiqlash uchun davlat hokimiyatining quyi organlaridan tortib to'oliy organlargacha boshqarish ishlardan behabar, goho unga hech qanday ko'nikmasi yo'q KPSS a'zosni, slesarlar, mexanizatorlar, partiyasiz, ammo ko'p bolali uy bekalari tortilgan. Harbir partiya s'ezdlarida partiya safiga, boshqaruv idoralari va vakillik organlariga qancha ishchi -dehqon tortilgani e'lon qilinib, bu bilan sotsialistik demokratiyaning afzalligi, yutuqlari ko'z-ko'z qilingan. Sho'rolar amal qilgan huquqiy nigliزم, «davlat va huquqiy hayotni tashkil etishda chuqur demokratik an'analar thing yo'qligi, davlat organlaridagi mas'ul shaxslarda siyosiy va huquqiy ong hamda madaniyatning yuqori emasligi, joylarda siyosiy hayotning rivojlanmagani, jahon revolyutsiyasi natijasida kommunizmga o'tishda davlat va huquqning o'lishi haqidagi qarashlar, barchani tenglashtirish, ishlab chiqarishni va taqsimlashni markazlashtirish» o'zbek xalqi va jamiyatini demokratik talablarga muvofiq tashkil etish haqdagi g'oyalar davlatini boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatdi.⁸ Demak, SSSRning yemirilishi faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq emas, u sistemali xarakterga ega. Inqitroz butun tuzum, sistemani, butun tizimlarni qamrab olgan edi.

SSSR, u qo'llab-quvvatlagan sotsialistik demokratiya jamiyatni muqim, barqaror, tekis ushlab turishga qaratilgan. Ijtimoiy taraqqiyot ko'rsatadiki, mudom muqim, barqaror, tekis hayot kechiradigan sistema o'zidagi rivojlanishga, o'zgarishga moyil kuchlarni bosib turishga majbur. O'ta muqim sistema rivojlanish qonunlariga zid, u evolyutsion o'zgarishlarga toqat qilolmaydi.⁹ Bunday sistema qat'iy normalarga, tartiblarga, tashqi va ichki omillar talablarini tan olmaydigan, balki, ularni bartaraf etishga tayyor ma'muriy, xatto totalitar boshqarish usullarini yoqtiradi. Sho'rolar hukumatining xurfikrlikni, erkinlik sevadigan, o'zining aqlu idrokiga ijodiy va

⁷ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I.-Toshkent: O'zbekiston, 1996.- 275 b.

⁸ Халилов Э. Высший законодательный орган Республики Узбекистан: от формального представительства до реального парламентаризма.-Ташкент: Узбекистон, 2001.-С.34.

⁹ Переходы и катастрофы: опыт социально-экономического развития.- Москва: Экономика, 1994.- С.11-14.

intellektual kuchiga ishonadigan kishilarni, ziyolilarni qatog'on qilgani totalitar tuzumming ijtimoiy o'zgarishlarni yoqtirmasligining natijasi edi. SSSRni, xalqlarni tashqi olamdan, boshqa xalqlar, millatlar bilan integratsiyaga kirishib yashashdan mahrum qilish ham ana shu siyosatning mahsulidir. Demak, ijtimoiy taraqqiyot mutlaq qotgan, mutlaq muqim sistemani, ayniqsa jonli munosabatlarga asoslanadigan dina-mik sistemani mutlaq barqarorligini rad etadi. Faqat tashqi muhit va ichki omillar dinamikasi, o'zaro ta'siri sistemaning yashovchanligini ta'minlaydi. Sho'rolar huku-mati ijtimoiy - dinamik sistemaga xos bo'lgan ushbu qonuniyatni rad etdi, jamiyatni ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga muvosiq emas, qotib qolgan, kabinetda yaratilgan sotsialistik demokratiya g'oyasiga muvosiq yashashini ta'minlamoqchi bo'ldi.

Dinamik sistemalar bir-birlari bilan to'qnashib, raqobatga, musobaqaga kirishib turadigan, ichki ijodiy kuchlarni izlanishga undaydigan qismlardan iborat bo'ladi. Natijada sistema ichida sistemani shakllantiruvchi va sistemani o'zgartiruvchi jarayonlar kechadi.¹⁰ Agar keyingi jarayon birinchisidan ustun kelsa, sistemada ularni uyg'unlashtiruvchi «integrativ impuls», kuch bo'lmasa, sistema bir kunimas bir kuni o'z muvozanatini, barqarorligini yo'qotadi.¹¹ Agar ushbu ijtimoiy taraqqiyot qonuni sho'rolar davriga tadbiq qilsak quydagi holni kuzatamiz.

Sho'rolar hukumatining g'ayrimilliy va g'ayriinsoniy siyosatiga ongli, ma'rifatli, erkparvar va xalqparvar kishilar mudom qarshi chiqqanlar, ular huqumatni insoniyashtirish va demokratlashtirishga da'vat etganlar. Bu o'rinda jadidlarni eslash mumkin. Ammo sho'rolar hukumati ma'rifatparvar, taraqqiyiparvar jadidlarning da'vatlariga emas, balki ularni «xalq dushmanlari» deb atagan stalinistlarni qo'llab-quvvatladи. Jadidlar jamiyatni dinamik tarzda o'zgartirishga, mavjud ijodiy kuchlardan unumli foydalanishga da'vat etdilar, biroq turg'unlik, muqimlik, o'ta barqarorlik tarafдорлари bo'lган, ammo hokimiyatni o'z qo'liga stalinistlar ularni jismonan yo'q qilish bilan o'z niyatlariga erishdilar. Ammo bu muvafaqqiyat pirovard natijasida sarob, vaqtincha bo'lib chiqdi.

Dinamik sistemalardagi «beqaror muvozanat» asosan adaptatsiya-moslashishning uch turi orqali ro'y beradi:

- 1) qismlar (podsistemalar) ning bir-biriga moslashuvi;
- 2) qismlarning alohida yoki uyg'un, birlashgan xolda keng sistema talablariga, rivojlanish yo'llariga moslashishi;
- 3) keng sistemaning o'zidan keng sistemalar talablariga yoki taraqqiyot yo'llariga adaptatsiyasi, moslashishi¹².

Agar adaptatsiya qonunlari buzilsa yoki o'zgarishlar boshqa tizim (podsistema) lar yoki umumiyliz tizim (sistema) talablariga mos kelmasa, o'zining ochiqligini, dinamik hodisa ekanini namoyon qila olmasa to'qnashuvlar, nizolar, noroziliklilar, oxir natijada esa inqiroz yuzaga keladi. Adaptatsiya jarayonlarining tuzilishi yoki adaptatsiya qonunlarining buzilishi taraqiyiparvarlar yoki destruktiv kuchlarning noroziligiga yoki bosh ko'tarishiga sababchi bo'ladi.

Sho'rolar davrida siyosiy soha (tizim, podsistema) iqtisodiy soha (tizim, podsistema) talablariga, ular esa ma'naviy-madaniy soha (tizim, podsistema) talablariga mos kelmagan. Masalan, siyosiy sistema dunyoda tezroq kommunizm qurishni, sotsialistik demokratiyanı shakllantirishni istagan. Shuning uchun, u harbir farroshni siyosiy faol qilishga, davlat ishlarini boshqarishga jaib etishga tililgan. Ushbu g'ayri

¹⁰ Галкин А.А. Стабильность и изменения сквозь призму культуры мира //Полисъ, 1998, №5.- С.84-86.

¹¹ Володенков С.В. Модели динамики политических процессов в условиях переходного периода //Вестник Московского института, 1999, № 6.- С.37.

¹² Украинцев В.И. Самоуправляемые системы и причинность.- Москва: Мысль, 1972; Пригоржин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса.- Москва: Прогресс; Галкин А.А. Стабильность и изменения сквозь призму культуры мира //Полисъ, 1998, №5.- С.84-86.

hayotiy talabni u ma'muriy yo'l bilan, yo'q narsani bor qilib ko'rsatish, soxta demokratiya yaratish bilan amalgalashdi. Boshqarish ishlariga jalb qilingan-larning vazifalari esa tepadan tushirilgan qarorlarni yakdillik bilan qo'llab-quv-vatlashda ularga bir ovozdan ovoz berishlarida ham ko'zga tashlanadi. Surxondaryo yoki Qoraqalpog'istonidagi chekka bir qishloq yoki ovuldagisi kishilar nomini ham eshitmagan, ko'rmagan ammo markazda ishlaydigan, politbyuro a'zosini partiya s'ezdlariga, olyi vakillik organlariga saylashga majbur qilingan. Bu siyosiy tizim (soha, podsistema) ning boshqa soha (tizim, podsistema) qiziqishlarini, talablarini mensimaganiga, ulardan o'z qiziqishlarini ustun qo'yaniga misoldir. Siyosiy, harbiy sohalarga ajratilgan mablag'lar yildan yilga oshgani holda, madaniyatga, maorifga ajratilgan mablag' kamaytilrilgan, atigi milliy daromadning 2,3-3% ni tashkil etgan. Siyosiy, harbiy sohaga ajratilgan mablag'lar esa ular 3-4 barobar ziyod edi. Xullas, sho'rolar hukumati sohalar (tizim, podsistema) o'rtasidagi muvozanatni hisobga olmagan, ularni qo'llab-quvvatlovchi stimullarni o'zboshimchalik bilan o'zining strategik maqsadi - dunyoda kommunizm turish, kapitalistik tuzumni, burjua demokratiyasini yengishga qaratagan.

Soha (tizim, podsistema) lar alohida yoki uyg'un xolda umumiyligi tizim, keng sistema bilan munosabatlarga kirishib, ijtimoiy hayotni dinamik tarzida o'zgartirib, boyitib, rang-baranglashtirib turadi. Shuning uchun ushbu munosabatlar paralel holda, ya'ni keng sistemadan sohalarga, sohalardan keng sistemaga yuz beradi. Totalitar tuzumda ushbu munosabatlar keng sistemadan, ya'ni tepadan pastga, ichki qismlarga yuboriladi. Bu aslida ma'muriy-buyruqbozlik boshqarish usulidir.

Siyosiy tizim, ma'muriy boshqarish usuli sistemaga hos bo'lgan adaptatsiya qonunlarini hisobga olmaydi, balki uning o'zi adaptatsiya qonunlari yaratadi. Shuning uchun u KPSS s'ezdlari qabul qilgan dasturlar va rezolyutsiyalarni, siyosiy byuro tasdiqlagan ko'rsatmalar va rejalarini, markaziy idora ishlab chiqqan normalarni tepadan pastga yuborib, sun'iy adaptatsiya mexanizmlaridan foydalangan. Milliy o'lkkalar va Respublikalar bilan markaz o'rtasidagi to'qnashuvlar aslida ana shu adaptatsiya qonunlarini buzilishi, ya'ni ichki qism (tizim, podsistema) larga o'z tasavvurlarini, qarashlarini, normalarni zo'r lab singdirish sababli yuzaga kelgan.

Adaptatsiyaning uchinchi turi dinamik sistemalar mohiyatan ochiq ekanini ifoda etadi. Dunyo, insoniyat, xalqaro aloqalar adaptatsiyani eng yuqori bosqichga ko'taradi. Ya'ni alohida olgan (xalq, davlat) boshqa sistema (xalq, davlat)lar bilan integratsiyaga kirishmay, umumjahon taraqqiyoti talablariga moslashmay yashay va taraqqiy eta olmaydi. Sho'rolar tuzumi tor sistema edi, u o'z lageridagi sistemalar bilangina aloqa o'rnatgan. Kapitalistik yo'ldan borayotgan tuzumlarning o'zining dushmani bilgan, shuning uchun ular bilan aloqa qilgan yoki chet mamlakatlarga borib kelgan, chet tillardagi OAV larini oladigan, ulardagi axborotlardan foydalanadigan kishilarni alohida nazorat ostida ushlagan. Xullas, jamiyatning barqaror rivojlanishi sistema ichidagi «beqaror muvozanat»ga, ya'ni ichki va tashqi omillar tasiriga muvofiq sistemaning dinamik o'zgarishiga, rang-barang integratsiya talablariga moslashishiga bog'liqidir.¹³ Mutlaq barqaror, mutlaq muqim, mutlaq o'zgarmas sistema yo'q, evolyutsion o'zgarish dinamik sistemalarning ichki qonunidir. Sotsiumning ichki va tashqi ta'sisirlarga munosabatida sistemaning taraqqiyotga yoki turg'unlikka, tanazzul moyilliги aks etadi.¹⁴ Shuni ham esda tutish kerakki, o'zgarishga, notejis rivojlanishga moyil dinamik sistema (jamiyat, davlat) o'tish davriga duch keladi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotga mutlaq yangi qadriyatlarni qaror toptirish, taraqqiyotning yangi modelini joriy etish ob'ektiv zaruriyatga aylanganida sistema revolyutsion, tub islohotlarni o'tkazishga majburdir.

¹³ Шабров О.Ф. Политическое управление: проблема стабильности развития.- Москва: ЭКСМО-ПРЕСС, 1997.- С.18-21.

¹⁴ Сергеев В.М., Бирюков Н.И. В чем секрет «современного общества //Полис, 1998, № 2.- С.46-47.

Ilmiy adabiyotlarda totalitar tuzumdan milliy taraqqiyotga o'tish, ilg'or davlatlarda qaror topgan demokratik boshqarishni joriy etish tranzitologiya nomini olgan. Tranzitologiyani goho avtokratizmdan demokratizmga o'tish deb ham talqin qilishadi, xullas, «demokratik tranzit» atamasi bugun ilmiy iboraga kirgan.¹⁵ To'g'ri, ba'zi mualliflar va tadqiqotchilar «yangi demokratiya», «shakllanayotgan demokratiya», «taqlidona demokratiya», «infantil demokratiya», «global demokratiya» kabi atamalarni ham ishlashishadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonga nisbatan, uning etnomadaniy va etnosotsial o'ziga xosligini himoya qilayotganidan kelib chiqib, «milliy demokratiya» yoki «milliy demokratik taraqqiyot» atamasini qo'llash to'g'ridir.

Mustaqillikka erishgan davlatlar soxta demokratiyadan birdaniga voz kechish imkoniga ega emas, chunki mavjud sotsialistik an'analar va shakllantirilgan institutlar ijtimoiy hayotda mustahkam o'rashib olgan edi. Bu esa qator muammolarni, milliy demokratik taraqqiyotga o'tishning strategik maqsadlari aniq belgilab olish bilan bog'liq ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Ushbu muammolar va ziddiyatlarni mavzu doirasida sanab o'tish, ko'rsatish va qisqa bo'lsada ular mohiyatini oshib berish lozim. Ana shunda demokratik tranzitning soxta sotsialistik demokratiyadan farqli jihatlari va ahamiyati yoritiladi. Ular quyidagilarda aks etadi:

Birinchisi, shundaki, yangi demokratiyaga ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy va siyosiy sohada tub o'zgarishlar o'tkazish jamiyatda barqarorlikni, birlikni, internatsional aloqalarni saqlashga to'g'ri keldi. Bir tomondan, ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirish, islohotlar o'tkazish, ikkinchi tomondan, turli nizolardan jamiyatni asrash, mavjud pozitiv aloqalarni, ijtimoiy birlikni saqlash lozim edi. Ushbu vazifaning niyoyatda murakkab qaltis ekanini Rossiya, Tojikiston, Qirg'iston, Gruziya, Ukraina kabi davlatlarda yuzaga kelgan ichki nizolarni, siyosiy guruuhlar o'rtasida kechayotgan kurashlardan sezish mumkin. Ular bozor demokratiyasiga o'tish va ijtimoiy-siyosiy borliqni birdaniga o'zgarishi xom xayol narsa ekanini ko'rsatdi. Bir-biriga zid bo'lgan, yuqoridaq ikki yo'nalish demokratik o'zgarishlar qilish uchun ma'lum va aniq sub'ekt zarurligini, ushbu sub'ekt, kuch ijtimoiy hayotga ta'sir eta olish qudratiga, imkoniga va salohiyatiga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatdi. Tabiiy ravishda, bunday kuch davlat bo'lishi mumkin edi. Biroq, yuqoridaq o'lkalarda davlat mavqeini pasaytirish, uni oddiy, xatto ixtiyoriy, havaskorlik uyushmasi darajasiga tushirib qo'yish, zaiflashtirish an'anasi yuzaga keldi. Mustaqillik barcha muammolarni o'zidan o'zi hal qiladigandek tuyuldi, ko'tarinlik, his-hayojonga berilish, o'tmishni va o'tmish yaratgan institutlarni, qadriyatlarni nigilistcha rad etish og'ir fojealarga olib kelishi anglab yetilmadi. Jamiyatlarni, ijtimoiy hayotni bosh-boshdoqlik, buzg'unchilik, bir-birini talash, boshqarishda esa xaos yuzaga keldiki, mustaqillikning dastlabki paytlarida yuzaga kelgan ko'tarinkilik, quvonch va umidlar o'tkinchi tuyg'ulari ekanai, real demokratiya, tub o'zgarishlar mutlaq yangilik, vogelik ekanai ayon bo'ldi. Mustaqillikni, u tufayli uyg'ongan ezgu, olijanob maqsad va tuyg'ularni reallikka aylantiruvchi sub'ekt, kuch, institut-davlat kerak edi. Jahonda yuz bergen «demokratlashtirish to'lqinlari» ko'rsatadiki, davlatning zaifligi, uning siyosiy kuchlar o'rtasidagi kurashlar manbaiga aylanishi, tub o'zgarishlar o'tkazishga qodir kuchlarning yo'qligi yoki yetarli emasligi har qanday ezgu, olijanob maqsad va tuyg'ularni yo'qqa chiqqargan.¹⁶ Demak, soxta sotsialistik demokratiyadan haqiqiy pluralistik demokratiyaga o'tish o'zidan o'zi ro'y bermaydi, ushbu jarayonni amalga oshirishgga tayyor va munosib siyosiy kuch-uyushgan, to'laqonli ishlaydigan, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qilishni hayotiy maqsadiga aylantirgan davlat darkor.

¹⁴ Мельвиль А.Ю. Демократические транзиты (теоретико-методологические и прикладные аспекты).-Москва: АСТРИПОЛ, 1999.- С.3-5.

¹⁵ Теория политики. Под. Ред. И.А. Исаева.- СПб, Питер. 2008.- С. 292-296.

Ikkinchisi, sotsialistik demokratiya ijtimoiy tenglik g'oyasini o'ziga shior qilib olgan edi. Sodda kishilar uchun bu g'oya mastunkor, jozibali va adolatli ko'rindi. Azaldan oddiy xalq, kishilar ijtimoiy tenglikni orzu qilib kelgan. Markscha-lenincha falsafa esa ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltirgan «adolatsizlikni» kuch bilan bartaraf etish g'oyasini qo'llab-quvvatladи va sotsialistik demokratiyani ushu qarashiga asos qilib oldi. Ha, ijtimoiy tenglikdan, adolatdan hech kim, hech bir davr voz kechmagan, kishilar adolatsizlikni tiyish, jilovlash va bartaraf etish uchun jonini tikkalar. Biroq sotsialistik demokratiya o'ziga asos qilib olgan ijtimoiy adolat jamiyatning ongli, o'qimishli, ijtimoiy hayot qonuniyatlaridan habardor qatlarni, burjuaziyani yo'q qilishga, uni sinf sifatida tugatishga, bir sinf, ya'ni proletar demokratiyasini o'ma-tishga qaratildi. Ijtimoiy qatlamlar, sinflar, guruqlar o'rtasidagi farqlarni bo'rttirib, ularni bir-birini yo'q qilishga da'vat etgan demokratiyani anglash, tushunish qiyin. Milliy demokratik taraqqiyot bunday yondashishni rad etadi, har qanday ijtimoiy munosabatlar insonni ulug'lashga, uning sha'ni va huquqlarini ta'minlashga qaratilishi zarur bo'ladi.

Shuningdek, mutlaq ijtimoiy tenglik yo'q. Chunki kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishdagi ishtiroki, qo'shadigan hissasi va nihoyat qobiliyati, ko'nikmasi, faolligi har xildir.¹⁷ Shuning uchun ijtimoiy adolat hamma uchun barobar, teng «mutlaq adolat» bo'lishi mumkin emas.¹⁸ Sotsialistik demokratiya ushu «mutlaq adolat» ni o'rnatmoqchi bo'ldi, bu esa uni yuqoridagidek repressiv chora-tadbirlar ko'rishga, insonning xususiy mulkka ega bo'lish xohishini, iqtisodiy demokratik huquqlarini paymol qilishga olib keldi.

Milliy demokratik taraqqiyot esa insonning xususiy mulkka ega bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda erkin va faol qatnashish huquqini tiklaydi. Mehnat nafaqat ijtimoiy, shuningdek, xususiy mulk, boylik yaratish manbaidir. Kishini ushu stimuldan mahrum qilish uni ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan ham mahrum qilish demakdir; bunday kishida yaratishga, qurishga, ishlashga qiziqish bo'lmaydi.

Uchinchisi shundaki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan barcha davlatlar, xalqlar bir tomonidan, ijtimoiy hayotini demokratlashtirish, liberallashtirish va modernizatsiyalashni ko'zlasa, ikkinchi tomonidan, o'zining tarixiy-madaniy an'analarini, ma'lum bir sabablar bilan unutilgan yoki chetlab o'tulgan siyosiy, iqtisodiy, diniy-ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklashga intiladi. Ba'zi tadqiqotchilarda bunday tajriba e'tiroz uyg'otadi, chunki traditsionalizm bilan modernizatsiyani uyg'unlashtirish qiyin.¹⁹ Haqiqatan ham, ushu yondashishda e'tiroz uyg'otadigan jihatlar mavjud. Traditsionalizm jamiyatni orqaga tortmaydimi? Jamiyatni o'z an'analari qobig'ida yashashga olib kelmaydimi? Modernizatsiyalash ijtimoiy munosabatlarni, hayotni mutlaq yangi, zamonaviy usullar va texnologiya asosida qayta qurish bo'lsa, traditsionalizm bunday o'zgarishlarga g'ov bo'lmaydimi?

O'tish davrining barcha xalqlar, davlatlar uchun bir xildek ma'qul keladigan shaklini topish, yaratish qiyin. Biroq, bizning fikrimizcha, hech bir xalq, millat o'zining etnomadaniy va etnosotsial tajribasidan voz kechgan holda, mutlaq yangi, xatto u boshqa o'lkalarda, davlatlarda ijobjiy natijalarga olib kelgan, ijtimoiy hayotini o'zgartirgan bo'lsa-da, paradigmni to'la qabul qilolmaydi. Evolyutsion taraqqiyotga etnomadaniy va etnosotsial tajribalarga tayanish orqaligina erishish mumkin, demokratiya eksport qilish nafaqat xalqlar boshiga kulfatlar keltiradi, shuningdek, demokratianing o'zini ham qadrsizlantiradi.

Sotsialistik demokratiyada ma'lum bir ijobjiy tomonlar mavjudligini unutib, rad etib bo'lmaydi. Masalan, xalq vakillarining takliflari ijroiylar hokimiyyat tomonidan shu zahoti

¹⁷ Хайек Ф.А. Общество свободных.- Лондон, 1990.- С.105-107.

¹⁸ Гаджиев К.С. Политическая философия.- Москва: Экономика, 1999.-С.388.

¹⁹ Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию.- Москва: АСПЕКТ-ПРЕСС, 1999.- С. 427-429.

e'tiborga olinib, bajarilgan. Deputatlarning tashabbuskorligi, faolligi vatan-parvarlik, xalqparvarlik va adolatparvarlik timsoli sifatida ko'pgina yoshlarda havas uyg'otgan, ularga hayot yo'lini tanlashda ibrat, ideal bo'lib xizmat qilgan. Ushbu ijobjiy jihatlarini milliy demokratik taraqqiyot unutishi mumkin emas.

To'rtinchisi huquqiy davlat barpo etish bilan hokimiyatni personizatsiya-lashtirish an'anasingin yuzaga kelayotganida ko'zga tashlanadi.²⁰

O'z paytida N.Makiavelli, yangi davlat shakllanayotganda kuchli shaxsga, hukmdorga ehtiyoj seziladi, degan edi. Totalitar tuzumdan mutaqil rivojlanishga, ayniqsa soxta sotsialistik boshqarishdan haqiqiy, milliy demokratik davlat barpo etishga o'tish kuchli irodali, islohotlarni dadil amalga oshiradigan va o'z atrofiga taraqqiyarvar kuchlarni yig'ib, birlashtirib, ijtimoiy hayotni taraqqiyot sari yetaklaydigan siyosiy liderga ehtiyoj paydo bo'ladi. Kuchli davlatsiz yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirish va yangi demokratik qadriyatlarni qaror toptirish mumkin bo'limganidek, kuchli siyosiy lidersiz ham kuchli davlatni tasavvur qilish qiyin. Demak, yangi ijtimoiy demokratik taraqqiyot qanday kuchli davlatga extiyoj sezsa, u kuchli siyosiy liderga ham shunday extiyoj sezadi. Kuchli davlat eng avvalo kuchli siyosiy lider yoki liderlar faoliyatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi mulohaza va fikrlardan ma'lum bo'ladiki, O'zbekistonning soxta sotsialistik demokratiyadan haqiqiy, xalqimizning etnomadaniyi va etnosotsial an'analari, tajribalariga mos keladigan milliy demokratik taraqqiyotga o'tishi ob'ektiv zauriyat edi.

O'ZBEKISTONDA KONSTITUTSIONALIZM VA DEMOKRATIK TARAQQIYOTNING O'ZIGA XUSUSIYATLARI

A.Qambarov

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mamlakatni modernizatsiya qilish sari demokratik jarayonlarni yanada kengaytirish yo'lida izchil islohatlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz I. Karimovning "Mamatqalatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida" ilgari surilgan g'oyalari konstitutsionalizm va demokratik taraqqiyotning muhim ahamiyatga molik ekanligini, demokratik islohatlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri va mamlakat taraqqiyotining kafolati ekanligini ifodalaydi.

Avvalo, Konstitutsionalizm tushunchasi to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, Konstitutsionalizm g'oyasi – jamiyat hayotini qabul qilingan qoida va qonunlarga qat'iy rivoja etgan holda tashkil etish va boshqarish jarayonini ifoda etuvchi tamoyil xisoblanadi. Konstitutsionalizm g'oyasi faqat jamiyatning qonuniy – huquqiy asoslariga tayanib qolmasdan, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy tamoyillarining uyg'unligining ham ifodalaydi. Boshqacha aytganda, davlat tuzilishi, jamiyatdagi umumiyligi qonun – qoida va talablarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, insonlarning ma'naviy kamolotli va yuksak axloqiyligi bilan uyg'unlashgan holda mamlakatning Asosiy qonuni – Konstitutsiyada aks etishi Konstitutsionalizm g'oyasining mohiyatini namoyan qiladi. Demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish-ning tarixiy zaruriyatini anaglabgina qolmay, balki uni chinakam erkinlik, mustaqillik va faravonlik asosi, deb bilishga erishish muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqillikka erishgan kunitizdan buyon o'tgan yillar maboynida O'zbekiston tonda juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Avvalombor, davlatimizning huquqiy poydevori yaratildi. Eng yuksak demokratik talablarga javob beradigan mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. O'zbekistonda vakillik jamiyatni

²⁰ Васович В. Переход к демократии в посткоммунистических странах (парадоксы перехода к демократизации) //Вестник Московского института, 1998, №2.- С.31.

vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. Jamiat bo'linishining konstitusision tamoyillari asosida qonun chiqaruvchi, ijro va sud xokimiyatga bo'lindi. Mamlakatimizda siyosiy o'zgarishlarga mos ravishda ixcham, ochiq tadrijiy rivojlanishiga ega bo'lgan ijtimoiy tizim yaratildi. Shu tufayli biz o'tmishni baholashda barcha fuqarolarning hamfskrliliga, umummiliy yakdillikka erisha oldik.

Barchamizga ayonki, yaqin o'tmishda qilgan ishlarimizni, faoliyatimizni eslar ekanmiz, avvolambor, endilikda turgan ulkan vazifalar haqida gapirishimiz tabiiydir.

"Bugun biz qanday davlat qurmoqdamiz? Yangi demokratik jamiat tanlashda uning ta'siri qanday bo'ladi? degan savollarga javob berish kerak bo'ladi. Albatta, bu masalalar bizning Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan. Maqsadimiz aniq – bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan davlat qurishdir. Biroq ana shu mafqasad sari qadam qo'yar ekanmiz, qurayotgan davlatimiz shaklini, qiyofasini o'zimiz yaqqol ko'ramiz.

Ma'lumki, demokratik jamiatning halqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z hoxish – irodasini erkin bildirish hamda uni amalga oshirish, ozchilikning ko'pchilikka bo'yinishi, barcha fuqarolarning teng huquqligi, davlat va jamiat boshqaruvida qonun ustivorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlaringin saylovchilar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr – qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi²¹, degan fikr bilan javob berish mumkin.

Mazkur satrlarda iyomon va diyonatni qalb ishlari qilib olgan ota – bobolarimiz merosi, jamiyatdagи jamiki ne'matlarni insonlarning farovon turmushi uchun yo'naltirilayotgan davlat g'amho'rлиgi mujassamdir. Bu so'zlarni yurakdan anglagan odam butun vujudini, iqtidori va qobiliyatini ona – Vatanga sarf etishi kerak. Bosh qomusimizda jahonga rivojlangan davlatlar Konstitutsiyasilarini tajribalarining eng ilg'or demokratik jihatlari, "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" ning umum-insoniy, umumbashariy g'oyalari mazmuni mujassamdir. Shuningdek, Konstitutsiya-mizda kafolatlangan milliy qadriyatlarimiz hamda ma'naviy va moddiy to'laqonli mezonlari, insonning ma'naviy – ahloliy barkamolligi assosari o'z ifodasini topgan. Demokratiya – davlat va ijtimoiy hayotni boshqarish shakli. Deyarli barcha g'arb davlatlarining Konstitutsiyalarida halning qabul qilinadigan qonunlar va qarorlarga ta'siri ijtimoiy hayotga, davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga taalluqli masalalarni muhokama qilishdagi ishtiroki demokratianing mohiyati sifatida talqin etiladi²².

Darhaqiqat, bu borada yurtboshimiz juda ma'noli fikrni bildirgan edi: "har qanday islohatning eng muxim samarasini avvalo halqning ma'naviy ruhiy qarashlaridan yangilanish jarayonlari, uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarish bilan belgilanadi". Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, O'zbekiston Respublikasining normativ – huquqiy hujjalari tubdan yangilandi. Mamlakatimizda milliy – huquqiy, demokratik davlat qurish ustida ish olib borilmoqda. Shu ma'noda Islom Karimov, "Triximizning tub burilish nuqtasida, g'oyat xatarli va murakkab kunlarda haqiqatan ham yakkayu yagona to'g'ri yo'lni tanladik. Ya'ni mustabid tuzum o'ta mafkuralashgan, milliy o'zligimizni toptagan eski tuzimdan voz kechib, azmu – qarorini bajo keltirib, ochiq demokratik va huquqiy davlat qurush, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'lini tanladik"²³.

²¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2003. 5-6 b.

²² Talapov B. Demokratiya va demokratik taraqqiyot: ilmiy – nazariy kontsepsiylar tahlili //Falsafa va huquq. 3-son. 2010. 22 b.

²³ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'1 – demokratik taraqqiyot va ma'nifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.2.-Toshkent: O'zbekiston, 2003.

OILANING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARI

Ozodaxon Chuboyeva

Nam DU Huquqshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Azamat Qosimov

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi yo'nalishi talabasi

Oila jamiyatning dastlabki va eng asosiy bo'g'inidir. Ayniqsa, har tomonlama yetuk va barkamol shaxsnı tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va davom ettirish borasida uning o'mni beqiyos. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ham oila muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ko'zda tutgan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. Ko'pchilik davlatlar Konstitutsiyalarida uchramaydigan bu holat O'zbekistonda oilaga bo'lgan katta e'tibordan dalolat beradi. To'rtta moddani o'z ichiga olgan ushbu modda oilaning huquqiy maqomi, ota-onalar va farzandlarning huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan. Dastlab oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, uning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi mustahkamlangan. Ushbu me'yor xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalardan kelib chiqqan. Xususan, «Inson huquqlari Ummumjahon deklaratsiyasi» 16-modda 3-qismiga binoan « Oila jamiyatning tabiiy va asosiy boshlang'ich hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir». ²⁴ Oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi respublikada amalda bo'lgan qonun hujjatlari, oilani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar, O'zbekiston Xotinqizlar qo'mitasi, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi kabi tashkilot va muassasalar faoliyatida namoyon bo'lsa, jamiyat muhofazasi jamoatchilik, mahalla-ko'y ta'siri bilan ta'minlanadi.

Konstitutsiyaning keyingi moddasida ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalash majburiyati mustahkamlangan bo'llib, ushbu qoida bo'yicha ota-onada vujudga keladigan huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining XII bobida o'z aksini topgan. Ota-onaning farzandini tarbiyalash bo'yicha majburiyatlari qatoriga ta'lif-tarbiya berish, sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish, bolaning huquq va manfaatlarin himoya qilish, ota-onalik huquqini amalga oshirish chog'ida bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligiga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazmaslik kabilar kiradi. Shuningdek, kodeksning 96-moddasiga binoan, ota-onaga voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati yuklangan. Ushbu majburiyatlari bolalar voyaga yetganlarida, ya'ni 18 yoshga to'lganlarida, voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi. Mehnatga layoqatsiz farzandlarni moddiy ta'minlash majburiyati bundan mustasno.

Yuqoridaagi majburiyatlarning bajarilishini davlat tomonidan ta'minlash va kafolatlash maqsadida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha jinoyat sifatida e'tirof etilgan va buning uchun javobgarlik belgilangan. ²⁵

Shuningdek, Konstitutsiyamizga binoan, «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, balalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi». ²⁶ Boshqa davlat konstitutsiyalarida uchramaydigan ushbu norma milliy qadriyatlarimizdan kelib

²⁴ Oila kodeksiga sharhlari.-Toshkent: Adolat, 2000.-B.18.

²⁵ O'ZR JK.- Toshkent; 2001. B.63.

²⁶ O'zbekiston Konstitutsiyasi. 64-modda.-Toshkent: O'zbekiston, 2001.-B.17.

chiqqan va davlatning ota-onas vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan e'tiboridan dalolat beradi.

Konstitutsiyada ota-onalarning farzandlari oldidagi majburiyatlar bilan bir qatorda farzandlarning ota-onas oldidagi burchlari ham belgilab qo'yilgan. Chunonchi, voyaga yetgan, mehnatga layoqatlari farzandlar o'z ota-onalari hayoti, sog'liliklari haqida g'amxo'rlik qilishga, ular mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlarida esamoddiy ta'minlashga majburdirlar. Bu majburiyatlarning bajarilishi davlat tomonidan huquqiy ta'sir choralar va jamoatchilik fikri bilan ta'minlanadi.

Onalik va bolalikni davlat togmonidan muhofaza qilinishi Konstitutsiyadagi eng asosiy va ahamiyatli normalardan biridir. Chunki ham jismongan, ham barkamol, sog'lom avlod tarbiyalab voyaga yetkazishda onalar va bolalarga bo'lgan jiddiy e'tibor muhim omil hisoblanadi. Bu borada xalqaro huquq normalarini respublika qonunlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida O'zbekiston 1919 yilda Jenevada qabul qilingan va 1952 yilda qayta ko'rib chiqilgan «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi Konventsiyaga qo'shildi. Onalarga e'tibor ayollarga e'tibor sifatida qaralib, uni rag'batlantirish faqat oila qonunchiligi bilan tartibga solinmay, boshqa bir qator sohalar-mehnat qonunchiligi, fuqarolik va jinoyat qonunchiligidagi ham belgilab qo'yilgan. Bolalar muhofazasi borasida ham bir qancha huquqiy va amaliy chora-tadbirlar amalgaga oshirilmoqda.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda oila institutining ahamiyati beqiyosligi huquqiy baza mustahkam bo'lismeni taqozo qiladi. Bu boradi asos sifatida xizmat qiluvchi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, eng avvalo, konstitutsiyaviy normalarga asoslangan. O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan oilaning huquqiy kafolatlari esa huquqiy baza yaratilishida mukammal asos bo'lib xizmat qila oladi hamda respublikamizda oilalarning mustahkam bo'lishi va progressiv rivojlanishiga sharoit yaratadi.

FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY PRINTSIPLARI HAMDA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Gulnoza Rafiqova

*Namangan Davlat universiteti Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti,
Falsafa kafedrasи o'qituvchichi*

Fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar quyidagi asosiy printsiplarga asoslanadi:

- Pluralizm, siyosiy xayotning, masfkura va fikrlarning xilma xilligi;
- Ko'ppartiyaviylik;
- O'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeining balandligi;
- Qonuniylik va davlat nazorati;
- Ijtimoiy va siyosiy ham korlik²⁷;

Ma'lumki, har qanday adolatli, demokratik davlatda fuqarolarning erkin fikrash huquqi kafolatlangan bo'ladi. Insonning erkin fikrash, o'z aql idroki qobiliyati, olgan bilimlaridan erkin foydalanan imkoniyatiga ega bo'lishi davlatda shaxs erkinligining yorqin ifodasıdir. Albatta, erkin fikrash bor joyda fikrlar xilma xil bo'ladi va turli masfkuralar, siyosiy institutlar, harakatlar paydo bo'lishi mumkin. Aks holda, ya'ni erkin

²⁷ Сырых В.М. Теория государства и права.-Москва: Юстицинформ, 2001.-С.399.

fikrlash cheklangan joyda ko'pincha inson o'z fikrlarini, xoxish istaklarini oshkora bayon qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi²⁸.

Plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma- xilligi va qarashlar rang barangligi ma'rifiy jamiyatga xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlicha izoxlash, tushunish va talqin etish tamoyillariga asoslanadi. Muayyan gurux yoki siyosiy partiya g'oyalari xukmron mafkuraga aylansa, hur fikrlilik, vijdon erkinligi va qarashlar xilma- xilligi cheklanadi, mutloq haqiqatga egalik davosi, mustabidlik tamoyillari kuchayadi.

Plyuralizm tamoyili erkin saylovlar, erkin matbuot singari demokratiyaning asosiy shartlaridan biridir. Ko'p yillik demokratik tajribalarga ega bo'lgan ilg'or mamlakatlarda bu tamoyil jamiyat xayotida chuqur o'r'in olib, taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Fikrlar rangbarangligi va qarashlar xilma xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadiriyatlarga, qonun normalariga, ahloqiy mezonlarga zid bo'lmasligi zarur.²⁹

Fuqarolik jamiyatida plyuralizm va fikrlar xilma xilligi alovida olingan shaxs, ijtimoiy guruxlar, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining huquqi sifatida qaraladi. Bunda:

- davlatni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy tizimi to'g'risida qarashlar, nazariyalarni xech bir qarashlarsiz ishlab chiqish va ularni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlarini olib borish;
- g'oya va mafkuralarni jamiyat xayotiga singdirish uchun faol harakatlar olib borish, siyosiy partiyalar dasturlarini va boshqa hujjatlarni tayyorlash ham da davlatning ijtimoiy- siyosiy tizimini mukammallashtirish chora tadbirlarini ko'rish;
- o'zining mafkuraviy qarashlarini oshkora ximoya qilish mafkuraviy fikrlar xilma xilligiga bo'lgan huquqni amalga oshirishga to'sqinldik qiluvchi g'oyalarni bartaraf qilish uchun sud va boshqa davlat organlari kerakli choralar ko'rishini talab qilish va boshqalarga man qilinadi.

Fuqarolik jamiyatining yana muhim prinsiplaridan biri bu ko'p partiyaviylikdir jamiyatdagi mayjud plyuralizm va fikrlar rang- barangligi ko'ppartiyaviylikni ya'ni fuqarolik jamiyatida o'z dasturi va qarashlariga ega bo'lgan bir nechta siyosiy partiyalarni faoliyat olib borishini taqozo etadi. Bugungi kunda ko'p partiyaviylik demokratiya rivojlanishining muhim sharti bo'lib, tabiiy ijtimoiy guruxlar manfaatlarini uyg'unlashtiruvini ta'minlaydi.

Bugungi kunda, dunyodagi mamlakatlarni ularda mavjud bo'lgan partiyalar soni, ushbu partiyalarning faoliyat yuritish usuli, ularning bir biri bilan va davlat bilan o'zaro munosabatlarining qanday yo'lga qo'yilganligiga qarab ma'lum bir guruxlarga bo'lishimiz mumkin. Shulardan, davlatda bir nechta partiyalarni faoliyat olib borishi, ularning mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirot etishini ta'minlovchi ko'pparti-yaviylik tizimini mavjud bo'lishi ijobji holdir. Ko'ppartiyaviylik tizimi asosan rivojlangan g'arb mamlakatlari, Osiyo hamda Lotin Amerikasi davlatlarida asta sekinlik bilan shakllandi va hozirgi kunda ushbu ko'ppartiyaviylik tizimi eng keng tarqalgan ijtimoiy – siyosiy jarayondir. Ko'ppartiyaviylik o'rtasida qarama – qarshilliklar muhim rol o'ynaydi.

Qonuniylik va davlat nazorati; davlat jamiyat siyosiy tizimi faoliyatini nazorat qilib, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoyalaydi hamda amaldagi qonun hujjatlar buzilishini oldini oladi. Jamoat birlashmalari yoki jamiyat siyosiy tizimining boshqa

²⁸ Boboev X.B., Saidov A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –Toshkent: O'zbekiston, 2001.- 111b.

²⁹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-Toshkent: O'zbekiston, 2000.- 19-20 betlar.

ishtirokchilari tomonidan yo'l qo'yilgan xavfli xatti harakatlar sud organlarining ushbu tashkilotlarni tugatish va aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risida qaror qabul qilishga asos bo'ladi. Shuningdek, davlat ochiq fuqarolik jamiyatida siyosiy munosabatlar sohasida nafaqat huquq va qonunlarning ustunligiga e'tibor beradi, balqi fuqarolik jamiyatini, uning institutlari va davlat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik asosida qurilishiga ahamiyat beriladi. Fuqarolik jamiyatini institutlari, assotsiayalarining siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda mustaqil, avtonom faoliyat faoliyat olib borishlari bilan bir qatorda, ushbu assotsiatsiyalar yordamida turli ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlарining uyg'un-lashuvi ta'minlanadi. Bu yerda manfaatlar uyg'unlashuvi degani jamiyatdagi mavjud qarama qarshi fikrlarni tashuvchisi bo'l mish ijtimoiy qatlamlarning o'zaro kelishuvi, konsensusga kelishi nazarda tutiladi. Davlat va fuqarolik jamiyatini o'zaro hamkorligida konsensus munosabatlarining asosiy shakliga aylanadi.

Hozirgi zamon huquqiy davlat nazariyasi ohirgi ikki yuz yil davomida uning tarafdarlari tomonidan ilgari surilgan davlat boshqaruvidagi samarali, ijobjiy natijalarni o'zida mujassam etadi. Huquqiy davlat huquq va qounularning ustunligi ta'minlangan, hokimiyatning bo'linish printsipiga asoslangan, insonlarning huquq va erkinliklari tan olinadigan hamda kafolatlanadigan demokratik davlatdir.

Xalq hokimiyati – halqning o'z hohish irodasini amalga oshirish usulidir. Xalq o'z hokimiyatini, o'zi saylab qo'yan yoki tuzadigan organlar orqali ro'yobga chiqaradi. Xalq xokimiyati davlat hokimiyati orqali siyosiy jarayonga aylanadi. Agar hokimiyat biron – bir narsaga ega bo'lish, ta'sir o'tkazish, xatto majburlash imkoniyatiga ega bo'lsa, shu imkoniyatni halq davlat hokimiyati orqali amalga oshiriladi. Xalq hokimiyati saylov, referendum, muhokamalarda ishtirok etish, o'zini o'zi boshqarish organlari kabi tushunchalardan vujudga keladi.

Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy, ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa xech bir istisnosiz huquqiy normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi. Huquq va qonunlarning ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy printsipidir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa xech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi³⁰.

Hokimiyatning bo'linish printsipi - bu printsip huquqiy davlatning muhim shartlaridandir. Bu printsip orqali yagona bo'lgan davlat hokimiyati tarmoqlarga bo'lingan holatda amalga oshiriladi. Bu esa davlat o'z vazifasini malakali amalga oshirishni ta'minlaydi. Shu tamoyil asosida davlat organlari tashkil qilinadi, biror - bir davlat organida haddan tashqari vakolatlar to'planib qolishining oldi olinadi, turli davlat organlarining vakolatlari aniq bo'lib, ular bir – birining vazifasini bajarishga, o'mini bosishga harakat qilmaydi, turli davlat organlari bir-birini nazorat qilib turadi, vakolatlar bir yerda to'planib qolmaydi. Bundan faqat fuqarolar manfaatdor bo'ladir.

Xulosa qilib aytganda jamiyatda fikrlar hilma - hilligi, ko'ppartiyiylik hamda o'ztini - o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi fuqarolik jamiyatni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunlarning ustuvorligi va hokimiyatning taqsimlanishi esa demokratiya sharoitida davlat hokimiyatini shakkantirish va amalga oshirishning huquqiy shakli hisoblanadi. Mazkur printsipning tub ma'nosi shuki, unda yagona hokimiyatning uch tarkibiy bo'g'ini: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'z

³⁰ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O'zbekiston, 1999.-126 bet.

konstitutsiyaviy vakolatlari doirasida mustaqil faoliyat yuritib, bir - birining vakolatlariga aralashmaydilar.

SOVET HOKIMYATINING JAMOALASHTIRISH SIYOSATINING ASOSIY MOHIYATI

Alisher Jo'rayev

Nam DU "Tarix fanlari" kafedrasi o'qituvchisi

1929-yil tarixga qora belgi ostidagi “buyuk burulish yili” deb nom olgan yil bo’lib kirib keldi. Bu dehqonlar sinifini ijtimoiy qatlarm va mehnatkash omma sifatida maqsadli yo’q qilishning boshlang’ich davri edi. Bunda “quloqlar” va “boylar” toifasiga asosan yangi iqtisodiy siyosat sharoitida o’z xo’jaliklarini oyoqqa turg’azib olgan o’rtahol dehqonlar kiritildi. Chunki, birmuncha badavlatroq qatlamlar oldingi yillarda tugatilgan edi. 1929-yilning yozida “quloqlar”ni jamoa xo’jaliklariga (kolxozi) kiritilishini ta’qilovchi qaror qabul qilinadi. O’sha yilning 7-noyabrida “xalqlar otasi” Stalinning matbuotda bosilib chiqqan “Buyuk burulish yili” nomli maqolasi hamda 27-dekabrda qishloq xo’jalik xodimlarining ilmiy konferensiyasida so’zlagan nutqi quloqlarni sinf sifatida tugatish va jadal jamoalashtirish siyosatini boshlab berdi³¹.

Yoppasiga jamoalashtirish bu boy va o’rtahol dehqonlarga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xo’jalik mahsulotlari va urug’ zahiralarini tortib olish hisobiga kolxozlar tuzish degani edi. Ommaviy jamoalashtirish g’oyasi, umuman olganda, “Leninchay kooperativ reja” da o’z ifodasini topgan bo’lib unda dehqonlarni bosqichma - bosqich kooperatsiyalash yo’li taklif qilingan edi, u dehqonlarning eng oddiy shakllar orqali yuqori va murakkab shakl bo’lgan jamoa xo’jaliklariga birlashuvini nazarda tutardi³².

1929-yilning kuzidan e’tiboran sovet davlati kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud bo’lgan bir qancha kooperativ tizimlarini davlatlashtirish yo’liga o’tdi. Kooperatsiyani barcha turlari va sohalari bo’yicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yo’li bilan almashtirdi. Bu yo’l esa ixtiyoriylik prinsplari asosida emas, balki “yuqorida belgilash” yo’li bilan amalga oshiriladi. O’zbekistonda jamoalashtirish O’z KP MK ning 1930-yil fevralda qabul qilingan “Kollektivlashtirish va quloq xo’jaliklarini tugatish” to’g’risidagi qarori e’lon qilingandan so’ng boshlab yuborildi. O’rta Osiyo, jumladan, O’zbekistonning sovet davri tarixidagi yaxshi o’rganilmagan mavzulardan biri jamoalashtirish va u bilan bog’liq quloqlashtirish, surgun qilish davri tarixi masalasidir. Zo’rlik bilan, kuch bilan o’tkazilgan jamoalashtirish jarayoni qanday kechgan bo’lsa, shundayligicha ochib berish va qatag’on etilib surgun qilingan dehqonlarning ayanchli, fojeali ahvoli, taqdirini tadqiq etish hozirgi O’rta Osiyo tarixshunosligida dolzarb muammolardan biridir.

Komfirqa va sovetlar hukmronligi davrida “qulooq”, “mushtumzo’r”, “qishloq burjuaziysi”, “aksilingilobchilar”, “xalq dushmanlari”, “sotsializm dushmanlari”, “kolxoz dushmanlari”, “yot unsurlar”, “kapitalistik unsurlar”, “eng so’nggi ekspulatatorlar” kabi nomlar atalib kelingan milliy qishloq aholisining haqiqiy tarixini yaratish imkonii bo’lmadi va bu mavzu ommadan sir saqlanib kelindi³³.

³¹ O’zbekiston tarixi /Xolboev S. va boshq. muharrir R. H. Murtazaeva. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2003. – B.449.

³² O’zbekistonning Yangi tarixi. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida /Tuzuvchilar Jo’raev M. va boshq. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 347.

³³ Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.8.

Stalining 1929-yil 7-noyabrida bosilib chiqqan “Buyuk burulish yili” nomli maqolasi jadal jamoalashtirishni “nazariy” jihatdan asoslab berdi. Unda, keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb yozilgan edi. VKP (b) MQ ning 1929-yilgi noyabr plenumi “dohiy” fikrini partiya direktivasiga aylantirdi. Plenum jamoalashtirish sur’atlarini haddan tashqari kuchaytirish, unga ommaviy tus berishdan iborat aniq vazifani qo’ydi. 1929-yil 27-dekaborda agrar markschilar konfrensiyasida so’zga chiqqan Stalin “yoppasiga jamoalashtirish asosida qulqlarni sinf sifatida tugatish” shiorini e’lon qildi³⁴.

Hokimiyat organlari “dohiy”ning ko’rsatmasini bajarish uchun jadal jamoalashtirishning boshida turib asosan zo’ravonlik usullariga e’tiborni kuchaytirdilar. Qishloqda an’anaviy iqtisodiy munosabatlarni yoppasiga buzish avj oldirildi. Davlat qishloq mehnatkashlariga qancha va nima ekishni, yetishtirilgan mahsulotni qanday narx bilan topshirishni aytib turadigan bo’ldi. Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg’inlar uyushtirildi, qishloqda aholini zo`rlik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi. Agrar siyosatdagi yangi yo’l O’zbekistonda og’ir oqibatlarni keltirib chiqardi. VKP (b) MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi “Jamoalashtirish sur’atlari va davlatning kolxozi qurilishiga yordam ko’rsatish choralar to’g’risida” gi qarorining dastlabki taxririda O’zbekiston SSSR hududida jamoalashtirishni ikkinchi besh yillik mobaynida tugallash mo’ljallangan bo’lishiga qaramay, bu harakat ertaroq tugallanishi mumkin degan fikri o’rtaga tashladi. Shuni ham aytib o’tish joizki, respublikamizning ayrim rahbarlari (xususan, F. Xo’jayev va A. Akromov) valyuntaristik usullarga qarshi turishga intildilar va raqamlarga va muddatiga tuzatish kiritish fikrini bildirdilar. Biroq, ularning takliflariga umuman e’tibor berilmagan. Natijada VKP (b) MQ O’rta Osiyo byurosining qarori bilan 1932-yilning boshlariga kelib dehqon xo’jaliklarining 68% ni kolxozlarga birlashtirish rejasini qabul qilindi. Jamoalashtirishni sun’iy tezlashtirish va bu borada “sotsialistik musobaqa” ning kim o’zdi “poygasini” avj oldirishda VKP (b) MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi “Jamoalashtirish sur’ati va kolxozi qurilishida davlat yordami berish tadbirleri to’g’risida” gi qarori hal qiluvchi o’rin tutdi³⁵.

Mazkur qarorda sobiq SSSR hududi uch guruh rayonlarga bo’lindi va qaysi hudud qachon jamoalashtirishni tugallashi rejalashtirildi va u jamoalashtirishni 1933-yil bahorida tugallashi kerak edi. Yoppasiga jamoalashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika va viloyat shtablari tuzildi. Hamma joyda ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari harakatga keltirildi. Qishloq aholisini kolxozlarga “g’ayratlan-tirish” uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. VKP (b) MQ 1929-yil noyabr plenumi qarori bilan “yakka xo’jalik” qishloqlariga kamida 25 ming ishchini yuborish taklif etildi, ular joylarda “agrар inqilobni avj oldirishni ta’minlashlari” lozim edi. Xususan, O’zbekistonga Rossianing markaziy rayonlaridan 437 ishchi yuborildi³⁶.

Ular bilan birgalikda mahalliy ishchilar sinfi o’z saflaridan 263 kishini jalb qildi. “Yigirma besh mingchi” ishchilar partiya tashkilotlariga kolxozlar tuzishda yordam ko’rsatdilar, kambag’al faollarni “qulqlar”ga qarshi birlashtirdilar, qishloq xo’jaligi va mahalliy sharoit haqida umuman tasavvurga ega bo’imasada, “yigirma besh mingchi” ishchilar yangi tashkil etilgan qishloq xo’jalik artellariga boshchilik qildilar. Oqibatda, shoshma-shosharlik bilan dastlab tashkil qilingan kolxozlarning ko’pchiligi ishni eplay

³⁴ O’zbekistonning yangi tarixi. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida / tuzuvchilar Jo’raev M. va boshqalar. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 347.

³⁵ Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalashtirish, qulqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B.54.

³⁶ O’zbekistonning yangi tarixi. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida / tuzuvchilar Jo’raev M. va boshqalar. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 347.

olmay tarqalib ketdi. Jamoa xo`jaliklariga birlashtirish uchun dehqon xo`jaliklariga bevosita hujum qilish amaliy jihatdan buzg`unchilik harakatiga aylanib ketdi. Raqamlar ortidan quvish boshlandi. Sovet davlatining hamma joyida bo`lgani kabi O`zbekistonidagi jamoalashtirish ham “harbiy kommunizm” yillarda sinovdan o`tgan kompaniyabozlik, “hujum va tazyiq” usullari bilan amalga oshirildi. Dehqonlar zo`rlik bilan kolxozlarga kirishga majbur edilar. Qarshilik ko`rsatganlar ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar “quloq qilindi”. Ko`pincha qishloqlarning aholisini bu yerdan ko`chirib yuboramiz, oziq-ovqat ta`minotidan, suvdan mahrum etamiz, deb qo`rqitib kolxozlarga yozilishga majbur qildilar. Shunday hollar ham bo`lar ediki, kolxozlarni tashkil etish u yoki bu qishloqdagi deyarli dehqon xo`jaliklarining kolxoza kirish-kirmsasik istagidan qat’i nazar sun’iy ravishda varqa to`ldirishdan iborat bo`lardi. Kolxozlarni tuzilishi uch shaklda olib boriladigan bo`ldi. Birinchisi qishloq xo`jalik ishlab chiqarish shirkati bo`lib, unda butun qishloq xo`jalik inventarları, ot-ulov, tortuv kuchlari va yerni birgalashib ishlovchilar umumlash-tirilgan. Ikkinchisi qishloq xo`jaligi arteli bo`lib bunda barcha ishlab chiqarish vositalari, yer va butun ishlab chiqarish jarayoni umumlashtirilgan. Uchinchisi qishloq xo`jalik kommunasi bo`lib, u ijtimoiy ishlab chiqarish va dala taqsimotdan iborat bo`lgan. Dala ishlari boshlangunga qadar kolxozlar tuzish masalasi bilan bog`liq barcha tadbirlar tuzilajak kolxozlar hududlarida amalga oshirilishi kerak edi. VKP (b) Markaziy Komiteti O`rtta Osiyo byurosi 1930-yil 28-yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog`liq tadbirlar to`g`risida qaror qabul qiladi. Qarorda kolxozchilik harakati ko`p jihatdan qishloq xo`jaligini tez sur`atlar bilan tehnikaviy (traktorlarni, murakkab qishloq xo`jalik mashinalarini joriy etish) jihatdan qayta qurollantirishga asoslanishi, dehqonlarning ommaviy harakati asosida bir qator rayonlarda yoppasiga jamoalashtirish uchun qulay shart-sharoit yetildi, degan g`oya ham qayd etildi. O`rtta Osiyo byurosi Markazning ko`rsatmasiga xilof ravishda jamoalashtirish uchun yuqorida majburan, buyruqbozlik bilan yuzaga keltirilgan “ommaviy harakat” degan aqida asosida yoppasiga jamoalashtirish rayonlarini ham aniqlab berdi. Unga ko`ra bunday rayonlar O`zbekiston bo`yicha yangi Buhoro, Sariosiyo, Konimex, Shahrihon, Asaka, Marhamat, Jalolquduq, Chust, Buvayda, Bag`dod, Rishton, Quva, Yangiyo`l, Pskent, Mirzacho`l, Oqdaryo, Pastdarg`om, Yangiyo`rg`on, Turkmaniston bo`yicha Qiziloyoq, Karki, Farob, Sayat, Denov, Kaaxka, Semenik, Seraks, Qирг`isizton bo`yicha Bozorqo`rg`on, Arovonbura, Prıozerniy, Beloved, Rikov, Kalinin, Tojikiston bo`yicha Saroyqoratog`, Kabodiyon, Parkar, Orol, Cheptura rayonlari edi. O`rtta Osiyo byurosi bu rayonlarni mustahkamlash uchun milliy kompartiyalar Markazkomlari zimmasiga yoppasiga jamoalashtiriladigan rayonlarda partiyaviy rahbarlikni kuchaytirish vazifasini qo`ydi³⁷. 1930-yil 28-yanvardagi qaroring VI bo`limda quloqlarni sinf sifatida tugatish uchun amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Bu ishni amalga oshirishda batrak va kambag`allar keng ommasi bevosita ishtirot etishlari, juda faol bo`lishlari lozimligi ko`rsatilgan. Kolxozchilik harakati va quloqlarni sinf sifatida tugatish sari olib borilayotgan partiya va sovet hukumatining bunday siyosati quloq unsurlarning dushmanlik, qo`poruvchilik faoliyatini avj oldirishlari e`tiborga olinib, holatning oldini olish uchun respublikalar hukumatlari qarorlari qabul qilib quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari ko`rsatilgan: 1) quloq-larning ishlatalmay yotgan yerlarini tortib olib, kolxozlar yoki kambag`allarga berish; 2) jonli va jonsiz inventarlarni hisobga olib inventar egasiga ularni saqlash mas`uliyatini yuklash; 3) joriy ekish mavsumidan boshlab tugatilmagan quloq xo`jaliklarining jonli va jonsiz qishloq xo`jalik inventarlaridan kolxoz yoki kambag`allar dalalarida hashar yo`li bilan foydalanishga erishish, yagona qishloq xo`jaligi solig`i

³⁷ Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 57.

bo'yicha qulqoq xo'jaliklariga tehnikaviy ekinlar uchun berilayotgan barcha imtiyozlarni bekor qilish va boshqalar.

Joriy ekish mavsumida jamoalashtirish 70-75% bajarilgan rayonlar yoppasiga jamoalashtirish rayonlari deb hisoblangan. Yoppasiga jamoalashtirish va qulqlarni sinf sifatida tugatishni mislsiz avj oldirish qishloq kambag'al-batraklar qatlami faolligining nihoyatda yuksalishiga olib kelishi mumkin deb hisoblab O'rta Osiyo byurosi mahalliy partiya tashkilotlariga bundan foydalanib qishloqdagi kambag'al-batraklarning eng yaxshi vakillarini partiyyaga yollashni maslahat beradi. Ayollar ommasini ham bu ishga keng miqyosda jalg etish qarorda ko'rsatildi. Qishloq sovetlari, partiya yacheykalari va kolxozi tarkibida xotin-qizlar salmog'ini muttasil oshirib b'o'rish vazifa qilib qo'yildi. Jamoalashtirish va qulqlarni tugatish ishida komssomol tashkilotlarining ham o'mni va ro'li o'sha qarorda ko'rsatib berildi. Jamoalashtirishning "jadal sur'atlari" natijasida respublika bo'yicha 1930-yil martda dehqon xo'jaliklarining 47% jamoalashtirildi, holbuki, 1929-yil 10-dekabrga qadar kolxozi dehqon xo'jaliklarining bor - yo'g'i 34% ni qamrab olgan edi, xolos. Shu bilan birga ishlab chiqarish vositalarini umumiylashtirish masalasidagi noaniqlik tufayli yakka xo'jalikdan birdaniga jamoa xo'jaligining oliy shakli bo'lgan kommunalarga sakrab o'tish hollari sodir bo'ldi. Kommunalar tashkil etilgan joylarda darhol turar-joylarni, mayda hayvonlarni, parrandalarni va hokazolarni umumlashtirish ko'zda tutilgan edi. Qishloq xo'jalik artellarini tashkil etish vaqtida ham joylarda chorva mollari va parrandalarni umumiylashtirishga intilish sodir bo'ldi. Shunday qilib jamoalashtirish dehqonlarga zo'ravonlik qilish yo'li bilan amalga oshirildi. Badavlat xo'jaliklarining mol-mulkini to'liq musodara qilish "boy qulqlar" oilalarini o'zga yurtlarga surgun qilish ommaviy qonunsizliklar asosida amalga oshirildi³⁸.

Jadal jamoalashtirishga, qulqoq qilishga o'rtahol qatlamlarga shubha bilan qarashga, qishloq aholisining boshqa qatlamlari insoniy huquqlarining poymol etilishiga qaratilgan yo'l qishloqda siyosiy vaziyat keskin tus olishiga sabab bo'ldi. Qishloq aholisi o'rtasidagi bu ijtimoiy norozilik qudratli portlashni keltirib chiqardi. 1930-yil 15-iyunda Iskavot qishloq soveti hududidan qo'llarida ketmon, bolta ko'targan 2 ming kishilik qishloq odamlari yo'lga chiqib tuman markazida shikoyat bilan yurish qildilar. Bir necha batraklar yaradot bo'ldi, 20 dan ortiq xotin-qizlar hibsga olindi. Bu hildagi chiqishlar Farg'ona, Bag'dod tumanlarida, Oyimda, Chustda, Xatirchida ham ro'y berdi. Kolxozlarga qarshi chiqish hollari OGPU ning ma'lumotlariga qaraganda, respublikada bu davrda 240 marta sodir bo'lgan. Umuman olganda, SSSR bo'yicha 1930-yil martining o'rtaliga kelib 2 mingdan ortiq qurolli chiqishlar qayd etilgan³⁹.

Moskvaning tazyiqi bilan 1931-yilning bahoridan e'tiboran O'zbekistonda yoppasiga jamoalashgan tumanlar tashkil etish tajribasi qayta tiklandi. Ittifoqning g'allakor tumanlarini jamoalashtirish sur'atlari bo'yicha "quvib yetish va o'zib ketish" shiori yana ilgari surildi. Bu vazifani ta'minlash ilgari ishlab chiqilgan amalga oshirildi. Natijada, agar 1930-yil iyunda respublikada 6124 ta kolxoz mavjud bo'lib, ularga jalg qilingan dehqon xo'jaliklarining 27,1% ni tashkil etgan bo'lsa, yilning oxiriga borib, u 37,7% ga, 1931-yilning mayida 56,7 % ga yetdi. 1 dekabrda esa 68,2 % bo'ldi⁴⁰.

Shuningdek jamoalashtirishni jadallashtirishning "iqtisodiy" usullaridan o'ziga xos tarzda foydalanildi. Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'ravonlik, qishloq mehnat-kashlarini

³⁸ Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalashtirish, qulqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 348.

³⁹ O'zbekistonning Yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida /tuzuvchilar Jo'raev M. va boshqalar. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 352.

⁴⁰ O'zbekistonning Yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida /tuzuvchilar Jo'raev M. va boshqalar. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 353.

kolxozlarga "haydash" ning iqtisodiy terror usullari rasmiy belgilangan kolxozi qurilishi rejalarini sezilarli ravishda oshirib bajarish imkonini berdi. 1932-yilning oxirlariga kelib umuman respublikada ijtimoiy sektor barcha dehqon honadonlarining 81,7% ni birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxozi va 94 ta sovxozi tashkil etildi. Shunday qilib, kolxozi qurilishi sur'atlarini sun'iy ravishda avj oldirish, kolxozlarni "sotsialistik asosda mustahkam-lash", ko'p sonli odamlarning qurban bo'lishiga, ularning begunoh qoni to'kilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda respublikada faqat bir xil shakldagi kolxozi tuzumi qaror topdi⁴¹.

Yakka dehqon xo'jaliklarining to'la-to'kis tugatilishi va kolxozlar yirik umumlashgan ishlab chiqarishning yagona shakli sifatida qaror topishi sovet hokimyatinining "kolxozlardan oldingi qishloq" ni sotsialistik o'zgartirish borasidagi siyosatning tantanasi, deb baholanadi. Aslida esa sovet davlatining bu siyosati qishloqdagagi bozor munosabatlarining barbod bo'lishiga, mulkchilikning xilma-xil shakllari tugatilishga, oxir oqibatda agrar ishlab chiqarishning izdan chiqishiga olib keldi. Umuman jamoalaشتirish o'zbek qishlog'i tarixiy rivojlanishning sog'lom jarayonlariga to'sqinlik qildi. U dehqonlarning davlat tomonidan asoratga solinishiga olib keldi. Kolxozlarga zo'rlik bilan haydab kirilgan dehqonlar barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan va avvalo ko'chib yurish erkinligi, kasb faoliyatini tanlash huquqlaridan mahrum qilindilar. "Baxtli kolxozchilar" "badavlat turmush" dan qo'chib ketishlaridan hafvsirab, Stalin ularning pasportlarini olib qo'yishni buyurdi⁴².

Kolxozchilarning kolxozdan ko'ngilli ravishda chiqishlari ta'siqlandi. Ularning noroziligini bosish uchun 1932-yil 7-avgustdagagi farmon bilan kimda - kim dehqonlarni kolxozlardan chiqarishga "majbur" qilar ekan, 5 yildan 10 yilgacha muddat bilan "konsentratsion lagerlar" ga tashlanishga hukm qilinadi, deb ko'rsatma berdi. Jamoalaشتirish qishloq xo'jaligiga juda og'ir zarar bo'lib tushdi. Respublikada ocharchilik boshlandi (1933-yil). G'alla yetishtirish keskin qisqardi. Chorvachilikka haddan tashqari zarar yetdi. Bu siyosat yomon, xunik, fojeali oqibatlarga olib keldi. "Uning ijtimoiy oqibati shu bo'ldiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qishloq infrastrukturasiyagi kattadan-katta mablag' boshqa sohaga behuda sarflandi, qishloqda Stalincha diktaturaning ijtimoiy bazasi mustahkamlandi. Dehqonlar o'z mulki va mehnati natijalaridan begonalashdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy rag'batlari tugatildi, qishloqda malakali ishchi kuchi taqchil bo'lib qoldi"⁴³.

Jamoalaشتirish to's-to'palonlari paxtachilikka ham ta'sir ko'rsatdi, paxta yakka hokimligining yalpi ommalashuviga olib keldi. 1930-yilning bahoridan boshlab sredaz EKOSO respublika hukumatidan yoppasiga jamoalaشتghan tumanlarda "to'rtdan uch qismga chigit ekish" ni talab qildi.

Respublika rahbariyati imkonli boricha yalpi paxtachilikni avj oldirishdan iborat halokatlari jarayonni to'htatib qolishga urunib ko'rди. Ular paxta bilan bir qatorda g'alla ekish, sabzavot yetishtirish, chorvachilikni yuksaltirish uchun mustahkam yem-hashak bazasini yaratish kabi oqilona takliflami qo'ydi. Biroq Kremlagi siyosiy rahbariyat "joylar" dan bo'lgan takliflarga qulq solishni istamadi. Stalin paxta mustaqilligiga erishish shiori ostida respublikamizni paxta yakkahokimligiga faoliy bilan majbur etdi. Uning tazyiqi bilan 1933-yildayoq paxta respublika tayyorlab beradigan mahsulotlarni umumiyyaj minning 81,5% ni tashkil etdi. 1937-yilga kelib bu ko'rsatkich 93,4 % ga

⁴¹ Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalaشتirish, quloqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 312.

⁴² O'zbekistonning Yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamvakachiligi davrida /tuzuvchilar Jo'raev M. va boshqalar. Toshkent: Sharq, 2000. – B. 356.

⁴³ Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: Jamoalaشتirish, quloqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 6.

yetdi. Shuningdek 30 yillarda sovxozi qurilishi ham tez sur'atlar bilan amalga oshirildi. U ko'p jihatdan "SSR ning paxta mustaqilligini qo'lga kiritish" vazifalarini ta'minlashga bo'yundirilgan edi. 1940-yilga kelib sovxozi larning umumiy soni respublikada 85 taga yetdi. Biroq ularning kolxozi singari jadallik bilan qurilishi qishloq xo'jaligi taraqqiyotini tezlashtirishga yordam berolmadi. Sovxozi siyosiy rahbariyat "orzu qolhanidek" samarali agrar ishlab chiqarish namunasi bo'la olmadi. "Jamoalashtirish" natijasida majburan tashkil qilingan "kolxoz-sovxozi tuzumi" yerdan foydalananishning yaroqsiz shakli bo'lib, oxir-oqibatda agrar ishlab chiqarishni tanazzulga olib kelishiga, olib keldi. Davlatning qishloqdagisi azalii an'anaviy xo'jalik aloqalari tizimiga yoppasiga aralashuv, qishloq xo'jaligi uchun mutlaqo zararli bo'lgan sotsialistik munosabatlarni majburan ticiqishtirilishi mustaqil rivojlanishning ichki imkoniyatlarini barbob qildi, qishloq mehnatkashlarining ongi esa buzilib bordi. Dehqonlar yerga va ishlab chiqarishga egalik tuyg'usini, ming yillardan buyon singib ketgan mehnatsevarlik fazilatlarini yo'qotib bordilar, ulardagagi mehnatga, kasb mahoratiga bo'lgan mehr-muhabbat sovib bordi. Bu buzulish jarayonlarining ta'siri xali-hanuz barham topgan emas. Respublikamiz prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, bozor agrar islohotlarining zamonaliviy tajribasida sovet o'tmishidan meros bo'lib qolgan jiddiy to'siq har qadamda uchrayotgan rasmiyat-chilik, ko'zbo'yamachlik, ishimizga yuzaki qarashdir⁴⁴.

Bu zararli illatlarning ildizi zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan jamoalash-tirishda yashiringan edi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSH AVLODGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tillayev Bobomurod

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi globallashuv jarayonida demokratik nuqtai-nazardan yangilanayotgan, o'zgarayotgan hayot yoshlarimizni o'ziga xos sinovdan o'tkazmoqda. Jamiatning kelajagi yoshlar bilan bog'liq va ular taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. O'z navbatida yoshlar ham ilm-fan va boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikka munosib javob bermoqdalar. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati: bu borada mavjud qonunchilik, yangi qarorlarni qabul qilinishi va islohotlarning amalga oshirilishi mustahkam kuchli tayanch bo'immoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga jamiatning imtiyozli tabaqalaridan biri sifatida g'amxo'rlik ko'rsatilib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ularga oid davlat siyosati izchil ro'yobga chiqarib kelinmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunida⁴⁵ belgilab qo'yilgan. Qonunning 1-moddasida "Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustivor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir" deb yozib qo'yilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Respublika Prezidenti tomonidan 1992-1993 yillarda yoshlar

⁴⁴ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild - Toshkent: O'zbekiston, 1996.-163 bet.

⁴⁵ O'zbekistonning yangi qonunlari. №5. Toshkent. O'zbekiston, 1992. - B. 52.

Ijtimoiy kafolatini ta'minlash va ular iste'dodini kamol toptirish maqsadida 14 ta Farmon qabul qilindi.⁴⁶ Ularda yoshlarning moddiy ahvolini yaxshilashdan tortib, yoshlar iste'dodini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishgacha bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish belgilab berildi.

"O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodni tarbiyalash yuzasidan «Ta'lif to'g'risida»gi qonunni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni, «Maktab ta'limini rivojlantirishning umummilliy dasturi»ni, 2008 yili "Yoshlar" yili Davlat dasturini, 2010 yili "Barkamol avlod yili" Davlat dasturlarini hamda boshqa bir qator hujjatlarni ishlab chiqilishida ilk bosqich bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeji, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- milliy, madaniy an'analarning avloddan-avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi;
- yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish;
- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi;
- huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida yoshi avlodga qaratilgan davlat siyosatining o'ziga hos jihatlari davrga hamohang tarzda takomillashib, o'z mazmunini boyitib hamda, ichki sur'atini namoyon etib bormoqda. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasida yosh avlodga qaratilgan davlat siyosatining o'ziga xos hususiyatlari belgilandi:

- respublika hududida yoshlarga oid davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va taskiliy asoslарини belgilash;
- yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta'minlash;
- yoshlarga oid davlat siyosati boshqaruvi idoralarini tuzish;
- yoshlarga oid davlat siyosati sohasida respublikada kompleks va aniq maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'larni tasarruf etish;
- respublika yoshlaring manfaatlarini O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini doirasida ifodalash;
- respublika hududida yoshlarning va ular birlashmalarining ijtimoiy munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish;
- respublika yoshlaring, yoshlar jamoat yuushmalarining tashabbuslarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va tashqiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- hamma huquq subyektlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlarida yoshlarga nisbatan belgilab qo'yilgan majburiyatlariga roiya etishlarini nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosatni shakllantirish hamda amalga oshirishning boshqa masalalari.

⁴⁶ Jo'raev N., Fayzullaev T. O'zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Toshkent. Sharq, 2000. – B. 486.

O'zbekistonda yoshlarga qaratilgan davlat dasturlari O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustivor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkonli boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI

A.Qambarov,

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

O'zbek davlatchiligining rivojlanishi davrimizning umumiyligini qoidasini tasdiqlaydi: o'zini sivilizatsiyaga erishgan deb hisoblaydigan har bir davlat o'zining konstitutsiyasiga ega. Bu tabiiy holdir. Hozirgi zamondagi davlati uchun konstitutsiyaning ahaliyati va zaruriyati, eng avvalo, shu bilan belgilanadiki, unda mazkur davlatning asosiy prinsiplari va vazifalari, uni tashkil etish asoslari, faoliyat shakllari va usullari mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov bu xususda shunday deydi: "Konsti-tutsiya – nafaqat bugungi kunning qomusi, balki u ertangi kunimiz, qurayotgan jamiyatimiz istiqbolini aniqlab beruvchi mayoqdir". [Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan.4-tom. – Toshken: O'zbekiston, 1996, 154-155-betlar.]

Konstitutsiya jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida davlat boshqaruvining chegaralari va xususiyatini, davlatning inson va fuqaro bilan o'zaro munosabatini belgilaydi.

"Har bir davlatning boshqaruv tizimi tarixan ma'lum bir huquqiy manbalarga binoan shakllanib kelgan. Lekin bu huquqiy manbalar turli ko'rinish va turli iboralar bilan nomlanib kelingan. Hozirgi Uzbekistonimizning ham hududida ilgaridan konstitutsiyaviy hujjalarni, ya'ni siyosiy tuzum mohiyatini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjalarni mayjud bo'lgan. Jumladan: tarixiy manbalarga ko'ra, XI asrdan boshlab Movarounnaharda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi Asosiy qonun tariqasida Qur'oni Karim amalda bo'lgan". [A.X.Saidov. Qiyoziy Konstitutsiyashunoslik. Toshkent. 1993, 3-bet.]

O'zbekiston sobiq Ittifoq hududida birinchilardan bo'lib huquqiy suverenitetga erishish maqsadini e'lon qildi, prezidentlik – respublika boshqaruv shaklini joriy etdi, davlat ramzları bo'yicha komissiya tuzdi, Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiya qabul qildi, Konstitutsiyaviy komissiya tuzdi, o'z Konstitutsiyasini ishlab chiqdi va qabul qildi.

1992 yil 8 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi yangi O'zbekistonni barpo etishda mamlakatimiz hayotida ulkan siyosiy voqeя bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlanganidek: "O'zining Asosiy Qonunida davlat tuzumi printsiplarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy negizlari va strategik yo'nalishlarini mustahkamlab qo'yongan davlat chinakam suveren davlat bo'la olmaydi". [Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.-6-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. 138-bet.]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi faqat yuridik hujjatgina bo'lib qolmay, ayni paytda u dasturiy – maqsad vazifasini ham bajaradi. Ham bugungi, ham ertangi kunimizning Asosiy Qomusi sifatida u jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar yo'nalishlarini oldindan belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy ahaliyati shundan iboratki, u dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat paydo bo'lganini qonuniy mustahkamladi. Binobarin, hech bir davlat o'zining Asosiy Qonunida davlat ya jamiyat qurilishining

prinsiplari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari va strategik yo'nalishlarini mustahkamlasdan turib, haqiqiy suveren davlat bo'la olmasligi aniq.

Bizning Konstitutsiyamizning eng muhim xususiyati shundaki, unda davlat organlari va mansabdar shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati qonuniy mustahkamlangan, ya'ni har bir fuqaro manfaatlarining ustivorligi qonun bilan ta'minlanadi va kafolatlanadi.

Umuman olganda "Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarmizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga kuchaytirishimiz darkor". [Karimov I.A. Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi.-Toshkent: O'zbekiston, 2010.-6-7-betlar.]

O'ZBEKISTONNING TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI

*R.Asqarov, I.Omonov,
Nam DU talabalari
T.Q.Qozoqov ilmiy rahbar, tarix fanlari nomzodi*

Xalqimiz mustaqillik deb atalmish ezgu va muqaddas orzuning ro'yobga chiqishi uchun asrlar mobaynida intilib, kurashib keldi.

1991 yil 31 avgustdan boshlab xalqimiz taqdirda keskin burilish yasagan, butunlay yangi taraqqiyot davrini boshlab bergan istiqlol davri tarixi boshlandi. 130 yillik Rossiya mustamlasiga mahkum etilgan davrning ilgarigi zamonlardan farqi shuki, shu vaqtida ayniqsa, sho'rolar hukmronligi yillarda xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib quyildi⁴⁷.

Garchi katta mamlakatning asosiy qonuni hisoblangan «SSSR Konstitusiyasi» da O'zbekiston boshqa o'n to'rtta «qardosh va jondosh» milliy respublikalar singari «teng huquqli», «mustaqil», «suveren» davlat sifatida ta'rifu-tavsif etilsada, amalda ko'zga ko'rinas, ming va million xil ustalik bilan «to'qilgan», to'rlar bilan qo'l-oyog'i bandi etilib quyilgan edi.

Mustabid sovet tuzumi davrida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarni asosan sosialistik mamlakatlar bilan, sobiq markazning yo'l-yo'riqlari bilan amalga oshirar, respublikaning o'zi tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqish huquqiga ega emas edi.

Respublikaga olib kelinadigan mahsulotlar, respublikadan chiqariladigan mahsulot hajmiga nisbatan ancha ortiq edi. 1990 yil respublikaga 14661,8 mln. so'mlik mahsulot olib kelingan bo'lsa, chetga chiqarilgan mahsulot hajmi 9351,5 mln. so'mga teng bo'lган.

XXI asr bo'sag`asida O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib jahon hamjamiyatga kirish, integratsiyalashish tomon yuz tutdi.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar, hech qachon o'z qobig'iga o'ralib rivojlanmagan. Aksincha, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi bilanoq jahon hamjamiyatga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilagan.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatga qo'shilish davri g'oyat bir murakkab va qaltis davrga to'g'ri keldi. Sobiq ittifoq tarqalib ketgach dunyo asosan ikki qutbli (SSSR va AQSh) bo'lgan bo'lsa, endi ko'p qutbli bo'lib qolgan edi. XX asr o'z g'avg'olari,

⁴⁷ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.-B.19.

to`palonlarini, qirg`inlarini biz yashayotgan XXI asrga meros qilib qoldirib xayr ma`zur qilayotgan bir davrga to`g`ri keldi.

O`zbekiston geosiyosiy jihatdan qulaylik tug`diruvchi imkoniyatlar bilan birga, bu borada kiyinchiliklar tug`diruvchi bir qancha omillar ham mavjud edi. Garchi, tashqi siyosat sohasidagi an'analarimizning ildizlari uzoq moziyga borib taqalsa-da, mustamlaka davridagi yo`qotishlar natijasida, dastlabki paytlarda respublikamiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini biladigan kadrlarga ham ega emas edi.

Tashqi siyosiy diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o`zi mustaqil boshlashga to`g`ri kelsada, respublika rahbariyati bu boradagi muammolarni yechishga dadil kirishdi, yuqorida ta`kidlab o`tilgan qiyinchiliklarni yengib o`tib, qisqa davr mobaynida o`z o`rnini va mavqeiga ega bo`ldi.

Prezident I.Karimov o`zining «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi⁴⁸. 1991 yil 31 avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Bayonot»da O`zbekistonning tashqi siyosatdagi yo`li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan, unda: «Xalqaro hamjamiyatning to`la huquqli a`zosi bo`lgan O`zbekiston Respublikasi Xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub`ekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o`z hududini qurol-yarog`lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg`in qurollarini yo`qotish, suveren davlatlar o`rtasidagi nizo va ziddiyatlarini hal etishda kuch ishlatishtirish va tazyiqqa yo`l qo`ymaslikdan iborat».

O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko`plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafoloti bo`lib xizmat qilmoqda. O`zbekistonni xalqaro huquq sub`ekti sifatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi.

«O`zbekiston Respublikasi innovatsiya tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to`g`risida»gi, «Chet el investisiyalari», «Xorijiy investorlar faoliyatining kafolotlari to`g`risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to`g`risida» va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir. Bular faol va keng ko`lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolot yaratib beradi.

Tashqi aloqalarni ta`minlaydigan vazirlıklar va muassasalar tashkil etildi: Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. 1992 yilda Toshkentda «Jahon iqtisodi va diplomatiya universiteti» ochildi.

I.Karimov o`zining asarlari, ma`ruza va nutqlarida mamlakatimiz tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy tamoyillarini nazariy amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo`lni belgilashda jahon tajribasidan foydalanildi, mamlakatimiz, xalqimiz xususiyatlari va manfaatlari hisobga olindi. Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo`li asos qilib olindi.

KONSTITUTSIYA – BAHTIMIZ QOMUSI

G.Abdusalomova,

Nam DU Milliy g`oya, ma`naviyat va huquq asoslari ta`limi yo`nalishi talabasi
Ilmiy rahbar, Zamilova Rimma.

“Sohibi adl”, “Sohibi jahon” nomlari bilan ulug`langan buyuk bobokalonimiz Amir Temur aytganlaridek: “Qayerda qonun hukmron bo`lsa, shu yerda erkinlik bo`ladi”. Agar qayerda adolatli, barcha uchun teng, xalq manfaatini ko`zlagan qonun bo`lsa, u

⁴⁸ Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li.-Toshkent: O`zbekiston, 1992.-96 b.

yurtda farovon hayot hukm suradi. Xuddi shunday qonun qadim tarixda, ya'ni Xammurapi davrida tuzilgan bo'lib, u hayotning barcha tomonlarini qamrab olishi, badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek ekanligi, qat'iyligi bilan tarixda alohida o'ringa ega. Qonunlar faqatgina podsholarning qarori sifatida qaralmasdan, u Xudoning xohish irodasi sifatida talqin etilishi natijasida jamiyatda ularni so'zsiz og'ishmasdan bajarilganlik darajasiga erishilgan. Qadim davrlarda tuzilgan ana shunday qonunlar takomillashib, hozirgi kunga kelib Konstitutsiya shaklida o'z ifodasini topgan.

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolatli hamda shaklantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya lotinchacha constitution so'zidan olingan bo'lib, o'rnataman, tuzilish, tuzik. Bu atamaning lotinchadan olinishining sababi, qadimgi Rim imperiyasi davrida davlat boshlig'i-imperator tomonidan xuddi shu nomi bilan ataladigan qonunga teng bo'lgan normativ hujjatlar qabul qilingan. Hozirgi Konstitutsiya tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo'lgan va dunyoda birinchi Konstitutsiya sifatida 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasi bilan bog'liq.

Aksaruyat xorijiy mamlakatlarda ushbu bosh manba "Konstitutsiya" deb atalsa, ayrim davlatlarda Konstitutsiyalar o'ziga xos nomlarga ega. Masalan: Germaniyada «Asosiy qonun», Kolumbiyada «Siyosiy Konstitutsiya», Manakoda «Konstitutsion ardonans». Konstitutsiya rivojlanishi 4 ga bo'lib o'rjaniladi.

1. XVIII asrdan XX asr boshlarigacha Polsha va Fransiyaning 1791, Belgiyaning 1831, Lyuksemburgning 1868, Shvetsariyaning 1974 konstitutsiyalarini misol.

2. Ikkita Jahon urushi oraliq'ida qabul qilingan Konstitutsiyalar SSSR, Eron, Turkiya, Misr.

3. 2-Jahon urushidan 80-yilgacha davom etgan Konstitutsionalizm. Buni boshqalardan farqi siyosiy partiyalar hokimiysi mustahkamlandi, inson huquqlari birinchi o'ringa chiqdi.

4. Barcha narsalar inson uchun.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi rivojlanish tarixida 3 ga bo'linadi:

1. 1918-Turkiston ASSR. Bu birinchi davr Konstitutsiyalari bo'lib, ular qatoriga: BXSR va XXSR Konstitutsiyalarini kiradi.

2. 1924-yilda O'zbekiston SSR Konstitutsiyalarini.

3. 1992-yilda 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyadir.

Konstitutsiya davlatning asosiy qomusidir. Har bir demokratik davlatda Konstitutsiya muqaddas sanalib, unga so'siz amal qilish lozim. Konstitutsianing yana **bir ijobji jihat - jamiyat** hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish, insonning munosib yashashi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan. 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik dekloratsiyasi" mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi. 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya o'sha kuniyoq tuzildi. Konstitutsianing dastlabki nusxasi 1991-yilning uchinchi choragida tayyorlab bo'lindi. U muqaddima 6 bo'lim, 158 moddadan iborat bo'ldi. Bu orada 1992-yil bahorda Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi nusxasi ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muxokamasiga qo'yildi. Umumkonstitutsiya komissiyasining o'ziga qilingan olti mingda ortiq taklif-mulohazalar tushdi. Va niyoyat 1992-yil 8-dekabrda 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat Konstitutsiya qabul qilindi.

Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi Sh. Z. O'razayev shunday xotirlaydi: Prezidentimiz juda taqchil vaqtidan fursat ajratib, Konstitutsiya komissiyasini qabul qilar, loyihasini o'qib chiqar, unga tuzatish kiritardi.

Shunday insonlarning mashaqqatli mehnati tufayli bizning jahon mamlakatlari Konstitutsiyalari bilan tenglasha oladigan Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Biz Konstitutsiyamiz bilan faxlanamiz.

DINIY EKSTREMIZM, YOHUD JAHOLAT ISKANJASI

Umarov Murodjon

*Nam DU Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi
T.Q.Qozoqov ilmiy rahbar, tarix fanlari nomzodi*

Keyingi paytlarada "Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm" va boshqa g'ayriinsoniy xatti-harakatlar nafaqat muayyan bir davlatga, balki butun dunyo mamlakatlari hamda xalqaro xavfsizlikka tahdid solmoqda.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoiti davrida biror bir harakat moliyaviy jixatdan ta'minlanmasdan turib, uni amalga oshirishning iloji yo'q. "Darhaqiqat, har qanday terroristik, ekstermistik harakatlar o'zining mafkuraviy jihatidan birlamchi manbalariga ega bo'lmasdan o'z faoliyatini amalga oshirolmaydi"⁴⁹. Shunday ekan, ularga qarshi kurashish, ularni yo'q qilish davrida bir qancha muammolarga duch kelinmoqda. Eksteristik kayfiyatdag'i kuchlarni yo'q qilish uchun, avvalo, ularni tag tomirini qo'porib tashlash, birlamchi manbalariga zarba berish lozim.

Jahon hamjamiyatida bu eng dolzarb muammoni hal etish maqsadida dunyo mamlakatlari turli amaliy chora tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar. Xususan, birgina O'zbekiston Respublikasida 2000 yil 15 dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilinishi terrorizmga qarshi kurash uchun dastlabki huquqiy poydevar bo'ldi.

Ushbu qonunni qabul qilish bilan O'zbekistondagi turli xil diniy, mutaassib aqidaparast kuchlarning musulmon xalifaligini qurishga yo'naltirilgan faoliyatlarini ta'qiqlashga asosiy e'tiborni qaratdi.

Bunday tashkilotlarning asl maqsadi, dinni niqob qilib olib, o'zlarini xudbinlikka asoslangan g'arazli maqsadlari ostida tinch aholini qo'zg'atish, ularni aldash (boyliklarini talon-taroj qilish), kezi kelganda esa, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishdek g'arazli maqsadlar yotadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab besh yuzdan ortiq terroristik tashkilotlar mavjud bo'lib, bugungi kunga qadar olti mingdan ortiq teraktlarni amalga oshirganlar. Bunday teraktlar oqibatida yigirma besh mingdan ortiq begunoh odamlar hayotdan bevaqt ko'z yumdilar.

Shuningdek Frantsiya davlatining poytaxti Parij shahrida "Islom fundamentalistlari" tomonidan amalga oshirilgan portlatishlar natijasida o'nlab odamlar hayotdan ko'z yumgan, yuzdan ortiq odamlar esa turli darajada jarohatlandilar.

1998 yil AQShning Keniya va Tanzaniyadagi elchixonalarida ham ushbu kuchlar tomonidan amalga oshirilgan teraktlar natijasida uch yuzga yaqin odam halok bo'ldi, bir necha o'nlab kishilar esa yaralandi⁵⁰.

Oradan bir yil o'tib, 16 fevralda yurtimiz poytaxti Toshkent shahrida ham shunday voqe'a sodir bo'ldi. Buning natijasida esa o'n nafardan ziyod odam halok bo'ldi, bir necha o'nlab kishilar esa turli darajada yaralandilar.

Bunday holatlarni birma-bir sanab yuzlab misollarni keltirish mumkin. Bularga qarshi kurashish uchun esa birdamlik, birlashish kerak. Dunyo mamlakatlari ham taxminan o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Xalqaro terrorizmni qoralab, uning

⁴⁹ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida.- Toshkent: Akademiya, 2005.- 382-bet.

⁵⁰ To'rayev B., Ubaydullayev I. O'zbekiston - mintaqada tinchlik himoyasida.- Toshkent: Q'zbekiston, 2001.- 55-bet.

xurujlariga qarshi kurashish”ni boshlab yubordilar va bir necha xalqaro huquqiy hujjatlarni qabul qildilar. Ushbu xalqaro miyisosida qabul qilingan hujjatlar yuqorida aytib o’tganimiz, “Terrorizmga qarshi kurashish” uchun huquqiy bazani to’ldirishi kerak edi.

Bu hujjatlarga:

1. “Havo kemalarini qonunga xi洛f ravishda olib qochishga qarshi kurashish to’g’risida”gi Konventsya 1970 yil.
2. “Garovga olishga qarshi kurashish to’g’risida” gi Konventsya 1979 yil.
3. “Terrorizmni oldini olish bo’yicha” Konventsya 1987 yil.
4. “Xalqaro terrorizmga barham berish chora tadbirlari to’g’risida”gi Deklaratsiya 1994 yil.
5. “Bombali terrorizmga qarshi kurash to’g’risida”gi konventsya 1997 yil.
6. “Xalqaro terrorizmga barham berish chora tadbirlari to’g’risidagi Deklara-tsiyani to’ldiruvchi Deklaratsiya” 1999 yil, shu va boshqalar kiradi.

Ko’rinib turibdiki jahon mamlakatlari terrorizm, fundamentalizm, radikalizm kabi eksterimistik guruhlar bilan jon olib, jon berib kurashmoqdalar. Shunday ekan har bir davlat fuqarosining ko’ngliga milliy g’urur, milliy g’oya kabi xislatlar, vatanparvarlik tuyg’usini kamol toptirishda turki bo’lishi tayin. Zero, bu tuyg’u shaxsning vatanga bo’lgan muhabbatida, o’z xalqiga bo’lgan yuksak hurmat ehtiromida ko’zga yaqqol tashlanadi. Bunday guruhlar ta’siriga tushib qomaslikka xalq hayotida muayyan buniyodkor milliy g’oyani tarannum etish orqali erishish mumkin.

Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida” gi Qonunning davomi sifatida bu kuchlarga zarba berish haqida to’xtalib, shunday degan edi: “... yovuzlik va terrorchilik maskurasini yaratayotgan ko’plab radikal va eksterimistik markazlarning birinchi navbatda yoshlari ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo’yicha konveer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek xomhayollarini amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qo’porib tashlash kerak”⁵¹.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, jamiyatning har bir a’zosini milliy g’urur, vatanga, ota-onaga muhabbat ruhida tarbiyalash oliy maqsadimizga aylanmog’i hamda har qanday ichki va tashqi tahdidlarga mardonavor qarshi turmog’imiz darkor.

⁵¹ O’zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya va isloh qilish yo’lida.- Toshkent: Akademiya, 2005.- 382-bet.

DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLATNI BARPO ETISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LIDAGI ISLOHOTLAR

B.Tillayev,

NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil qadamlar bosib bormoqda. Shu maqsadlar yo'lida o'zligimizni anglash, yurt ravnaqi, inson manfaati, erkinligi va farovonligini tapminlash talabi aniq va ravshan belgilab olingen. Prezident Islom Karimovning «Yuksak mapnaviyat - yengilmas kuch» asarida ta'kidlangani kabi: «Jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, ... barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak bo'lsa, hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi».

O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galidagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991 - 2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri tom mapnoda tarixiy ahamiyatga ega davr bo'ldi.

2001 yildan 2007 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich - faol demokratik o'zgarishlar, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni tapminlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Demokratiya avvalambor mapnaviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir. Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jihat, ikki qanotidir.

Jamiyat hayotida qonuniylik mezonlari to'liq joriy etib borilishi davlatning faoliyatida o'z aksini to'ishi va doimo mustahkamlanib borilishini taqozo etadi. Aynan shu maqsadlarga mos holda O'zbekistonda islohotlarni muhim yo'nalishlari etib hokimiyatni bo'linish tamoyilini amalga oshirishni tapminlash, jamiyatni siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, sud hokimiyatining rolini oshirish kabi masalalar belgilab olingen. Bu yo'lida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» g'oyasi asosida ijobji iatjalarga erishilib kelinmokda. Prezidentimiz shu uchta yo'nalishdagi islohotlar yuzasidan quyidagi fikrni bildiradi: «Mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalab berildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi», «Davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar natijasida mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlamentga aylantirildi», «Sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini tapminlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo'yildi va muvaffaqiyatli hal etildi»¹.

Shuning uchun ham 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo'linishi tamoyili mustahkamlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli maprazasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. — Toshkent: O'zbekiston, 2007. — B. 12.

hayotining eng muhim masalalari, jumladan, hokimiyati bo`linishiga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Mapruzada «Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu - qonunchilik hokimiyati bo`lmish mamlakat parlamentining roli · va tapsirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o`rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat»² ekani qayd etildi.

Qonunchilik palatasida barcha siyosiy partiya va tashabbuskor guruh vakillarining bo`lishi, ular o`z fraktsiya va guruhini tuzish imkoniyatiga ega ekani turli fikrlilik, bahsmunozara asosida faoliyat yuritish, ishchanlik muhiti shakllanayotganidan dalolat beradi. Qonunchilik palatasi aholi keng qatlamlarini qamrab oglani uning aholi turli qatlamlari manfaatlarini teng ifoda etishini ko`rsatadi. Bu esa qonunlarni puxta-pishiq tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Professional asosda doimiy ishlaydigan parlament O`zbekiston tajribasida ilk bor shakllantirilib, hozirgi kunda samarali faoliyat yuritmoqda. Albatta, uning tajribasi ham, ish samaradorligi ham borgan sari ortib, yangi-yangi vazifalarini bajarish salohiyati yuksalib boradi. Prezidentimiz tomonidan Qonunchilik palatasi vakolat va huquqlarini kengaytirish masalasi ilgari surilayotgani ham bejiz emas.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek, «Sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish» lozim bo`ladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini tapminlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq de`utatlari viloyatlar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga oldinda turgan saylovlar munosabati bilan jamiyatni modernizatsiyalash va yangilash jarayonlarida mamlakat oliy qonunchilik organi, joylardagi hukumat vakillik organlarining roli va o`rnini yanada kengaytirish va mustahkamlash maqsadlarida O`zbekiston Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi.

Hokimiyatning qonunchilik va vakillik organlarini shakllantirish ishida siyosiy partiyalarning roli sezilarli ortib bormoqda. Ularga bir vaqtning o`zida saylovlarga tayyorgarlik va ularni o`tkazish borasidagi saylov qonunchiligining talablari bajarilishi bo`yicha katta maspuliyat yuklatiladi. Bugungi kunga kelib O`zbekistonda siyosiy partiyalarning jamiyat instituti sisfatidagi huquqiy maqomi shakllandı. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida siyosiy partiylar jamoat birlashmalari kabi jamiyatning instituti ek anligi e`tirof etilishi bilan birga, ularning davlat hokimiyati organlari faoliyatiga aralashishga yo`l qo`yilmasligi konstitutsiyaviy me`yorlar bilan belgilab qo`yildi. Umuman, O`zbekiston qonunchiligidagi demokratik Printsiplar asosida faoliyat yuritadigan siyosiy partiyalarning o`z faoliyatini amalga oshirishlari uchun huquqiy asoslar yaratib berildi.

O`zbekiston Konstitutsiyasidagi demokratik tamoyillar, shuningdek amalga oshirilgan huquqiy va siyosiy islohotlar mamlakatda yangi partiyalarning tuzilishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Ko`rinib turibdiki, XXI asr boshlarida mamlakatda jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirish, buning uchun avvalo jamiyatda ko`ppartiyaviylik tizimini yanada demokratlashtirish vazifalari siyosiy islohotlarning muhim jihatlarini tashkil etadi.

Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishdagí ishtiroklari saylovlar davrida aniq va ravshan namoyon bo`ladi. Shu bilan birga, O`zbekiston Respublikasi

² Karimov I.A. *Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va etishdir.* T. 13. - Toshkent: O`zbekiston, 2005. - B. 179.

Konstitutsiyasining 32-moddasida «Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi»³, deyildi. Mazkur konstitutsiyaviy qoidadagi «davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish» so'zining asl mapnosi davlat organlarini xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanishini anglatadi.

O'zbekistonda Senatni shakllantirishda mahalliy vakillik organlariga Senat apzoligiga nomzodlar ko'rsatish vakolatlari berilishi - hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Shu bilan birga, mahalliy xalq de'utatlarining Senat apzolarini saylashda bevosita ishtirok etishi vakillik demokratiyasining shakllanishiga, shuningdek, ularning umumiylik davlat boshqaruvi faoliyatida bevosita ishtirok etishlari uchun huquqiy imkoniyatlar ham yaratdi.

Hozirgi davrda nodavlat notijorat tashkilotlari kuchli fuqarolik jamiyat qurishda, fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadir»⁴ kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini tapminlab beradigan huquqiy asoslarning e'tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan erkinlik jamiyat - fuqarolik jamiyat sari intilayotganligini anglatadi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan fuqarolik jamiyat institutlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyatni instituti sifatida rivojlantirishda 2005 yilning 10 iyunida tashkil to'gan «O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi» muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatda mustaqil, barqaror, aholining turli qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirishga, ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdag'i, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ish faolligini oshirishdagi rolini kuchaytirish maqsadlarida 2005 yil 26 iyulda «O'zbekiston - nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash fondi» tashkil to'di.

O'zbekistonda kuchli jamiyatga o'tish davrida o'zini o'zi boshqarish organlariga, ayniqsa, mahalla institutining rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekistonda mahalla qadimgi davrlardan boshlab xalqning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga, davlat va uning organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy maqomini mustahkamlash, mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inalarini fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir chuqur islohotlar ham amalga oshirildi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy qadriyatlar talablari darajasida shakllandi. Demokratik jamiyat qurish tajribalari shuni ko'rsatdiki, qaysi bir jamiyatda mansabi, irqi, jinsi va boshqa ijtimoiy darajasi qanday bo'lishidan qatpi nazar, fuqarolar konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan o'z burchlarini amalda bajarganlaridagina o'zlarini uchun tegishli bo'lgan erkinliklari va huquqlaridan foydalana olishlari mumkin. Shuning uchun ham O'zbekiston Konstitutsiyasining maxsus XI-bobi «Fuqarolarning

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2003. - B. 8.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2003. - B. 9.

burchlari» deb nomlanib, u 6 ta moddadan iboratdir. Xususan, Konstitutsiyaning bu bobidagi 48-moddasi quyidagicha ifodalanadi: «Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rivoja etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, shapni va qadr-qimmatini surʼat qilishga majburdirlar»⁵.

Ombudsman institutining joriy etilishi, Inson huquqlari Milliy markazi faoliyatining yoʼlga qoʼyilishi, mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nafaqat huquqiy asoslari yaratilganligini, balki bu sohaga doir barcha institutlarning shakllanganligini ifodalaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon oʼtgan tarixan qisqa davr ichida Oʼzbekiston dunyo hamjamiyatida oʼzining munosib oʼrnini egalladi. Oʼzbekistonning jahondagi obroʼeʼtibori yuksalib borayotgani, eng avvalo, yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qoʼlga kiritilayotgan ulkan ijobiy oʼzgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan eʼtirof etilishida mujassam boʼlmoqda. Bu davlatimizning jahon ahliga yaxshi maplum boʼlgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida oʼz ifodasini toʼmoqda.

QISHLOQ XOʼJALIGINING MODDIY JIHATDAN MUSTAHKAMLASHDA MULKDOR FERMER MUTAXASSISLARGA MUNOSABAT

*Halima Boʻrova,
Termiz Davlat universiteti tadqiqchisi*

Oʼzbekistonda amalga oshirilgan qishloq xoʼjaligi sohasidagi islohatlar tufayli mahsulot ishlab chiqarish hajimi oʼsib.aholining kundalik talab ehtiyojlarini tapminlandi. Natijada qishloq xoʼjaligida 2002 yilda qishloqda mulkdorlar sinfini shakllanirish, mulkiy paylar va oila pudratini joriy etish asosida qishloq xoʼjaligi shirkatlarini tashkil etish, qishloq xoʼjaligi mahsulotini yetishtirish hajmlarini koʼpaytirish va agrar sektorda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqaruvchilarining yerga va malkka egalik qilishlari, oʼzlarini yetishtirayotgan mahsulotlardan toʼliq bahramand boʼishlari boʼyicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli «Qishloq xoʼjaligi korxonalarini fermer xoʼjaliklariga aylanirish chora-tadbirlari toʼgʼrisida»gi qaroriga asosan Surxondaryo viloyatida 4 ta, Sheʼbod tumanining «Istiqbol», Bandixon tumanining «Xoʼjaipok», Muzrabot tumanining «A.Ikromov» va Shoʼrchi tumanining «G.Niyozov» xoʼjaliklar negizida 69 ta fermer xoʼjaliklari tashkil etildi. Yangidan tashkil etilgan fermer xoʼjaliklariga xizmat tilish uchun ikkita mini bank, toʼrtta yonilgʼi qoʼyish, toʼrtta kimyoviy mahsulotlar tilish shaxsobchasi, toʼrtta muqobil MTp va toʼrtta suvdan foydalanuvchilar uyushmasi tashkil etildi⁶.

Ichki xoʼjalik shartnomalarining toʼgʼri tuzilishi hamda shartnomalarining bajarishini nazorat qilish maqsadida barcha tuman qishloq va suv xoʼjaligi boshqarmalaridagi fermer xoʼjaliklarida monitoring jurnallari ochilib, tuzilgan shartnomalarning ijrosi boʼyicha monitoring ishlari olib borish yoʼlga qoʼyildi.

2000-2005 yillarda respublikamiz iqtisodiyotida ijobiy oʼzgarishlarga erishishda banklarning fermer xoʼjaliklarni iqtisodiy qullab-quvvatlash maqsadida ishtiroki sejarli darajada oʼsib, iqtisodiyotning real sektoriga yoʼnaltirilayotgan kredit qoʼyilishi, kichik va oʼrta tadbirkorlikni moliyaviy qoʼllab quvvatlash yuzasidan nalgila

⁵ Oʼzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: Oʼzbekiston, 2003. — B. 10.

⁶ Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxiv, 3-bayonnomma, 5-hujjat, 2003 yil, mart, 26-bet.

oshirilayotgan tadbirlar, zamonaviy texnologiyalar asosidagi investitsiyalarning ortib borishi bilan belgilandi. 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyatini o'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek, unga kiritilgan qo'shimcha va o'zgarishlar bank sohasini isloq qilish, bozor shart-sharoitlariga mos keladigan bank muassasalarini tashkil etish yo'llarini belgilab berdi. Natijada fermer xo'jaliklari o'tish davri talablarini qondira oladigan tijorat va xususiy bank tarmoqlari vujudga kela boshladi. 1994 yilda «G'allabank», 1995 yilda «O'zdehqonsanoatbank» negizida «paxta bank», undan tashqari «Savdogarbank», «Mevasabzavotbank», «Tadbirkorbank» va boshqalar tashkil etildi. 2005 yilda «G'allabank» mamlakatimizning mintaqalarida faoliyat ko'rsatayotgan 32 ta filial, 31 ta mini bank, 76 ta jamg'afma va 41 ta valyuta ayirboshlash shoxobchalariga ega bo'lgan bankdir. Ular iqtisodiyotining fermer xo'jaliklarida ish yurituvchi 39566 ta xo'jalik subgpekti hamda jismoniy shaxslarga samarali xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Mikrokredit mexanizmi bo'yicha bankning imtiyozi kreditlash jamg'armasidagi qariyb 753,1 million so'm miqdoridagi kreditlar fermerlar hamda dehqon xo'jaliklarining loyihibalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi. Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 sentyabrdagi «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan tapminlash, ularga bojxona imtiyozlari berish tufayli, bank yilda 8657,0 ming so'm so'f foyda oldi. Respublika «paxtabank» tomonidan 2002 yilda qishloq tadbirkorlariga, 5,3 milliard so'm yoki jami ajratilgan mablag'larning 45 foiz miqdorida kredit berdi. Respublikada faoliyat yuritayotgan 70 mingdan ziyod fermer xo'jaliklaridan 50 mingtasiga yoki 76 foiz ga shu bank orqali xizmat ko'rsatildi. Hukumat tomonidan zarar ko'rib ishlayotgan 177 ta qishloq xo'jalik korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirish vazifasi qo'yilganligi munosabati bilan 2003 yilda bankning xususiy tarmog'iga moliyaviy yordami yanada ko'proq ahamiyatga ega bo'ldi. Tadbirkorlik byudjetdan tashqari jamg'armalar orqali ham moliyaviy qo'llab-quvatlab borildi. 2002 yilda mulkdorlarning kichik korxona, dehqon va fermer xo'jaliklarining boshlang'ich sarmoyalarini shakllantirish uchun «paxtabank» tomonidan biznes fond yo'nalishi bo'yicha 69,6 million so'm imtiyozi kredit, dehqon va fermer xo'jaliklariga 75,9 million so'm kredit berildi⁷.

Surxondaryo viloyatida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun 2000 yilning 6 oyi davomida 281 ta fermer xo'jaligiga 457960 ming so'm kredit mablag'lari berildi. Shu jumladan, bankning o'z mablag'i hisobidan 370000 mln so'm, nobyudjet mablag'lari hisobidan esa 87960 mln so'mlik kredit qishloq xo'jaligiga ajratildi. 2002-yili Surxondaryo viloyatida yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga xizmat qilish uchun va ikkita mini bank tashkil etildi.

Prezidentimiz I.Karimov qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohot borasidagi bir muhim masalaga to'xtatilib, dehqon fermer xo'jaliklari sonimi keskin oshirishda mehnat samaradorligini oshirishda yechimini kutayotgan muammo va masalalar bor. Shulardan biri fermer (dehqon) xo'jaligi va shu xo'jalik tashkil qilingan yerda faoliyat ko'rsatayotgan davlat yoki jamao xo'jaliklari savxoz, kolxozi, shirkatlari o'rjasidagi o'zaro munosabatlarni aniq bir yo'lga qo'yish, ularning aloqalarini huquqiy zamin asosiga qurish zarurligini ta'kidladi. Fermerlarning huquqiy asoslarini shakllantirish maqsadida Surxondaryo viloyatida 2002 yilda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy kursi bo'yicha «intelet» Biznes inkubatorlarida o'qishlar tashkil etildi. Fermer xo'jaliklarining rahbar va mutaxassilaridan qirq nafari ushbu kursni o'qib tugatdilar⁸.

⁷«Xalq so'zi» gazetasi. 2003. 5 aprel.

⁸Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivsi, 11-bayonnoma, 8-hujjat, 2003 yil, noyabr, 34-bet

Shu bilan birga, fermer xo'jaliklarining yo'liga to'siq bo'layotgan uni rivojlanishiga haliqit berayotgan quyidagi holatlар mavjudligini ta'kidlamoq zarur:

- tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi, tapminot idoralarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish yuzasidan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarini o'z vaqtida ijro etmasligi hollari kuzatilmoqda;

- Ayrim xollarda rahbarlarning aybi bilan tadbirkorlar rejadan tashqari yetishtirilgan hosilga egalik qila olmayapdilar;

- Fermerlarda moddiy-teknik baza yetishmayapti;

- Bankerlarning fermerlarga pul mablag'lari va kreditlar berishda va ulardan erkin foydalanimishga muammolar mavjud.

Shunga qaramasdan o'tgan yillar mobaynida Surxondaryo viloyati iqtisodiyotning qishloq xo'jalik sohasida olib borilgan islohotlar ijobjiy natijalarni berdi. Viloyatda ommaviy pudratchilarining dehqon fermerlarning huquq bilimlarini oshirish, shartnomalarini bank tomonidan beriladigan majburiyatlarni tushuntirish, chek tiziminining mohiyati va yuritilishi, shirkat apzolarining huquq va majburiyatlari, manfaatdorligining tushuntirish maqsadida har bir shirkat xo'jaligida viloyat qishloq va suv xo'jaligi mutaxassislari tomonidan 2005-yili o'quv seminarida tashkil qilindi. Viloyatning Muzrabod, Angor, Termiz, Shcrrobod, Jarqo'rg'on tumani dagi oilaviy pudratchilariga dehqon-fermerlarga uzviy seminar o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqargan mahsulotlarga haridor to'ish, uzoq muddatli kreditlar berish, tekin «reklama», yangi taklif va shartnomalar orqali o'z mahsulotini sotish kabi qulay imkoniyatlarni o'rta va kichik mulkdorlar sinfiga, tadbirkor fermerlarga yaratib berish maqsadida chiqarilgan farmonlar o'z natijalarini bera boshladи.

O'ZBEKISTONDA URBANIZATSION JARAYONLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Anvar Tursunov,

O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy tadqiqotchisi

Kalit so'zlar; urbanizatsiya, demografiya, geografiya, shaxarlar, shaxarcha, moddiy-madaniyat, Surxondaryo, Qashqadaryo, mustaqillik, savdo-sotiq, hunarmandchilik.

Urbanizatsiya – tarixiy rivojlanish asosida shakllangan, jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geografik jarayondir. Urbanizatsiyaning demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, davlatlarda shaharlar va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq. Ana shu nuqtai-nazardan O'zbekistonda eng qadimiy shaharlar bilan birga XX asrning ikkinchi yarmida tashkil to'gan shaharlar ham mavjud.

Shaharlar dastlab ibridoij jamoa davridan sinfiy jamiyatga o'tishda hunarmandchilik va savdo-sotiq dehqonchilikdan ajralib chiqish davrida paydo bo'lgan. Hunarmand va savdogarlar muqim istiqomat qila boshlagan joylar gavjumlashib, shaharlarga aylana boshlagan. Dastlabki shaharlar miloddan avvalgi 5-3 ming yilliklarda Sharqda - Meso'otamiya, Markaziy Osyo mintaqasida hamda Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda vujudga kelgan⁹. Tadqiqotlar jarayonida mustaqillik yillarida shaharsozlik

⁹ O'zbekistonda ijtimoiy fanlar.-1984.-№-12, 30-31-betlar

masalalariga alohida e'tibor berilib, urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiena, qurilish-teknika, badiiy-me'moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darjasи, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shaharsozlik o'z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me'morligi, bog` barpo etish, shaharlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoklarga bo'lingan. Shaharsozlikda turar joylarning nafaqat me'moriy-badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga - yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'lari, infratuzilma (suv, oqava-kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqa muhandislik tapminotlari)ga katta e'tibor beriladi.

Urbanizatsiya jarayonlarni ilmiy tahlil etish davrida shaharsozlikni tumanlarga bo'lib loyihalash kabi yangi nazariyalarni keltirib chiqarib, aholi manzilohollarini yo'l yoqalab qurish, yo'ldash shaharlar yaratish rivojlandi; shuningdek anpanaviy binolar qurishdan voz kechib, eski shaharlar tarkibida osmono'par binolar qurish g'oyasi ilgari surildi. Zamonaviy Shaharsozlikning asosiy vazifalari - individual qiyofaga ega bo'lgan shahar va shaharchalar qurish, shahar ekologik masalalarini hal etish, eski shahar markazlarini saqlab qolish va ilmiy asosda tapmirlash, madaniy yodgorliklarni avaylab asrash va tapmirlash, ularning zamonaviy binolar bilan uyg'unligiga erishish.

O'zbekiston hududida dastlabki shaharlar Surxondaryo hududidagi qadimgi Sopollitepa, Jarqo'ton shaharlari miloddan avvalgi XVII-XIV asrlarda jez davrida paydo bo'lgan. Yozma manbalarda esa shahar haqidagi maplumotlar Avestoda uchraydi. Hozirgi bapzi shaharlar Qarshi shahari yonidagi Yerqo'rg'onning shakllanishini tadqiqotchilar miloddan avvalgi X-VIII asrlar bilan bog'laydilar¹⁰.

Janubiy shaharlar mustaqillik yillarda rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib, ichki va tashqi iqtisodiy-savdo aloqalari rivojlanib, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi kishilar-savdogarlar qatnovi paydo bo'ldi. Urbanizatsion jarayonlarning tarixiy tahlilida mustaqillik yillariga e'tibor berilsa Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati shaharlari mapmuriy, iqtisodiy, agrar, tabiiy boyliklarni, yangi yerlarni o'zlashtirish hisobida taraqqiy etib, mukammal rivojlandi. Eng muhimmi Qarshi, Termiz, Denov, Shahrисabz xalqaro savdo aloqlalari rivojlangan shaharlarga aylanib, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borishiga turtki bo'ldi. O'rta va kichik shaharlar bosqichma-bosqich rivojlanib borib, shaharlar O'rta Osiyoning qadimgi xalqaro madaniy aloqalarning rivojlanish bosqichlari asosida shakllanib keldi¹¹. Qashqadaryo vohasida qadimgi Nautaka, Yerqo'rg'on shaharlari o'nida yirik shaharlar to'liq aloqa-kommunikatsiya asosida rivojlanib, o'zinинг iqtisodiy-madaniy taraqqiyotini rivojlantirdi¹².

Termiz, Qarshi, Shahrисabz, Sherobod, Denov, Boysun, G'uzor, Kitob, Sho'rchi, Jarqo'rg'on shaharlari hududi qadimiy moddiy-madaniyat markazlari sifatida paydo bo'lib, savdo-transport yo'llari ustida joylashib, xalqaro iqtisodiy aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy madaniy markazlar sifatida O'rta Osiyo shaharsozligida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Urbanizatsiya jarayonlarining tarixiy tahlilini o'rganish jarayonida janubiy shaharlarga xos So'g'd, Baqtriya shaharlarining shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish muhim masala

¹⁰ Po'latov X.Sh., O'zbekiston arxitektura yodgorliklari, T., 2003;

¹¹ Mavlonov O', Mahkamova D., Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. -Toshkent: Akademiya, 2004, 65-bet.

¹² Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации в Узбекистан VII в до н.э. –VII в н.э. – Ташкент: 2000; Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyiga bag'ishlangan kitob-alg'bom. – Toshkent: Mahnaviyat, 2006.

hisoblanadi¹³.

Janubiy shaharlar katta-kichik, ko'hma va tarixan yaqinda vujudga kelgan shaharlar va shaharchalar hisobida urbanizatsion jarayonlarning takomillashuvi, mintaqaviy joylashishi asosida o'ziga xos moddiy va mapnaviy madaniyat, shaharlarning bir-biri bilan tarixiy madaniy munosabatlarni o'rganish jarayonida ko'plab tarixiy maplumotlarga duch kelindi. Mustaqillik yillarda janubiy hududlarda ilk shaharlarning paydo bo'lishi tarixiga to'xtalib, miloddan avvalgi XV-XII asrlarda sunpiy sug'orishga asoslangan dehqonchilik asosida paydo bo'lganligi qadimgi Termiz, Denov, Qarshi.Sherobod shaharlari misolida tahlil etildi. Eng muhimi savdo aloqalarining kengayishi, hunarmandchilik tarmoqlarining rivojlanishi, suv havzalariga yaqin unumdon yerlarning to'liq o'zlashtirilishi, shahar madaniyatini gullab yashnashiga olib keldi. Shaharlarning madaniyati va shaharlarning turmush tarzi qishloqlarga ham keng yoyildi¹⁴.

Mustaqillik yillarda urbanizatsiya jarayonlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlar sifatidagi ahamiyati ortib borib, shaharlarning rivojlanishiga olib kelgan ijtimoiy va iqtisodiy omillar eng avvalo, markazlashgan iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning mustahkamlanishga, iqtisodiy ixtisoslashishga bog'liq bo'ladi. Bu uch omil shaharlarning tarixiy-madaniy markazlar sifatidaga ahamiyatini oshirib, ularning yanada taraqqiy etishga turki bo'ldi. Qarshi, Shahrabsabz, Denov, G'uzor, Boysun, Jarqurg'on, Sherobod kabi shaharlarni iqtisodiy ixtisoslashi, ijtimoiy turmush tarzini yaxshilanishi, shahar va qishloqlarda savdo-sotiq, hunarmandchilikni tiklanishi, rivojlanishi, kichik va qo'shma korxonalarini paydo bo'lishi, beznes hamda tadbirkorlikni shakllanishi, zamonaviy ishlab chiqarishni tarraqiy etishi alohida ahamiyatga egadir. Urbanizatsiya bu jamiyat tarraqiyotining tarixiy rivojlanishni muhim omili bo'lgan shaharlarning o'mini oshib borishi tufayli ijtimoiy-iqtisodiy tarraqiyotni, aholining tarkibiy demografik tarkibini, uning turmush tarzini, madaniyatini, ishlab chiqarish kuchlarini, aholini joylashuvini tahlil etadigan jarayondir¹⁵. Ma'lumki, shahar-bu ko'p tarmoqli ijtimoiy aloqalarning murrakab tizimdir. Mustaqillik yillarda shaharlarning rivojlanish jarayonida ko'pgina vazifalar o'zgardi, ayrim vazifalar yo'golib, bapzilar esa takomillashib, o'z vazifaviy nuqtai nazardan takomillashib bordi. Bu jarayonda yetakchi vazifalar-aholi yashash joyi, savdo-sotiq, hunarmandchilik kabilalar saqlanib qoladi¹⁶. Mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdan kelib chiqib, shaharlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarni jadal rivojlantirish, islohatlar samaradorligini tapminlash muhim vazifa bo'lib, urbanizatsiya jarayonlarning asosiy vazifalar, maplum bir hududning tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida o'zgarishsiz qolmagan va uning tarraqiyotiga tapsir etuvchi omillar majmui: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, demografik va nihoyat ekologik omillarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib bormoqda. Mazkur omilarning tapsirga qarab alohida shaharlarning yetakchi vazifalariga qo'shilishi yoki ajralishi jarayonlari mustaqillik yillarda yangi yo'llarni qurilishi, savdo-sotiqni rivojlanishi, sanoat korxonalarini ishga tushirilishi, yangi yernarni o'zlashtirilishi, mapmuriy markazlarni paydo bo'lishi tufayli yangi shaharlar paydo bo'ldi¹⁷. Mustaqillik yillarda shaharlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlar vazifalarini bajarishi avvalo, jamiyatdagi siyosiy

¹³ Аскаров А.А. Социальная структура раннесредневекового Согда и ее отражение в типах расселения //O'zbekiston qadimda va o'rta asrlarda. – Samarcand, 1993. S. 28-30.

¹⁴ Anorboev A. O'zbek davlatchiligi tarixida Farg'on va Axsikeni.-Samarcand, 2001.

¹⁵ «Urbanizatsionnqe protsess q v Uzbekistane: istoriya i sovremennost» Materialq Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii,T.,30-31 marta,2007 goda,224-str,

¹⁶ «Urbanizatsionnqe protsess q v Uzbekistane: istoriya i sovremennost» Materialq Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii,T.,30-31 marta, 2007 goda, 104-str.

¹⁷ «Urbanizatsionnqe protsess q v Uzbekistane: istoriya i sovremenost» Materialq Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii,T.,30-31 marta, 2007 goda,108-str.

va ijtimoiy-iqtisodiy holatlardan kelib chiqib belgilanada. Bu jarayonda shaharlar bir vaqtning o'zida mapmuriy, harbiy-siyosiy, mafkuraviy markazlar vazifasini bajargan. Ayrim hollarda shaharlar faqat mafkuraviy yoki savdo-sotiq markazlari vazifasini ham bajarib, ularning tabiiy-geografik joylashuvi bilan ham bevosita bog'liq jarayonlar ham mavjud. Shaharlar va qishloqlar turkumlashda ular o'rtaisdagi vazifaviy aloqalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu aloqalar vohaning manzilgohlar tizimida mazkur shahar va qishloqlarning o'mi hamda ahamiyatini belgilab beradi. Ko'plab o'rganilan ilmiy adabiyotlar va hujjatli arxiv manbalarini qiyosiy tahlil qilinishi natijasida qo'yidagi xulosaga kelindi. Urbanizatsiya jamiyat taraqqiyotining eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, iqtisodiy rivojlanishni tapminlovchi ishlab chiqarish tarmoqlari – qishloq xo'jaligidan hunarmandchilikning ajralib chiqishi, mahsulot almashinuvi, ixtisoslashgan savdo-sotiqning o'sib borishi, ijtimoiy tuzumlar va boshqaruv organlarining shakllanishi, ishlab chiqarishni nazorat qilish va quriqlash, jamiyat o'rtaisdagi munosabatlarni tartibga solishni ifodalaydi¹⁸. Urbanistik jarayonlar rivojlanishining asosiy subyekti maxsus makonga oid tuzilish-shahar va uning atrofidagi u bilan bog'liq bo'lgan hamda shaharlarga aylanib boruvchi manzilgohlar hisoblanadi. Ko'pgina hollarda "urbanizatsiya jarayoni" deyilganda turli davrlardagi tarixiy-madaniy bosqichlarda va shart-sharoitlarda turli vazifalarni bajargan shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonlari tushuniladi. Jamiyatda ro'y bergan urbanistik jarayonlar va taraqqiyot darajasining asosiy omillari xususiyda taqiqot ishlari olib borgan ko'pchilik taqiqotchilar "ilk shahar" yoki "shahar" tushunchasini bir-birlariga bog'liq bo'Imagan holda turlicha talqin qilishlariga qaramay, ko'p hollarda ular tadqiqotchilarning xulosalarini bir-biriga ancha yaqinligini kuzatishimiz mumkin. Urbanizatsiya-jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy vazifalarning rivojlanish jarayoni hamdir. Ushbu global masalalar bilan uzoq yillar shug'ullangan taniqli olim B.A.Litvinskiyning ta'kidlashishcha, O'rta Osiyo urbanistik tsivilizatsiya tartibga kirgan bo'lib, bu tartib Yevrosiyoning janubiy va g'arbiy qismlarini qamrab olgan edi. Bu urbanistik tsivilizatsiya atrofida esa dasht, o'rmon dasht, arktik shakldagi tsivilzatsiyalar mavjud edi¹⁹. Shunisi diqqatga sazovorki, ko'pchilik taqiqotchilar (V.Masson, B.Litvinskiy, V.Sarianidi, I.Dgypyakonov, A.Asqarov, T.Shirinov, B.Udemurodov, I.Masimov va boshqalar) O'rta Osiyodagi urbanistik jarayonlarning asoslari eng qadimgi davrlarga borib taqalishini ta'kidlagan holda uning boshlanishni eenolit-bronza davri bilan belgilaydi va o'z xulosalarini dalillar bilan isbotlashga harakat qiladilar²⁰. O'zbekistondagi shaharsozlik madaniyat o'zga xos yunalish bo'yicha rivojlangan bo'lsada, ko'p hollarda bir-biri bilan o'xshashlik to'adi. Bu o'xshashlikni qiyosiy tahlil asosida O'zbekistondagi shahar madaniyati taraqqiyotida ham kuzatish mumkin. Shahar-bu inson tomonidan tabiiy yaratilgan hayotiy zarurat bo'lib, uning turli tomonlama faoliyat ko'rsatishi uchun o'ta muhimdir. Jamiyat taraqqiyoti natijasida shahar shakllanadi, rivojlanadi va kengayib boradi²¹. Shahar-me'morchilik va qurilish faoliyatining nisbatan yuqori va murakkab ko'rinishidir. Aynan shuning uchun ham shaharlarning paydo bo'lishi me'morchilik inshootlarning qad ko'tarishi bilan bevosita bog'liqidir. Shahar-bu ko'p rejali, murakkab tuzulishga ega hudud bo'lib, bu yerda ishlab chiqarish kuchlari, madaniy anpanalar, ixtisoslashgan hunarmandchilik kabilar

¹⁸ «Urbanizatsionnqe protsess v Uzbekistane: istoriya i sovremennost» Materialq Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, Tashkent 30-31 marta, 2007 goda, 85-str,

¹⁹ Litvinskiy B.A. Drevniy sredneaziatskiy gorod (mestinge traditsii i inozemnqe modeli), «Drevniy Vostok, goroda i torgovlya, (III-I do.n.e) »Erevan, 1973. str-99-100.

²⁰ Eshov B. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

²¹ «Urbanizatsionnqe protsess v Uzbekistane: istoriya i sovremenost» Materialq Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, Tashkent 30-31 marta, 2007 goda, 224-str.

markazlashadi. Shaharlarning taraqqiy etish ko'plab omillar, avvalo, aholining o'sish va uning mehnat faoliyati hamda turmush tarzi bevosita bog'liqdır.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mavzuni asosiy manbasi bo'lgan janubiy shaharlarni hammasi qadimiy hududlarda, aholi markazlarida shakllangan bo'lib, har bir shaharlarni o'ziga xos tsivilizatsiya jarayonilariga tapsiri bor. Tadqiqot mavzusida tahsil etilgan shaharlarni iqtisodiy, madaniy jarayonda tashkil to'ishini asoslari mavjud. Termiz shahrini tashkil to'ishi, shaharlarni qulay daryo qirg'og'ida joylashganligi, harbiy stategik ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli mapmuriy markaz sifatida paydo bo'lib, shaharsozlik hunarmandchilik, sunpiy sug'orish rivojlangan xo'jalik tizimi taraqqiy etgan markaz bo'lib tanildi, Qarshi shahrini paydo bo'lishi siyosiy jarayonlarni markazlashushi, savdosotiqli rivojlanishi, hunarmandchilikni taraqqiy etishi, Shahrisabz shahrini qulay geografik iqlimga egaligi, qurilish inshoatlari uchun xom-ashyoni ko'pligi, savdosotiqlarini rivojlanishi uchun ishbilman-tadbirkorlarni hunarmandchilik rivojiga munosib hissa qushib borganligi, G'uzor shahrini Buyuk ipak yo'li hamda imemoriy-hunarmandchilikni asrlar osha taraqqiy etib kelganligi²², Denov shahri iqtisodiy taraqqiyot markazi, savdo-sotiq, ilm-maprifat rivojlangan, viloyatda sanoati tarmoqlari keng rivojlangan, oziq-ovqat sanoat turlari taraqqiy etgan markaz bo'lib tanildi, Muborak shahrini gaz sanoatini shakllanishi, Boysun shahri qadimiy sovdo-sotiq taraqqiy etgan karvon saroylar ko'p, tog'-kon sanoati paydo bo'lgan hudud sifatida taraqqiy etib shakllangan, Jarqo'rg'on qadimgi Sarmagan hududida shakllanib, qadimiy aholi markazi, qurilish-materiallari shakllangan sanoat korxonalarini paydo bo'lgan markaz, Qumqo'rg'on shahri yangi o'zlashtirilgan yerlar, Surxon suv omborini qurilishi, qurilish sanoat majmualarni paydo bo'lishi, Sharg'un shahri mahalliy yer osti konlari, juda katta ko'mir konni o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan markaz, Sherobod qadimiy aholi markazi, ilk shahar davlatchilikka asos solgan, sunpiy dehqonchilik hunarmandchilik, xo'jalik tizimi shakllangan dastlabki shahar "Ark", "Qo'rg'on", "Istehkom" paydo bo'lgan, kulolchilik, mato ishlab chiqarish, dastlabki muhr, davlat boshqaruvi shakllangan manzilgoh sifatida paydo bo'lgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Janubiy hududlardagi shaharlar mamlakatimiz taraqqiyoti rivojiga munosib hissa qo'shib, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Tadqiqot jarayonida mavzuni asosini tashkil etgan shaharlar haqida quyidagi manbalarni tahlil etildi.

O'zbekistonda shahar aholisi 7 mingdan yuqori bo'lishi qonunda ko'rsatilgan. Aholi soniga ko'ra shaharlar kichik (50 minggacha), o'rta (50-100 ming) va katta (100 mingdan ortiq) bo'ladi. O'zbekistonda 120 shahar, 113 ta shaharcha bor. Shundan 17 tasi katta shaharlar (Toshkent, Samarcand, Namangan, Andijon, Buxoro, Qo'qon, Farg'ona, Nukus, Qarshi, Urganch, Olmaliq, Angren, CHirchiq, Navoiy, Marg'ilon, Termiz, Jizzax), 16 tasi o'rta va qolganlari kichik shaharlar. Shaharlar bajaradigan vazifalariga ko'ra - poytaxt, sanoat, transport, turizm, din, fan va ilmiy tadqiqot markazlariga bo'linadi²³.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, urbanizatsion jarayonlar jamiyat taraqqiyotining muhim asosi hisoblanib, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy va savdosotiqli jarayonlarining taraqqiy alohida ahamiyatga ega. Mustaqillik yillariga xos urbanizatsion jarayonlarni tahlil etishda, qadimgi davrdan mustaqillik yillarigacha bo'lgan urbanizatsion jarayonlarning o'ziga xs xususiyatlarini tahlil etish, urbanizatsion jarayonlarning taraqqiyotiga to'siq bo'lgan omillarni aniqlash, uning rivojlanish bosqichlariga xos bo'lgan siyosiy usqurtmalarni tahlil etish alohida ahamiyatga egadir.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi. 829-jamg'arma. 10-ro'yxat. 81-yig'ma jild. 42-varaq

²³ O'z. R MDA Fond. M 1-ruyxat. 856- yig'ma jild. 71-76- varaqlar.

Mustaqillik yillardagi urbanizatsion jarayonlar yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllanishi, xo'jalikdagi yangi shakllarning taraqqiy etishi, etnik guruhlar o'rtasidagi umuminsoniy, bag'rikenglik, madaniy hamkorlik holatlarini o'rganish tadqiqotning asosiy mavzusi hisoblanadi. Mustaqillik yillarda urbanizatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy turmush darajasini tubdan o'zgarishi, mamlakat aholisining milliy, mapnaviy qadryatlarining tiklanishi, inson buyuk qadriyat ekanligini anglash, o'zlikni tasavvur etish, mustaqil yurt va uning qadrini insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usi bilan uyg'unlashtirish, eng muhimmi vatanga bo'lgan sadoqat, millatlar o'rtasidagi do'stlik naqadar buyuk qadryat ekanligini tushunib yetish asosiy omil bo'lib hisoblandi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki urbanizatsion jarayonlarni taqqoslash davrida mustabid tuzum siyosatining bir tomonlama, millatni va milliy kamsitishni mohiyatini anglab yetishga hamda ikkala tuzumning bir-biridan farqi inson va uning shaxsiga bo'lgan munosabatining naqadar ulug'ligi shaharlarning infratuzilma asosidagi qiyofasini tubdan o'zgarishi bilan taqqoslash muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Rezyume: ushbu maqolada O'zbekistonda urbanizatsion jarayonlar, shaxarlarning ijtimoiy-iqtisodiyva siyosiy-madaniy hayotdagi o'rni, shaxar aholisining turmush darajasi hamda mustaqillik yillarda shaxarlarning rivojlanishi bilan bog'liq yutuqlar ilmiy manbalar asosida tahlil etildi.

MADANIYAT SOHASIDAGI ISLOHATLAR SAMARASI VA NATIJALARI

*Kamoliddin Toshev, Anvar Malikov,
Termiz Davlat universiteti 2 kurs magistrleri*

Mustaqillik yillarda viloyat sanpatkorlari voha sanpatini dunyoga yoyishda timimsiz mehnat qildilar. Jumladan, Boysun tumanining «Shalola» (1969 yilda «Xalq teatri unvon»ni olgan) dastasi qator xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarda bo'lib, ko'p ming sonli muxlislar tahsiniga sazovor bo'ldi. «Quralay», folgpklor etnografik ansambl ijodiy jamoasi; Uzun tumani B.Omonov nomidagi shirkat xo'jaligidagi «Rohat» ashula va raqs dastasi; Uzun tumani K.Aliev shirkat xo'jaligidagi «Rayhon», Jarqo'rg'on tumani To'xta Shoburov shirkat xo'jaligi qoshidagi «Dilrabo», Surxon shirkat xo'jaligidagi «Surxon gullari», Sho'rchchi tumani madaniyat uyining «Kumush tola», Oltinsoy tumani paxtakor shirkat xo'jaligining «Oqar buloq tongi», Xo'jaipok shirkat xo'jaligidagi «Lola», Denov tumani I.To'raev shirkat xo'jaligidagi «Navnihol» va Sariosiyo tumani madaniyat uyi qoshidagi «Shodiyona» nomli ashula va raqs dastalari ham istiqlol yillarda o'z ijodlari bilan Respublika ahliga tanildilar. Viloyatning Sayyora Qozieva, Hosila Rahimova, Mahmud Namozov, Ravshan Namozov, Rustam Mahmudov kabi xushovoz xonandalari Respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha sanpat tadbirlarida va bayramlarida o'z re'ertuarlaridagi yangi-yangi qo'shiqlar bilan ishtirot etmoqdalar.²⁴

2002 yil 25 maydan boshlab, Boysun tumanida «Boysun bahori» xalqaro ochiq folgpklor festivali har ikki yilda bir marotoba o'tkazib kelinmoqda. 2002 yilda o'nga yaqin xorijiy mamlakatlardan sanpatshunos, folgpklorshunoslar, tarixchilar, libos dizaynerlari ishtirot etayotgan sanpat anjumanı madaniy xayotimizda muhim voqeа bo'ldi. Bu folgpklor festivali YuNESKO tomonidan insoniyat og'zaki va mapnaviy merosi durdonasi sifatida e'tirof etildi. Bu jahondagi shunday nufuzga sazovor bo'lgan manzillar ichida o'n to'qqizinchisidir. Mustaqillik tufayli mapnaviy qadryatlarimizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlар ham viloyatda mapnaviyat va maprifatni yanada yuksaltirishga qaratilgandir. Ayniqsa «Alpomish» dostonining 1000

²⁴Surxondaryo viloyati madaniyat ishlari boshqarmasi joriy arxiv. Uchinchi kitob, 2003 117 bet.

yillik to'yining 1999 yil 6 noyabrda YuNESKO hamkorligida keng miqyosida nishonlanishi viloyat madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bayram tantanalarida Respublika Prezidenti I.A.Karimov mapruza qilib, hamda Surxondaryoning baxshichilik sanpati anpanalariga yuksak baho berdi. Prezidentning bevosita tashabbusi bilan «Xalq baxshisi» unvoni tapsis etilib, bu yuksak unvonga birinchi bo'lib O'zbekistonda Shoberdi baxshi Boltaev sazovor bo'ldi. «Algomish» dostonining 1000 yilligi munosabati bilan «O'zbekkino» davlat aktsionerlik kompaniyasi tomonidan suratga olingan ikki qismli «Algomish» badiiy filgpmida Surxondaryolik sport ustasi Azamatali Qalandarov Algomish rolini yaratdi²⁵. 1995 yil dekabrda «O'zbekiston vatanim manim» mavzuidagi qo'shiq ko'rik tanlovi malakatimizning hamma viloyat, shahar va tumanlarida ko'tarinkilik bilan o'tkazildi. 2003 yil mart oyida Termizning «Bahor» kontsert zalida «O'zbekiston-Vatanim manim»-deb atalgan qo'shiq tanlovingin birinchi bosqichi bo'lib, bu O'zbekiston Xalq taplimi vazirligiga qarashli muassasalar o'rtaida o'tkazildi. Ko'rik tanlovda bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilaridan mamlakatdagi Oliy o'quv yurtlari talabalari ham ishtirok etdi. Ko'rik qatnashchilarini ona Vatan go'zalligi, uning istiqlolini madh etgan qo'shiqlari, taniqli bastakorlar, shoirlar va Xalq taplimi Vazirligining yetakchi mutaxassislaridan iborat nufuzli haypat apzolari tomonidan baholandi²⁶. Umuman ko'rik tanlovingin birinchi bosqichida 54 mingdan ziyod sanpatkor qatnashdi. 10 mingdan ortiq qo'shiqlar ijro etildi. Surxon vohasida ham bu ko'rik tanlov uchun har yili tanlov o'tkazish, vohaning Jarqo'rg'on tumanida 1999 yilda 3 ta janr bo'yicha (milliy folgpklor estrada) hamda «Baxshilar tanlovi» bo'yicha bayram o'tkazilib, tuman bo'yicha «O'zbekiston Vatanim manim» ko'rik tanlovi g'oliblari aniqlandi. Birinchi o'rinni Najmuddin Jononovga («Sado» guruhi), ikkichi o'rinni Abdulla Saidov (muktab o'quvchisi), uchinchi o'rinni Safar Qo'rbonov (shahar musiqa maktabidan), Norbo'ta Jumaev («Murabbiy dastasi»)lariga berildi. Tanlovda 1-2 o'rinni olganlar va baxshilar ichida g'olib deb to'ilgan O'rol Xudoyqulov Viloyat bosqichiga yo'l oldi²⁷.

2000 yil 26-27 iyun kunlari Toshkent shahrida Respublika Oliy o'quv yurtlari o'rtaida bo'lib o'tgan «O'zbekiston-Vatanim manim» qo'shiqlar ko'rik tanlovida Termiz davlat universiteti talabalari ham ishtirok etishib, faxrli 4 o'rinni egallab qaytdilar²⁸. Xalq ijodiyoti va madaniy-maprifiy ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida viloyatdagi barcha madaniyat muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan badiiy rahbarlarning ish saviyasi va bilim doiralarini kengaytirish, ularni hozirgi zamon talablariga javob beruvchi badiiy rahbar qilib kamol to'tirish, yosh avlodni g'oyaviy estetik ruhida tarbiyalash maqsadida olib borilgan ishlarni o'z samarasini berdi. Jumladan, 2002 yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob shahrida o'tkazilgan folgpklor-etnografik jamoalarining Respublika ko'rik tanlovida Oltinsoy tumani Vaxshivor qishloq klubni qoshida tashkil etilgan «Sharshara» folgpklor-etnografik jamoasi II o'ringa, 2003 yilda o'tkazilgan «Alla» ijrochilarining oltinchi anpanaviy ko'rik tanlovingin viloyat bosqichi deb to'ilgan Jarqo'rg'on tumanini badiiy jamoasi ko'rik tanlovingin Namangan shahrida o'tkazilgan Respublika bosqichida faxrli 2 o'ringa sazovor bo'ldilar²⁹.

Badiiy havaskorlikni rivojlantirishda qo'shgan hissalarini uchun 1998 yilda Jarqo'rg'on tumanini madaniyat qoshidagi «Dilrabo» ashula va raqs dastasi badiiy rahbari Norali Allanaazarov, 2002 yilda «Boysun» folgpklor-etnografik dastasi badiiy rahbari Sayyora Qozievalarga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» unvoni berildi. 2005

²⁵Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxiv, 1-bayonnomma, 5-hujjat, 2000 yil, 20 yanvar, 62 bet

²⁶Surxondaryo viloyat Xalq tahlimi boshqarmasining joriy arxiv, 25-bayonnomma, 2003 yilgi hisoboti, 9-b.

²⁷«Jarqo'rg'on tuman hokimligi joriy arxiv, 12-bayonnomma, 4-hujjat 2000 yil, 2-fevarlg', 38 bet.

²⁸Surxondaryo VDA 95-ish, 1-r, 18-ish, 92 v.

²⁹Surxondaryo viloyati madaniyat ishlari boshqarmasi joriy arxiv, to'tinchi kitob, 98 bet, 2003.

yilda vohaga xos qator raqslari Respublika va viloyat miyosida o'tkazilgan ko'plab ommaviy tadbirlarda sahnalashtirgan raqslari va munosib ijodiy xizmatlari uchun «O'zbek raqs» Respublika madaniyat boshqarmasi viloyat bo'limi bosh raqs sahnalashtiruvchisi Shoira Qurbonova va viloyat Respublikada o'z qo'shiqlari bilan barchani mammun qilayotgan ovoz sohibasi Denov tumani Madaniyat uyi qoshidagi «Navnihol»ashula va raqs dastasi xonandasasi Hosila Rahimovalar «Shuhrat» medali bilan, Qiziriq tumanidan Abdunazar baxshi poyonov «O'zbekiston xalq baxshisi» unvoni bilan taqdirlandilar³⁰.

Viloyat aholisi madaniyati va sanpatining nafaqat Respublikada balki chet ellarda ham tan olinayotganligi barchamizga maplum. Albatta, bu yantuqlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilayotgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan va to'qqizinchi marta o'tkazilayotgan «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiqlar tanlovi kelajagi buyuk davlatimiz va uning bunyodkor xalqini madh etuvchi insonlar qalbida muqaddas vatanni, istiqlolni ko'z qorachig'idek asrab avaylashga undovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlarining yuzaga kelishiga keng imkoniyat yaratdi. Mamlakatimizning beqiyos sahnasi bo'lib xizmat qilayotgan bu bayram tadbirlari nafaqat yangi asarlarni, balki qo'shiqchilik sanpatida o'z muxlislarining mehr-muhabbatini qozona olayotgan umidli isptedodlarni yaratmoqda.

FERMERLARNING XO'JALIK BOSHQARUVIDAGI ISHTIROK VA UNING OMILLARI

Halima Botirova,

Termiz Davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi

Mustaqilik yillarda qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassislarini tayyorlash va moddiy-mapnaviy qo'llab- qo'vatlash borasida muhim ahamiyatga ega amaliy ishlar qilindi. 1996 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida har yili anpanaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan «Tashabbus» ko'rik tanloving ahamiyati yildan-yilga ortib bordi. 1997 yil aprelida Termiz shahridagi zabitlar uyida «Tashabbus-96» ko'rik tanlovi va viloyat tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar faollarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. «Eng yaxshi dehqon fermer» Denov tumanidagi O'roq Qodirov nomli fermer xo'jaligi birinchi, Qiziriq tumanidan Kamolxon Komilov ikkinchi, Angor tumanlik Isoxon Bahromov boshliq dehqon fermer xo'jaligi uchinchi o'rinni qo'lga kirittdi. Bu tanlovda Birinchi o'rinni olganlar uchun 6,5 million so'm, ikkinchi o'rinni 3 million so'm, 3 o'rinni 2 million so'mgacha imtiyozi kredit berildi³¹.

Surxondaryo viloyatida «Tashabbus» Respublika ko'rik tanlovi g'oliblari, viloyat tadbirkorlari va fermerilardan Gulchehra Haydarova Prezidentning yuksak mukofoti -«Neksiya» avtomashinasini bilan, «Tashabbus-2002» ko'rik tanlovida esa Denov tumani «Lochin» fermer xo'jaligi boshlig'i Axmad Narzulloev mamlakatimizdagi eng yaxshi fermer deb tan olinib, ko'rik tanloving oltin medali va Prezident sovg'asi-«Matiz» avtomobilni qo'lga kiritdi³². Prezident farmoni bilan 2003 yil 25 avgustda Ahmad Narzullaev «O'zbekiston qaxramoni» degan yuksak mukofotga ham sazovor bo'ldi. Qishloq xo'jaligida erishilgan muvafaqiyatlar bilan bir qatorda bir qancha muammolar ham mavjud. Birinchidan, amaldagi qoidalarga ko'ra yer solig'i ikki muddatga: 1-

³⁰Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxiv. 1-bayonnomma, 14 hujjat, 2006 yil, yanvarg', 52 bet

³¹ Surxon tongi. 1997. 4 mart.

³² «Chag'oniyon» gazetasi. 2003. 14 fevral.

³³ «Mahrifat», 2003 yil 27 avgust.

iyulgacha va 1-dekabrgacha olinadi. Ammo qishloq xo'jaligi moliyaviy natijalari yil oxirigacha bir marta shakllanadi. Soliq olishning bиринчи muddatiga qishloq xo'jaligi korxonalarli soliq to'lash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Soliq organlari esa soliq to'lanmagan har bir kun uchun ustama jarima solishadi va shu tarzda soliqning asosiy summasi tobora oshib boradi. Shuning uchun soliq qonunchiligiga biroz o'zgarish kiritib, har yilning yakuni bo'yicha yagona to'lov muddati joriy qilinishi zarur. Ikkinchidan, qishloq tumanlari markazlarida joylashgan mashina, traktor parklari amalda o'zlarini mono'olistlarcha tutib, bapzida sifatsiz xizmatlari evaziga juda yuqori to'lov shartlarini qo'yib, qishloq xo'jaligi korxonalarini ancha noqulay ahvolga solib qo'ydi. Shuning uchun xususiy muqobil xizmat turlarini barpo etish yo'li bilan agroservis tarmog'ida raqobatchilik muhitini shaklantirish lozim. Uchinchidan, qishloq xo'jaligi rahbarlari va mutaxassislarining fikriga ko'ra qatpiy bank tizimi bo'yicha o'tkazilayotgan moliyaviy o'zaro hisob-kitoblar tizimi xo'jasizlikka yo'l qo'yilishiga va tovar ishlab chiqaruvchilarning sof foyda olishga qiziqishining susayishiga sabab bo'ldi³⁴.

Natijada bu sohadagi foyda bilan ishlovchi korxonalar ham zarar bilan ishlovchi korxonalar ham o'z mablag'laridan erkin foydalanganligi qayd etildi. Shuning uchun moliyaviy baquvvat qishloq xo'jaligi korxonalarli oldida ko'ngdalang turgan bunday to'sqinlikka barham berish va ular hisob raqamidagi pul mablag'larining erkin harakat qilishini tapminlash chegaralari ko'rib chiqildi; To'rtinchidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, sotish, qayta ishlash maqsadida yuklarni yetkazib berish va olib ketish nuqtalari tashkil etildi. Beshinchidan, qishloq xo'jaligida sug'orish ishlari takomillashtirilib, zamonaviy jahon andozalariga mos ilg'or texnologiyalar joriy etildi. O'zbekiston sharoitida o'simliklarni yomg'irlatib sug'orish ishlari usulining afzallik tomonlari keng targ'ib qilinib, yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi kengaytirildi, moddiy texnika bazasi, tapmir va servis xizmati kuchaytirildi. Yomg'irlatib sug'oruvchi apparatlarni ishlab chiqarish va unga servis xizmati ko'rsatish tashkil etildi. O'zbekistonda kichik xajmdagi qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilib, kichik va o'rta fermer xo'jaliklari ommaviy ravighda qulay mashinalar bilan tapminlandi.³⁵ Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligidagi 2000-2005 yillarda g'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin ekilib, paxtaning «Yulduz», «Buxoro-6» kabi navlаридан 28 tsentnergacha yuqori hosil olishga erishildi. Respublikamizda Surxondaryo dehqonchilik maktabi degan yangi faxrli nom vujudga keldi. Jarqo'rg'on, Termiz, Muzrabod tumanlarida juda yaxshi o'sadigan qand lavlagi ekish va undan hamkorlikda shakar ishlab chiqaradigan qo'shma korxona qurilib ishga tushirildi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida muhim soha bo'lgan qishloq xo'jaligi o'tish davrining dastlabki bosqichlarida muhim natijalarga erishdi. Viloyat qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlar o'tish davrining qiyinchiliklari qaramay, yangi imkoniyatlarga ega bo'lib, dehqonchilik madaniyati ancha rivojlandi. Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohotlarning muhim natijalaridan biri shu bo'ldiki, dehqonlar yerga nisbatan mustaqil bo'lib, ishlab chiqargan mahsulotini bozorga erkin sotish huquqiga ega bo'ldi. Shuningdek, eski fikrlovchi, boqimandalik kayfiyatidan qutilib, moddiy jihatdan o'z ahvolini yaxshilab oldi. Jamiyatda dehqon xo'jaliklari, fermerlar, shaxsiy dehqon xo'jaliklari o'zlarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda mehnat unumdarligiga ega bo'ldi. Viloyatda qishloq xo'jaligining rivojlanishi natijasida eski mapmuriy buyruqbozlik usullaridan voz kechilib, dehqonlar yangi texnika vositalari va texnologiyaning

³⁴ Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxiv, 9-bayonnomma, 1-xujjat, 2003 yil, sentyabr, 43-bet

³⁵ Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxiv, 12-bayonnomma, 5-hujjat, 2005 yil, dekabr, 31-bet

za'monaviy yo'nalishlaridan o'z xo'jaliklarini yuritishda keng foydalandilar. O'zbekiston davlatining qishloqqa nisbatan siyosati ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va respublika uchun mapqul bo'lgan tomonlarini olish, o'zbek xalqining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish borasidagi tarixiy anpanalariga, milliy xususiyatlariga suyangan holda, o'zbek modeli asosida shakllanmoqda va tarixan qisqa davr ichida bu sohada katta o'zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, bozor islohotlari tobora chuqurlashgani sari iqtisodiyotning muvaffaqiyatlari rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi mumkin bo'lgan barcha usul va vositalardan samarali foydalanilmayapti. Masalan, iqtisodiy o'sishining yuqori surpatlarini tapminlashning muhim omillaridan biri mehnat unumdarligidir. Mehnat unumdarligining oshishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, inflyatsiya jarayonlarining oldini olish, xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tashqi va ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirish kabi ishchi-xodimlar ish haqini oshirish uchun real imkoniyat yaratadi. Lekin, obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, O'zbekistonda mehnat unumdarligi ko'pchilikning diqqat-e tiboridan chetda qolib kelmoqda. Buning boisi, bapzi toifadagi rahbar shaxslarda, shuningdek, ayrim olimlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat unumdarligining oshirish yo'llari to'g'risida noto'g'ri fikrlar shakllanib qolganligidir. Ularning fikriga ko'ra, go'yoki bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat unumdarligi o'z-o'zidan oshib boraverar ekan. Shuning uchun bu jarayonga davlat organlari tomonidan makroiqtisodiy tapsir o'tkazishga, maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga zarurat qolmaganligi ta'kidlanmoqda.

HOZIRGI KUN YOSHLARI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YETAKCHI KUCHI

O.Sobirov,

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari ta'lim yo`nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: B.Tillayev,

*"...Bizning eng katta tayanch
suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz
yosh avlodimiz" I. A. Karimov*

Barchamizga yaxshi malumki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi.

Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi va his qiladi.

Xalqimizning xuddi shu xususiyatlari bois O'zbekiston ya'ni davlatimiz o'z taraqqiyot va rivojlanish yo'lida, shu bilan birga davlat apparatini takomillashtirishning o'ta murakkab muammolarini yechimini izlashda yosh avlod kuchidan samarali foydalanish ya'ni avlodlar almashinuv yo'lidan bormoqda. Bu borada Prezident Islom Karimov o'z nuqtai nazarini ta'kidlab: "Mening eng katta ishonchim yosh avloddir. Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmli, ko'rsang havas qiladigan, barkamol va shijoatli farzandlarimizdir. Men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdirlini ham ana shularning qiyofasida ko'raman." - degan edi.

1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan va 1998-yilning 1-mayida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Davlat yoshlari siyosatining asoslari to'g'risida" gi qonun ham,

2008-yilning “Yoshlar yili” deb e’lon qilinganligi ham ana shu yo’nalishga qaratilgan.

O’zbekiston hozirning o’zidiyoq malakali, yetuk bilimga ega va rahbarlik lavozimlariga ko’tarish uchun munosib, mustaqillik davrida shakllangan yangicha demokratik tafakkurga ega bo’lgan kadrlar vakillari zahirasiga ega. Prezidentimiz I. A.Karimov tomonidan hayotga tadbiq etilayotgan jamiyatni demokratlashtirish va yangilanish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish vazifalari mana shu yangi, sog’lom avloddan samaraliroq foydalanishni taqozo etadi. Chunki, mamlakatni yanada rivojlantrishning istiqbollari ko’p jihatdan barkamol yosh avlodga bog’liqdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar va yoshlarga bo’lgan e’tibor tufayli hozirgi kunda yetishib chiqayotgan yosh avlod bilimli, aqli va har tomonlama barkamol bo’lib yetishib, jamiyat hayotining istalgan barcha sohalarida o’zlarini ko’rsatmoqda, yuksak marralarga erishmoqda. Xususan yoshlar davlat boshqarushi va siyosiy sohada, sport va madaniy sohalarda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda yoshlarning o’rni ortib boryapti. Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda munosib qatnashib vatanimiz bayrog’ini ko’klarga ko’tarayotgan bo’lsa, yosh iqtisodchi, yosh tadbirkor va yosh siyosatchilarimiz mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirot etmoqda.

Bundan tashqari yoshlarimizning fermer xo’jaliklari tashkil etib, ilg’or faoliyat yuritayotgani va mamlakatimiz xirmoniga o’z hissalarini qo’shishayotgani ham diqqatga sazovordir. Bu fikr isbotini biz quyidagi ma’lumotlarda ko’rshimiz mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 25 mingdan ziyod yosh fermer faoliyat olib bormoqda. Ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish maqsadida 2008 – yilda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan “Yosh fermerlarni qo’llab – quvvatlash” dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur asosida joylarda yoshlarni ish bilan ta’minlashga qaratilgan turli xildagi korxona va fermer xo’jaligi tashkil etilmoqda. Yoshlarning ijtimoiy – huquqiy bilimini oshirish, kredit va bank sohasidagi yangilik va o’zgarishlardan o’z vaqtida xabardor qilish maqsidida o’quv seminarlari tashkil etilmoqda. Bunday seminarlarda yuzlab yigit – qizlar o’z malakasini oshirishmoqda.

Hozirgi kunda davlatimizning siyosiy hahotida ham yoshlarimizning faolligi kuzatilyapti. Buni biz deputatlarga bo’layotgan har bir saylovlardaga siyosiy partiyalardan qo’yilayotgan nomzodlarning 30 foizini yoshlar tashkil qilayotganidan bilishimiz mumkin.

Tadbirkorlik va biznes sohasida ham yoshlarimiz o’zlarining ilg’or ekanliklarini ko’rsatmoqdalar. Yoshlar ijtimoiy siyosiy tashkiloti bo’lgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati ham mamlakatimizda yoshlar va ularni qo’llab quvvatlash borasida keng ko’lamli ishlarni amalga oshirishmoqda. Xususan bu tashkilot rahbarligida o’tkazilayotgan turli tadbirlarda, ayniqsa, “Yosh tadbirkor” kabi ko’rik tanlovlardida yoshlarimiz o’zlarining turli loyihalari bilan qatnashishmoqda.

Xullas, hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar va ularning faoliyatiga ko’plab imkoniyat hamda imtiyozlar yaratib berilgan. Yoshlar ham bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda jamiyat hayotining barcha jabhalarida o’z loyihalari, o’z fikrlari va harakatlari bilan doimiy qatnashib, mamlakat taraqqiyotining haqiqiy yetakchi kuchiga aylanishmoqda.

BUXORO AMIRLIGI XO'JALIGIDA SOLIQLAR TURI

Eshbolda Qobilov,

Termiz Davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasи professorи, t.f.n.

XVIII asr oxiri va XIX asr mobaynida Buxoro amirligining sharrida joylashgan Sherobod, Denov, Boysun bekliliklarda o'ziga xos soliqlar tartiboti shakllangan. Ushbu bekliliklar Buxoro amiriga muntazam tarzda soliq to'lovlarini to'lash bilan bir qatorda o'z zimmalaridagi boshqa majburiyatlarini ham ado etganlar. Bekliklar yig'ib olingen soliqlarni pul va mahsulot hisobida Amir xazinasiga topshirgan. Tovar pul munosabatlarning rivojlanishi amirlikda soliq tizimini tez-tez o'zgarishiga olib kelgan. Bekliklar ixtiyoridagi yerning eng katta qismi Bekka, Qoziga, Amlokdor va yirik boylargacha hamda ish boshqaruvchilarga qarashli mulk yerlaridan iborat bo'lган. Bundan tashqari bekliliklarda amirga tegishli yerlar ham mavjud bo'lган.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, bekliliklar soliqni natural (mahsulot) holida emas, pul bilan yig'ib topshirganlar. Bekliklarda xususiy mulk yerlari-yorliqli mulk va atoyi mulk turlariga bo'lingan. Yorliqli mulk yerlari deb, feodallarga, ulomolarga, amlokdor va boshqalarga in'om qilinib, ularning shaxsiy mulkiga o'tgan davlat yerlariga aytilgan.

Atoyi mulk yerlari boshqa xil yo'llar bilan egallangan yerlar bo'lib, bu yerlardan ham yer solig'i undirilgan. Ammo soliqni yer egasi emas balki ijador to'lagan. Bekliklarda soliq va majburiyatlarning 25 dan ortiq turi bo'lган. Beklikda qo'yidagi yer egalari soliq to'lashdan ozod qilingan:

1. Bekning oila a'zolari
2. Navkarlar, sarbozlar, yuzboshilar
3. Qozi, oqsoqollar, ruhoniylar
4. Vasiylari bo'lмаган 13 yoshga kirmagan yetimlar.

Beklikda yersiz dehqonlar ham juda ko'pchilikni tashkil etib, ular 3 guruhga bo'lingan.

1. Korranda-bularning o'zlarida yerlari va ishlab chiqarish qurollari bo'lmay, 30-20, 30-40 banat va undan ortiq yeri bo'lган zamindorlarning yerlarini ijara qilganda olib, shu yer hisobidan amirga to'lanadigan soliqni yer egasi bilan bab-baravar to'lash sharti bilan ishlaganlar.
2. Yerdan olingen hosiuning 4/1 qismini olib ishlovchilar Chorikorlar deb atalgan.
3. Bundan tashqari bekliliklarda vaqf yerlerida ishlovchi ijadorlar ham bo'lган.

XIX asrda bekliliklarda turli xil soliqlar nihoyat darajada ko'p bo'lib, amirlik belgilangandan tashqari Beklar ham o'z lavozimlari va huquqlaridan foydalaniб, xalqni qo'shimcha soliqlarga majburiy tarzda tortgan. Soliqda ko'rsatilgan mahsulotlardan haq olish doimiy o'zgarib turgan.

1868 yil boshida 1-mana (1 kg o'lchov birligi o'rtacha 800 gr ga teng) bug'doy 18 tanga, 1 qo'y 12 tanga baholangan bo'lsa¹, yil oxiriga kelib, 1-mana bug'doy 16 tangaga, 1 qo'y esa 14 tangagacha ko'tarilganligini Sherobod begi Sodiqboybiy va Qozi mulla Abdurahmon tomonidan tan olingen. Buxoro amirligi Qushbegi mahkamasining hujjalardan Denov bekligi soliq harajatlari yig'ilgan hosiliga nisbatan 15 foiz miqdorida belgilangan. Sherobod bekligidagi 5 mana bug'doydan 1 manasi beklik foydasiga yoki jami hosiuning 5/1 qismi Bek xazinasiga majburiy olingen. 8 mana bug'doydan 4 manasi qolgan turli xarajatlarga yig'ib olingen.

1885 yilda Denov va Sherobod bekliklarida Buxoro Qushbegisi hujjatlarida ko'rsatilgandan ortiqcha soliq olingan. Ayniqsa, bog' solig'i, meva solig'i kabi soliqlar ham bo'lgan. Masalan, 1 tanob yer 18 tangaga baHolangan. Sherobod bekligidagi bog' va chorbog'lardan olinadigan soliq 1 tanob yer uchun 13 tanga, 1 tanob beda maydoni uchun 6 tanga, 1 tanob poliz maydonlari uchun 12 tanga soliq olingan. Biroq Bek va Amlokkorolar o'z huquqlaridan foydalaniib, Qushbegi hujjatlariga amal qilmasdan 1 tanob bog'dan 26 tanga, 1 tanob bedadan esa 12 tanga soliq olishgan².

XIX asrning ikkinchi yarmida Sherobod, Boysun va Denov bekliklarida o'tin puli, qamish puli, suv puli, to'y puli, mактаб puli, amina puli kabi turli xilda soliq turlari bo'lган. Bundan tashqari so'yish puli bo'lib, ya'ni qassoblarga oyiga 20 tanga miqdorida maosh to'langan. Shuningdek, mahalliy boylar, oqsoqollar mehmonlarning hurmati uchun mushtak solig'i to'langan, unga ko'ra har bir dehqon oлган hosilidan 1 chora (2 kg) miqdorida soliq to'lagan.³ Sharqiy Buxoro bekliklarida maktab puli solig'i ham mavjud bo'lib, unga ko'ra ota-onalar farzandlarining o'qishi uchun o'qituvchilarga (ya'ni mullalarga) Qushbegi hujjatlari asosida 15-20 tanga soliq to'lashi qayd etilgan.

1886 yil Sherobod begining maktablar bo'yicha boshlig'i mulla Mansur maktab pulini har oyga 20 tanga hisobida belgilagan. O'z navbatida bekliklarni ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun turli soliqlar ham yig'ib olingan.⁴ Masalan, ariq puli, tegirmon puli, hashar puli, hashak pullari kabi soliqlar ana shular jumlasidandir. Soliqlar ichida boqi-puli amirlik va beklik ishlariiga jalb qilinadigan, ya'ni sug'orish inshoatlarini qayta ta'mirlash uchun 1-2 tanga hisobida olinadigan soliqdir. Cho'llarni o'zlashtirish, ariq zovurlarini ta'mirlash uchun 11 tanga hisobida soliq olingan. Bekliklar hisobiga har bir xonodon yuk tashiganligi, ko'mir yoqqanligi, un tashiganligi va boshqa xil ishlar uchun ham belgilangan miqdorda soliq to'lagan.

1885-1886 yillarda Sherobod begining qozisi mulla Isomiddin Buxoro amiriga yozgan arznomasida, «Sherobod begi Sodiqbekbiy o'zining o'g'illari va aka-ukalariga Amlokkorlik mansablarini bo'lib berib, bog'lar va ekin maydonlarini o'z ixtiyoriga o'tkazib, oлganligi hamda olinayotgan foydani soliq hisobida amirlik xazinasiga topshirinayotganligi» xususida arz qilgan. Bundan tashqari arznomada, olinishi kerak bo'lgan 4 mana bug'doy solig'i o'rniغا 8 mana bug'doy solig'i olinmoqda, shuningdek, Qushbegi hujjatlarida qayd etilgan boshqa soliq turlari ham belgilangandan ko'p miqdorda olinayotganligi ta'kidlangan .

Ushbu arznomani Do'styorxoji, Ne'mat oqsoqol, Muhammadqul, Abdurahmon, Saidmuhammad boylar tasdiqlaganlar. Umuman, Surxon vohasidagi bekliklarda Buxoro amirligi manfaatlari uchun soliq olish doimiy tarzda tashkil etilgan. Lekin soliq olish ishlari doimiy tarzda Buxoro amirligi Qushbegi mahkamasini tomonidan nazorat qilib borilgan. Biroq, Buxoro amirligida soliqlar tizimi muntazam va to'liq qonuniy tarzda takomillashmag'anligi sababli vaqt-i-vaqti bilan soliqlar miqdori va turi o'zgarib turgan.

Buxoro amirligining Sharqiy hududlarida soliq tizimi niroyatda qattiq tizim asosida tashkil etilib, soliq to'lashdan bosh tortganlar shariat qonunlari bilan jazolangan. Beklik va qozi nazoratida bo'lgan soliq tizimi shahar hamda qishloq aholisidan muntazam, shuningdek o'z vaqtida olib turishgan.

Termiz-Pattakesari, Sherobod va Denov hududlarida soliq tizimini Buxoro amirligi qanday usulda oлganligini V.V. Bartold quyidagicha izohlaydi. Amir Shohmurod davrida

2 O'zMDA, F-I-1, Yozuv-1, ish-1267, 72-v.

3 O'zMDA, F-I-126, Yozuv-34, ish-1001, 18-v.

4 O'zMDA, F-I-126, Yozuv-34, ish-1001, 18-v.

shaharning yuqori tabaqa aholisi barcha turdag'i soliqlardan ozod etilib, amirning maxsus tarxon yorlig'i tashkil etilib, soliqdan ozod etilganlarga ushbu hujjat taqdim etilgan. Tarxon yorlig'i 1920 yilgacha o'z kuchini saqlab kelgan.⁵ Bu erkinlik shaharda istiqomat qilayotgan hunarmandlarga ham qo'llanilib, ular ham turli soliq, yig'im va hasharlardan ozod qilingan. Natijada shahar hunarmandlari zakot va tag joyidan tashqari biron-bir soliq to'lamaganlar hamda hasharlarda ishtirok etmaganlar. Juhud hunarmandlar esa juziya va tag joyi solig'ini to'laganlar. Qishloq hunarmandlari aholining boshqa qatlamlari qatorida soliq va yig'imlar to'laganlar hamda hasharda ishtirok etganlar. Tarixiy ma'lumotlarda qayd etilgan Hisor, Denov, Sho'rchi, Yurchi aholisi Kofirnihon, Qizilsuv, To'palon, Tentaksoy daryolari toshib ketib, ko'priklarni buzib ketganda hasharlarga jalb etilgan. Bunday hasharlar 20-30 kungacha davom etgan. Agar aholi orasidan kimki hasharga qatnashishdan bosh tortsa, unga jarima boqi puli solingen. Masalan, hayrabodda Xolchayondan hasharga kelmaganlardan 1 tangadan, boshqa joylardan (tog' oldi qishloqlardan) 2 tangadan boqi puli olishgan⁶. Chunki uzoq qishloq aholisi faqat katta hasharlarga jalb etilgan. Buxoro amirligining Denov, Boysun, Sherobod bekliklari yuqorida qayd etilganidek barcha aholi ya'ni dehqonlar, hunarmandlar, savdogor va boylar yillik daromadning qirqdan bir qismi miqdorida musulmonlar uchun farz Hisoblangan zakot solig'ini to'lashgan. Bu zakot solig'i Sherobod bekligidan 1000000 tanga, Denov bekligidan 75000 tangani tashkil etgan.⁷ Ushbu zakotning ma'lum miqdori shahar va qishloq hunarmandlari hissasiga to'g'ri kelib, bu zakoti rasta deb atalgan. Manbalarda bu zakot miqdori qancha bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Shuningdek, juziya solig'ini to'lagan juhudlar rangrezlik, bahmalboqlik bilan shug'ullangan. Biroq juhud hunarmandlari juziya solig'ini qancha miqdorda to'laganligi manbalarda uchramaydi.

Amirlikning asosiy soliqlaridan biri Aminona solig'i, bu soliq Amir Muzaffarxon tomonidan Rossiya bilan bo'lgan urushga ketadigan xarajatlarni qoplash maqsadida joriy qilinib, bu urushdan keyin ham turli xil bahonalar bilan davom ettilgan. Aminona solig'i sotiladigan mahsulot va chorvadan olingan. Ko'pgina yirik hunarmandlar o'z savdo do'konlariga ega bo'lib, sotilgan Har bir buyumning 15 foizi miqdorida Aminona solig'ini to'laganlar.⁸ Bu soliqni bozorda mahsulot sotgan hunarmandlar ham to'laganlar. Dastlab shogird sifatida ish boshlagan, yoki kambag'al hunarmandlar katta, o'ziga to'q ustalardan dastgoh yoki do'konni ijraga olib, tuzilgan yoki kelishilgan shartnomaga muvofiq katta ustaga ijara haqi to'lashgan. Bu ijara haqi soliqlar hisobiga kiritilmagan, chunki bu hol bekliklarda keng tarqalmaganligi uchun ro'yxatga olinmagan. Denov, Sherobod, Boysun, Yurchi shaharlarida hunarmandlar ma'lum imtiyozlarga ega bo'lib, ular yuqori tabaqali shahar aholisi bilan birgalikda jon boshi solig'i to'lashdan ozod etilgan. Shuningdek shaharda amalga oshiriladigan barcha jamoa hasharlardan ham ozod etilib, shahardagi hovuz va ariqlarni tozalash shahar atrofidagi qishloq aholisi zimmasiga yuklangan. Shaharda istiqomat qilgan hunarmand ekin ekish uchun yer maydoniga ega bo'lsa, dehqonlar qatorida yer solig'i xiroj to'lagan, xiroj miqdori esa bekliklarda ma'hsulotning 1/3 qismini tashkil etgan⁹.

1912 yili 10 oktyabrda Buxoro qushbegisining Rossiya siyosiy agentiga yozgan xatidan «... qishloq xo'jalik mahsulotlaridan ba'zi yerlarda 1/10, 1/8, 1/6, 1/5, boshqa yerlarda 1/3, 3/10, ba'zi yerlarda xiroj olinmaydi (qo'riq yerlar nazarda tutilgan) balki

5 Бартона В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочетение Т. 2.4.1-М: Узб во АН СССР. 1963. 108 с.

6 О'з.Р.М.А.Г.Л.-126, 1072-иш. Ўозув. 8 в.

7 О'з.Р.М.А.Г.Л.-126, 1159-иш. Ўозув. 1154-иш. 6 в.

8 Семенов А.А. Ocherk pozemelno-podatnogo i nalogovogo ustroystva v Buxarskom hanstve. Trudia SAGU-1929, №1 с. 48.

9 Xorushxin A.P. Sbornik stat'ey Kasayishxiya do Turkestanskogo kral. S.P.B. 1876. 125.

bahorda tanobdan 15 tiyin, kuzda 15 tiyin va 15 funt g'alla olinadi». Agar hunarmand o'z yerini boqqa aylantirgan bo'lsa, dehqon qatorida xiroj solig'i to'lagan. Tadqiqotlar natijasida qayd etilgan zakot, zakoti chakona, xiroj soliqlarini hunarmandlar, dehqonlar to'laydigan darajada to'laganlarmi yoki undan oz to'laganlarmi, buni aniqlash imkonii bo'lindi. Sharqiy Buxoro bekliklaridagi Jarqo'rg'on, Kokaydi, Angor, Sariq, Bandixon, Mirshodi, To'da, Qarluq, Sina, Sangardak, Yurchi, Xayrabod kabi qishloqlardagi qishloq hunarmandlarning turmush tarzi Sherobod, Boysun, Denov shahar hunarmandlari turmush tarzidan ancha og'ir bo'lgan. Qayd etilgan qishloq hunarmandlari soliqni natural shaklida ham to'laganlar. Shahar hunarmandlari turmushi qishloq hunarmandlari turmushidan bir oz yengil bo'lsada, ular vosfurushlar, ustakorlar zulmidan ko'p jabr ko'rganlar. Natijada beklik markazidagi hunarmandlarni norozilik chiqishlari, arznomalari ko'p bo'lib, goHida bu haraktlar qurolli to'qnashuvlar darajasiga ko'tarilgan. Bu norozilik chiqishlari ko'pincha katta ustalarga qarshi qaratilgan bo'lib, bekliklar siyosatiga unchalik iz qoldirmaganlar. 1885 yil Sherobod bekligida bo'lib o'tgan hunarmandlar g'alayonida ustakorlar qo'lida mehnat qilgan xalfa-ustalarning kundalik turmushi juda og'ir kechib, ularning turmushi nihoyatda og'ir bo'lgan.

Umuman Sharqiy Buxoro bekliklarida amalda bo'lgan soliqlar tizimini tahlil qilish natijasida amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayat xususida yanada mukammal ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Налоговая система Бухарский эмирата The tax system in Southern-Eastern Bukhara khanates SUMMARY

The article studies scientifically the formation of tax system and its application in Southern-Eastern Bukhara khanates at the end of XVIII century and at the beginning of XIX century.

VATANNING ASL FARZANDI

*Tohirjon Qozoqov
Nam DU, tarix fanlari nomzodi*

Farg'ona jadidlarining yirik vakillaridan biri Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li Yunusov (Cho'lpon)dir. U 1897 yil Andijonda dunyoga keldi. Cho'lpon Farg'ona jadidlarining yangi avlodiga mansub bo'lib, ijtimoiy-siyosiy faoliyati 1914-1915 yillardan boshlanadi. Uning dastlabki maqolasi 1914 yil «Sadoyi Farg'ona» va «Sadoyi Turkiston» gazetalarida bosilib chiqadi. Abdulhamid yozuvchi, shoir bo'lish bilan birga o'tkir publisist, hozirjavob qalamkash ham edi.

Cho'lpon Vatanining fidoyi, xalqparvar farzandi sifatida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga o'z munosabatini maqolalari orqali bildirib bordi. U Vatanni, millatni bag'oyat sevgan chin ma'nodagi vatanparvar edi. Jumladan, Turkistonda, xususan, Farg'onada temir yo'llarni qurilishini ijobiy baholagani holda, bundan kelib chiqayotgan salbiy hodisalarni ham o'z vaqtida ko'rsatib berdi.

Boshqa taraqqiy parvarlar qatorida Cho'lpon temir yo'l qurilishi tusayli aholi vokzal, stantsiyalar barpo qilish uchun o'z yerlarini arzon-garovga sotib, markazlardan uzoqlashib, qashshoqlikka mahkum bo'layotganini, ular o'rmini yevropali aholi egallayotganini kuyunib yozgan edi¹⁰.

Cho'lponning Vatan, ona yer haqidagi fikrlari g'oyat ibratli va ta'sirchandir: «... Vatan tuproqi shundog' onadurki, buni xor qilduk, o'zimizning ham xor bo'lmoqimiz

¹⁰ Mullo Ubaydullohxoja Sulaymonxoja o'g'li. Turkistondagi bilxossa Farg'onadagi musulmon qarindoshlarimizga xitob //Sadoyi Farg'ona.-1914.-18 may.

ko'z oldidadir... Tuproqdan yaratilduk, demoq tuproq tanimizdur, o'z tanimizni o'zimiz sotsak beaqllik emasnu? Ajabo!!!...».

Ayni paytda Cho'lpon milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar himoyachisi bo'lib maydonga chiqdi: «...Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki, ilm, Fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdir. Ovro'poning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!».

Cho'lpon o'sha kezdayoq vatan boyliklari mustamlakachilar tomonidan o'zlashtirilayotganini, bunga esa chek qo'yish lozimligini oshkora ayta olgan edi: «...Vatanimizning boyligini, tijoratimizning foidalarini chetlar cho'ntagig'a solmasdan va bermasdan o'z cho'ntagimizda olub yurmagimiz kerakdur. Bizga shundog' ishlarg'a kirishmoqg'a vaqt!... Biz ham insonmiz, insondek yashayluk!...»¹¹.

Cho'lpon har sohada zamon talabiga mos ish tutish tarafdori edi. Jumladan, iqtisodiyotda Yevropaning texnika yutuqlaridan foydalanish zarurligini u quyidagicha ifodalaydi: «Ovro'poning maktab, madrasa, ilm - Fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur olim qilub, johillikdan, asorat qulligidan qutuldurodur. Birodarlar ko'zlarining ochub yaxshi o'ylanglar!!!...»¹². Cho'lpon dehqonlar uchun maxsus banklar ochish lozimligini va bu kabi tadbirlarning afzallik tomonlarini bayon qilib beradi : «...Amriqoliklar ekin asboblari ishlatub, biz 10 kishi 10 kunda qilg'on ishimizni, onlar 2 kishi bilan 10 soatda qilmoqdadurlar!... Shul oson asboblar Rusiyani butun dehqonlarida bordur. Bizlar ham shul ekin asboblaridan olib ishlatsak og'ir mehnatlarimiz yengillanur edi!...».

Mustahkam iqtisodiy asosga tayangan holdagina taraqqiyotga erishish mumkinligini Cho'lpon ham o'z qarashlarida ifoda etgan. Mustamlakachilar tomonidan talanayotgan, iqtisodiy qashshoqlik sari mahkum etilgan Turkiston xalqlarini ayanchli ahvolini guvohi bo'lgan atoqli jadid, undan qutilish yo'llarini taklif qiladi: «...Avvallari qandog' yaxshi bo'lsa, so'nggi kunlarda va so'nggi yillarda kundan kun orqaga qarab qadam qo'yamoqdadur. Masalan: mundan 10-15 yil avval bir dehqonni o'ziga yarasha yeri bo'lub bola chaqasi bilan ishlab chiqg'on, mahsulni bozorga kerak vaqtida olub tushub, ozozdan sotub bola chaqalari bilan qish ichi rohati umr o'tkarur edi... Yozayluk qarindoshlar zirootdan! Yozayluk qarindoshlar iqtisoddan! Alar bo'lsa, maktab ham bo'lur, ilm ham bo'lur...»¹³.

Cho'lpon Turkiston Muxtoriyatini shodu-hurramlik bilan kutib oldi. Muxtoriyat tugatilgach, sovet idoralarida ishladi. Ko'plab taraqqiyarvarlar qatori u ham 1938 yil 4 oktyaborda Stalin istibdodining qurbanini bo'lди.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUNLAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Zahriddin Bobir Haydarov,

Nam DU Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasini mudiri, tarix fanlari nomzodi

O'zbekiston Respublikasi mustaqil, demokratik, huquqiy, insonparvarlik qoidalariiga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Har qanday davlatning mavjudligi, fuqarolarining huquqiy madaniyati, erkinligi uning qonununiyligi bilan belgilanadi. Demokratik, fuqarolik, huquqiy davlat qurayotgan O'zbekistonda ham

¹¹ Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar //Sadoyi Farg'ona.-1914.-6 iyun

¹² Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar //Sadoyi Farg'ona.-1914.-6 iyun

¹³ Cho'lpon. Vatanimiz turkistonda ziroot va dehqonchilik //Sadoyi Farg'ona.-1914.-30 may.

barcha sohalar qonunchiligi bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham o'z tarixiy tajribasi va an'analari bor.

Sovet mustamlakachiligi davrida ta'lim to'g'risida muayyan qonunlar amalda bo'lмаган. Faqatgina farmon va qarorlar ko'rinishidagi farmon va qarorlar mavjud bo'lib, ular qonun osti hujjatlari sifatida amalda bo'lган.

Istiqlolga erishgan dastlabki yillardayoq ta'lim to'g'risidagi qonunchilikni rivojlantirish uchun katta qadamlar tashlandi. 1992 yil 2 iyulda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" qabul qilindiki, bu holatni ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarining debochasi sifatida baholash mumkin. Vaholanki, Prezident Islom Karimovning 1992 yilda e'lon qilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli" risolasida Vatanimiz taraqqiyotining asosini poydevori ta'lim ekanligi alohida ta'kidlangan edi.

Mustaqil yurtimizda ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarining tamal toshi, asosi sifatida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega. Uning 41-moddasida zikr etilgan har bir insонning bilim olish huquqiga ega ekanligi xususidagi me'yор ham konstitutsiyamizning haqchil va demokratik ruhda ekanligidan dalolat beradi. Konstitutsiya ta'lim qonunchiligining asosi sifatida qonun va qonun osti hujjatlari uchun tayanch bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarining rivojlanish bosqichlarini 4 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. 1992-1997 yillar.

Ushbu bosqichda 1992 yilning 2 iyulida Vatanimiz tarixida bиринчи bor "Ta'lim to'g'risida"gi Qонун qabul qilindi. Qонун bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda ta'lim tiziminining uzviyiliги saqlab qolninib, uning asosida o'quv, jarayoni, kadrlar tayyorlash masalasida katta yutuqlarga erishildi.

1993 yildan boshlab oliy ta'lim muassasalarini kirish sinovlarida test usulining joriy etishi muhim yangilik sifatida qabul qilindi. Shuningdek, testga nisbatan, aniqrog'i davlat olib borayotgan siyosatga nisbatan xalqning ishonchi ortdi.

Bu davrda 1993 yil 2 sentyabrdagi "Lotin alifbosи asosidagi o'zbek yozuvini joriy etish haqidа"gi qaror e'lon qilinib, 1996-1997 o'quv yilidan boshlab maktablarning boshlang'ich sinflarida lotin yozuvida o'qitish boshlandi.

1993 yil 29 oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 1-oktyabrnı "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" sifatida nishonlash yo'lga qo'yildi. 1996 yilda esa sanani qonun bilan mustahkamlanishi ta'lim sohasiga berilayotgan e'tiborning yorqin dalilidir.

Ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimi shakllanib, shu davrda u o'z ichiga 57 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 15 ta universitet va 42 ta institutni birlashtirgan. Ularda 164 ming talaba ta'lim olgan, 15 universitetning 12 tasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18.5 ming o'qituvchini 52 foizini fan doktori va fan nomzodlari tashkil etgan.

2 bosqich. 1997-2001 yillar.

1997 yil 27 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi" Qонуни va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Prezident o'zining "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida mamlakat oldida XXI asrda rivojlantirilishi ko'zda tutilgan 6 ta muhim yo'nalish qatorida kadrlar tayyorlash masalasiga ham e'tibor qaratgan edi. Bu holat Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish, hayotga tatbiq etish, strategik

maqsadlarimiz – farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatni barpo etishimizning asosi ekanligi alohida ta'kidlangan edi¹⁴.

Shuningdek, bu davrda Toshkent Islom universiteti tashkil etilib, dunyoviy ta'lif qatorini diniy ta'lif berishning qonuniyligi ta'minlangan edi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha birinchi bosqich (1997 — 2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tiziminining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimi isloq qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish uchun "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunga muvofiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular ta'lif sohasining huquqiy asoslarini yaratish uchun xizmat qilgan.

Uchinchi bosqich. 2001-2005 yillar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi. 2001–2005 yillarda Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga oлган holda unga aniqliklar kiritishni ko'zda tutadi.

Bular ichida 16 avgust 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lifning Davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-sonli qarori oliy ta'lif sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Ta'lif qonunchiligi bu qonun osti hujjati oliy ta'lif yo'nalishida bakalavr va magistratura mutaxassisliklari uchun ko'nikma va malaka talabalarini belgilab berdi, bu holat O'zbekiston tajribasida dastlabki yutuq sifatida baholash mumkin edi.

To'rtinchi bosqich. 2005 va undan keyingi yillar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichi. 2005 va undan keyingi yillarda to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishni amalga oshiradi.

Bu bosqichda asosan ta'lifning me'yoriy hujjatlarini qonuniy asosda mustahkamlashga e'tibor qaratilgan. Shuning anosida bir necha qonunosti hujjatlari qabul qilindi va ular hozirgi kunda amalda qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, "Pedagog kadrlarni gayta tayvorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №25 16.02.2006, "Oliy ta'lif muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №20, 10.02.2006, "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №190, 10.09.2007, "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirining buyrug'i №1981, 10.07.2009, "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif muassasalarini bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining buyrug'i №1963, 05.06.2009, "Oliy ta'lif muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №118, 18.06.2010, "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" O'zbekiston

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B.18.

Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining buyrug'i №1981-1, 26.08.2010, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydag'i PQ-1533-son "Oliy ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini vanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №278, 26.09.2012, "Respublika oliy ta'lif muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №371, 29.12.2012, "Oliy o'quv yurtidagi keyingi ta'lif hamda oliv malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №365, 28.12.2012.

Shuningdek, Prezidentimizning 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875 sonli qarori asosida ta'lif muassasalarida chet tillarni o'rganish va chet tili mutaxassislarini tayyorlash ishlari 2013-2014 o'quv yilidan boshlab amalda qo'llanib kelinmoqda. Prezidentimizni 2012 yil 17 fevralda Toshkent shahrida tashkil etilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimida so'zlagan nutqlarida: "Qabul qilingan dasturlarga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumi majburiy bepul ta'lif tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning printsipial xususiyati shundaki, umumta'lif maktablaridagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lif fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni ham egallaydilar. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 12 yillik ta'lif barcha uchun majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Bu o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lif olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishni taqozo etadi"¹⁵.

QO'QON XONLIGINING XIVA XONLIGI BILAN SAVDO ALOQALARI TARIXIDAN

Zohidjon Madrahimov,

Nam DU "Tarix fanlari" kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan.

Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan ham yuqori darajada bo'lmasa-da, muayyan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Qo'qon xonligining Xiva bilan savdo aloqalari asosan Buxoro xonligi bozorlari va bu davlat hududidan o'tgan karvon yo'llari orqali olib borilgan. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi hududlarining kengayib borishi natijasida qozoq dashtlari orqali ikki xonlik chegaralari tutashib ketgan va to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalarini olib borish imkoniyati paydo bo'lgan. Biroq, bu hududdan o'tgan karvon yo'llarining uzoqligi, noqulay sharoiti va savdogarlar hayoti uchun xavfliligi savdo munosabatlarning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, Buxoro xonligi orqali

¹⁵ Karimov I.A. Yuksak slohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad // "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimida so'zlagan nutq. 2012 yil, 17 fevral.

o'tgan yo'llar vositasida Qo'qon – Xiva savdosini amalga oshirish o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

O'rta Osiyo xonliklarida bo'lib turgan o'zaro urushlar tabiiy ravishda savdo va madaniy aloqalarning taraqqiy etishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Buni XIX asr 20-yillarda O'rta Osiyoda bo'lган Ye.K.Meyendorf quyidagicha izohlaydi: "Qo'qon va Xiva xonliklari yaxshi munosabatda, ular o'zaro savdoni rivojlantirishni xohlaydi. Biroq, bunga Buxoro bosh qo'shishi kerak. Qo'qon xoni Buxoro hukmdori bilan ehtiyyot bo'lib harakat qiladi"¹⁶. Shu bilan bir qatorda ikki davlat savdo karvonlaridan Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklarida boj olinishi mahsulot tannarxining ortib ketishi olib kelgan. Bu esa Qo'qon – Xiva savdosiga salbiy ta'sir etgan¹⁷.

Qo'qon – Xiva savdosida Oqmasjid qal'asi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu Qo'qon qal'asi Xiva chegarasidan 45 km uzoqlikda joylashgan bo'lib¹⁸, uning bozorida Xiva savdogarlar Qo'qon savdogarları bilan oldi-sotdi munosabatlarini analga oshirganlar. Xususan, A.K.Geyns 1865 yil 16-20 avgust oraliq ida Oqmasjididan xivalik va buxorolik savdogarlar rus, qozoq mollarini olib qaytayotganligi haqida ma'lumot bergen¹⁹. Bundan tashqari, Qo'qon – Xiva savdo aloqalari Qo'qon xonligiga qarashli Yangiqo'rg'on, Chimqo'rg'on va Qo'shqo'rg'on qal'alari orqali ham olib borilgan²⁰.

Xiva xonligida ham Qo'qon ipagi va ipak gazlamalariga talab katta bo'lgan. Xivalik savdogarlar Buxoro bozorlaridan ipakdan tayyorlangan gazlamalarni ko'plab xarid qilganlar. Xususan, Xiva bozorlarida Qo'qon ipak matosi – shoyi yuqori baholangan va xivalik savdogarlar tomonidan ko'plab olib ketilgan²¹. Mashhur Qo'qon qog'oz'i O'rta Osiyoning turli hududlari kabi, Xiva xonligigacha olib borilgan²².

Xiva xonligining Xitoy va Qashqar bilan savdo aloqalarida Qo'qon tranzit shahar vazifasini bajargan. Qashqar va Xitoy mollari qo'qonlik savdogarlar tomonidan Buxoro va Xiva bozorlariga yetkazilgan. Ch.Ch.Valixonov, Xitoydan Qo'qonga keltirilgan choy, chinni buyumlar, kumush yombi O'rta Osiyo shaharlariga, xususan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xivagacha olib borilgan, – deb yozgan²³. XIX asr 30-yillarda Buxoroda bo'lgan P.I.Demezon va I.V.Vitkevichlar ma'lumotiga ko'ra, Buxorodan Xivaga keltirilgan mollar orasida, Qo'qon orqali Qashqardan keltirilgan ko'k choy – "tuqtachoy" (g'isht choy) alohida ahamiyatga ega bo'lgan²⁴. Ma'lumotlarga qaraganda, XIX asr 60-yillariga qadar Qashqardan Qo'qon va Buxoro orqali Xivagacha karvonlar borgan hamda keltirilgan mollar orasida choy asosiy o'rinni egallagan²⁵. Xitoy chinnisiga O'rta Osiyoning turli hududlari kabi Xiva xonligida ham talab katta bo'lgan va u Qashqar va Qo'qon xonligi orqali Xivagacha olib borilgan bo'lib, bu yo'l Xitoydan Xivaga

¹⁶ Мейendorф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М: Наука, 1975. – С. 141.

¹⁷ Вельяминов-Зернов В. В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического Общества. – СПб., 1856. Т. 18. – С. 121.

¹⁸ Адинаров А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством: Дисс.. канд. ист. наук. – Т., 1946. – С. 37.

¹⁹ Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве / Собрание литературных трудов. Том II. – СПб.: Тип. М.Стасюревича, 1898.– С. 245.

²⁰ Коинмой Й. Кўкон хонлиги тарихи очерклари. – Тошкент – Наманган, 1994. – Б. 28.

²¹ Садуллаев А., Мавлонов Ў., Аминов Б., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараккиёти. 1-кисм. – Т., 2000. – Б. 246.

²² Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства писчей бумаги // Поздне-феодальный город Средней Азии. – Т., 1990. – С. 163.

²³ Валиханов Ч. Ч. Описание нескольких монет улуса чагатая, Хивы и Коканда / Собрание сочинений. В 5-томах. – Алма-Ата, Т.В. 1985. – С. 109.

²⁴ Мейendorф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М: Наука, 1975. – С. 81.

²⁵ Пещерова Е. М. Гончарное производство Средней Азии. – Москва, 1959. – С. 287.

keladigan eng yaqin va qulay yo'l bo'lgan²⁶.

Xiva xonligi savdogarları ham kam bo'lsa-da, Qo'qon xonligi shaharlariga tijorat maqsadida borib turganlar. XVIII asr 70-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan F.Efremov, "O'sh savdo shahri bo'lib, Marg'ilondan uch kunlik yo'lida joylashgan. O'sh bozorida Buxoro, Toshkent, Xiva va boshqa hududlardan kelgan savdogarlarni uchratish mumkin", – deb esdaliklarida qayd etgan²⁷.

Xivadan Qo'qon xonligiga oz miqdorda Xiva choponlari, bo'z, po'stin, ot, tuyu, xo'kiz terilari, yarim ipak mato, gilam, arg'umoq otlar va Mashhad orqali keltirilgan ingliz chiti olib ketilgan²⁸. Xiva O'rta Osiyoda chopon tayyorlashning yirik markazlaridan bo'lib, bu yerda tayyorlangan choponlar o'zining sifati va ko'rinishi bo'yicha boshqa hududlarda tayyorlangan choponlardan ajralib turgan va qo'shni hududlarda mashhur hisoblangan. Qo'qon xonligiga keltirilgan Xiva choponlari mahalliy aholi orasida xaridorgir hisoblangan²⁹. XIX asr 60-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan M.Mixaylov ma'lumotlariga ko'ra, Namangan bozorlarida Buxoro sallalari va qo'y terisidan tayyorlangan Xiva telpaklariga talab katta bo'lgan va ular bozorlarda yuqori narxlarida sotilgan³⁰. Qo'qon va Xiva xonliklarining savdo aloqalarida turkman arg'umoq otlari muhim ahamiyat kasb etgan. XIX asr 60-yillarida Toshkentda bo'lgan P.I.Pashino qayd etishicha, Toshkent bozorlariga qimmatbaho hisoblangan turkman arg'umoq otlari Xiva va Buxoro xonligidan olib kelgingan³¹.

Qo'qon va Xiva xonliklari o'ttasida kam bo'lsa ham kichik-kichik karvonlar yil bo'yи borib turgan³². Ular asosan Buxoro – Xiva karvon yo'lidan foydalangan bo'lib, Buxordan Xivagecha 340 verst masofa bo'lgan va karvon bu yo'lni 10 kunda bosib o'tgan³³. Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan asosan Buxoro amirligidan o'tgan karvon yo'llari va amirlik bozorlari savdo aloqalarini olib borgan bo'lsa ham ikki mamlakatni to'g'ridan to'g'ri bog'laydigan Toshkent orqali o'tgan karvon yo'li mayjud bo'lgan. Toshkentdan chiqqan karvon Jizzax, Forish va Balti-saudir, Bo'tabek, Bechapan, Odinboy, Yuz quduq, Moybulloq, Mingbulloq, Buzauboy, Kosay, Sorbulloq quduqlari va Oqqamish orqali Xivaga borgan. Toshkent – Xiva karvon yo'li 804 verst masofada iborat bo'lgan va asosan cho'llardan o'tgan hamda tuyalar yuk tashuvchi vosita sifatida foydalilanigan³⁴. Shuningdek, Xiva va Qo'qon xonligi o'ttasida Sirdaryo orqali ham savdo aloqalari amalga oshirilgan. Xususan, 1819 – 1820 yillarda O'rta Osiyoda bo'lgan Nikolay Muravev esdaliklarida qayd etilishicha, Xiva xonligi Amudaryo orqali Buxoro va Balx bilan, Sirdaryo orqali Toshkent va Qo'qon bilan aloqa qilgan³⁵. Biroq, Sirdaryo orqali o'tgan daryo yo'li uzoqligi va katta kemalar qatnashi uchun imkoniyat yo'qligi natijasida undan savdogarlar juda kam foydalangan. Natijada, Buxoro amirligi orqali Qo'qon – Xiva savdosini o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Qo'qon – Xiva savdo aloqalariga turli

²⁶ Из истории международных отношений в Центральной Азии. – Алма-Ата, 1990. – С. 111.

²⁷ Ефремов Ф. Странствование в Киргизской степи, Бухарии, Хиве, Персии, Тибет и Индии... – С. 101.

²⁸ Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демесюна и И.В.Виткевича). – М.: Наука, 1983. – С. 81.

²⁹ Кустарные промислы в быту народов Узбекистана XIX – XX вв. – Т., 1986. – С. 51.

³⁰ Михайлова М. Наманган // Туркестанский сборник. Том 16. 1867. – С. 73.

³¹ Пашино П. И. Туркестанский край в 1866 году. – СПб., 1868. – С. 135.

³² Кокан // Туркестанский сборник. Том 30. 1870. – С. 140.

³³ О путях сообщения//Проект устава товарищества для развития торговли Среднею Азию. Сост. С. Хрулев. – СПб. 1863. – С. 18.

³⁴ Костенко Л. Средняя и водворение в ней русской гражданственности // Туркестанский сборник. Том 29. 1870. – С. 317 – 318.

³⁵ Путешествие в Среднюю Азию Николая Муравьева (1819 – 1820) // История Узбекистан в источниках. – Т., 1988. – С. 175.

tabiiy va su'niy to'siqlar bo'lishiga qaramay ular o'rtaсидаги савдо бир мағомада давом этган ва иккى мамлакат учун ҳам самарали бо'lган. Иккى ҳонлиқ савдо алоқаларда Тошкент ва Буҳоро бозорлари мухим аhamiyat kasb etgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI I.A.KARIMOVNING ASARLARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

S.Mirsoatova
Far DU t.f.n.

M.Yuldasheva

Far DU O'zbekiston tarixi yo'nalishi II-bosqich magistranti

1991 yil 31 avgustda o'zbek xalqining asriy orzusi ushaldi – O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Bu shonli sana O'zbekiston xalqlari tarixida yangi davrni boshlab berdi. Respublikamiz xalqaro munosabatlarning teng huquqi sub'ektiga aylandi, BMTning a'zoligiga qabul qilindi. Ayni vaqtida O'zbekiston xalqi erkin ravishda o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston 70 yil davomida zo'rlab tiqishtirilgan, lekin amalda o'zini oqlarnagan totalitar sotsialistik tuzumdan voz kechib, bozor munosabatlariiga asoslangan erkin demokratik jamiyat sari ilk qadamlar tashlay boshladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatları tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormokda. Bu – tabiiy hol, albatta, odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, naslnasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Istiqlol tufayli tarixchilarimizning imkoniyatlari kengaydi. Ayniksa, 1998 yil 26 iyunda Prezidentimizning bir guruh tarixchi olimlarimiz bilan uchrashganlaridan so'ng yurtimiz tarixini o'rganishda tub burilish yasaldi, desak xato bo'lmaydi. Shundan so'ng tarixchi olimlarimiz yurtimiz tarixini turli davrlari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi va o'zbek davlatchiligining haqqoniy tarixini o'zida mujassam qilgan qator asarlar chop etildi. Jumladan, mustaqillik tarixi aks ettirilgan asarlar ham yaratildi. Davlatimiz rahbari aytganlaridek «mustaqillik davri bu – o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifalarimizni bilib olish davridir»³⁶.

O'tgan 23 yil davomida erishgan natijalarimiz biz tanlagan yo'lning to'g'ri yo'l ekanligini isbotladi. Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan tub siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning dastlabki natijalari shu bo'ldiki, sanoat va qishloq xo'jaligida chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egalladi. Lekin bu murakkab jarayonlar osonlik bilan kechmayapti. Jamiyatimizdagи ayrim konservativ kuchlar yangi tartib va munosabatlarning joriy qilinishiga qarshilik ko'rsatmoqdalar. Qolaversa, totalitar tuzumdan yangi taraqqiyot modeliga o'tish jarayonida ba'zi kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Shunday ekan, mustaqillik davri tarixini batafsil o'rganish, bu davrda erishgan yutuqlarimizni va yo'l qo'ygan kamchiliklarimizning sabab va oqibatlarini chuqur idrok etish ham ilmiy, ham siyosiy ahamiyatga egadir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mustaqil O'zbekiston tarixiga oid juda ko'p tarixiy manbalar yaratildi va hozir ham yaratilmoqda.

³⁶ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-Toshkent: O'zbekiston, 1995.-B.8.

O'zbekistonning mustaqillik davridagi tarixiga oid muhim manba – bu Prezident I. A. Karimovning asarlaridir. I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lom qilishda jonbozlik ko'sratgan va yangi mustaqil davlatni uning vujudga kelishidan hozirgi kunga qadar boshqarib kelayotgan buyuk tarixiy arbobdir. Ishonch bilan aytish mumkinki, mustaqil O'zbekistonning hozirgi kunga qadar bo'lgan tarixi I. A. Karimovning bevosita rahbarligi va ishtiroki ostida o'tdi. Shuning uchun ham uning asarları tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga egadir.

Prezident I. A. Karimovning respublika parlamenti sessiyalarida so'zlagan nutqlarida O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, islohotlarning borishi, xalqimizning turli sohalarda qo'lga kiritgan yutuqlari va jamiyatimizda mavjud bo'lgan hamda o'z yechimini kutayotgan muammolar o'z aksini topgandir. Prezident nutqlari, intervylari, maqola va kitoblarida boy va ishonarli ma'lumotlar keltiriladi.

I. A. Karimovning dastlabki yirik asari "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli kitobidir. Bu kitoba mualif endigina mustaqillikka erishgan O'zbekistonning taraqqiyot istiqbollarini belgilab berdi. Asarda O'zbekistonda qurilajak yangi demokratik jamiyatning asosiy parametrlari ko'rsatib berilgan.

Prezident I. A. Karimovning BMT sessiyalarida, turli xalqaro seminarlarda, xorijiy mamlakatlar rahbarlari va jamoatchiligi bilan uchrashuvlarda so'zlagan nutqlarida O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadlari va strategik yo'naliishlari o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi dastlabki kunlardan boshlab hozirgi kunga qadar tinchliksevar tashqi siyosat olib borayotganligi ma'lumdir. Respublika hukumati va shaxsan I. A. Karimov Markaziy Osiyoda kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish, Orol muammosini hal etish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadidagi qator tashabbuslar bilan chiqqanligini jahon jamoatchiligi yaxshi biladi.

Prezidentimizni ushbu asarida yana bir asosiy masala - til mas'lasiga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtaqidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zлari bilan aytganda, «har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotnayduru»³⁷.

Ona tilimiz hakida gap ketganda, mustaqillik arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qizg'in, ba'zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo'lganligini yodga olish zarurdir.

Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo'yicha taniqli 39 olimlar, ijodkor ziyorilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. Komissiya a'zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruuhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni atroflicha o'rganib chiqqdi. Nihoyat, 1989 yilning 21 oktyabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasida o'zbek tili davlat tili deb e'lom qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqeа edi.

1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagи o'mi va ta'siri kengayib bordi.

³⁷ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B.83.

Mazkur asarda shuningdek, bugungi kunda ma'naviy dunyoimizga bo'layotgan xavf - xatarlar, jumladan «ommaviy madaniyat» hamda undan saqlanish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar va vazifalar borasida fikr yuritilgan. Ushbu asar miliy g'oyamizni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqilligimizning 20 yilligini nishonlash arafasida Prezidentimizning yana bir yirik asari «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi nashr etildi. Ushbu asar 1989-1992 yillarda bo'lib o'tgan voqealarni o'zida aks ettirgan bo'lib, davlatimiz rahbarining ayni shu murakkab tarixiy davrda so'zlagan ma'ruza va nutqlari, suhbat, maqola va intervyularidan iboratdir.

Asardagi Prezidentimizning 1990-yil 21-iyun «Sovet O'zbekistoni» gazetasiga bergen intervyusida mustaqillik arafasida O'zbekiston iqtisodiyotiga oid aniq fakt va raqamlar keltirilgan. Jumladan maishiy xizmat ministrligi sistemasida qariyb 7 mingta sartaroshxonasi, 2,5mingta poyabzal ustaxonasi, shuningdek, matlubot kooperatsiyasi sistemasida 12 mingtadan ko'prok umumiy ovqatlanish korxonasi, sanoatda esa 300 ta korxona faoliyat yuritardi. Asardagi Prezidentimizning 1991-yil mart oyida respublika qishloq xo'jaligi xodimlari qurultoyida so'zlagan nutqi ayniqsa e'tiborli bo'lib, mustaqillik arafasida respublika jamoa xo'jaliklarining iqtisodiy ahvoli haqida fikr yuritiladi. Jumladan, bu davrdagi mavjud jamoa xo'jaliklarining 650 tasining bankdagi hisobida bir tiyin ham yo'qligi, bu soha halokat yoqasiga kelib qolganligi keltirib o'tilgan. Shuningdek shaxsiy xo'jaliklarga ham e'tibor qaratilgan. «Ilgari har bir oilaga 12 sotix yer berilgan bo'lsa, 1991-yilning boshida bu raqam 17 sotixni tashkil etdi. Yil oxirida shaxsiy xo'jaliklarga ajratilgan yer 500 ming gektardan oshib ketadi, ya'ni 1988-yilga nisbatan 2,5 marta ko'paydi».

Prezidentimizning jillardan iborat asarlar to'plami ham mustaqillik davrini ilmiy o'rnatishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jillarda Prezidentimizning mustaqillikka erishgan kunimizdan to hozirgi kunga qadar xalqaro maydonlarda, Oliy Majlis sessiyalarida, Senat yig'ilishlarida, viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari yig'ilishlarida, turli uchrashuvlarda so'zlagan nutqlari hamda muxbirlarga bergen intervyulari jamlangandir. 1996-yilda nashr etilgan "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod siyosat, mafkura" deb nomlangan birinchi jilda O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot yo'li va yangilanish borasidagi o'z yo'lining mazmun mohiyati nimalardan iborat ekanligi oshib berilgan. Asarda shuningdek, O'rta Osiyodagi birinchi avtomobil zavodi hisoblangan Andijon Asaka zavodining qurilish tarixi batafsil yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Prezident I. A. Karimovning asarlarida mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining barcha jabhalariga doir juda ko'p va boy ma'lumotlar mavjuddir. Eng muhim shundaki, bu ma'lumotlar davlatimiz rahbari tomonidan e'lon qilinganligi bois o'zining obyektivligi va to'g'riligi bilan ajralib turadi. Bu ma'lumotlardan ilmiy tadqiqotlar jarayonida keng foydalananish istiqlol davri tarixini xolisona yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TO'QIMACHILIK SANOATINING TUTGAN O'RNI

U.K. Xudoyqulov
Termiz DU, tarix fanlari nomzodi
Q. Toshaliyev
Termiz DU, tarix fanlari nomzodi

Temur va temuriylar davrida to'qimachilik sanoati keng rivojlangan edi. Markazlashgan davlatning qaror topishi bilan iste'molchilar sonining ko'payishi to'qimachilikni

³⁸ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-306-bet.

yanada rivojlantirishga va to'qimachilik buyumlari sifatini yaxshilashga olib keldi³⁹.

XIV asr oxri va XV asrda gazmollar yuqori texnikaviy va badiiy jihatidan yuksak darajada turganligidan, dalolat beradi. To'qimachilik ishlab chikarish mahsulotlari, nafaqat mamlakatning ichki bozorida balki, to'qilgan gazmollar olis mamlakatlarning aholisiga xam yetkazib berilgan.

Shunday qilib, Samarqandning gazmol ishlab chiqaruvchi hunarmandlari mahalliy bozorlardan tashqari ancha uzoqdagagi joylar bilan ham savdo aloqalari o'rnatgan edi. XV-XVI asarlardagi yozma manbalarda Samarqandda ishlab chiqarilgan ip gazlarma va shoyi gazlamalardan ancha-munchalarining nomlari uchraydi, jun gazlamalarning nomlari esa juda kam uchraydi.

Masalan, Samarkandda turli xil gazlamalar: olacha, parcha, duxoba va boshqalarni ishlab chiqaradigan hunarmandlar bo'lgan.

Shuningdek, gazlamaga gul bosuvchi ustalar ham bo'lgan. O'lkada yetishtiriladigan paxtadan tayyorlangan ip gazlamaga aholining talabi ayniqsa katta bo'lgan. Turli navdag'i karbas (o'zbek tilida va boshka turkiy tillarda bo'z deb atalgan) gazmollar (oq va bo'yalmagan sariq rangli dagal va nafis gazlama) keng tarqalgan bo'lib, ular XIX asrning oxirigacha to'qib chiqarilgan.

Fazlulloh ibn Ruzbexon o'zining «Mehmonnomai Buxoro» degan asarida bu xaqda: karbas gazmollarga bo'lgan ehtiyojning g'oyat o'sganligi tufayli (o'zbek xonlari va qozoq sultonlari o'rtasidagi munosabatlar jiddiy keskinlashgan davrda) - deb yozadi. Katan deb atalgan gazmol ancha pishiq bo'lgan. Undan qimmatbaho choponlar tikishgan, ba'zan bu choponlarni zarbof qilib va qimmatbaho toshlar bilan bezashgan.

Samarqandda to'qilgan olacha gazmol ham aholi o'rtasida keng tarqalgan. Samarqand olachasi boshqa shaharlarga olib borib sotilgani to'g'risida ancha keyingi davrlarga oid ma'lumotlar bor. XV-XVI asrlarga oid manbalarda bu gazmolning boshqa navi, ya'ni «Buxoro olachasi» tilga olinadi. Bu olachaning Samarqanda to'qilgan olachadan farqi bo'lgan bo'lishi kerak, shuning uchun ham «Buxoro olachasi» deb atashgan.

XV asrning tarixiy ma'lumotlarida futa (fata) ip gazlamasi to'g'risida xam bir necha bor eslatib o'tilgan. Bu gazmol asosan salsa uchun ishlataligan. Bundan tashqari, undan belbog' ham qilingan, mashhur tarixchi va adib Zayniddin Vosifiy XV asrning oxiriga oid voqealar to'g'risida hikoya qilib, odatda kamtarona kiyangan Abdurahmon Jomiy futadan qilingan belbog' bilan bog'lab yurganini aytadi. (Biroq shoiring biografi Abdulvose Jomiy o'zining odatdagagi harajatlariga har yili 100 ming kebak dinor sarflanganligini yozadi). Shu bilan birga futa XV asr oxirida aslzoda yoshlar kiyimining bir qismi sifatida ham eslatib o'tiladi. O'sha davrda zardan tikilgan futa Hirotda 50 tanga to'rgan.

Futa nomi ancha keyingi davrlarda Rossiyada ham uchraydi. Filipp Yefremov XVIII asarning 70-yillarda o'zining to'qqiz yillik sayohati to'g'risidagi xotiralarida qo'yidagilarni yozgan: O'rta Osiyoda «judu ko'p paxta yetishtiriladi, undan ip yigiriladi ipdan chodir, surp to'qishadi, bizda (Rossiyada) esa bundan hom chit, guli satin, doka,futa, burmet va boshka matolar tayyorlanadi va bu narsalar chet ellarga ham yuboriladi»⁴⁰.

Paxtadan to'qilgan va har xil gullar bosilgan matolardan biri chit deb atalgan. XVI asrga oid qozilik ma'lumotlarida Samarqandlik chitgarlarning nomlari tilga olinadi va Samarqand bozorlarida bo'ladigan chitning turli navlari sanab o'tiladi.

³⁹ Karimov. I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.-Toshkent: O'zbekiston, 1994.-91 bet.

⁴⁰ Samarqand tarixi.-Toshkent: Fan, 1971.-199-203 betlar.

Bundan ko'rinib turibdiki, shaharda chitga gul bosuvchi mutaxassislar ko'p bo'lgan. Kiyimlarning astariga malla, bo'z, falga, vala kabi gazmollar ishlataligan.

Mahalliy va chetdan keltirilgan hom ashyodan shoyi to'qish keng tarqalgan edi. Chetdan keltirilgan hom ashyo ipak mahalliy ipak bilan bir qatorda turli nav shoyi gazmollar tayyorlash uchun ishlatalardi. Manbalarda atlas, kimhob, haro, misri, banoras va boshqa nomdagi shoyi va chala shoyi gazmollarning nomlari uchraydi.

Temur davlatining poytaxtida uch oyga yaqin yashagan Ryui Ganzales de Klavixoning qayd qilib o'tishicha, Samarqandning boyliklari «oziq-ovqatdangina ibor emas, balki u yerda shoyi gazmollar – atlas, kimhob, sendal, tafta va tersenal ham ko'plab ishlab chiqarildi». Biroq, Klavixoning yuqorida zikr etilgan so'zлari singari Xofizi Abru asarida keltirilgan ma'lumotlarga asosan, Mavurannahrdha ham kimhob to'qib chiqarilgan. Xofizi Abru Temur tomonidan o'tkazilgan tantanalarda Xirotning hunarmandlari va savdo ahli ham qatnashganligini, ular turgan dastgohlarni ko'rsatganligini tasvirlab, bunday deb yozadi: "Kimhob to'quvchilar ko'chma to'qish dastgohini namoyish qilib, shu yerning o'zidayoq to'qishar edi". Ana shularning hammasi Samarqanda ham kimhob to'qib chiqarilganligidan dalolat beradi.

Kimhobdan tayyorlangan tunlar odatda Amur Temur saroyiga kelgan elchilarga sovg'a qilinardi. Xitoydan mahalliy bozorlarga keltirilgan kimhobdan farqli o'laroq, Mavarounnahrdha kimhobning alohida navi to'qilgan.

Shayboniyxon lashkarlari Hisorda qo'lga tushirgan harbiy o'ljalar orasidagi ajoyib gulli shoyi gazmol diba (diboj) deb ataladi.

XV-XVII asrlarda Samarqanda duhobaning alohida navi ishlab chiqarilgan.

Duhoba ishlab chiqarish o'sha davr uchun texnika jihatidan ancha murakkab ish edi. Bu esa Samarqanda to'qish san'atining yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Yozma manbalarda gilamlardan har xil gulli va turli kattalikdagи qalin gilam, zilucha, shuningdek, devorga osib qo'yiladigan gazlama gilamlar tilga olinadi. Klavixo o'zining kundaliklarida Samarqanda o'z ko'zi bilan ko'rgan, asosan, qizil gilamlar to'g'risida bir necha bor gapirib o'tadi.

Tarixchi Ibn Arabshoh Temur maqbarasining poliga yozib qo'yilgan shoyi va baxmal gilamlar to'g'risida eslatib o'tadi.

Mamlakatdagи ko'pchilik aholi ro'zg'orida namat ishlatilib, uni ishlab chiqarish hunarmanchilik sohasida katta o'rin egallangan. Shahar dushmanlardan mudofaa qilingan vaqtida kamon o'qlarini tutib qolishi uchun qal'a devorlariga namat osib qo'yishgan. Bosh kiyimlar tayyorlashda ham namat ishlatilgan⁴¹.

Tun, bosh kiyimlar, pustin, tikish kasbi ham rivojlana bordi. Po'stindo'zlar po'stirlarni, asosan, dashtli tumanlarda yashovchi aholiga sotish uchun tayyorlardilar, qolaversa, yilning sovuq vaqtlarida ayrim tog'li tumanlarning mahalliy aholisi ham po'stin kiyishni yaxshi ko'rardi. Amur Temur sovuq qattiq bo'lgan bir paytda unga mo'yna po'stin topib keltirishgani haqida yozadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, XIV-XV asrlar oxirida Samarqand shahridagi hunarmanchilikning to'qimachilik sohasi nafaqat mamlakat ichki bozorini ta'minlash balki, Hindiston, Eron, Kichik Osiyo, Volga bo'yи, Rus, Sibir, Uzoq Sharq hamda Yevropaning olis mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini olib borishda ham asosiy ahamiyatda bo'lgan⁴².

⁴¹ Qoriniyozov T.N. Samarqand Temur davrida //Fan va turmush.-1968.-№3.-20-23 betlar.

⁴² Ahmedov B.Tarixdan saboqlar.-Toshkent: O'qituvchi, 1994.

SAYYID NOSIRXONTO'RA

Tohirjon Qozoqov

Nam DU, tarix fanlari nomzodi

Namanganning peshqadam taraqqiyarvar ulamolaridan biri Sayyid Nosirxon to'ra Kamolxon to'rayevdir. U 1871 yil Namanganda ziyoli oilda tavallud topadi. Uning otasi Sayyid G'ozixon Namanganning eng ko'zga ko'ringan mudarrislaridan biri bo'lib, shariat qozisi lavozimida ishlardi. Namanganda G'ozixonning o'z bosmaxonasi bo'lib, unda islom diniga oid bo'lgan ilmiy, falsafiy asarlarni chop ettiradi.

Sayyid Nosirxon to'raning ilg'or fikrli kishi bo'lib yetishishida oiladagi ma'naviy muhitning ta'siri katta bo'ldi. Nosirxon to'ra madrasadagi o'qishini tamomlagach, chet mamlakatlarga tahsil olish uchun chiqib ketadi. Bag'dod, Dehli, Hijoz va Kobul shaharlarida tahsil ko'rди, islom asoslarini yanada chuqurroq o'rganib, 1912 yil yana o'z Vataniga qaytib keladi.

U chet mamlakatlarda yashagan vaqtida mamlakatning taraqqiyoti uchun qiziqa boshladи. Tehron va Hijoz kabi shaharlarda sodir bo'layotgan keskin siyosiy o'zgarishlar, Turkiyadagi Yosh turklar harakatidan qattiq ta'sirlanadi. O'sha paytlardayoq uning qalbidan Vatani Turkistonning ravnaqi haqidagi fikrlar muhim o'rн olgan edi. Namanganga qaytgach, shahar qozisi lavozimida ishladi. Otasining bosmaxonasi orqali Farg'ona jadidlarining islohotchilik g'oyalarini tarqatishda yordam berdi. 1916 yil O'zgan, Kosonsoy va Namanganda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'alonlarini ham qo'llab quvvatladi.

1917 yil fevral inqilobidan keyin Nosirxon to'ra ijtimoiy-siyosiy faoliyatida keskin o'zgarishlar boshlandi. Turkistondagi demokratik jarayonlarda uning alohida o'z o'rni bor. U 1917 yil 10-aprelda bo'lib o'tgan Turkiston O'lkasi Ijroiya Komitetlari delegatlarining s'ezdida ishtirok etib, aholining barcha tabaqalarini, barcha millatlarni qo'liga kiritilgan ozodlikni asrab qolishga, hurriyat bergen imkoniyatlardan unumli foydalishiga da'vat etadi⁴³. Turkiston Muxtoriyatinning asosiy tashkilotchilaridan biri aynan Nosirxon to'ra edi. Atoqli jadid Ashurali Zohiriyning bergen ma'lumotlariga ko'ra, «...agar Nosirxon to'ra Turkiston musulmonlarining IV-favqulodda qurultoyini chaqirish ustunda jon kuydirmaganda edi, balkim bu qurultoy chaqirilmay qolishi mumkin edi...»⁴⁴.

U Qo'qonda chaqirilgan o'lka musulmonlarining IV-favqulodda s'ezdida saylangan Milliy Majlisga a'zo va hukumat maorif noziri lavozimlariga saylanadi⁴⁵.

Ushbu lavozimda ishslash jarayonida aholi orasida madaniy-ma'rifiy ishlarni yaxshi yo'nga qo'yishga imkon qadar harakat qildi. Muxtoriyat ag'darilgach, Nosirxon to'ra o'zining milliy-ozodlik g'oyasidan voz kechmagan holda yashirin faoliyat ko'rsatishga o'tdi.

Milliy ozodlik uchun jangovar kurash olib borgan Farg'ona istiqlolchilarining g'oyaviy rahnamosiga aylandi. U mahfiy ravishda Omon Polvon, Muhibbinbek, Jonibek qozi va Rahmonqul qo'rbohilarning faoliyatlarini markazlashtirish harakatida bo'ldi.

Nosirxon to'ra «Milliy Ittihod» tashkilotining Namangan filialiga a'zo bo'lib, bu tashkilotning yacheykasini Kosonsoy shahrida tashkil qiladi. Shermuhammadbek Nosirxon to'ani o'ziga pir deb e'lon qilgan va ushbu markazdan doimo Farg'onadagi sovet qo'shinlarining ahvoli to'g'risida ma'lumotlar olib turgan⁴⁶.

⁴³ Протоколь Съезда делегатов Исполнительных Комитетов Туркестанского Края.-Т: Тип-я Туркестанских ведомостей,1917.-№ 2.-С. 6.

⁴⁴ Erkturk. M.X. Sayyid Nosirxon to'ra //Turon tarixi.-1994.-№3.-B. 21.

⁴⁵ Аззамходжаев С.С. Из истории борьбы за автономию Туркестана. Туркистан мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан.-Ташкент: Фан, 1996.-С.32.

⁴⁶ Rajabov Q. Jadidlar-istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.-Toshkent: Eldinur, 1998.-B.13.

Lekin uning bu faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. 1919 yil bolsheviklar uni Turkiston Muxtoriyatining Maorif Noziri bo'lganligi uchun qamoqqa oldilar. 1924 yil qamoqdan qaytib kelgach, ko'p o'tmay uni Sovetlarga qarshi faoliyati uchun yana qamoqqa oladilar va Orenburgga 5 yilga surgun qiladilar.

1938 yil iyul oyining boshlarida uni Sovetlarga qarshi faoliyati uchun yana hibsga oladilar. Shu yilning 3-sentyabrida maorifchi, diniy olim, tarixchi, siyosatchi, millatparvar siymo Sayyid Nosirxonto'ra Andijon turmasida vafot etdi.

Sayyid Nosirxonto'ra kabi barcha Farg'onalik jadid namoyandalari millatni taraqqiyot sari boshlash uchun turli yo'naliishlarda faol harakat qildilar. Xalqni zulmatdan qutqarishning turli yo'llarini izladilar. Bu borada ular maktab-maorif, teatr, adabiyot, matbuotdan keng foydalanishga, siyosiy tashkilotlar tuzib, o'lkaning siyosiy hayotida faol ishtirok etishga urindilar.

MAJZUB NAMANGONIY VA MARG'ILON ULAMOLARI

*Nodirjon Abdulahatov,
Farg'ona VPKQTMOI o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi*

Ma'lumki, Mazjub Namangoniy Ahmad Yassaviy, Navoiy, Mashrat, Huvaydo kabi xalq qalbidan chuquq joy olgan otashin so'z ustasi, Allohning oshig'i, piri komil inson edi. Uning yetuk shogirdlari ham o'z ustozlari yo'lidan borib, kishilarni ma'naviy yetuklik sari chorlab kelganlar.

«Ma'no durrining koni – oshiq elining joni» deya ta'riflangan, Eshon Majzub nomi bilan mashhur bo'lgan tariqat shayxi Abdulaziz Hasanxoja o'g'lining irfoniy mazmundagi ko'plab nazmiy asarlari mavjud. Ular soliklar tomonidan so'fiylarning anjumanlarida kuylanib kelingan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Majzub Namangoniy o'z faoliyati davomida Marg'ilon ulamolari bilan do'stona munosabatda bo'lib, tez-tez bu shaharga kelishni xush ko'rgan. Bu holatni naqshbandiya tariqatining piri mursidi, shayxi-komil, mavlono Muhammad Yusufxon Xonaqohiy Hazrat – Hazin Marg'inoni(1840-1918), Nurmuhammad eshon Ortiq eshon o'g'li (Tosh Xalfa), Muhammad Umar xalifa (Oq eshon)lar misoldida ko'rish mumkin. Binobarin, "Muhammad Yusuf Hazin" kitobida mazkur mavzuda jumladan quyidagilar bayon etilgan:

“Aytishlaricha, Hazin Marg'inonining boshlarida bir oz og'riq paydo bo'lib, gohida behalovat qilar ekan. Bir gal Marg'ilondon Eshon Majzub ziyoratga borgan kishilar bu haqda u zotga aytishadi. Qaytayotganlarida eshon Majzub ularga bir kulohni berib, «Mana bu yuqorilarimizdan kelayotgan tabarruk kuloh, Hazratga olib boringlar, kiysisinlar ajab emaski shifo topsalar», – deydilar.

Marg'ilonga kelgach, Hazrat Domla huzuriga kiradilar va Eshonning salomlarini ayтиб, kulohni beradilar. Hazrat bundan xursand bo'lib kulohni kiyadilar va ne tongki, tez fursatda bemorlikdan forig' bo'ladiлар. So'ngra muridlariga: «Endi Eshon hazratning ziyoratlariga boramiz», deydilar va Namangan safariga otlanadilar. Bularning borishi Majzub hazratga ma'lum bo'ladi va istiqbollariga peshvoz chiqadilar. Mehmonlarni izzat-ikrom qilib kuzatadilar.

Keyingi gal esa Majzub hazrat Marg'ilonga Hazin Marg'inoni ziyoratiga keladilar. Shu voqeа sabab oralarida qalin do'stlik rishtalarini paydo bo'ladi. Aytishlaricha, Hazrat Domla tez-tez bomdod namozni o'qib bo'lgan, Namangan va Andijon tomonlarga qarab ta'zim bilan salom berar va buni, «U yerdagi azizlar bilan so'rashyapmiz», deya ifodalar ekanlar».⁴⁷

⁴⁷ Qarang: Fayzullaev R., Abdulahatov N. Muhammad Yusuf Hazin (Xonaqohiy Hazrat Marg'inoni). – Toshkent: Sharq, 2013.

Aytish kerakki, Eshoni Majzubning Marg'ilonga tez-tez kelishlari shu yerlik ko'plab kishilarni u zotga murid va muxlis bo'lishiga sabab bo'lgan. Shunday kishilardan biri «Tosh xalifa» nomi bilan mashhur bo'lgan Nurmuhammad eshon Ortiq eshon o'g'li edi. Behuda gap gapirishdan qo'rqib, doim og'ziga tosh solib yurishi uchun shunday atalgan ekanlar. Bundan u zotni ehtiyyotkor va taqvodor ekani anglashiladi. Eshoni Majzub uning xonadoniga ham tez-tez kelib turar va har gal bormoqchi bo'lganlarida muridlariga, «Toshnikiga boramiz», der ekanlar. Bundan xalifaning Majzub hazrat qalbidan joy olganini bilish mumkin.

Majzub hazrat bir gal kelganlarida qo'llaridagi asolarini uning hovlisiga suqib qo'yadilar. Tez fursatda u ko'karib, pista daraxtiga aylanadi. Uzoq vaqt hosil berib turgan daraxt quriganida xalifaning avlodlari marg'ilonlik Teshaxon to'ra boshchiligidagi kesib yuboradilar.

Aytishlaricha, Majzub Namangoniyning muridlaridan biri Begmuhammad xalifa dastlab irshod olish uchun Hazin Marg'inoniy huzuriga kelgan. Lekin uni Qo'qonga Miyon hazrat huzuriga yuborgan. U zot esa Namanganga eshon Majzub huzuriga jo'natgan ekanlar. U yerga kirib borganida «Hay-hay» o't bo'lib qolibsiz-ku, deya,unga irshod beradilar.

Mazkur ishda har uchchala zotning bir-birlariga oshkora va maxfiy hurmatlari ko'rinish turibdi. Vaholanki Hazrat Domladek murshidi komil zot irshod uchun kelgan bir tolibga o'zlaridan ko'ra boshqani munosib bilganlari, u zot ham ayni odobni qo'llaganlari ibratlari. Aslida qadimdan ilm va ma'rifat ahli tavoze' kamtarlikni o'zlariga odat qilganlar. Ayniqsa marg'ilonlik allomalar hayotida bu sifatni juda maromiga yetganini ko'ramiz.

Ma'lumotlarga ko'ra, Mazjub Namangoniyning Marg'ilonga bir galgi kelishi 1870 yildan oldin, aniqrog'i muridlari Begmuhammad xalifa taklifi bilan u istiqomat qiladigan Tomosha qishlog'iqa borishlarini asnosida yuz bergan⁴⁸.

O'sha tashrifning shohidi bo'lgan marg'ilonliklarning xotiralariga ko'ra, Eshoni Majzubning tashrifi uchun Marg'ilondakatta anjuman tashkil qilinadi. Keyin u yerdan Tomosha qishlog'i tomon yuradilar. Yo'lda Shohimardon va Vodilga tushganlari ham aytilgan. Ayni o'sha kezlar Begmuhammad xalifaning farzandlaridan biri Muhammad Umar xalifa – Oq eshon qurdirayotgan masjid ishlari nihoyasiga yetayotgan edi. Eshoni Majzubni kelishlarini eshitgan Muhammad Umar fursatdan foydalanih harakatni kuchaytiradi. Kechani-kechani, kunduzni-kunduz demay mehnat qilib, qurilish ishini oxiriga yetkazadilar. Qisqa fursat ichida mahalliy aholi katta gilam to'qitib masjid sahniga to'shatishga ham ulguradi. Aytishlaricha, masdid ochilishi marosimi payti Muhammad Umar Majzub hazratlariga qo'l berib, uning shogirlaridan biriga aylanadi.

ПАРТИЯ ДАШНАКОВ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ: КАК ПРОЯВЛЕНИЕ НЕПРОДУМАННОЙ КАДРОВОЙ ПОЛИТИКИ БОЛЬШЕВИКОВ

*Б.Т. Мирзаджанов, Л.М. Соколова,
Нам ГУ, преподаватели кафедры «Исторических наук»*

Одной из наихудших проявлений кадровой политики большевиков в Туркестане является одна из самых трагичных моментов истории нашей родины, является привлечение ими армянской партии «Дашнакцутюн» для укрепления своей власти в крае. Непродуманность (может и «продуманность» - Б.М.) данной политики заключается в том, что зная об отношении этой партии к тюркским народам и не учитывая исторических корней этой неприязни они все же привлекли их в Туркестан.

⁴⁸ Qarang: Abdulahatov N., Zohidov F. Farg'ona tumani tarixi (asotirlar, lavhalar, izlanishlar)– Farg'ona: Farg'ona, 2012.

В кровавой истории "Дашнакцутюн" в Туркестане немало чудовищных страниц – таких как резня в Чусте и Коканде в феврале 1918 года. Та самая, в результате которой была потоплена в крови Кокандская автономия - оставшаяся практически не известной попытка создания в Центральной Азии национально-демократического государства.

Кокандское правительство объявило о намерении созвать 20 марта 1918 года свой парламент на основе всеобщего прямого, равного и тайного голосования. Две трети мест в парламенте предназначались мусульманским депутатам, а одна треть - представителям немусульманского населения. Существование такого парламента должно было стать первым шагом к демократизации Туркестана. Как было уже сказано выше, это было результатом того, что в образованном в то же время в Ташкенте правительстве Туркестанской Советской Республики (ТАССР) из 14 его членов не было ни одного человека из представителей коренных народов.

Как потом вспоминал Мустафо Шокай, формально продекларировав право наций на самоопределение, большевики загнали в прочные оковы саму идею независимости нерусских народов бывшей царской России. На IV краевом съезде Советов Туркестана (19 - 26 января 1918 года) представитель фракции большевиков И. Тоболин однозначно выразился за создание особых условий для "класса трудящихся, класса пролетариата", но если учесть, что в Туркестане пролетариат был представлен только русскими переселенцами, то эта завуалированная формулировка означала откровенное пренебрежение интересами коренного населения. А на практике съезд большевиков принял постановление "объявить вне закона Кокандское автономное правительство и арестовать главарей". Сам факт провозглашения автономии Туркестана был квалифицирован как "попытка контрреволюционных элементов найти опору в среде мусульманской буржуазии и темной массы мусульманства". В январе 1918 в ответ на предъявленный ультиматум Шокай отказался признать власть Советов. И тогда для уничтожения Туркестанской автономии из Москвы в Ташкент прибыли 11 эшелонов с войсками и артиллерией.

Не имея армии, Кокандская автономия не сумела противостоять превосходившим силам большевиков, и после 64-дневного существования 13 февраля 1918 года была разгромлена. На самом деле разгром этот представлял собой самую настоящую резню мирного населения.

Туар Рыскулов в разделе своей книги "Революция и коренное население Туркестана" под названием "Что делали дашнаки в Фергане" пишет, что: "В пылу подавления восстания в течение девяти дней в Коканде творились и разные грабежи. Весьма расчетливые дашнаки решили сразу же нажить "деньги", и город подвергся тщательной "чистке". Так, в Коканде после прихода дашнаков". По его словам, "торговые слои армян тоже оказались ярыми "революционерами" и, влившись в отряд, приступили к разгрому города. Разгромлены были все магазины, все, что было возможно, свезено на склады, остальное было сожжено. Происходили массовые убийства". "В Андижане, после восстания, "гарнизон из тех же дашнаков обвинил весь старый город", решено было провести в нем обыск. Обыск продолжался целую неделю, сопровождавшийся грабежом, убийствами и изнасилованием" - продолжает Рыскулов⁴⁹. В те дни как утверждается в монографии С. Аззамходжаева в Коканде погибло более 10000 человек⁵⁰. Население Коканда,

⁴⁹ Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. Ташкент. 1925. С.105-108.

⁵⁰ Аззамходжаев С. История Туркестанской автономии (Туркистан мухторияти). Ташкент.2006г.С.231.

которое в 1897 году составляло 120.000 человек, в 1926 году сократилось до 69.300. Город был разрушен и сожжен.

Участник VII чрезвычайного съезда Советов (17 марта 1919 года) Аббосхонов выступая с докладом о деятельности «Дашнакцутюн» в Чусте с возмущением говорил, что: «Было совершено нападение на Чуст. Из Намангана и Коканда прибыли армянские дружины из дашнаков и было убито 1500 невинных людей».

В своей статье И.Хайдарова «Туркистанда ижтимоий-иктисодий ахвол» приводит также интересный факт злоупотреблений армянской партии в Фергане: «Армяне живут в Фергане богато и сыто. Даже генерал Куропаткин никогда так не жил, а местный народ живет впроголодь. Они сыты и творят злодеяния»⁵¹.

Эти союзники большевиков настолько дискредитировали себя в глазах туркестанской бедноты, что согласно ходатайству ферганских коммунистов Туркестанское правительство самостоятельно решает порвать с партией "Дашнакцутюн". К маю 1919 г. Коммунистическая партия Туркестана, порывает с ней всякое сотрудничество.

Впрочем, даже после того, как дашнаки были зачислены в разряд "контрреволюционеров", расклада сил в Средней Азии это не меняет: уже в 1922 году Семена Буденного на посту командующего Туркестанским фронтом сменяет Гаспар Восканов.

Предложение о создании комиссии по расследованию преступлений боевиков «Дашнакцутюн» было заблокировано И.О.Тоболиным, который заявил, что «вообще смешно говорить о жестокости в такой момент и в такой борьбе»⁵².

Но среди представителей этой партии были и те, кто уважительной относился к местным народам, его ценностям и взглядам и заслужил доверительной отношение коренных народов Туркестана.

В такой сложной и непростой обстановке большевистского режима эти проявления замалчивались и лишь благодаря независимости появилась возможность открытого и объективного отношения к истории Узбекистана.

TURKISTONGA ROSSIYA IMPERIYASIDAN KO'CHIB KELGANLARNING IJTIMOIY TAVSIFI

N. Ismoilova,

*Nam DU O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa
kafedrasi o'qituvchisi*

XIX asr ikkinchi yarmida podsho Rossiysi Qo'qon va Xiva xonliklari, Buxoro amirligini o'ziga bo'yusundirdi. Natijada O'rta Osiyo xalqlari taqdirida zo'ravonlikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat yuzaga keldi va bu mahalliy aholi uchun yangi tartibdagi o'zaro munosabatlarni yo'lga quyishga asos bo'ldi. Sobiq imperiya tomonidan Rossiya manfatlarini, xususan xuquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab olgan tizim qaror toptirildi. Shunday qilib, Rossiya mustamlakachilarbu yerda o'zlarining bosqinchilik va talochilik siyosatini amalga oshira boshladilar. Mustamlakachilar asosiy e'tiborni o'lka boyliklarini to'la-to'kis Rossiya manfatlari uchun ishlatishga qaratdilar. Turkistonda Rossiyaning boshqaruvi tizimlari joriy etilib⁵³,

⁵¹ Хайдаров И. Туркистанда ижтимоий-иктисодий ахвол /Ўзбекистонда миллиатлараро муносабатлар ва тарихий жараёнлар. Ташкент. УзМУ, 2006.-С.121.

⁵² Аззамходжаев С. История Туркестанской автономии (Туркистан мухторияти). Ташкент: ТИУ, 2006.-С.231.

⁵³ Abdurahmonova N., Ergashev F. Turkistonda Chor mustamlaka tizimi.-Toshkent: Akademiya, 2002. – B. 14.

bu ham to'la-tukis metropoliya manfatlariga xizmat qilgan. Turkistonni bosib olingandan keyingi asosiy e'tibor o'lkadagi iqtisodiy boyliklarga qaratildi. Zo'rlik bilan joriy etilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mintaqadagi an'anaviy qaror topgan munosabatlarga zarba berdi. Oqibatda mintaqadagi an'anaviy turmush tarzining yemirilish jarayoni boshlandi. Bunday jarayon xo'jalik yuritishning o'ziga xos milliy xususiyatlariga, uning asrlar davomida shakllangan an'anaviy tarkibiga putur yetkazdi⁵⁴.

Turkiston general-gubernatorligiga hozirgi O'zbekiston, Qирг'изистон va Turkmanistonning talay qismi qaragan. Uning aholisining umumiy soni 5,5 million hisoblanib, o'zbeklar salmog'li o'rinni egallagan⁵⁵.

Aholi soni Buxoro xonligida 3 mln., Xivada esa 500-700 ming kishidan iborat bo'lgan. Bu joylarda ham o'zbeklar ko'pchilikni tashkil qildi. Garchand Buxoro amirligi va Xiva xonligida eski davlat tuzumi saqlangan bo'sada, lekin ular amalda rus davlatining mustamlakalari bo'lib, tom ma'noda milliy davlatlar emasdilar. Har ikki xonlikning xukmdorlari bosqinchilar tomonidan qo'g'irchoqqa aylantirilgan kishilar edi.

Rus hukumati Turkiston o'lkasini uch qismga bo'lgan holda mustamlaka qurshovida ushlab turadi. O'lkanib bu tarzda parchalashdan maqsad o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qирг'излар, turkmanlar va qoraqalpoqlarning birdamligiga va katta bir oilaga birlashishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi. Xuddi shu maqsadni ko'zlagan holda bosqinchilar milliy nizo urug'larini sochib turdilar. O'lkada rus tiliga davlat maqomi berilib, milliy tillar burchakka siqib quyildi. Oqibatda rus tilini targ'ib qilish va o'rganish zaruriyati tobora kuchaydi. O'lkada rus-tuzem maktablari ochildi va ularning soni tobora ortib bordi. Ularga Rossiyaga sodiq kishilarni tarbiyalab, yetishtirish vazifasi qo'yildi.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab Qирг'изистонning shimoliy tomonlarida bir necha rus qishloqlari paydo bo'lgan edi, 80-90 yillarda esa Rossiyaning markazi va janubiy gubernalaridan rus oilalarni ko'chirib keltirish tezlashdi. A.F. Middendorfning ta'kidlashicha, rus kelgindilari, asosan Saratov, Tambov, Voronej, Samara guberniyalaridan edi. Ular Podsho ota va Sanag, Kosonsoy, Suisar va Chotqol yo'nalishidagi yerlarga joylashtirildi. Bu yerlar Jumaboy, Qutlug' Sayidbiy va yana yetti biy oilalari tomonidan boshqarilar edi. Hammasi bo'lib 591 ta yurta bo'lib, 1862 kishi yashar edi. Ko'pchilikni ayollar tashkil etar, erkaklarning ko'pchiligi 1875- yilgi qo'zg'olonda halok bo'lib ketgan. Shunday vaziyatda rus mustamlakasi boshlandi. Bunga qarshi qирг'излarning o'z yerini himoya qilgan birinchi qo'zg'oloni 1856 yilda Jon Xoji boshchiligidagi bo'lib o'tgan⁵⁶.

Rus hukumati o'ziga mustahkam tayanch barpo etish va xukmronlikni mustahkalash maqsadida rus shaharlari va posyolkalarini qurishga alovida ahamiyat berdi. Natijada Rossiyaning turli joylaridan Turkiston o'lkasiga ko'chib keluvchi kishilar soni tobora oshib bordi. XIX asrning oxiriga kelib, o'lkaza o'mashgan ruslarning soni 197420 kishiga yetdi. Ulardan 95941 tasi shaharlarda va 101479 tasi posyolkalarda yashagan. 1906 yilgacha faqat xarbiy xizmatni o'taydigan kazaklarga Yettisu viloyatida 752197 desyatina, Sirdaryo viloyatida 159561 desyatina, Farg'ona viloyatida 9925 desyatina, Samarqand viloyatida 22907 desyatina, Kaspiyorti viloyatida 10318 desyatina yer berilgan. Bularдан tashqari, rus dehqonlari katta xajmdagi yerlar bilan taminlangan. 1917 yilgi ma'lumotga ko'ra, o'lkadagi ruslarning soni 750 mingga yetib, ulardan 400000 kishi shaharda va 350000 kishi posyolkalarda yashagan. Ular bilan birga bir necha o'n ming

⁵⁴ Rasulov A. Turkiston va Volgabo'y, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar.-Toshkent: Universitet, 2005. - B.8.

⁵⁵ Ziyorov H. Turkistonda Rosiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-Toshkent: Sharq, 1998. - B. 360.

⁵⁶ Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. Спб,1982. — С. 348.

harbiyning istiqomat qilgani hisobga olinsa, u vaqtida ruslar soni bir milliondan oshib ketadi. Ruslar Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Farg'ona, Namangan va boshqa eski shaharlarning yonbag'ridagi joylarda o'mnashganlar. Bulardan tashqari, Ashxabod, Krasnovodon, Perov, Qozoli, yangi Marg'ilon, Verniy, Pishkek, Kopal va boshqa rus shaharlari mavjud edi. Ruslar ayniqsa, "Yangi Toshkent", "Yangi Marg'ilon" (Farg'ona) singari shaharlarning asosiy aholisi edilar. Orenburg-Toshkent oralig'idagi temir yo'lbekatlarida (stantsiyalarida) 51 ming rus yashaganligi ma'lum⁵⁷.

Rossiyalik sarmoyadorlar o'lkada paxta tozalash, yog' va spirit ishlab chiqarish, pivo, tamaki, un, qand, sovun, g'isht, mis eritish, jun yuvish, oxak qizdirish zavodlari va oziq-ovqat korxonalari qurib ulardan mo'may daromad olishni yo'lga qo'dilar. 1908 yilda o'lkada 378 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 1917 yilda ularning soni, Buxoro amirligi va Xiva xonligida qurilgan korxonalarini ham qo'shib hisoblaganda 1200 taga yetgan. Bu jarayon aholining tabaqalanishiga ta'sir etib, milliy burjuaziya va ishchilar sinfi vujudga keldi. 1914 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, o'lkada 49.5 ming ishchi bo'lib, ulardan 25.5 minggi sanoatda, 24 minggi temir yo'l va unga xizmat qiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Maxalliy aholiga mansub ishchilarga rossiyalik ishchilarga nisbatan 2.5-3.5 kam ish xaqqi to'langan.

Turkiy xalklarning yovuz dushmani bo'lgan general fon Kaufman shunday fikr bildirgan edi: "Bu xalqqa iloji boricha, mumkin qadar ko'proq paxta ektirish, ularni tinimsiz ishlashga majbur etish kerak, toki bu xalq bir zum ham boshqa narsalarni o'ylashga, siyosiy voqealarni anglab yetishga vaqtin ham, xohishi ham qolmasin"⁵⁸.

Bu vaqtida aholining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqsizligi yanada kuchaygan, ulardan olinadigan soliqlar va o'lponlarning (to'lovlar) soni va miqdori yanada ko'payib, iqtisodiy ahvol juda yomonlashgan edi. XIX asrning 80-yillarda aholidan olinadigan soliqlar va to'lovlarning miqdori 20 tadan ortib ketgan.

Turkistonning ijtimoiy-sotsial holatiga e'tiborni qaratsak, o'zbek jamiyati zamirida vujudga kelayotgan milliy burjuaziya safida zavodchilar bilan bir qatorda o'ziga to'q hunarmandlar, yollanma mehnatdan foydalanilayotgan ustaxona egalari shuningdek, shahar savdogarlari, vositachi – olib sotarlar ko'paya boshladi.

Shaharlarda sanoatni kapitalistlar sinfi vujudga kelishi bilan bir qatorda xonavayron bo'lgan hunarmandlar orasidan mahalliy ishchilar sinfi yetishib chiqsa boshladi.

Mahalliy millatlarning yangi vujudga kelgan ishchilar paxta tozalash zavodlarining, yog'-moy zavodlari, vino-aroq zavodlari hamda boshqa zavod va fabrikalarning ishchilaridan, temir yo'l, Toshkent tramvay ishchilaridan shuningdek, hunarmandchilik korxonalarida yollanib ishlayotgan kishilardan iborat bo'ldi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Farg'ona, Samarqand viloyatlaridagi, Toshkent shahri va Toshkent uyezididagi 31453 hunarmandchilik korxonalarida shu korxonalarning xo'jayinlaridan tashqari yana 22412 ta yollangan (xalfa) kishi ishlardi⁵⁹.

Bu zavodlarda ishlayotgan jamiki mahalliy millat ishchilari 14788 kishi edi. Bundan tashqari, Toshkentning bosh temir yo'l ustaxonalarda ishlab turgan 800 ishchidan 120 kishi mahalliy millatlardan bo'lgan. Toshkent tramvay va elektrostantsiya korxonalarida 1000 dan ko'proq ishchi ishlagan.

Turkiston o'lkasining 3 viloyatida, temir yo'l ishchilarini ham qo'shib hisoblaganda 39 mingga yaqin ishchi ishlardi. Shulardan taxminan 17 ming kishi mahalliy millat ishchilari edi. Sanoat tarmoqlarining qo'lidagi, ayniqsa paxta tozalash sanoatidagi

⁵⁷Ziyoyev X. Turkistonda Rosiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-Toshkent: Sharq, 1998. – B. 362-363.

⁵⁸Rahimov J. O'zbekiston tarixini o'rghanishda arxiv manbalaridan foydalanish. -Toshkent: 1995. –B.47.

⁵⁹O'zbekiston SSR tarixi II kitob.-Toshkent: Fan, 1971. –B. 212-1-213.

ishchilar, odatda mavsumiy ishchilar bo'lib, zavodlarda 5-6 oy ishlagandan keyin o'z yerlariga qaytib ketar va to yangi mavsum boshlanguncha dehqonchilik hamda bog'dorchilik bilan shug'ullanardilar. Shunday qilib, mahalliy sanoat va temir yo'l ishchilarining ko'p qismi dehqonchilik bilan aloqasini hali uzmagan edi, faqat malakali ishchilargina sanoat korxonalarida qolib ishlardilar. Hunarmandchilik korxonalarida yollanib ishlayotgan ko'p sonli kishilar ham mahalliy ishchilar qatoriga kirardi. Ularning uyushqoqligi va texnikaviy malakasi sanoat ishchilarinikidan ancha past edi.

Turkistondagi rus ishchilarining ko'pchiligi Rossiyaning markaziy rayonlarida sinfiy kurashning shiddatli mактабини о'taganliklari uchun ham siyosiy voqealarning hammasida faol qatnashib keldilar. Ammo mahalliy ishlarga siyosiy voqealarda qatnashish taqiqlangan edi. Ularning siyosiy ongini oshishidan chorizm qo'rqrar shuning uchun nazorat kuchaytirilgan⁶⁰.

Sanoat va temir yo'l ishchilari, hunarmandchilik korxonalarida yollanib ishlayotgan kishilar va mardikorlarning ahvoli eng kambag'al hunarmand va chorikorlar ahvoli singari juda og'ir edi. Sanoat ishchilarining ish kuni 10-15 soat davom etar, mardikorlar va xalfalar esa tong otganidan to kun botguncha ishlar, ularning ish kunlari hech qanday qonun bilan normalashtirilmagan edi.

Shunday qilib, Turkiston nafaqat chor Rossiyasining, shuningdek, Rossiyalik savdo-sanoatchilar manfaatiga xizmat qiladigan o'lkaga aylantirildi.

Ko'chirish tariqasida kelgan malakaviy ishchilar yerlarni o'zlashtirish hamda suv xo'jaligi komissarligi yuborilan edi. TurkMIK ning hisobotiga ko'ra, 1921 yil sentyabrida Turkiston suv va yer xo'jaligiga ishlash uchun 20235 nafar odam (oilasi bilan 77340 nafar), 7735 nafar malakali ishchi (oilasi bilan hisoblaganda 23325 jon) ocharchilik bo'layotgan guberniyalardan kelgan edi. Tarixiy tadqiqotlar taxlilidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, uyushgan holda rasman ko'chirma qilinganlarning ko'pchiligi dastlabki oylarda musulmonlardangina iborat bo'limgan. Arxiv manbalarining guvoxlik berishicha, Turkistonga evakuatsiya boshqarmasi (Turk evk bosh) Volga bo'y, Uraloldi hududlaridan kelganlarni rasman ro'yxatdan o'tkazganda, faqatgina 1921 yil oktyabridan 1922 yil fevral oyining birinchi yarmiga qadar Turkistonga ruslardan 79561 nafar, tatarlardan 16326 nafar, qozoqlardan 9622 nafar, nemislardan 3677 nafar, chuvashlardan 441 nafar va boshqa millatlardan 3710 nafari keltirilganligi qayd etilgan. Umumiy hisobda ko'rsatilgan davrda ko'chirish tariqasida keltirilganlar soni 113337 kishini tashkil qilgan. Ammo bu yerda shuni e'tibordan qochirmaslik kerakki, yuqorida rasman ro'yxatdan o'tkazib ko'chirilganlar soni keltirildi. Lekin Turkistonga uyushmagan holda, ya'ni och-qochqin tarzida kelganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning ko'pchiligi tatar, bashqird va boshqa musulmonlardan iborat bo'lgan. Nega deganda, ochlar o'z guberniya va uezdlarida ro'yxatdan o'tib, o'zlarini ko'chirishlarini kutishning imkonii yo'q edi. Chunki, och holda kutilgan har bir ortiqcha kun yanada holdan toyishga, bor oziq-ovqatlarini ham tugatishga hamda kasalliklar ko'payishiga olib kelar edi. "Zarya" gazetasining ma'lumotlariga ko'ra, 1921 yil noyabriga qadar 66 mingta bola va yana 30 mingta och-qochqinlarni Turkiston o'z bag'riga olgan⁶¹.

Bundan ko'rniib turibdiki, Turkistonga uyushgan va uyushmagan holda ko'chirilayotganlar borgan sari ortib boraverdi. Bu hol, shundoq ham yaxshi bo'limgan. Turkiston respublikasi iqtisodiy ahvolini, ijtimoiy turmush tarzini izdan chiqarishga olib kelardi.

Chor ma'muriyatining yuritgan keyinchalik sho'rolar davlatining bu sohadagi

⁶⁰ O'sha kitob, -B. 214.

⁶¹ Zarya (Simbirsk), 13 noyabrya 1921 g.

siyosati umuman olganda o'lkamizning iqtisodiy- ijtimoiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'satdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek: "Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan tsivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha barobar ortiq edi"⁶².

Xulosa qilib aytganda o'rganiliyotgan davrda jamiyatining ikki bo'lagi va Rossiya imperiyasidan ko'chib kelganlarning ijtimoiy hayotidagi faollahshuv turli to'siqlarga va muammolarga duch kelishini quydagi holatlarda, ya'ni:

-Chor ma'murlarining ko'chirish siyosatidan ko'zlagan maqsadi Turkiston xalqlarini ruşlashtirish orqali mustamlakachilikni mustahkamlashda;

-Ommaviy suratda Rossiyadan xalqlarni Turkistonga ko'chirilishi mahalliy millat turmush tarziga salbiy ta'sir ko'satishida;

-Asrlar davomida shakllanib kelgan O'rta Osiyo xalqlarining an'analarini oyoqosti qilinishida;

-Mahalliy millat vakillarining mehnatlarini qadrsizlanishi, mehnatlariga yarasha ishxaqi to'lamaganligida;

-Ko'chirish siyosati tufayli o'lkada ishchilar sonini ortib borishi o'z yerlaridan ayribil yollanma ishchi va chorikorlarga aylanishida;

-Ijtimoiy sohadagi muammolar bevosita hayot talablari bilan emas balki ma'muriy-buyruqbozlik usulida xal etilganida namayon bo'ldi.

MILLIY DAVLATCHILIGIMIZ TARIXIGA OID NAZARIY MANBALARNI ORGANISHNING AHAMIYATI

Bobomurod Tillayev,

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

Mustaqillik sharofati bilan vatan tarixshunosligida ilgari maxsus o'rganilmagan, tarixchilar uchun mutlaqo yangi bir muammo - o'zbek davlatchiligi, milliy davlatchilik tarixini o'rganish imkoniyati tug'ildi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushu muammo bevosita milliy manfaatlar, milliy g'urur, millat ravnaqi, o'tmishi va kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan milliy mustaqillik bu haqda o'ylashga va izlanishlarga yo'l ochadi. Bugun biz o'z taraqqiyot yo'limizga egamiz. Buning bir omili sifatida o'tmish tajribalaridan unumli foydalanish taqdim qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu haqda shunday degan edi: «Tanlangan o'z taraqqiyot va islohot yo'limizda tezkorlik bilan ilgari siljish uchun kuchli ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimiz, Sharq falsafasining hayotbaxsh va teran buloqlaridan bahramand bo'lish muhimdir»⁶³. Haqiqatan ham, taraqqiyotimizning bir poydevori nufuzli o'tmishimizdan olinadi va buning vositasida biz qudrat kasb etamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida bundan keyin «o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanishlik» va «insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishlik»⁶⁴ uqtirilgan. Zero, huquqiy davlat va foziy jamiyat barpo etishning asoslari o'tmish manbalarida qoniqarli ravishda bayon qilingan. Umuman, milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganishda muhim manbalar, ya'ni Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi ilm»), Nizom ul-Mulkning «Siyosatnomasi» hamda Amir Temuring «Temur tuzuklari» asarlari hisoblanib, ushu asarlarni davlat va jamiyat masalalari nuqtai-nazaridan o'rganish va ilmiy tekshirish

⁶² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997. -B. 5.

⁶³ Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. -Toshkent: O'zbekiston, 1995 y, 5-b.

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2011 yil, 3-bet.

muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarlarda taqdim etilgan tajribalarni umumlashtirish ezgu ishlardan biri bo'lib xizmat qiladi. «Qutadg'u bilig» turkiy manbalar ichida anchayin zalvorli asar hisoblanib, unda dunyoviy va irfoniy (botiniy) ma'no omuxtalashtirilgan.

S. Erkinov shunday deb yozadi: «X-XII asrlar O'rta Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida alohida bir davrni tashkil qiladi. Bu davrda ilm, fan, adabiyot va san'atning yuksala borishi uyg'onish nishonalarini yuzaga keltirgan edi. Darhaqiqat, feodal dunyosining umumiy tarixida favqulotda burlish bo'lgan va biz renessans deb ataydigan davrni yaratgan kuchlar xuddi shu asrlarda ko'plab maydonga chiqdilar. Ular o'zlarining amaliy faoliyatları, tarix, falsafa, mantiq, shuningdek, aniq fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan O'rta Osiyoning qadimiy tarixida chuqur iz qoldirdilar»⁶⁵. Ana shunday yaratuvchi, kashf etuvchi kuchlardan biri Yusuf Xos Hojib bo'lganligi g'oyat e'tiborga molikdir. Shunday qilib, bu kabi asarlar insонни ogoh etuvchi kuch bo'lib maydonga chiqadi. Zero, davlatchilik ma'rifatini shakllantirish uchun o'tmish ma'naviy merosini jiddiy o'rganish darkor. Buning uchun o'tmishimizda manbalar yetarlidir.

Qayum Karimov bunday deydi: «Davlatni idora qilish usuli, siyosati, qonun-qoidalari, shuningdek, xalqning rasmu-odatlarini, axloqni o'zida mujassamlashtirgan nizomnomma - qomus sifatida «Qutadg'u bilig» maydonga keldi»⁶⁶. Haqiqatan ham, manbalarimiz ichida bu asar muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, «Qutadg'u bilig»da o'zgacha bir davlatchilik kontseptsiyasi bayon qilingan. Ikkinchidan, asar davlatchilik ma'rifatidan saboq beruvchi ilk turkiy manbalardan birdir.

Amir Temur olimlar, faylasuflar, me'morlar, shoirlar, hofizu mashshoqlarga g'amxo'rlik qilishda ham nom qozongan edi. Temuriylar davri haqiqatdan ham, ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta'minlagan Sharq Uyg'onish davri edi⁶⁷.

1996 yilning 24 aprelida Parijda YUNESKO qarorgohidagi «Temuriylar davridagi ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» ko'rgazmasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida yurtboshimiz sohibqironning bugungi kundagi tarixiy ahamiyatini alohida ta'kidlab, «maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish quroq kuchidan o'n baravar foydaliroqdir», degan donno so'zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, oghlanlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi.

Hozirgi kunda Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari milliy davlatchiligidimiz tarixiga oid muhim tarixiy manba bo'lib, unda qadimiy Turkistonning buyuk farzandi Amir Temur davlatining tuzilishi va boshqarilishi xususidagi nuqtai nazarları bayon etilgan.

Muhtaram yurtboshimiz yangidan shakllanayotgan o'zbek davlatchiligi boshida turgan inson sifatida davlatchiligidimizni barcha bosqichlarini chuqur ilmiy tarzda o'rganish masalasini muttasil ravishda ilgari surib kelmoqda. Ko'hna tarixning guvohlik berishicha, hali-hanuzgacha hech bir zamonda, hech bir tarixiy shaxs tomonidan o'zbek davlatchiligi tarixini bus-butun holda yaratish masalasi o'rtaqa qo'yilmagan ekan. Bu masalani 2700 yillik davlatchiligidimiz tarixida Prezident Islom Karimov birinchi bo'lib davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi. Islom Karimov tomonidan o'zbek davlatchiligi tarixini yaxlit qilib yaratilishi g'oyasini o'rtaqa qo'yilishi hamda o'rganilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kelajagi buyuk davlat qurayotgan ekamiz, milliy davlatchiligidimiz tarixini bilishimiz hamda o'rganishimiz ham qarz, ham farzdir.

⁶⁵ Erkinov S. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-tom. -Toshkent: 1977 yil, 82-bet.

⁶⁶ Yoqubov A. «Qutadg'u biligida davlatchilik kontseptsiyasi». -Toshkent: 1997 yil, 10-bet.

⁶⁷ Ibrohimov A. Biz kim, o'zbeklar. -Toshkent: O'zbekiston, 1992 yil, 88-bet.

TURKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTIDA SOLIQLARNING TUTGAN O'RNI: MUAMMO VA ZIDDIYATLAR

*Malohat Umirzoqova
Nam DU tadqiqotchi*

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillardayoq barqarorlikni ta'minlash, aholi ijtimoiy himoyalash va daromadlarni oshirish yuzasidan bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi va eng muhim qat'iy moliyaviy siyosatni o'tkazdi. Bunda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda davlatimiz iqtisodiyotining eng muhim tayanchi bo'lgan soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim rol o'yndi. Chunki, hamma davrda bo'lGANI kabi, soliqlar hozirga davrda ham xazin to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillardayotgan mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi. Prezidentimiz I. Karimovning "soliqlar keng qamrovli, ayni paytda har bir soha tarmoq va korxonaga alohida qayishqoq va sharoitga moslashuvchan bo'lishi zarur. Soliqlarning daromadlarning bir qismigagina solinishi, ayni paytda har bir soha xalq xo'jaligi va aholiga kerakli mahsulot va mollarni ko'proq va yaxshiroq ishlab chiqarishiga intilayotgan tashkilotlarni va kishilarni har jihatdan rag'batlantirish ham lozim"⁶⁸ degan fikrlari orqali soliq siyosatidan davlatimiz ko'zlagan maqsad va manfaatlarni anglatishimiz mumkin. Afsuski, sovet mustamlakachiligi tuzumi davrida, xususan davlat to'ntarishi orqali hokimiyatga chiqib olgan bosheviklar olib borgan zo'ravonlikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tufayli Turkiston xalqlari o'rtasida ulkan yo'qotishlarga sabab bo'lди. Mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi izda chiqib, aksariyat mahalliy oilalarning iqtisodiy ahvolini vayron bo'lishiga sabab bo'lди va keyingi qashshoqlashuviga zamin hozirladi. Soliq siyosati borasida muayyan ko'rsatma va yo'riqnomaga ega bo'lman bosheviklarning joylardagi vakillari, xususan soliq idorasini xodimlari aholini ishlab chiqarish, ayniqsa Turkiston iqtisodiyotida ustivor soha bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarni yetishtirishdan keladigan daromadlarning solinadigan noqonuniy va zo'ravonlarcha soliq siyosatini qo'llashlari natijasida o'lkasning ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlashuviga, ichki muammolarni chiqurlashuviga sabab bo'lди. Qishloq xo'jaligida tashabbuskorlik, mehnatga yarasha rag'batlantirish kabi ishlab chiqarishdagi an'analarga putur yetdi, buning ustiga sarosimalik noroziliklar avjiga chiqqan bo'lib, soliq siyosatiga nisbatan mahalliy aholini e'tirozlar aks etgan arizalar mahalliy idoralarga ko'plab darajada tushayotgan edi. Birgina Farg'onan viloyatida soliq tizimi va qishloq xo'jaligidagi muammolarni 1923 yil yakunlari va 1924 yil birinchi yarnidagi holatni tahlii qilib chiqqan Farg'onan viloyati ijroiya qo'mitasining ma'sumoti A. Nikiforov o'z ma'rurasini tayyorlab, unda qishloq xo'jaligi daromadlariga nisbatan qo'llanilayotgan soliqchilik tizimi natijasida yo'l qo'yilgan keskin xatolar ochish tashlanib, shunday deyiladi⁶⁹: qishloq xo'jaligi bo'yicha soliqlar yuzasidan Andijon uzediga belgilangan 406.000 pud qishloq xo'jaligi soligidan 1923 yil 20 dekabrga oyiga qadar 251.720 pud. ya'ni 62 % undirilgan. Oxirgi vaqtida soliqning keskin kamayishi sezilmoxda. Bu shunday izoxlanishi mumkinki, soliq to'lovchilardan soliq tulashga qobiliyatli bulgan qatlamicina soliqlarni to'lamoqda, soliq to'lovchilarning yana bosh qatlami esa kambag'al dehqonlar, har xil ofatlardan zarar ko'rganlar xissasiga tug'ri kelishishiga soliqlarni to'lay olmayaptilar. Yana bir aholining soliq to'laydiganlari boyalar bo'ladi soliqlarni juda kechiktirib to'laydilar.

Xo'qand va Yorboshi volostlarida bo'lganimda quyidagi faktlarga duch keldi:

⁶⁸ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B 116.

⁶⁹ Farg'onan viloyat davlat arxiivi. 121-fond, 2-ro'yxat, 38-ish. 5-varaq.

O'ta kambag'al aholi ham soliqlarni to'lagan, lekin shaharda yashovchi volostlarda o'z yerlariga ega bo'lganlar soliqlarni to'lamaganliklari ko'rindi. Agar raqamlarga e'tibor berilsa Xo'qand volostining umumiy 2988 ta xo'jaligidan 500 tasi shaxarda yashaydi bu esa soliq tulovchilarning 17% tashkil etadi. Deyarli barcha xo'jaliklarning 80% kam miqdordagi yerga ega bo'lib 2-3 tanop bug'doyga ega. Asosiy aholiga ya'ni 2400 kambag'al xo'jaliklar uchun 1000 desyatina bug'doy to'g'ri keladi.⁷⁰

Shuni e'tiborga olish kerakki, haqiqiy hosildorlik nafaqat Xo'qand volosti balki Andijon bo'yicha o'rtacha desyatindenan 30 puddan hosil oshadi. Demak kambag'al dehqonlar 30.000 pud hosil yig'imidan 7600 pud soliq to'lashlari lozim. Ya'ni bu ularning hosilini 25% to'g'ri keladi.(¼ qismiga) Bu holat esa xoli tang bo'lib turgan dehqonni soliq to'lashini yanada qiyinlashtiradi. Bundan ko'riniib turibdiki, Markaz va mahalliy soliq undiruvchilarning dehqonlarning moddiy va maishiy axvoldidan ko'ra, soliqlarni undirish haqida jon kuydirishlari, mahalliy aholi mansaftalarining umuman e'tiborga olinmasligi kabi kabi ziddiyatlari muammolar aholini keskin noroziliklariga sabab bo'layotgan edi. Aynan Xo'qand volostida uzumzorlar nobud bo'ldi, lekin nobud bo'lgan uzumzorlarga ham soliq solingan. Nobud bo'lgan yer yegalaridan uzumzorlarga solingan soliqlardan ozod qilishini so'rab 150 dan ortiq arizalar kelib tushgan. Bu arizalarning birortasi ham ko'rib chiqilmagan sababi mahalliy soliq solish organlarining arizalarni ko'rib chiqish uchun vaqtlanmini yetarli emasligi bilan izoxlanadi⁷¹. Yorboshi volosti aholisidan esa 275 ta ariza kelib tushgan bo'lib, ularning mazmuni ham sholining zararlanishi va nobudgarchiligi sababli soliqlardan ozod etishdir. Bu mazmundagi arizalarning ham birortasi ko'rib chiqilmagan. Bu volostlar aylanilganda soliqlarni hisobga olish, yuritish, hisoblab chiqarish va aholidan undirishda xatoliklar mavjudligi aniqlandi.

Bir dehqonga 1 tanop don ekini o'rniga 11 tanop, ya'ni 8 tanop paxtasi borligi, bog'i va yashaydigan yeri uchun unga 194 tanop yozilgan. Amalda esa ularning ekkan yeri 3 tanopni tashkil etib qolganlari bo'sh yerdadir. Natijada u to'lashi lozim bo'lgan soliqning 2 pudi o'rniga 20 pud to'lashi kerak, ya'ni yig'ib olgan hosilidan ham ko'proq, yana biri esa 14 tanop yeridan 7 tanop yerini ekkan bo'lib unga 14 tanop uchun soliq solingan⁷². Uchinchi bir dehqonga 10 tanop o'rniga 20 tanop uchun soliq solingan. Bu misollardan kelib chiqib aniq belgilash mumkinki, mahalliy ijroiya qo'mitalari va shahar ijroiya qo'mitalari soliqlarni yuqori belgilashgan. Ma'muriy buyrnqbozlik tuzumi oqibatida soliqlarning sun'iy ravishda oshirib borilishi iqtisodiy sohaning inqirozini chuqurlashuvini hamda soliq tizimidagi tajribalarning o'ta zaif tomonlarini ko'rsatib berdi. Yorboshi volosti dehqonlari hosilsizlik va talofotlar tufayli soliqlardan ozod qilish haqida ariza berishdan ko'ra, jimgina qolishni lozim deb bilishadi. Sababi bиргина ariza berish uchun bir necha kun sarson bo'lish kerakligi yoki ariza berilganda ham turli rasmiy idoralarga haydashlari va har xil rasmiyatshiliklarga ro'baru kelishliklarini bildirishdi.

Yor-Boshi volostining moliyaviy agenti 16 yoshli yigit bo'lib aholining soliq borasidagi savollaridan birortasiga javob bera olmagan. Bundan ko'riniib turibdiki, soliq solish va uni undirish borasida shug'ullanuvchi kadrlar masalasiga ham e'tibor qaratilganligini, soliqlarni ko'r-ko'rona belgilanganligini ko'rish mumkin.

Xo'jaliklarni hisobga olish, soliq yig'ilishi lozim bo'lgan soliqning ham aniq hisoboti yuritilmagan. Xuddi shunday holat Marg'ilon uezdida ham ko'zga tashlanadi.

⁷⁰ FVDA. 121-fond, 2-ro'yxat, 38-ish, 6-varaq

⁷¹ FVDA. 121-fond, 2-ro'yxat, 38-ish, 6-varaq

⁷² FVDA. 121-fond, 2-ro'yxat, 38-ish, 6-varaq

164162 pud solingen soliqdan 20 dekabrga 101.274 pud ya'ni 61% soliq to'langan. Aravan volosti aholisidan tushgan arizalarning birortasi ham ko'rib chiqilmagan⁷³.

Qishloq xo'jaligi soliqlaridan ozod qilish bo'yicha komissiya faoliyatini o'rganilganda quyidagilarni ko'rish mumkin.

1. Andijon Komissiyasiga soliqlardan ozod qilish bo'yicha 8256 ta ariza kelib tushgan, 2145 tasi ko'rib chiqilmagan. Shu arizalardan 4083 tasi qanoatlantirilmagan, 1628 ta arizaga ko'ra soliqdan ozod etilgan.

2. Marg'ilon huduti bo'yicha esa 3106 ta ariza kelib tushgan bo'lib ulardan 1317 tasi ko'rib chiqilgan, 1789 tasi umuman ko'rilmagan. Ko'rib chiqilgan arizalardan 477 tasi qanoatlantirilmagan. 840 tasi esa soliqdan ozod etilgan. Yuqoridagi faktlarning keltirilishi quyidagi xulosalarни keltirib chiqaradi:

-Ochlikdan madori qurigan, holsizlangan va xoli tang bo'lgan dehqonlar zaxmat bilangina keyingi hosilgacha yetib olishlari mumkin. Ayanchli holat ko'rib bilib turilsada amalda nochor aholini soliqlardan ozod etish va aholini axvolini yengillashtirishga mutlaqo e'tibor berilmagan, aholini manfaatlari bepisand qolib ketaverganligi kurinadi. Bu holatni quyidagi raqamlar ham isbotlaydi. Andijon uezdi bo'yicha hisobga olingan 73.979 desyatinadan o'rtacha 20 pud. 1 desyatinadan 1.479.580 pud. bug'doy undan s oliq 406.000. Dehqonga esa 1.073.580 p bug'doy qoladi. O'rtacha soliq esa uyezd bo'yicha 285 ni tashkil etadi. Qishloq aholisi soni 410.000 kishi belgilanib, bir jon uchun 2p.24 f. bug'doy to'g'ri keladi.

-Marg'ilon uezdi bo'yicha esa 32.367 desyatinadan o'rtacha 20 pud. 1 desyatinada hosildan 647.162 p-dehqonga esa 483.678 pud bug'doy qoladi. O'rtacha Marg'ilon uezdi bo'yicha soliq hosilning 25% tashkil etadi. Aholini 400.000 kishi deb belgilanganda ham bir jon uchun bir yilga 1p 08 f bug'doy to'g'ri keladi. Shunisi ravshanki, agar aholi shu tarzda bug'doy va zaruriy oziq ovqat bilan ta'minlansa, aholi yana ko'p vaqt mobaynida yarim och, yupun va juda qashshoq hayot kechiradi⁷⁴. A. Nikiforovning qilgan ma'ruzasida keltirilgan ushbu materiallar shundan dalolat beradiki, mahalliy aholining maishiy turmush tarzidagi qiyinchiliklar, o'lka aholisining iqtisodiy ahvolning og'irlashuvni kabi holatlar umuman e'tiborga olinmay, ular aksariyat hollarda inkor qilinib kelinganini kuzatamiz. Shuningdek soliq, to'lovlarini undirish jarayonida mahalliy aholining manfaatlari bilan hisoblashmasdan, ularni bergan norozilik kayfiyatidagi arizalari bee'tibor qoldirilib, javob ham qaytarilmagani, shundoq ham og'ir bo'lgan soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmagan oilalarga keskin choralar ko'riganli aholi o'rtasida oziq-ovqat tanqisligi hamda ocharchilik kabi muammolar girdobida qolganini ko'rish mumkin. Shundoq ham 1922 yil 1yanvardan Moskvaning tashabbusi bilan Turkiston aholisiga, ayniqsa, uning qishloqdagi qismiga og'ir yuk bo'lib tushgan alohida "ochlik solig'i" joriy qilinib, Farg'onaviyoyatining nihoyatda och qolgan aholisidan ham 660 pud turli-tuman mahsulotlar ana shu soliq yo'li bilan undirib olingan edi. Haddan ortiq soliq yuki 1922-1923 yillarda ommiyiv ochlikning yangidan avj olishiga sabab bo'lib, Farg'onaviyoyatida 500 minggga yaqin, Samarcand viloyatining Jizzax va O'ratega uyezdlarida 30 mingdan ortiq ochlikka yo'liqqa odamlar aniqlangan edi⁷⁵.

Xulosa o'mida aytadigan bo'lsak, sovet hukumatining o'lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur yo'qotishlarga sabab bo'lgan soliq siyosati va uni amalga oshirgan soliq idoralarining faqat markaz manfaatlari uchungina xizmat qilishi, soliq undirish va ularni yuritish bilan shug'ullanuvchi kadrlar masalasining sustligi yoki savodsizligi tufayli

⁷³ FVDA. 121-fond, 2-ro'yxat, 38-ish, 7-varaq

⁷⁴ FVDA. 121-fond, 2-ro'yxat, 38-ish, 8-varaq.

⁷⁵ O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiliga davrida. 2-kitob. - B 361.

aholiga nisbatan o'ta e'tiborsizlik, o'lkadagi iqtisodiy vaziyatning keskinlashuviga olib keldi va o'lcamiz tarixidan "eng mudhish kunlar" sifatida joy oldi. O'tmishning sovet mustamlakachiligi davri voqealaridan bugungi davr kishilar achchiq xulosa chiqarib, yurtimiz obodligi, kelajagimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilishda ma'naviy-mafkuraviy ozuqa olishi, istiqlol qadriga yetmaklikni o'rgatuvchi dasturamal hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek, "tarixiy xotirasiz kelajak yo'q".

O'RTA OSIYODA MUZEYLARNING SHAKLLANISHI

Baro'tjon Ibrohimov,

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

A.Qosimov

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Moziy so'zining o'zi beixtiyor xayolotni uzoq o'tmish sarhadiga chorlaydi, allaqanday siru asrорlarga to'la ko'hna zaminu zamonalr og'ushiga tortadi. Tafakkur nuri bilan qadim tarixning qop-qorong'u qatlarini yoritib, o'tmishimizni oz bo'lsada qamrab olishga intilamiz. Naqadar mashaaqqathi, og'ir va nihoyatda xayrli va ibratlari tarix yo'llariga nigoh tashlaymiz. Axir insom nigohi tushgan joyda qadam izi, buniyodkorlik qoldig'i mavjud. Yurtimiz go'zalligi, boyligi, mo'jizaviy tabiat, san'ati, nodir asarları haqida hozirda butun dunyoga ma'lum. Ana shu o'lcamiz asrular qa'ridan topilgan noyob va nafis bir san'at asariga o'xshaydi. Vatanimiz qa'rida asosan arxitektura qoldiqlari – paxsa, xom g'isht, pishiq g'isht, sopol va toshlardan iborat inshoot va binolar shaklu shamoyilini topamiz. Ashyoviy dalillar sifatida qimmatbaho tosh, oltin, kumush ishlatilgan ro'zg'or asboblari, turli xil bezaklar, sopol idishlar uchraydi. Zeb ichida ziynati deb ardoqlangan qadimiylar zargarlik, misgarlik, kandakorlik, kulolchilik asarları, to'qima shohi atlaslar, so'zanalar, gilamlar, o'ymakor bezakli har xil buyumlarni hozir faqat muzeylarda ko'rish mumkin. Necha-necha avlod-ajdodlarimizdan meros badiiy, madaniy, me'moriy boyliklarni namoyon etib, ko'pchilikning nazariga qo'yish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan Yaqin Sharq va g'arb davlatlari, ya'ni Urartu, Misr, Gretsiya, Bobil, Rim kabilalar bilan iqtisidiy va madaniy aloqalar o'rnatganlar. O'rta Osiyo zaminida o'tgan mashhur "Buyuk ipak yo'li" Sharqiy Osiyo va Hindistonni O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lar edi.

Bunday jozibali o'lka barcha davrlarda chet el istilochilarining diqqat markazida bo'lgan. Shu sababli taqdir taqozosi bilan O'rta Osiyorning tarixiy qismati juda og'ir kechdi: bosqinchilik urushlari, hukmron doiralarning o'zaro ichki ziddiyatlari tufayli to's-to' palonlar ham tez-tez yuz berib turgan.

Doimiy qирг'инлар tufayli betakror saroylar, go'zal shaharlar, noyob inshootlar vayronaga aylanib, yig'ilgan bebafo madaniy boyliklar g'oliblar o'jasiga aylanardi.

Muarrix Muhammad Narshaxiyuning guvohlik berishicha, arablar Poyqand janglaridan hisobsiz tillo, kumush buyumlar, qurol-aslahalar, qimmatbaho kiyim-kechaklardan iborat katta o'lja bilan qaytganlar. Arab istilosini davrida xazina to'plami, madaniy boylik jaing'arish ishlarida durustroq siljish yuz bermadi.

O'rta Osiyoda Mustaqil Sormoniylar davlatining (IX-X asrular) barpo bo'lishi bu borada tubdan o'zgarish qildi. Bu davrda saroy boyliklari tashqari katta kutubxonalar, arxivlar barpo etildi. X asrdagi Buxoro va Sheroz amirliklari kutubxonalarida insoniyat yaratigan hamma nodir kitoblar bo'lgan.

G'aznaviyilar sulolasining asoschisi Mahmud G'aznaviy ham juda ko'p kitoblar to'plagan. Xorazmshoh Muhammad mamlakatning ravnaqi yo'lida katta ishlar qildi. Go'zal saroylar, qasrlar, maqbaralar qurdi. Nodir moddiy-ma'naviy boyliklar to'pladi, ammo bu betakror san'at va madaniyat yodgorliklari, butun shaharlar Mo'g'ul bosqinchilari istilosiga tufayli yo'qtildi. Kutubxonalar yondirildi, madaniy hayot 100 yil orqaga chekindi.⁷⁶

Oradan 150 yil o'tgandan so'ng O'rta Osiyoda Fan va madaniyat qayta kurtaklay boshladi. Ayniqsa, Amir Temur tomonidan yagona markazlashgan davlat tuzilishi va Samarqandning poytaxt qilinishi katta boyliklarning to'planishiga sabab bo'ldi. Me'moriy yodgorliklar, maqbaralar, masjid-madrasalar, saroylar qurildi.

Amir Temur zabit etgan mamlakatlardan qadimiy qo'lyozmalar, xon, amirlarga tegishli yozishma va elchilik hujjatlari, musulmon dunyosining muqaddas kitobi bo'lmish "Usmon Qur'ont"ning (VII asr) asl nusxasini Samarqandga keltirdi. Dunyoga mashhur Temur kutubxonasini barpo etdi. Temurning sevikli nabirasi, Sharqning buyuk astronom olimi Mirzo Ulug'bek kutubxonani yanada boyitdi.

Amir Temurning nabirasi Shohruxning o'g'lisi shahzoda Boysung'ur mirzo (vafoti 1433 yil) Hirotda saroy kutubxonasini barpo etdi. Sharqshunos olim A. Yu. Yakubovskiyning ta'rificha, Boysung'urning nozik didi va chuqur ilmi tufayli Hirotda shunday katta kutubxona vujudga keladiki, unda bir qancha guruhi xattotlar, nafis surat ustalari (rassomlar), zarhalchilar, muqovachilar, olimlar ijod qiladilar. Kutubxonada faqatgina nusxa olish, kitoblarni bezash emas, balki filologiya, tekstologiya tadqiqotlari ham olib borilar edi. 1442 yil shu kutubxonada Firdavsiy "Shohnoma"sining to'la matni ko'chirib yozildi.

Temuriylar davrida tasviriy, Amaliy va me'morchilik san'atlarida ulkan yutuqlarga erishildi. Saroylar, madrasa, maqbaralar va boshqa binolarni nafis suratlar, naqshlar bilan bezash taraqqiy etdi. Bibixonim masjidi, Go'ri Amir, Shohi-zinda, Ahmad Yassaviy maqbarasi va masjidi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Ulug'bek qurdirgan rasadxona va madrasalar o'zining ulug'vorligi bilan Sharq me'morchiligining shoh asarlari bo'lib, ularda xalqimizning yuksak did va mahorati, aql-zakovati namoyon bo'lgan.

Bu davrda savdo-sotiq, hunarmandchilik shunchalik rivojlangan edi, Buxoro, Samarqand ustalari tomonidan ishlangan buyumlar dunyo bozorlarida yuqori bahola-nardi. Hirot ustalarining zargarlik buyumlari, Samarqand, Buxoro duxobasi katta shuh-ratga ega edi. Temur davrida Movarounnahr ustalarining ijodiy ishlari ko'rige bo'lib turardi.

1469 yili Ali Isfahoniying san'ati tafsinga sazovor bo'ldi. Usta guldona idishni ko'rikka qo'yadi. Bu guldonda 32 hunarmandning ish uslubi ko'rsatilgan edi.⁷⁷

Hunarmandlar o'z mahoratlarini yangi qurilgan masjid, maqbara va boshqa inshootlarda namoyon etar edilar. Masalan: Bibixonim masjidi uchun ustalar tomonidan ishlangan shamdonlar va masjid darvozasi kandakorlik san'atining cho'qqisi edi. Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun tabrezli usta Abdul-Aziz ikki tonnalik mis qozon yasagan (1381 yil). Shamdonlarni va qandillarni esa isfahonlik usta Izoddin yasagan edi. Go'ri Amirning 1405 yil Temur ko'milgandan keyingi ichki ko'rinishi "Harbiy memorial muzey"ni eslatar edi. Maqbaraga qo'yilgan har bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik edi.

Tarixchi Arabshohning yozishchicha, Maqbara ichiga sohibqironning kiyimlari, devorlariga quroq-yarog'lari osilgan edi. Bu qurollar oltin-kumushdan yasalgan bo'lib,

⁷⁶ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi.-Toshkent: Fan, 1991 yil. B-82

⁷⁷ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. -Toshkent: Fan, 1991 yil. B-62

qimmatli la'l-yoqut toshlar bilan bezatilgan edi. Maqbara gumbazi ostida osmondag'i yulduzlarini eslatuvchi oltin-kumush qandillar osilgan edi. Bitta qandil 4000 misqol tillodan yasalgan. Yerga maqbara o'chovida ipak va duxoba gilamlar solingen edi.

Temuriylar sulolasidan Husayn Boyqaro Hirotni go'zal binolar, masjid, madrasalar bilan obod etdi. She'riyat sultoni Alisher Navoiy bilan birga Hirotni shoir va fozillar bog'iga aylantirdi. Shu davrda tarixchi olimlar Mirxon (1498 yil vafot etgan) va uning nabirasi, tarixchi Xondamir, buyuk mo'yqalam sohibi Kamoliddin Behzod ijod qildilar.

Bu davrda Hirot miniatyura san'ati ustalari maktabi vujudga keldi, sanoqsiz qo'lyozmalar iste'dodli xattotlar tomonidan ko'chirildi va zarhollar bilan bezatildi.

Sharqshunos olim A. Yu. Yakubovskiyning yozishchicha, Alisher Navoiyning (1441-1501) juda katta, nodir qo'lyozmalarga boy shaxsiy kutubxonasi bo'lган. Bu kutubxona nadan tarixchi Xondamir, musavvir Behzod va boshqa olimu fozillar foydalanganlar.

Buxoro-Xiva xonliklarida ham nodir qo'lyozmalar, miniatyuralar kollektisyasini to'plab saroy va shaxsiy kutubxonalar barpo etish odat bo'lган edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoda dastlabki muzeylar nodir buyumlar, noyob qo'lyozmalar va boshqa san'at va hunarmandchilik buyumlarini to'plab namoyish etish shaklida namoyon bo'lган.

SOVET MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA OCHARCHILIK MASALASI VA UNING YECHIMIDA TEMIRYO'L TRANSPORTINING TUTGAN O'RNI

B. Jalolov

Nam DU tadqiqotchisi

Uzoq yillar davomida butun jahonga o'zini "sotsialistik ishchi-dehqon davlati" deb atagan Sovet hukumati qariyb 70 yillik xukmronligi davrida ko'plab sinovlarni boshdan kechirdi va sinovlarda millionlab aholisi xalok bo'lган bir paytda, mudhish oqibatlarga sabab bo'lган iqtisodiy-siyosiy jarayonlar uzoq yillar davomida ilmiy jamoatchilikdan sir saqlab kelindi. Qizil imperiyani ancha tashvishga solgan ana shunday jarayonlardan biri 1921-1923 yillarda yuzaga kelib, avjiga chiqqan ocharchilik masalasıdır. Ocharchilikning yuzaga kelishi ildizlari albatta birinchi o'rinda bolsheviklarni iqtisodiy qonunlarni mensimasdan ularni toptaganligi va ularni zo'ravonlikka asoslangan boshqaruv tuzumiga borib taqaladi.

Butun mamlakatda hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar butun xo'jalik va siyosiy hayotni harbiy yo'sinda qayta qurish, o'z manfaatlari yo'lida barcha sohalar ustidan "ishchi-dehqon nazoratini o'rnatish" bahonasida markazlashtirishga urinish, va sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasini davlat mulkiga aylantirish yo'lidan borishlari mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni buzilishiga olib keldi. Bu tadbirlarni eng yuqori nuqtasi bolsheviklarning hayotga tadbiq etgan "harbiy kommunizm siyosati" bo'lib, favqulodda keskin iqtisodiy choralarни qo'llanishi, xususan, barcha moddiy boyliklarni oshkorra musodara qilish, oziq-ovqat mahsulotlarni tortib olish, yalpi mehnat majburiyati kabi tadbirlar mamlakat iqtisodiyotini vayron qilib, aholi orasida sarosimalik va qat'iy norozilikka sabab bo'ldi. Bolsheviklar yetakchisi V. Lenin o'z partiyasining mavqeini saqlab qolish va mustahkamlash yo'lida 1921 yil mart oyida bo'lib o'tgan RKP(b) X s'ezdida yangicha yondashuvlardan iborat, asosiy mazmunini oziq-ovqat solig'ini joriy etish, savdo-sotiqni erkinlashtirish, mayda tadbirkorlikka ruxsat berish kabi iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga olgan, "yangi iqtisodiy siyosat" rejasi qabul qilindi⁷⁸. Biroq o'sha yilning aprel oyiga kelganda Rossiyaning O'rta va Quyi Volga va

⁷⁸ O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -Toshkent: Sharq. 2000. 2-kitob. -B 179.

unga yaqin hududlarda yoz faslining o'ta issiq kelishi natijasida bug'doy va boshqa ekinlarni sarg'ayib qurib qolishiga olib keldi. "Harbiy kommunizm siyosati" oqibatlaridan hali o'zini o'nglab olmagan hamda yangi iqtisodiy siyosatning mevalarini totib ko'rishga ulgurmagan Rossisiyaning Volgabo'y, Uraloldining bir qismi, Ukrainianing ayrim hududlarini shimoliy Kaspiy bo'yidan boshlangan qurg'oqchilik ko'lami qamrab oldi⁷⁹. Butun bir mamlakat ochlik girdobida qoldi, odamlarni ochlikdan qirilib ketish xavfi yuzaga keldi. Ocharchilik keltirib chiqqargan oqibatlarni o'z ko'zi bilan ko'rganlardan biri, 1921 yili Rossiyaga turli iqtisodiy va ishlab chiqarish bo'yicha kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida tashrif buyurgan ishbilarmon-tadbirkorlardan iborat AQSh delegatsiyasi tarkibida kelgan amerikalik doktor Armand Xammer shunday tasvirlaydi;" men 1918 yili podsho oilasi otib tashlangan Yekterinburgda ocharchilik bilan to'qnashdim.

"Ocharchilik tumanlari" deb e'lon qilingan hududlarda dehqonlar zo'rg'a kun kechirshardi. O'tgan yili zahiralari tugagan, ular qishdan chiqmasliklarini bilib yashayotgan joylardan, hosilsiz dalalardan "vabo"dan qochganday temiryo'l bo'ylariga yugurib chiqishardi va yuk vagonlariga joylashib olardilar. Ular orasida aqlga sig'maydiga darajadagi yuqumli kasalliklar, vabo, ichterlama, va bolalar epedemiyasi mavjud⁸⁰". Armand Xammer ocharchilik dahshatlarini ko'rgach, Rossiya ochlariga gumanitar-yordam berishni tashkillashtiradi va AQShdag'i savdo bo'yicha sheriklariga xat bilan murojaat qilib, kemalar orqali Rossiya ochlariga g'alla jo'natish va buning uchun ruslardan g'alla o'rniqa mo'yna va boshqa mahsulotlarga ayrboshlash mumkinligi haqida fikr bildiradi, sababi buning mamlakat rahbari Lenining roziligi oлган, Lenin ham o'z o'rniда bu tashabbusni qo'llab-quvvatlashini, buning uchun tashqi savdo idoralariga buyruq berishini aytadi. Armand Xammerning Rossiyatagi ocharchilik borasidagi qilgan murojaatlari AQSh jamoatchiligini albatta befarq qoldirmadi.

Amerikalik general Vilson 50 ming nafar ochlikka girifto bolalarni sovet hukumatidan AQShga yuborishlarini so'ragan. Ammo bu taklifga millatlar ishi bo'yicha sovet komissari I. Stalin (1917-1922 yy) shubha bilan qarab, "musulmon bolalar (Volgabo'y, Uraloldi hududlaridagi och qolgan tatar-boshqird musulmon bolalari haqida gap ketyapti-muallif) g'ayridinlarga aylanish xavfi bor" deydi⁸¹.

Aslida Stalin bolalarni kapitalistlar tomonidan boqilishi va tarbiyalanishiga qarshi edi. Hali ocharchilik mamlakatni zabit etmagan va bolsheviklar endigina hokimiyatni bosib oлган 1917 yilda yoq Stalin ocharchilik xavfi to'g'risida Finlyandiya sotsial-demokratik ishchi partiyasining Gelsingforsdagi s'ezdida(1917 yil 14 noyabr) mag'rurlik bilan "bizni ocharchilik bilan qo'rigitmoqchi bo'ldilar. Sovet hokimiyati oziq-ovqat tanqisligidan xalok bo'lib ketadi, deb payg'ambarlik qilgan edilar. Biroq biz spekulyat-(chaygovchi)larni tiyib, dehqonlarga murojaat qilishimiz bilanoq shaharlarga yuz ming pudlab g'alla kela boshladi"⁸².

Stalining 1917 yilda yoq bildirgan ushbu fikrlari orqali bilish mumkinki, G'arb davlatlari bashorat qilgan ocharchilik, aslida 1917 yil emas, 1921 yili avjiga chiqqanligi, hali ocharchilik falokati haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan Stalin ongida ishonchszilik, xavfsirash, G'arbg'a nisbatan dushmanlik kayfiyati bilan qarash, uzoq yillar davomida saqlanib qoldi, ocharchilikka qarshi AQSh takliflariga bildirilgan yuqoridagi rad qilishlar ana shunday qarashlar yordamida shakllangan bo'lsa ajab emas. Sovet

⁷⁹ Rasulov. A. Turkiston va Volgabo'y, Uraloldi xalqlari o'rasisidagi munosabatlari. -Toshkent: Universitet. 2005. -B 28.

⁸⁰ Armand Xammer. Moy vek-dvadtsamy. Puti v vstrechi.- Moskva: Proogress. 1990. -S 67.

⁸¹ Rasulov. A. Turkiston xalqi bag'rikengligi.-Toshkent: Yangi nashr. 2011. -B 26.

⁸² Stalin. I. Tanlangan asarlar. 4-jild. -Toshkent: O'zbekiston. 1949. -B 2.

hukumati ocharchilikka qarshi kurashda ichki imkoniyatlardan foydalinishga urindi. Bu urinishlar ma'muriy buyruqbozlik va zo'rovonlikka asoslangan bo'lib, shart-sharoitlar hisobga olinmadı. Stalin G'arb takliflarini inkor etib turgan bir paytda, Lenining qaram o'lkalarga, xususan Turkistonga nisbatan ochlarga yordam berish borasidagi chaqiriqlari benihoya ko'payib bordi. 1921 yil 18 iyulda Turkistondan o'n kunlik muddat ichida 250 ming pud oziq-ovqat mahsulotlarini Markazga yuborish to'g'risida buyrug'i e'lon qilinadi, shundoq ham buyruq yetib kelmasdan bir necha kun oldin Turkiston XKS Orenburgga 20 vagon g'alla, 2 vagon guruch yuborish to'g'risida qaror qabul qiladi⁸³. 1920-1921 yillar ichida Turkiston aholisidan 9708703 pud g'alla, 635114 pud yem-xashak, 1606210 pud go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tortib olinib, Markazga jo'natildi⁸⁴ Shuningdek, ocharchilikka qarshi kurash paytida Markaziy Osiyoning ekologik muammolar o'chog'iga aylangan "Orol fojeasi"ga dastlabki poydevor o'rnatildi. 1921 yil 7 oktyabrda Lenin "Orol dengizidagi ishchi baliqchi o'rtoqlarga" nomli murojaatni qabul qilib, unda shunday deyiladi; "Orol dengizida baliq ovlash yomon emas, binobarin, sizlar uncha ko'p muhtojlik ko'rmay yashamoqdasisiz. Ovlayotgan balig'ingizni bir qismini ochlikdan shishib ketayotgan chol-kampirlarga, deyarli butun yil bo'yisi och qorin bilan og'ir yer ishlarini bajarishi lozim bo'lgan va holdan to'yan 8 million mehnatkashga, nihoyat, birinchi navbatda halok bo'lib ketishi mumkin bo'lgan 7 million bolaga ajratib bering⁸⁵". Lenining murojaatnomasida och qolganlarning nechog'li ko'pligi va uning halokatli oqibatlari to'g'risida to'liq tasavvur qilish mumkin. Orol dengizingning baliq-chilarli "dohiy"ning murojaatnomasini be'etibor qoldirmadilar. 1921 yil 25 dekabriga qadar Orol baliqchilar Rossiyaning ocharchilik tumanlariga yordam tariqasida 14 vagon baliq jo'natdilar.

Amudaryo viloyati uch oy ichida ochlar uchun 20 million so'm va 210 pud g'alla va boshqa mahsulotlar tayyorlab berdilar⁸⁶. Orol dengizida baliqchilar o'z ehtiyojlari va och qolganlarni ta'minlash uchun cheklanmagan miqdorda baliq ovlashib, dengiz ekotizimini vayron qildilar va baliq ovlash me'yori nazorat qilinmasligi oqibatida dengizning keyingi halokatiga zamin hozirlandi. Ocharchilik yillarida Turkiston matubotini ochlarga yordam berish, ochlarni qutqarish kabi chaqiriqlar to'la qamrab olgan edi. Masalan "Izvestiya" gazetasining 1921 yil 6 oktyabr sotida "Ocharchilikka qarshi kurash" rukni ostida Jaloloboddan och qolganlarga 5 vagon g'alla bug'doy jo'natilib, mahalliy aholidan yig'ib olingan bug'doy 200 pudni tashkil etgani, "Krasnaya Fergana" gazetasining 1921 yil 4 sentyabr sonida "Ochlarga yordam" rukni ostida Qo'qon temiryo'chilari ochlar uchun 4 032926 so'm pul va 250 pud non mahsulotlari yig'ilganligi haqida ma'lumot beriladi. Sovetlar mamlakatida ocharchilikka qarshi kurash va ochlarga oziq-ovqat bilan yordam berishda hamda ularga yetkazishda asosiy vosita bo'lgan temiryo'l transportining moddiy-texnik bazasi va taminoti juda og'ir bo'lib, millionlab ochlarni ahvolini og'irlashuvida salbiy rol o'yndi.

Birgina Orenburg-Toshkent yo'nalishida 1921 yil noyabr oyi oxirlarida ko'chirilayotgan ochlar bilan to'la poezd eshelonlari, yo'lda to'planib qolishi natijasida har kuni yuzlab odamlar turli kasallik haimda ochlikdan halok bo'lismardi, boisi temiryo'lda poraxo'rlik avjiga chiqqanligi, davlat yuklari va ko'chirilayotganlar hech qanday asossiz ravishda to'xtatib qo'yilganini kuzatish mumkin⁸⁷.

⁸³ Mustabid tuzumming O'zbekiston boyliklarini talash siyosati Tarix shohidligi va saboqlari. Toshkent: Sharq. 2000. -B 218.

⁸⁴ Tarix shohidligi va saboqlari... -B 218.

⁸⁵ Lenin. V. O'rta Osiyo va O'zbekiston to'g'risida. Toshkent: O'zbekiston. 1957. -B 165

⁸⁶ Sudba Arala. /Abdurahmonov O. i drug. Toshkent: Mehnat. 1988. -S 17.

⁸⁷ Rasulov. A. Turkiston va Volgaboy'i, Uraloldi xalqlari o'ttasidagi munosabatlari... -B 110.

Poezdлardagi ta'minotning og'irligi tufayli ocharchilik avjiga chiqqan bir paytda, temiryo'l transporti harakatlanishi davrida oziq-ovqat maxsulotlari, xususan, 1920 yilning fevral oyiga qadar 600 ming pud o'simlik yog'i parovozlarda yoqilg'i sifatida ishlatib yuboriladi. Eng achinarlisi, Orol dengizining minglab pud baliqlari ochlarga yetkazish o'rniga dengiz uchastkasida paravozlarni yurgizish uchun yoqib yuboriladi⁸⁸. Sovet hukumati temiryo'l dagi ahvolni tartibga solmasdan, poraxo'rlikka qarshu kurashmasdan, ta'minotni yaxshilashmasdan turib, o'z maqsadiga erisha olmasdi. 1922 yil sentyab oyida O'rta Osiyo temiryo'lida favqulodda vakolatlar berilgan "uchliklar" tashkil etiladi va ular asosiy faoliyatini katta stantsiyalarda olib borishib, kichik stantsiyalar uchun (Kogon, Andijon va boshqa mahalliy stantsiyalarga) maxsus vakillar tayinlandi.

"Uchlik"ning faoliyati tufayli bиргина Samarcand stantsiyasida bir necha jinoyatlar ochib tashlanadi. Masalan, depodagi vagonlarni ta'mirlash ishlarini tezlatish uchun Poltoratsk Ovcharenko 7000 so'm pul pora olganligi, Samarcand stantsiyasi poezd nazoratchisi Sergey Grigoryev poraxo'rliги uchun ishdan olinib, ishlari tribunalga oshiriladi. Samarcand stantsiyasi harakat xizmati bo'limi boshlig'i Linkov noto'g'ri biletlar sotish va o'z xizmatchilariga noto'g'ri topshiriqlar bergen uchun otuvga xukm qilinib, yordamchisi Lyapkin 5 yilga qamoqqa xukm qilinadi⁸⁹.

Garchi qiyinchiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobida qolganiga qaramay, ocharchilikka qarshi kurashda katta yo'qotishlar, Markazning bosimi ostida minglab qurbanlar hisobiga Turkiston xalqi o'zining yuksak insonparvarlik, mehr-shavqat, fazilatlarini namoyon etdilar. 1920 yil 29 iyunda Rossiya Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi qarorida Turkistonda 1 million 140 ming kishi ochlikdan halok bo'lganini yashirmay qayd etgan edi⁹⁰, bиргина Farg'ona viloyatida 1921 yil sentyab-oktyabr oylarida ochlar soni 227059 kishini tashkil etgani, 64336 kishi ochlikdan o'lganligi haqida manbalarda aytib o'tildi⁹¹. Sovet mustamlakachiligi davrida sodir bo'lgan ocharchilik balosi va uning dahshatli oqibatlari to'g'risida, afsuski uzoq yillar davomida so'zlashga ruxsat berilmay, bu bog'liq xujjatlar e'lon qilinishiga dastlabki yillarda imkon berilmadi. Kommunizm qurish va "gugurtni 1 tiyin darajasida" sotishga erishish qizil imperiyada millionlab qurbanlar evaziga erishilganini o'sha davrni qo'msab yashayotganlar uchun eslatish maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero buning uchun tarix fanini o'rganish, teran fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz I. Karimovning "tarix o'rgatadi, tarix ogoh etadi. Ayni paytda tarix bizga to'g'ri yo'lni tanlashda maslahat beradi. Bundan oldindi zamonalarda qanday voqealar bo'lganini, ulardan qanday xulosalar chiqarib, qaysi xatolarni takrorlamaslik kerakligini, qaysi yo'ldan oldinga borish lozimligini kim o'rgatadi? Albatta, tarix o'rgatadi⁹²" degan fikrlari bugun tarixni o'rganaman, o'rgataman degan ziyoli uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Ocharchilik mavzusi orqali har bir yurtdoshimiz bugungi kunning qadriga yetmoqlik, o'tmisht voqealaridan qat'iy xulosa chiqarib, yurtga daxldorlik hissi bilan yashamoqlikka o'zini ma'sul deb biladi.

⁸⁸ Tarix shohidligi va saboqlari... - B 217.

⁸⁹ "Borba S. M P O delami i vzya tochnikami na Sredi Aziatkoy jel-dor". "Turkestanskaya pravda". 1922. 24 noyabr. №104.

⁹⁰ Shamsutdinov. R. Sh. Karimov. Vatan tarixi. 3-kitob. Toshkent: Sharq. 2010. B 90.

⁹¹ O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent: Sharq. 2000. 2-kitob. -B 360.

⁹² Karimov I.A. O'zbek xalqiga tinchlik va omontlik kerak. Toshkent: O'zbekiston. 2013. B 9-10.

SURXON MADANIY HAYOTINING YUKSALISHDA BOYSUN FOLKLOR- ETNOGRAFIK XALQ ANSAMBLLARNING AHAMIYATI

Kamol Toshev

Termiz davlat universiteti "O'zbekiston tarixi"
kafedrasi 2- bosqich magistri

O'zbek xalqi folklor etnografik xalq og'zaki ijodining rivoj topishi va yuksalishda Boysun tumaning alohida o'mi bo'lib, ajdodlarimizning o'tmisht madaniy hayotidagi milliy qo'shiqlar hamda raqlarni o'rganish, tiklash va yanada zamonaviy talqinlarini yaratishda asosiy tayanch hisoblanib kelmoqda. Respublikada katta obro'ga ega bo'lgan «Shalola» ashula va raqs xalq ansambl 1967 yilda tashkil etilgan. Ansamblga 1969 yilda xalq ansambl unvoni berilgan. "Shalola" ansamblining nomlanishi sabab ilk baxor kunlarida Boysun tog' etaklari ajoyib manzarani kashf etadi. Tog'dagi qorlar erib, kichik-kichik jilg'alar hosil qilib, pastga oqib tushadi. Suvlarning mayin shildirashi shaloladay mavjlanadi. Ana shunday go'zal manzara kishi qalbini zavqqa to'ldiradi. Xamyurtimiz O'zbekiston Xalq yozuvchisi Sh. Xolmirzaev ana shu go'zal manzaraga qiyoslab ansamblning nomini «Shalola» deb qo'yan.

«Shalola» ashula va raqs xalq ansambl tarkibida 10 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan yosh xavaskor ijrochilar, sozanda-yu xonandalar, raqqosalari, ustoz-xofizlar, aktyorlar faoliyat ko'rsatadi. «Shalola» ashula va raqs xalq ansamblining yukori natijalarga erishishining bosh sabablaridan biri, kuy, qo'shiq, raqs va ijroning uyg'unligidadir. «Shalola» ashula va raqs xalq ansambl ijodiy faoliyati davrida Respublikamizdagi ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishish bilan bir qatorda ko'plab ijodiy safarlar va xalqaro festivallarda faol ishtirok etib kelmoqda. 1975 yilda Polsha davlatining Zakopani shaxrida bo'lib o'tgan Tog'li xalqlarning VIII jahon festivalida faxrli II o'rinni egallagan. 1980 yilda ansamblning dasturi sobiq ittifoq markaziy televideniyasidan namoyish qilingan. 1985 yilda Bolgariyada, 1986 yil Afg'onistonda, 1990 yil Angliyada. 1998 yil Turkiyada xizmat safarida bo'lib qaytdi. Ansamblning asosiy vazifasi ashula va raqs yo'nalishi hisoblanadi. Xalqimizning o'lmas merosi bo'lgan maqomlarimiz, mumtoz kuy-qo'shiqlarimiz, an'anaviy ijro yo'nalishidagi asarlarimizni o'rganib ularni albatta kelajak yosh avlodga qoldirish maqsadida xayrlı ishlар qilindi va bu ishlар davom ettrilmoqda.

«Boysun» folklor-etnografik xalq ansambl, u o'zbek milliy xalq an'analarini, musiqa va qo'shiqlarini qayta tiklashni o'ziga maqsad qilib faoliyat ko'rsatayotgan ansamblidir. «Boysun» ansambl o'z dasturida qadim folklorimizning bugungi zamon saxnaviy ko'rinishi orqali xalq og'zaki ijodiyoti an'analarini tiklash va takomillashtirish, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, e'zozlashda o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Istiqlol tufayli an'ana va marosimlarimizni tiklab bu kungi avlodlarimizga qadimda o'zbek folklori qanday bo'lsa shundayligicha kuylash, ijro mahoratini ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar. «Boysun» ansambl, bobolarimiz, momolarimiz qalb qo'rini berib kuylagan qo'shiqlarini nafaqat ijro etib, balki unga hozirgi zamon ruhini ham qo'shib O'zbekiston badiiy san'atida o'ziga xos uslub bilan joy olgan yagona folklor maktablaridan biridir. O'sha yagonaligi tufayli «Boysun» ansambl yillar davomida xalq ijodiyotiga, urf-odatlariga marosimlariga qanchalik tayaniib dastur tayyorlagan bo'lsa, shunchalik san'at sirlarini mukammal o'rganib, katta tajribalar to'plab, havaskor jamoadan professional darajasiga chiqib oldi.

«Boysun» ansambl o'z repertuarida qadimiy etnik turmush bilan bog'liq urf-odatlar, o'ziga xos marosim va udumlarni badiiy g'oyaviyligini saxnaviy ko'rinishlar orqali yanada to'ldirib, sayqal berib o'z muxlislariga ega bo'lib bormokda. Ansambl xalq

amaliy san'ati an'analarini namoyish etishi bilan bir qatorda xalq qo'shiqlari, laparlar, aytishuvlar, o'lan va yor-yorlar, alla aytishuvlarini ayrimlari sozsiz, ayrimlari milliy musiqa asboblari yordamida (doira, nay, g'ijjak, rubob, dutor) yoki qadimiy musiqa asboblari (chanqovuz, sibizg'a, ushpullak, qovoqnog'ora, loyko'za nog'ora, ducho'ba, dumbira) jo'rligida ijro etib kelmoqda. «Boysun» ansamblining dasturlari asosida 1987 – yil «Boysunda qor eriganda», «Unitilgan ohanglar», 1988 yil – «Ko'pkari», 1989 yil – «Tandir, olov, non», «Bolalar o'yini», 1990 yil – «Sharq bozori», 2005 yil - «Boysunning bir kuni», nomli bir-biridan ajoyib filmkontsertlar Respublikamizdagi rejisiyorlar tomonidan ishlangan. Ayni paytda bu durdona filmlar Respublikamiz televideniyasi orqali namoyish qilinib kelinmoqda.

«Boysun» ansambilida vogelikka munosabatlari o'ziga xos ifodasini topgan. Mavso'm va marosim qo'shiqlari ijrochi tomonidan kuylashdan oldin, marosimlarni uyushtiradilar. Ularning o'tkazilish tartiblarini ham, rasim-rusumlarini, kuy, qo'shiq va raqlarni mavsumiy marosimlarga bag'ishlab sayqal berib, ijro etadilar. «Boysun» ansamblining o'ziga xos qiyofaga, xusiyatlarga ega bo'l shining mazmuni, xalqning turmush tarzini, e'tiqodini, milliy ruhini, xarakterini chuqurroq ochishi va urf-odatlar, marosimlariiga qanchalik tayanishi esa mustaqillik tufayli bu jarayon kuchaydi.

«Quralay» bolalar folklor etnografiknamunalni xalq ansambl 1991 yildatash-kiletilgan. «Quralay» bolalar folklor etnografiknamunalni xalq ansambl badiiy rahbari Usmon Yuldashev ansamblining Quralay deb nomlanishini shunday ta'riflaydi. Ansambl sozandalari qadimiy cholg'u-asboblardan chanqovuz, sibizg'a, shuvilloq, dumbira, surnay, nay, doira kabi musiqa cholg'ularida, Surxon vohasiga xos urf-odat va marosimlarni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlarni ijro etib kelmoqda. «Quralay» bolalar folklor etnografik namunalni xalq ansamblining milliy liboslari hamda ular tomonidan ijro etiladigan kuy-qo'shiq va raqlari bilan Surxon vohasiga xos bo'lgan urf-odat va marosimlarni o'zida mujassamlashtirgan asamblining liboslariga nazar tashlar ekanmiz o'zimizning milliy kiyimlardan kelib chiqqan holda kashtali kiyimlar, lola gul do'ppi po'paklar, kovush, mo'kkilardan iborat.

Mustaqillik yillarda Boysunlik taniqli shoir-yozuvchilar ijodiga alohida e'tibor berilmoxda. Boysun tumanida milliy qadriyatlar, unitilgan urf-odatlardan targ'ib qilgan "Boysun bahori" ochiq Xalqaro folklor festivali YUNESKO homiyligida o'tgani munosabati bilan Boysun «Osmon ostidagi ochiq muzey» deb tan olindi. Boysunda saqlanib qolgan milliy qadriyatlar, qo'shiqlar, xalq hunarmandchiligi, urf-odatlari "Insoniyat nomoddiy merosi durdonasi" deb e'tirof etildi. Boysun tumanida 2002-2005 yillarda o'tkazilgan "Boysun bahori" festivalining barkamol avlodni tarbiyalashda, ahamiyati beqiyos bo'ldi. Boysun tumanida tug'ilib ijod qilgan va hozir ham samarali ijod qilayotgan O'zbekiston Xalq yozuvchisi marhum Shukur Xolmirzaevning 60 yillik va 70 yillik yubiley tantanalarining o'tkazilishi, Tojikiston Xalq yozuvchisi Sattor Tursunning 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan yubeley tantanaları ayniqsa, Boysunlik barkamol avlodlar qalbida yanada Vatanga iftixor, Vatan g'ururi tuyg'ularini o'stirdi. O'zbekiston Xalq shoiri Usmon Azimning respublikada xamda xorijiy mamlakatlarida o'zining hikoya va povestlari, kinosenariylari bilan shuhrat qozonayotgan Erkin A'zamovning 60 yillik to'ylari munosabati bilan o'tgan tadbirlari yoshlar qalbida Vatan tuyg'usini mustahkamlamoqda.

FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARI TARIXINI O'RGANILISHNING TARIXSHUNOSLIGI

*Ulug'bek Mansurov
NamDU katta o'qituvchisi*

Mustaqillik sharoitida jamiyat hayotida tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish, milliy o'zlik va o'ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetishda, erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan, mustahkam milliy g'oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: "Odazmod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi...", -deb ta'kidlaydi.⁹³

Respublika tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar misolida o'rganish, shubhasiz o'tmishni yanada chuqur va mukammalroq tarzda yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi. Shaharlar tarixini o'rganish tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan dolzarb mavzulardan biridir. Shaharlarning paydo bo'lishi, ularning rivojlanishi borasida butun bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar tarixi gavdalananadi. Chunki, jamiyat tarixida shaharlar doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shaharlarning qiyofalari doimo o'zgarib borgan va shu bilan birga jamiyatda tutgan rollari ham oshib borgan.

Farg'ona vodiysi shaharlar o'zining tutgan o'mni, salohiyatiga ko'ra, Respublikada yetakchi o'rinnlarni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganidek: "Faqatgina mana shu Farg'ona vodiysining o'zida latif shahar deb nom olgan Qo'qon, qadimiy Andijon, go'zal Namangan, Ko'hna Axsikent kabi tariximizda iz qoldirgan shahar va qo'rg'onlarning nomlarini ulug'lash va ularning ham qutlug' sanalarini keng miqyosida nishonlash-bularning barchasi bizning oldimizda turgan katta vazifadir".⁹⁴

Farg'ona vodiysi shaharlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot masalasi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida hozirga qadar kompleks tarzda o'rganilmagan bo'lsa-da, Sovetlar davrida Farg'ona vodiysi shaharlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar ayrim tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Farg'ona vodiysi shaharlari tarixi yoritilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda 3 ta guruhg'a ajratish maqsadga muvofiq: 1. Sovet davrida yaratilgan adabiyotlar, 2. Mustaqillik davrida yaratilgan adabiyotlar, 3. Farg'ona vodiysi shaharlari tarixining ayrim masalalarini o'zida aks ettirgan xorijlik mualliflarning asarlari.

Birinchi guruhg'a kiruvchi adabiyotlar orasida XX asrning 20 yillarda yaratilgan tadqiqotlar alohida o'rinn tutadi. Bu davrda yaratilgan asar mualliflari 1917–1924 yillar tarixiy voqealarning bevosita guvohi va ishtirokchisi bo'lgan Turor Risqulov⁹⁵, Nazir To'raqulov⁹⁶, G.I. Safarov⁹⁷, Fayzulla Xo'jaev, Akmal Ikromov qalamiga mansubdir. Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy masalalarni yoritishda bir guruh mutaxassislar tomonidan Turkiston Respublikasining ho'jalik hayoti haqidagi hisobot muhim ahamiyatga ega⁹⁸. Unda Turkiston o'lkasi, shuningdek, Farg'ona viloyati uyezd-shaharlaridagi xalq xo'jaligi va aholi turmushining ko'plab sohalariga oid yangi statistik handa rasmiy

⁹³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajakni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7-jild. - Toshkent: Sharq, 1998. – B.3.

⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Marg'ilon shahrining 2000 yilligiga bag'ishlangan tantanalari marosimdag'i nutqidan // Ishonch, 2007 yil 8 sentyabr.

⁹⁵ Ryskulov T. Revolyutsiya i korennoe nasele niyu Turkestana. (Sbornik statey, dokladov, rechey i tezisov). Chast I. 1917–1919 gg. –Tashkent: Uzbekgosizdat, 1925. – 218 s.

⁹⁶ Dervish. Ferganskaya problema // "Voennaya mysl". Kniga –№ 2. –Tashkent, 1921. – S. 108-118.

⁹⁷ Safarov G.I. Kolonialnaya revolyutsiya / o'qyt Turkestana. –Moskva, 1921. – 184 s.

⁹⁸ Ocherki xozyaystvennoy jizni Turkrespublikasi. –Tashkent, 1921.

ma'lumotlar keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asr 20-yillarida yaratilgan asarlarda tarixiy haqiqatni nisbatan bo'lsada xolisona ko'rsatilgan hamda tadqiqotlarda jamiyatdagi fikrlar xilmalilligi ham o'z aksini topgan.

XX asr 30-yillari boshidan sovet jamiyatida qaror topgan totalitar tuzum bu murakkab jarayonga baho berishda o'z hukmini o'tkazdi. Bu davrda kommunistik mafkuradan boshqa har qanday fikrga qarshilik ko'rsatildi. Sovet tarixshunosligida XX asr 30-yillaridan to 80-yillarning o'rtalarigacha yaratilgan asarlar hamda yirik tadqiqotlarda oktyabr to'ntarishi va Turkistondagi bolsheviklar rejimini o'matilishi, Farg'ona shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, siyosiy-madaniy hayot atayin bузib, hukmron mafkura doirasida talqin etildi⁹⁹.

Zero, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng chuqur mulohaza bilan xaqqoniylar fikr yuritish uchun qulay sharoit vujudga keldi. Kommunistik mafkura hukmronligidan halos bo'lish, markazga tobelikdan qutilish hamda Vatan tarixini haqqoniy yoritish oshkoraliq, hurfikrlik uchun huquqiy, ma'naviy, siyosiy shart-sharoit yuzaga keldi. Mustaqillik yillarida yangi uslubiy yondashuvlarning shakllanishi davrida yozilgan risolalar, darsliklar, turli to'plamlar, hamda doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarning ilmiy-nazariy, manbaviy asoslarida, mazmunida yaqqol namoyon bo'ldi¹⁰⁰.

Tadqiq etilayotgan tarixiy davrga yaqin bo'lgan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadqiqotlarda Farg'ona vodiysi 1917 yillarda kechgan holat, siyosiy jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq shuni ta'kidlash joizki, bu ishlarda tadqiq etilayotgan ushbu mavzu tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus o'rganilmagan.

Shu bilan birga o'rganilayotgan davr tarixshunosligida horijlik mualliflar tomonidan yozilgan adabiyotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chet el tarixshunosligi haqida avvalo shuni aytish joizki, Turkistonning Sovetlar davridagi tarixi bilan shug'ullangan chet el tarixchilar Farg'ona vodiysi shaharlaridagi tarixiy jarayonlar malum bir yo'naliш doirasida yoritib berishga harakat qilganlar¹⁰¹. Biroq ularda ham Farg'ona vodiysi shaharlaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvol kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilмаган.

Xulosa qilib aytganda, ushbu mavzuga oid ko'plab adabiyotlar tahlili natijasida Sovetlar davrida Farg'ona vodiysi shaharlarining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari tarixi hozirgacha maxsus tadqiqot mavzusi bo'lmaganligini namoyon etadi.

AMIR TEMUR SIYOSIY HOKIMIYATINI MUSTAHKAMLASHDA SURXON VOHASINING TARIXIY AHAMIYATI

Hurramov Mansur

Termiz DU "Manbashunoslik, tarixshunoslik va maxsus tarix fanlari" kafedrasi ilmiy tadqiqotchisi

Termiz tarixini tadqiq qilishda O'rta asr yozma yodgorliklarining ahamiyati kattadir. Hozirgi zamon tarixnavislari shahar tarixi va madaniy taraqqiyoti manza-

⁹⁹ Yoqubov B. Farg'ona vodiysida Sovet hokimiyatining o'rnatish uchun kurash. – Toshkent: Qizil O'zbekiston, 1954; Qo'qonboev A. Farg'onada Sovet hokimiyatining o'rnatish uchun kurash. – Toshkent: 1958. – 116 b.s. va boshqalar.

¹⁰⁰ Golovanov A.A. Krestyanstvo Uzbekistana: Evalyutsiya sotsialnogo polojeniya. 1917-1937 gg. – Tashkent.. 1992. – 160 s.; A'zamxo'jaev S.S. Turkiston birligi. (Mustaqilligimiz tarixidan sahifalar). – Toshkent., 1995. – 16 b:

Rajabova R.Yo. va b. O'zbekiston tarixi (1917-1993 yillarda). 9-sinf uchun. – Toshkent., 1994 b. va boshqalar.

¹⁰¹ Baymirza Hayit. Turkistan im XX Jahrhundert. Darmstadt, 1956. – S. 48-214. Baymirza Hayit. Turkistan zwischen Russland und China. Amsterdam, 1971. – 414 s; va boshqalar.

ralarini tiklashda, uning yanglish sahifalarini haqiqat qo'li bilan tuzatishda o'sha manbalarga tayanadilar. Buyuk arab sayyohi Ibn Battuta (1304-1372) hayotining 28 yilini safarga bag'ishlab Shimoliy va G'arbiy Afrika, Arabiston yarim oroli, Turkiya va Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston, Sharqiy Yevropa va Ispaniya, Afg'oniston va Xitoyning ko'plab shaharlarini ziyorat qiladi, qolgan umrini o'z taassurotlarini batafsil bayon qilishga bag'ishlaydi. Sayyoh 1333 yilda Markaziy Osiyoga keladi, bu davrda Termiz Chig'atoy ulusi tasarrufida bo'lib, mamlakatda mo'g'ul xonlari orasida birinchi bo'lib isloymi qabul qilgan Alovuddin Tarmashirin (1326-1334) hukmronlik qilar edi. Xorazm, Buxoro, Samarcand shaharlarida va Tarmashirin qarorgohida mehmon bo'lgan Ibn Battuta Termizga taxminan may oyining oxirida keladi. Oldinroq sayyoh shahar hukmdori A'lo al-Muluk Xudovandzoda bilan uchrashib, undan maxsus yo'llanma oladi. Ushbu ma'lumotning o'ziyoq shahar tarixidagi qorong'i sahifalarni yoritishda katta ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, Termizda ham Markaziy Osiyoning boshqa ko'plab shaharları kabi, hokimiyat mo'g'ullar qo'lida bo'lsada, mahalliy xalq vakillari hukmronlik qilishgan. Ikkinchidan, A'lo al Muluk Termiz sayyidlari xonadoni vakili bo'lib, bu boshqa manbalarda ham qayd qilingan. Bu ayrim tadqiqotchilarining, shubhasiz, Chingizzon Termiz aholisini butunlay qirib tashlagan, degan fikri haqiqatga zid ekanini tasdiqlaydi.

Shu davrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilgan Balx XIV asrning birinchi o'n yilliklarigacha xaroba holida qolgan. Termiz shaxri tez orada boshqa bir joyda yangidan qad ko'taradi. XII-XIV asrlarga oid Xitoy manbalarida aytılıshicha, Termiz eski va yangi shahardan iborat bo'lgan. Bir necha yuz oilani tashkil qiluvchi aholi chovvachilik bilan shug'ullangan, Amudaryoning sharqida joylashgan Tislimi shahri baliqlari bilan mashhur bo'lgan, to'qay va qamishli chakalakzorlar g'arbg'a tomon cho'zilib ketgan. Akademik I.Yu. Krachkovskiy ta'biri bilan aytganda, «xonaki kitobxon emas, balki o'rta asrlarning eng yirik, tajribali geograf sayyohi» bo'lgan Ibn Battuta (Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad Ibrohim ibn Yusuf al Lavoti Tajniy) Termiz orqali o'tgan. U «Tuhorat annuzzar fi g'aroyib alamsar va ajoyib alafsar» nomli asarida yozishicha, Termiz «O'zining chiroyli imoratlari va bozorlari bilan mashhur bo'lgan katta shahardir. Shaharni ko'plab ariq va anhorlar kesib o'tadi, uning chirolyi bog'lari bor, juda shirin uzum va bexilar yetishtiriladi. Aholi go'sht va sutni ko'p iste'mol qiladi. Shaharliliklar hammomga tushganlarida qatiq va tafla deb ataluvchi loy sovun bilan yuvinishgan. Bu narsalar har bir hammomchida bo'lgan. Hammomda ko'plab ko'zalar saklanib, ular qatiq bilan to'ldirilgan, qatiq va taflada yuvinish sochni tozalaydi va yumshoq qiladi. Eski Termiz Jayhun bo'yida joylashgan edi. Chingizzon uni vayron etgandan so'ng, yangi shaharni daryodan 2 mil (4 km) uzoqlikda barpo etdilar».

Ibn Battuta Chingizzon bosqini natijasida Termiz vayron qilinganligini aytib, yangi shahar ikki arab miliysi uzoqlikda qurilganligini ma'lum qiladi. «Sayohat-noma»da yangi Termizning tasviri shunday berilgan: «Bu chirolyi imoratlari va bozorlari ko'p bo'lgan yirik shahardir. uni boshdanoyoq anhorlar kesib o'tadi, bog'lari ham juda ko'p. Ayniqsa, uzum bilan behisi juda shirin, go'sht, sut juda serob». Sayyoh Xorazmda bo'lganida, u yerga daryo orqali o'n kun muddatda Termizdan bug'doy va so'li keltirilganiga guvoh bo'ladi. Demak, Termiz XIV asrning birinchi yarmina yirik iqtisodiy markaz bo'lgan.

Ibn Battuta sayohati davomida so'fiylarning xonaqoxlaridan, ularning mehmondo'stligidan ko'p marta foydalangan. Xonaqohni sayyoh Mag'rib an'anasi bo'yicha zoviya deb atagan va u Termiz haqidagi taassurotlarida buni alohida ta'kidlaydi: «Biz

bu yerda katta yer va bog'lar sohibi eng muhtaram va obro'yli shayxlardan biri shayx Azizon zoviyasiga qo'ndik. Shayx o'z boyliklarini ziyyoratchilarini boqishga sarflar edi». Fikrimizcha, bu zoviya hozirgi Sulton Saodat maqbarasi bo'lishi kerak, chunki, birinchidan, taomilga ko'ra, xonaqoxlar maqbaralar qoshida bo'lgan, ikkinchidan, Sulton Saodat maqbarasining shayxlari asrlar davomida Azizon maqbaralariga ega bo'lganlar.

Termiz shahrida buyuk sayyohni hayratda qoldirgan yangilik bu hamshaharlarimizning bosh yuvishda qatiqni ishlatishi bo'lgan. Chunki, boshqa mamlakatlarda bu davrda bosh yuvishda asosan loy yoki uning biror turdag'i aralashmasi ishlatilar edi. Hokimning homiyligi tufayli shahar a'yonlari Ibn Battutani munosib kutib oladilar. «Termizda ekanligimizda bizga har kuni yeguliklar keltirib, mehnmon qilib turishdi», deb yozadi u va shahar qozisi Qavomiddin bilan tanishganligini eslatib o'tadi. Keltirilgan tafsilotlardan ma'lum bo'ladiki, qozi Qavomiddin janoblarining laqabi ham Xudovandzoda, ya'ni sayyidlar xonadoniga mansub ekan. Keyinchalik ibn Battuta qozi bilan uning ukalari Ziyovuddin, Burhoniddin, Imomiddin va Sayfiddinlarni Hindistonda uchratganini yozadi. Qozi Qavomiddin janoblarining o'g'llari Hindiston podshosining vaziri Xoja Jahonning ikki qiziga uylanganligi ham «Sayohatnom» orqali ma'lum bo'sada, ular yuqorida ismlari keltirilgan sayyidlarning avlodlari shajarasida qayd qilinmagan, bu esa ularning Hindistonga ketib qolganligi bilan izoxlanadi.

Mahmud ibn Vali o'zining «Bahr ul-asror fi-manoqib alahyor» kitobida: «Garchi Termiz Movarounnahrga taallukli hududlardan bo'lsada, biroq hozirda u Balx tarkibiga kiradi», deb bitadi. Asarning yana bir joyida esa «Balxdan Jayhungacha 20 farsax keladi, uning taniqli kechuv joylaridan biri Yorgohdir», deydi. Boshqa bir tarixchi Hofizi Abro'ning ta'kidlashicha, bu kechuv joyi Termiz yaqinida bo'lgan. Rus olimi V. F. Minorskiy o'zining «Yunon kechuv» nomli asarida: «Yorgoh (Erdagoh) kechuvni Termizning o'ziga Aleksandr Makedonskiy tomonidan asos solinguniga qadar ham bor bo'lib, Amudaryo orqali o'tuvchi muhim guzargoh bo'lgan», degan fikri bayon qilgan. Mahmud ibn Vali asarining qimmatli tomoni shundaki, unda bir paytlari bo'lgan va endilikda yo'q joylar xususidagi ma'lumotlar ham saklangan. Masalan, muallif «Ayn Ahmad» degan buloq xususida quyidagilarni bitgan: «Ayn Ahmad» Termizdag'i buloq bo'lib Jayhun yaqinidadir, u bilan Jayhun daryosi oralig'i hammasi bo'lib, o'n qadam keladi. Buloq suvi Jayhunnikiga qaraganda shirinroq. U hayrat va shodlikka sabab bo'lishi bilan tanilgan».

Muarrix o'z asarida har xil munosabat bilan Termiz va Chag'oniyondagi boshqa aholi istiqomat qiladigan shahar, qishloqlar xususida ham to'xtaladi. Masalan, bir o'rinda Jayhun bo'yidagi shahar borasida qisqacha qilib: «Bu shaharning qishloklari va aholi istiqomat qiladigan joylarida muqaddas joylar va sig'iniladigan maqbaralar ko'p» desa, yana bir o'rinda Termiz xususida batatsil ma'lumot beradi: «Termiz Movarounnahr shaharlardan bo'lib, to'rtanchi ikdimdadir. U Jayhun daryosi qirg'og'ida joylashgan bo'lib, mustaxkam devorlar bilan o'rab olingan, janubiy qismi Jayhun daryosi uzra yuksalib turadi, qishloklari va aholi istiqomat joylari ko'p, uning eng muhim qismlaridan biri Salavot bo'lib, bu yerda hokim saroyi, bozor, madrasa va katta jome' masjidi bor. Baland minorasi ham mavjud. Bu hududda bog'u bo'ston kamroq, u yer qumli joy bo'lib, shu sababdan iklimi issiq, g'allasi va qovunlari yaxshi bo'ladi. Shuhhasiz, bu hudud odamlari jasur va dovyurak emaslar, ular orasida chiroyli chehrali va qaddiqomati kelishgan kishilar kam».

Muallif asarida termizlik sayyidlar haqida iliq gaplarni aytadi. Ularning qadiim-qadim davrlardan buyon hukmronlik qilib kelganligi, diniy mahkamalarga ham

rahnamatlik qilganliklari, ular orasidan ko'plab shayxu ulamolar yetishib chiqqanligini ta'kidlab, shulardan Hakim Termiziy va Varroq Termiziylarni tilga oladi. Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror»ida ZulKifl payg'ambar, Isoq Kunda Shikin qabrлari, bu yerdan yetishib chiqqan buyuk insonlar qatori esa Jaloliddin Rumiyning ustozи Burhoniddin Sayyid haqidagi bitiklarni o'qish maroqlidir. Mahmud ibn Valining: «AlHakim atTermiziy maqbarasi haqida eshitdimki, kimki bu tabarruk joyda ikki rakat namoz o'qisa, bu boshqa joyda o'qilgan yetti yuz rakat namoz o'qish bilan tengdir», degan gaplari diqqatga sazovordir. Surxon vohasining rivojida Amir Temur shaxsining alohida o'rni bor. Keyingi tarixiy izlanishlar shu narsani aniq ta'kidlamoqtsaki, Amir Temurning davlat boshqaruv faoliyatida Surxon vohasining o'ziga xos o'rni bo'lib, uning janubiy mamlakatlar bilan olib borgan jamiki harakati Termiz bilan bog'liq edi. Ayniqsa, Temur bilan amir Husaynning Arsifda turganlarida ularning ishonchli kishisi Tomuqaning Termizdagи savdo-sotiq ishlari bilan tanishuvi, Temur qopiqqa yetganda mo'g'ul jetelarining Movarounnaxri talab chiqib ketganligi to'g'risidagi ma'lumotni bunga misol qilib keltirish mumkin. Bu voqeadan Termiz Temur Qopiq katta ahamiyatga ega bo'lgan harbiy strategik markaz bo'lganini, Amir Temur o'z armiyasiga yangi kuch qo'shib, uning iqtisodiy ta'minotini Termizda mustahkamlab olganini bilishimiz mumkin. Tarixchi olim B.Ahmedov o'zining «Amir Temur» tarixiy romanida Surxon vohasidagi yirik iqtisodiy markaz Denov va Termizni tilga olib o'tib, quyidagi manbani keltirib o'tadi: «Ma'lum bo'lshicha, mo'g'ullar bilan yovlashib, Samarqand tog'lari va qoratog'da yashirinib yurgan Chig'atoy beklari: Sulaymon Barlos, Amir Muso, Joku Barlos, Jaloliddin Barlos va Hinduka Barloslar Termizga kelib tushibdilar».

Demak, Termiz o'zining harbiy strategik ahamiyati bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, Jayhun kechuvining qulay joyida joylashuvi ko'pincha urushlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Termiz o'zining iqtisodiy, madaniy rivoji bilan alohida ajralib turgan shahar, uning atrofida qishloq xo'jaligi ancha rivojlanib, bog'dorchilik va sabzavotchilik keng ko'landa olib borilgan.

O'z navbatida shahar qo'shinlarni, lashkarlarni boqishga ham alohida xizmat ko'rsatgan. Amir Temur Balx jilg'asida og'ir ahvolda qolganda Termizdagи beklarning yordami tufayli qurshovdan chiqib olib, katta hujumga tashlanganligini, shu jangdan keyin Amir Temur Jayhun daryosidan Termiz kechuvi orqali o'tib, Movarounnahrga qadam qo'yanligini tarixiy manbalar orqali bilishimiz mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: Amir Temur Termiz atrofida lashkargoh qurib o'tiradi, u o'z ona zaminiga qadam qo'yib endi erkin nafas olishga kirishadi. Temur o'zining jangovar yurishlari davrida juda katta harbiy tajribani egallab, Termizda turgan vaqtida bu tajribalarini ancha mukammallashtirib oladi. Chunki Temur o'zi amal qilgan to'rt narsadan ikkitasini: ya'ni qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlikni hamda ehtiyyotkorlikni aynan Termiz voqeasidan keyin bilib olgan bo'lishi mumkin. Akademik Bo'riboy Axmedov bu haqda quyidagicha yozadi: «Termiz yonida yuz bergen voqealar uni tinchitmadи. Kechayu kunduz shu haqida o'yladi. Xo'sh, nega bu voqeа sodir bo'ldi? Bunga nima sabab? O'zining bir qadar beparvoligimi? Yo sotqinlik sodir bo'ldimi? Bularning har ikkisi mavjud, lekin yana bittasi bor. Har kishining so'ziga ishonavermaslik, uni qayta-qayta tekshiruvdan o'tkazish zarur». Bu voqeadan keyin Amir Temur o'z qo'shinini harbiy jihatdan mustahkamlab, ishonchli, yaqin odamlarni o'z atrofida to'plab, har qanday sharoitda unga pand bermaslik uchun, ya'ni Amir Husayn va uning Tomuqa xizmatkorlarining xoinligini inobatga olib, yagona qarorga keladi. Amir Temur o'z tuzuklarining quyidagi bo'limida, ya'ni

«lashkarini ittifoqqa keltirish uchun qilgan o'n ikkinchi kengashida: unga Termizga kelib qo'shilib, og'ir vaziyatda yordam qilgan kishilar masalasida quyidagi fikri qayd etadi: «Amir Joku, Iki Temur, Amir Sulaymon va Amir Jaloliddinlarni xilvatroq yerga chorladim hamda ularni o'zimga ittifoq qilmoqchi bo'ldim. Xilvatda ular bilan suhbat qurib, «davlatimga sherik bo'lasizlar», dedim. Bu bilan o'zlariga ishonch va menga xizmat qilishda qai'iyat uyg'otdim». Bu voqeа harakat tufayli Amir Temur juda katta harbiy siyosiy obro'ga ega bo'ladi.

«Temur tuzuklari»da ushbu tarixiy voqeа yana bir bor eslatiladi: «Termiz kechuvidan narigi qirg'oqqa o'tgach, Kahalka qal'asi (Termizga yaqin qadimiylar qal'a) tarafiga qorovullar yubordim. Jayhun bo'yida bir necha kun turdim va qorovullar olib keladigan xabarni sabrsizlik bilan kutdim». Bundan shu narsa ma'lumki, Amir Temur siyosiy faoliyatining mustahkamlanishida Termiz va Chag'oniyon viloyatining alohida o'rni bor. Amir Husaynga nisbatan 1370 yili amalga oshirilgan harbiy yurish tarixda Termiz va Chag'oniyon viloyatlari uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini yakshi bilamiz. Amur Temur hamisha Termiz va uning atrofida bo'lganida o'zining keyingi jangida sodir etiladigan harakatini yana bir bor sinovdan o'tkazish maqsadida qisqa muddat to'xtaydi. Barong'or bilan bo'lgan janglarda ishonchli amirlar Joku barlos bilan amir Sayfiddinni qo'yadi. Amir Temurning Termizga yaqin Biyo qishlog'ida to'xtab, «Temur tuzuklari»da qayd etilgan: «Birinchisi davlat va sultanating bog'langan mening birinchi tuzugim Tangri taolonning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim», degan fikriga e'tibor berishga to'g'ri keladi. Chunki, Biyo qishlog'ida Amir Temur Makkayu Mukarrama sayyidlarining boshlig'i Sayyid Baraka bilan uchrashib, uning hamda sayyidlar, mashoyixlar, ulamolar, fozil kishilar duosini olib, otasining bergen, ya'ni «Alardin diniy, huquqiy, axloq masalalarini, harom bilan halolni ajratishni o'rgangin. Shuning uchun ham majlislarining shular bezab tursin», degan maslahatiga amal qiladi. Xuddi shu uchrashuvda Sayyid Baraka hammaning ko'z o'ngida toju taxt va sultanat ramzi bo'l mish nog'ora bilan bayroqni Temurbekning qo'liga tutqazadi. Bu Olloh va Islom dinining Amir Temurga nisbatan bergen ulug' qudrati edi. Butun Termiz, Xuttalon, Chag'oniyon, Balx, Hirot, Hisor, Kesh, Samarcand, Buxoro, Xorazm bo'ylab Temur deya hayqirayotgan qalandarlar, darveshlar vajohatlaridan uning dushmanlarining dami ichiga tushib ketadi.

Kim islom g'alabasini tilasa, o'sha Temur uchun ovoz bersin! Bunday hayqiriqlar Termiz, Chag'oniyon, Xuttalon, Balx shahrining har bir burchagida yangrardi. Munajjimlar esa atroflariga odamlarni to'plab, tungi osmonda charaklab turgan yulduzlarini ko'rsatib, Temur yulduzi porlayotganiga ishora qilishardi: Sohibulqiron! Sohibulqiron! Munajjimlar Temurga shunday unvонни, ya'ni yulduzlar sultonni unvonini taqdim qilishadi. Amir Temur Sohibqiron Biyo qishlog'idagi marosimdan keyin bo'lg'usi jangga hozirlik ko'rish maqsadida Chag'oniyon viloyatining markazi Chag'oniyonga borib tushadi. Chag'oniyon, ibn Kurdodbekning ta'kidlashicha, daryo bo'yida joylashgan. «Hudud al-olam»da yozilishicha, uning atrofi keng dalali, dehqonchilik qilish, sug'orish uchun juda qulay bo'lib, Abu al-Hasan ibn Mahmudga qarashli katta bog' va qurg'on mavjud. Chag'oniyon axli va beklari Amir Temurga sidqidildan xizmat qilib, katta miqdorda askar, oziq-ovqat, ot va chorva mollarini hamda urush anjomlari yetkazib beradi. Amir Temurning Chag'oniyonda bo'lgan vaqqida Kufton (Guftan, hozirgi Sherobod vohasi), Barmangan (ba'zi manbalardan Charmangan yoki Jarminkan, hozirgi Jarqo'rg'onдан 4 km janubi-g'arbdagi Kultepa shahri markazi), Xuttalon, Hisor, Temur qopug'idagi yerkarda katta miqdorda kuchi-

to'playdi. Ana shu Olloh bergen kuch-qudrat hamda Sayyid Baraka bergen qutlug' iloxiy duo kuchi bilan aql-zakovatli mashhur sarkarda Amir Temur Balxni egallab, anchadan buyon unga bo'y sunishni istamayotgan Amir Husayn ustidan zafar g'alabasini qo'lga kiritadi.

Jahongir Amir Temurning aqlli, tadbirdor, kuchli harbiy sarkarda, sharoitni to'g'ri tushuna oladigan siyosatchi ekanligini u tomondan amalga oshirilgan har bir ish yakunidan bilish mumkin. Uning 1384 yil bahori boshida Eron zaminini o'ziga bo'y sunidirish maqsadida Termiz atrofini lashkargohga aylantirib, Termiz sayyidlari himmati bilan Forsga yurish qilganligi, bu yurish uchun mavjud xarajatlar shu o'lkada to'planganligi tarixiy manbalarda alohida ta'kidlanadi. B. Ahmedov «Amir Temur» tarixiy romanida: «U yana Termiz va uning tevarak atrofini lashkargoh deb e'lon qildi, viloyatlarga lashkar to'plash uchun tavochi va jarchilar yubordi. Movarounnaxr viloyatlardan chiqarilgan barcha lashkar o'n kun deganda shu yerga Termiz va uning tevarak atrofiga yig'ildi. O'sha 1384 yil bahorining avvalida Amir Temurning cho'l qumlari va daraxt bargidan ham ko'p lashkari Jayhundan o'tib, Qubbat ul islam Balxning jilg'asiga kelib qo'ndi», deb yozadi. Bu voqealarning tarixiy izohiga e'tibor bersak, Amir Temurga tobe bo'lgan Termiz va Chag'onyon o'lkasi unga doimo iqtisodiy-siyosiy tayanch bo'lganligi, bu o'lkada hech qachon unga qarshi fitna fasod bo'limgani aniq va ravshandir. Bu sadoqat evaziga Amir Temur mazkur yurtlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga alohida e'tibor berdi.

Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida ko'hna Termiz haqida ma'lumot berar ekan, 1399 yil 11 sentyabrda Kesh (Shaxrisabz)dan Balxga borayotgan Amir Temur bir necha termizlik sayyidlarning qabrlarini, jumladan, Xoja Muhammad Ali Hakim at Termiziyy va Shayx Abu Bakr Varroqning mozorlarini ziyorat qilib o'tganligini eslatadi. Amir Temur 1404 yilning yozida Balxdan orqaga qaytayotganida ham Termiz sayyidlardan Xudovandzoda A'lo al-Muluk xonadonida to'xtab o'tadi. Xuddi shu yilning kuzida Ispaniya qiroli Genrix III ning elchisi Klavixo ham Termizda bo'lgan edi. Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga, Temur huzuriga sayohat kundaligi» («Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura» (1403-1406 g.g.) asaridagi ma'lumotga ko'ra, Temur Xurosonga qilayotgan yurishida Amudaryoga qayiq ustida turuvchi yog'och ko'priq qurdiradi va qo'shinlar o'tib bo'lgach, uni buzdirib tashlaydi.

Ko'hna shahrimizdan yetishib chiqqan ko'plab buyuk tarixiy siymolarning hayoti va faoliyatি Termizning insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirishda asosiy sabab bo'lgan. Ana shunday buyuk tarixiy insonlar orasida Termiz sayyidlari xonadonining namoyandalari ham bor. «Sayyid» so'zi lug'atan arabchada «janob» ma'nosini anglatib, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom avlodlarining faxriy unvonidir. Musulmon dunyosida sharif, xoja (xo'ja), to'ra so'zlari sayyid atamasining sinonimi sifatida ishlataladi. Ayrim hollarda Muhammad alayhissalomning neveralari Hasan avlodи sharif va Husayn avlodи sayyid unvonlari bilan alohida ajratiladi. Termiz sayyidlari xonadoniga doir ma'lumotlar sharq yozma metosining mashhur namunalari orqali yetib kelgan. Jumladan, Termiz sayyidlari xususida Ota Malik Juvayniy, Hamidullo Qazviniy, Ibn Battuta, G'iyosiddin Ali, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Tanish alBuxoriy va boshqa allomalarining durdona asarlarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Termiz sayyidlari xonadoni tarixini o'rganishdagi asosiy manba ularning oilaviy shajarasidir, unda musulmon dunyosining tarixiga doir ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ana shu shajara asosida 1914 yili akademik A. A. Semyonov «Termiz sayyidlarning kelib chiqishi va ularning qadimiy maqbarasi Sulton Saodat» maqolasini e'lon qiladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus sharqshunoslari V. V. Bartold, A. Kun, M. S. Andreev va boshqalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida Termiz sayyidlari xonadoni to'g'risida to'xtalib o'tadilar. Nakl qilinishicha, Ali ibn Abu Tolibning Fotimadan tug'ilgan o'g'li Husayn sO'nggi sosoniy shohi Yazdigirdning qiziga uylanadi. Ularning o'g'illari Alidan Husayn al-Asqar, undan esa Ubaydullo dunyoga keladi. Xalifa alMansur davrida (754-755) Amir Ubaydullo xalifa deb e'lon qilinadi. Uning o'g'li Ja'far al-Hujjat Madina hokimi edi. Termiz sayyidlari xonadonining asoschisi Hasan alAmir Ja'far al-Hujjatning o'g'li Amir Husaynning farzandidir. Keltirilgan shajara musulmon dunyosida keng tarqalgan bo'lib, ko'p manbalarda uchraydi.

Hasan al-Amir o'zining yaqinlari bilan 850 yilda Samarcanda keladi va u yerda 11 yil yashab, 861 yilda Balxga ko'chadi. Taxminan 865 yildan Hasan al-Amir Termizga keladi va shu yerda butunlay o'rashib qoladi. Hasan al-Amir va uning yaqinlari Movarounnahrga kelgan paytda somoniylar sulolasining yuksalishi boshlangan edi. Somoniylarning kelib chiqishi masalasida hozirgacha ilmiy doirlarda yagona fikrga kelinmagan. Ba'zi manbalar somoniylarni Termiz bilan bog'laydilar, ularga ko'ra, Somon qishlog'i hozirgi «Namuna» jamoa xo'jaligi hududida joylashgan. Termiz sayyidlarning shajarsi ham shular jumlasiga kirib, Ismoil Somoniyning har yili Termizga kelishi to'g'risida manbalar aniq xabar beradi. Sayyid Amir Abdullo mamlakat hukmdori Ismoil Somoniyning Mahsuma (yoki Mohisymo) ismli qiziga uylanadi, ularning farzandlaridan boshlab Termiz sayyidlari Xudovandzoda laqabini oladi.

Termiz sayyidlarning Sulton Saodat nomli maqbara majmuasining ilk poydevori somoniylar davrida qurila boshlagan edi. Sayyidlар jamoasi o'zining alohida boshlig'i naqibiga ham ega bo'lganlar. Muhammad avlodlari yashagan har bir hududda ularni boshqarib turadigan alohida naqib bo'lgan. X asrgacha barcha naqiblar Abbosiylardan bo'lib, Alining avlodlari ham ularga bo'y sunishgan, keyinchalik ular o'rtasida bo'linish yuz beradi. Termizda ham sayyidlarning naqibi bo'lgan, uning vazifasiga huquqiy masalalarni hal qilish va nafaqalarni tarqatish kirgan. Termiz naqiblari orasida eng mashhuri Ali ibn Ja'far al-Musavyidir. Musulmon dunyosining mashhur olimi Abul Fath Muhammad ash-Shahristoni asarlari Termiz naqiblariga bag'ishlangandir.

Muhammad Xorazmshoh davrida (1200-1220) Xorazm davlati Kaspiy dengizining shimoliy sohillaridan Fors qo'ltig'iga, Kavkazdan Hindiqush tog'larigacha bo'lgan mintaqani birlashtirib, qudratli davlatga aylanadi. Muhammad o'zining xalifa tomonidan islom va musulmonlarning sultoni sifatida tan olinishini talab qiladi. Xalifa an-Nosir (1180-1225) esa Muhammad Xorazmshoh nomini xutbaga qo'shib o'qitishdan, ya'ni bo'y sunishdan bosh tortadi. Xorazmshoh ham o'z navbatida an-Nosirni, umuman abbosiyarni xalifalik hokimiyatining noqonuniy vorislari deb e'lon qiladi. 1212 yilda Muhammad Xorazmshoh ulamo va imomlarni yig'ib, abbosiyarni xalifaliqdan mahrum qiladi va Termiz sayyidlardan bo'lmish A'lo ul-Mulukni xalifa deb e'lon qiladi.

Termiz sayyidlari xonadoni tarixidagi eng yorqin sahifalar Amir Temur va uning avlodlari bilan bog'liqidir. Buning sababi, fikrimizcha, sohibqironning piri Shamsiddin Sayyid Amir Kulol ayni A'lo ul-Muluk Xudovandzodaning o'g'li bo'lshi kerak. Pirning barcha nomlari sayyidlар xonadoniga mansubligidan dalolat beradi. Shuningdek, uning maqbarasi Termiz sayyidlarning Shahrisabzdagi maqbarasi Gumbazi Sayyidon bilan qo'shilib ketgan. Amir Temur butun umri davomida sayyidlар xonadonining vakillari bilan chambarchas aloqada bo'lgan. Sohibqiron hokimiyat uchun kurash boshlaganda ham, eng zafarli kunlarida ham Termiz sayyidlari jahongirning

hamrohlari bo'lgan. «Temur tuzuklari»da A'lo ul-Mulukning jiyanlari aka-uka Hasan va Ziyoviddinlar bit necha bor tilga olinadi. 1370 yidda Amir Temur Baxgaga ketayotib, Termizda Sayyid Baraka qo'lidan hokimiyat ramzi nog'ora va bayroqni olishga tuyassar bo'ladi. Shayxning duosini olib, Amir Temur Baxxni o'z tasarrufiga oladi va Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Amir Temurning taxtga chiqish marosimida A'lo ul-Mulukning yettinchi va sakkizinchisi o'g'ilari Abul Ma'oli va Ali Akbar ishtirot etganlar. 1371 yilda Temurga qarshi yushtirilgan fitnada Abul Ma'oli ham ishtirot etadi. Fitna mag'lubiyatga uchragach, uning qatnashchilari qatl qilinadi, Abul Ma'oli esa davlat ishlaridan chetlashtirilib, Shahrisabzga ko'chiriladi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida ko'rsatilishicha, Sohibqiron Abul Ma'oliga quyidagicha murojaat qilgan: «Nasabing silsilasi payg'ambar ahli baytiga, unga va ularning barchasiga Ollohnning rahmatlari va salomlari bo'lsin, ulanganligi uchun hech qachon biror zahmat g'ubori sening hayoting etagiga qo'nishini ravo ko'rmasin. Lekin sen noloyiq ishlarni tark etmayapsan, maslahatim shu turki, bu viloyatdan chiqib ketsang». Lekin sayyid tezda kechirilgan bo'lishi kerak, chunki bir yildan so'ng u Amir Temurning Xorazmga yurishida qatnashadi. Shundan so'ng Termiz sayyidlari avlodlarining Qashqadaryodagi xonadoni vujudga keladi, yuqorida eslatilgan Gumbazi Sayyidon ularning oilaviy maqbarasiga aylanadi. Ba'zi manbalarga ko'ra Amir Temurning qizi Sulton Baxtbegim Termiz sayyidlardan bo'lmish Hasanga nikohlangan hamda Qashqadaryo vohasidagi ma'lum bir qism yerlarini kuyoviga vaqf qilib beradi. Abul Hasan bu joyda o'z langariga asos soladi. Langar so'filar makoni bo'lib, Termiz sayyidlari nafaqat Movarounnahrda, balki boshqa joylarda ham langarlar tashkil qilishgan. Masalan, Abdurazzoq Samarqandiyining «Matla' us-sa'dayn va majmai bahrayn» asarida yozilishicha, Sayyid Tojiddin o'z langarini Kumulda qurban ekan. Shuningdek, afg'on qabilalarining diniy rahnamosi Pir boboning asli "ismi Sayyid Ali Shoh at-Termiziydir. Umuman, XIV asrda Termiz sayyidlari Movarounnahrning turli joylarida faoliyat ko'rsata boshlaganlar.

1359 yilda Toshkentda mo'tabar shayx Xovand Tohur vafot etadi. Muhammad qozining Xo'ja Ahror hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarida ta'kidlanishicha, shayx Termiz sayyidlardan bo'lib, Xovand so'zi Xudovandzodaning qisqargani ekan. Bu borada musulmon dunyosida mashhur Xo'ja Ahrori Vali ayni shu Shayxontohurning jiyani ekanligini alovida ta'kidlash lozim. Amir Temur Termiz orqali o'tganida sayyidlarning uyida mehmon bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, 1399 yil 11 sentyabrda va 1404 yil yozida Temur A'lo ul-Mulukning uyida mehmon bo'ladi. G'iyosiddin Ali tomonidan yozilgan Temurning Hindistonga yurishiga bag'ishlangan asarida A'lo ul-Mulukning oltinchi o'g'li Alouddin ham tilga olib o'tiladi. Surxondaryo O'lkashunoslik muzeyida saklanayotgan bu kitobning 1915 yildagi forscha nashrida Termiz Xudovandzodalarini Amir Temur va uning qo'shimiga ikki kun to'y berdi, deb ta'kidlanadi.

JADID MAKTABLARIDA TA'LIM VA TARBIYA

Usmonov Lutfullo

*Qo'qon Davlat pedagogika instituti "Umumiyy tarix" kafedrasи magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n. Q. Akbarov*

Jadidlar o'zlarining dastlabki faoliyatlarini ma'rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oysa eng ilg'or qarashli jadid ziyoililarning fikrida bo'lgani holda, mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi.

Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamонавији bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxacislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomonidan chor ma'murlari, ikkinchi tomonidan ijtimoiy vogelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai nazardan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'l kamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladı.

O'sha davrda chop etilgan rus tilidagi gazeta va jurnallarda mahalliy xalqlarning maorif tizimi, yangi va eski maktablar masalalarini yoritishga keng o'r'in berilgan. Turkiston bosib olingach, bu yerda mustamlakachilar o'zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo'lishi sira ko'z yumib bo'lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini «Turkestanskie vedomosti» gazetasining 1909 yil 1-sonida ta'kidlab o'tiladi¹⁰².

Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi, zamонавијиilm-fanlarning o'qitilishi bu maktablar uchun yot hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablar mustamlakachilar uchun unchalik xavf tug'dirmasligini chor ma'murlari yaxshi tushunib yetgan holda, yangi usul maktablariga jiddiy e'tibor qarata boshladilar.

Eng dastlabki ochilgan maktablar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) Qo'qon uezdida Ahmadjon Qori maktabi. 1892 yilda ochilgan.
- 2) Mir Ayyubboy maktabi (Qo'qon) 1893 yil ochilgan bo'lib, 100 o'quvchisi bo'lган;
- 3) Usta Bakovul (Qo'qon) 1899 yil ochilgan, 115 o'quvchi tahsil olgan;
- 4) Hamboboy masjidi qoshida 1899 yil ochilgan, 25 o'quvchi o'qitilgan;
- 5) Zand-Xasan mahallasida(Andijon) 1900 yil ochilgan, 35 o'quvchi ta'lim olgan maktablarni ko'rsatish mumkin¹⁰³.

Ayrim adabiyotlarda Farg'ona viloyatidagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Ishoqxon Junaydulloxonxo'ja o'g'li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi¹⁰⁴. Ishoqxon Ibrat (1862-1937) 1878-1886 yillari Qo'qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida ta'lim oladi. O'sha kezlari u Bog'chasarojoyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarning tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886 yil To'raqo'rg'onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo'yiladi. U 1907 yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida Yevropa tillaridan ham darslar o'tilgan¹⁰⁵.

Yangi usuldagagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan.

¹⁰² Farg'ona vodiysida jadidchilik harakati.- /«Tarix va taqdir: Farg'ona vodiysi tarixini tadqiq etish muammolari» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanini materiallari ma'ruzalar to'plami. I-kitob.- Namangan: 2000.-B.45-48.

¹⁰³ Qozoqov T. Turkistonning mustamlaka davri tarixini yoritishda arxiv ma'lumotlaridan foydalananish.- Tarix tilga kirganda. davriy to'plam I-son.-Namangan, 2007.-B. 36-40.

¹⁰⁴ Dolimov U. Ishoqxon Ibrat.-Toshkent: Sharq, 1994.-B.11.

¹⁰⁵ Nosirov O., Ma'murov M. O'zbek adabiyotining muhim sanalari.- Namangan: Namangan Davlat Universiteti, 1993.-B. 124.

Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul mактабларидан та'limning сифати билан ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1 chi sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900 yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingen. o'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatlari topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekov yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur...».

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomilashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg'or ziyyolilari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o'zining afzallik tomonlarini to'liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mammun bo'lgan holda tarqalganlar. Shunday imtihon majlislaridan biri Qo'qon shahrining Xonaqoh mahallasidagi «Maktabi Mahmudiy» da bo'lib o'tadi. O'quvchilar kuzatuvchilar ko'z o'ngida o'qish, yozish, hisob, e'tiqodot amaliyotidan yaxshigina imtihon topshirganlar. Shahrixonda ham shunday imtihon majlisi muallim Xo'jaxon maktabida bo'lib o'tadi. Majlisga Shahrixonning qozi, mingboshi va ulamolari taklif etiladi. Shogirdlardan birin-ketin din ilmi, tarix, tabiiy Fanlardan imtihon olinadi. Barcha shogirdlar imtihonni kutilgandan ham a'loga topshiradilar. Buni ko'rgan ahli majlisning ko'plari o'zlarini xursandchilikdan to'xtata olmay yig'laganlar¹⁰⁶.

Ilg'or fikrli kishilarning sayi-harakatlari bilan ham ko'plab yangi maktablar ochilgan. Ba'zan muallimlik uchun chetdan kishilar taklif etilgan. Masalan, O'sh uezdiga qarashli Qurshob qishlog'ida qishloq boshqaruvchisi Erali Mingboshi 1914 yil yanvar oyida yangi usul maktabi ohib, Toshkentdan G'ulom Zafariyni muallimlik uchun olib keladi¹⁰⁷.

Chor ma'murlari yangi usul maktablaridagi darsliklar, ularning siyosiy-mafkuraviy yo'naltirilganligiga ham e'tiborni qaratib borganlar. O'quv inspeksiysi tomonidan birinchi bor o'quv yurtlari tekshirilganda, o'quvchilar podshohni duo qilishni va uning oila a'zolarini nomlarini bilmaganlar. Lekin ikkinchi va uchinchi bor tekshiruvdan so'ng chor ma'muriyati talabi bilan yuqoridaqgi «xatolar» tuzatilgan.

Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh inspektori 1913 yil 31 dekabrda o'lka o'quv yurtlari inspektorlaridan yangi usul maktablari haqida quyidagi mazmunda ma'lumot berishni so'raydi. Jumladan: 1. Maktab qachon va kimning ruxsati bilan ochilgan; 2. Aynan qaysi Fanlar va qaysi tilda dars o'tiladi; 3. Qaysi darsliklar qabul qilingan; 4. O'qituvchilar tarkibi, agar maktabda ruhoni yillalardan boshqa dunyoviy shaxslar ta'lim berayotgan bo'lsa, ular qanday ma'lumotga ega va aynan nimadan dars beradi; 5. Biron-bir o'quv dasturiga egami; 6. O'quvchilar soni. 7. Mahalliy hokimiyatga maktab yoki alohida shaxslar to'g'risida ma'muriy yoki jinoiy tergov qo'zg'atish uchun asos bo'larli biron-bir nohush ma'lumot kelib tushganmi?

1914 yilda Qo'qondagi 18 ta yangi usul maktablaridan eng mashhurlari quyidagilar edi:

- So'fi Badal Eshon. 140 o'quvchi va 4 o'qituvchisi bo'lgan;

¹⁰⁶ Bo'ronov B. Jadid teatri va jadid maktablari tarixidan.-Farg'ona Davlat universiteti. Ilmiy to'plam.-Farg'ona, 2012.-B.32-35.

¹⁰⁷ Bo'ronov B. Jadid teatri va jadid maktablari tarixidan.-Farg'ona Davlat universiteti. Ilmiy to'plam.-Farg'ona, 2012.-B.32-35.

- Qosimboy. 145 o'quvchi, 1 o'qituvchi va 3 yordamchi;
- Mashrab Xodyam. 50 o'quvchi, 1 o'qituvchi va 3 yordamchi;
- Umariya. 85 o'quvchi, 1 o'qituvchi va 3 yordamchi.

Barcha yangi usul maktablari 10-12 yil avval mahalliy jamiyatlar tomonidan va qozilar rizoligi bilan ochilgan, mahalliy tilda o'qish, yozish, arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik, ilohiyot fanlaridan dars berilgan.

Usuli savtiya maktablari sonining ortib borishi ularni darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqardi. Bu vazifalarni ham yangi maktab muallimlari o'z zimmalariga oldilar. Farg'onan taraqqiyatparvarlaridan A. Ibodiydan boshqa yana A. Zohiriy ham 1916 yili «Imlo» kitobini yozdi va kitobni Qo'qondagi «G'ayrat» kutubxonasi tomonidan nashr etti¹⁰⁸. H. H. Niyoziy esa, maktablар uchun «Engil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi kitoblarni yozadi¹⁰⁹. Shuningdek, Namangan taraqqiyatparvarlaridan Dadamirza qori ham «Miftah ul-avval» deb nomlanuvchi darslik yozgan edi¹¹⁰.

Yangi usul maktablardagi o'qituvchilarning ko'pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo'lib, ba'zilari esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o'quv jadvali asosida, tsenzura ko'riganidan o'tgan darsliklar bo'yicha olib borilgan, o'quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha yetgan. Barcha maktablarda har oyiga o'qish uchun 50 tiyindan 1 so'm 50 tiyingacha haq olingan. Kambag'al oilalarning bolalari esa ba'zan to'lovdan ozod etilganlar.

Yangi usul maktablarda tabiiy fanlarning o'qitilishi chor ma'murlarini g'oyat tashvishga soldi. 1913 yilgacha bu maktablarda tabiiy fanlar o'qitilmagan bo'lib, uni o'qitish inspektsiyaning ruxsatsiz amalga oshirila, boshlagan. Shu sababli o'quv inspektsiyasi tomonidan tabiiy fanlar muallimlaridan bu fanlarni o'qitish uchun maxsus ruxsat olish talab qilingan yoki ularga bu fanlar bo'yicha dars berishni ta'qiqlash masalasiga e'tibor qaratilgan. Bu vaqtga kelib yangi usul maktablari o'zining keng ko'lamliligi, o'qitish sifati bilan eski usul maktablardan ustин bo'lib, mahalliy aholi ishonchini qozongan va hukumat rus-tuzem maktablariiga nisbatan yerli xalq hayotiga tezroq kira boshlagan edi.

Mustamlakachilar qanday qilib bo'limasin, o'lka xalqlarini tashqi dunyo bilan aloqa qilishlariga yo'l qo'ymaslik, ular diqqatini jahon miyosidagi o'zgarishlardan chetga tortishga harakat qilar edilar.

Taraqqiyatparvarlar maorif sohasida asosiy e'tiborni boshlang'ich ta'lim islohiiga qaratdilar va alalxusus ularning ma'rifatparvarlik harakatlari zoe ketmadi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarda ta'lim olgan o'quvchilardan keyinchalik ilm-fan, texnika, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida nom taratgan arboblar yetishib chiqdilar.

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON YOSHLARI KUNDALIK HAYOTIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

*Haqnazarov Xudoyberdi
Nizomiy nomidagi TDPU kutta ilmiy xodim izlanuvchisi*

Bugungi kunda an'analar, urf-odat, marosim va milliy tarbiya usullariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu borada yoshlarning faolligi esa mazkur masalani dolzarb

¹⁰⁸ Uzoqov H. Ashurali Zohiriy // Guliston. - 1968. № 10(22). - B. 28.

¹⁰⁹ Bararov M. O'zbekistonda ma'rifat uchun kurash tarixidan. - Toshkent: Fan, 1961. - B. 95.

¹¹⁰ Qozoqov T. «Muftah ul-avval»ning muallifi // Murabbiy. - 2001. - 15 noyabr.

ahamiyat kasb etayotganligining yana bir ifodasi bo'lmoqda. Yoshlar kundalik hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalasi barcha zamonlarda muhim bo'lib kelgan. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Qadriyat deganda, biz ming yillar davomida shakllangan, odamlar hayoti, ichki dunyosidan mustahkam o'r'in olgan, hech qaysi rasmiy hujjatda aks etmagan bo'sada, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an'ana va udumlarni tushunamiz", - deb ta'kidlagani mamlakatimizga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlarning nechog'lik ahamiyatli ekanligidan darak beradi.

Avvalo qadriyat, urf-odat, an'ana, marosim kabi tushunchalarga oydinlik kiritish va so'ngra milliy, ma'naviy va umume'tirof etilgan qadriyatlarning yoshlar kundalik turmush-tarzidagi o'rniga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Qadriyatlar – inson va insoniyat uchun o'tmishda va xozirda katta ahamiyat va qadrga ega bo'lgan barcha moddiy va ma'naviy omillarni anglatadi.¹¹¹ Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bo'lib, moddiy va ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy; jamiyat hayotining sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar; ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy; hayotning ijtimoiy tuzilishiga ko'ra milliy, sinfiy, partiyaviy va boshqalardan iboratdir. Urf-odat esa xalqlar o'tasidagi o'zaro hayot tarzi munosabatlarda amal qilinadigan, me'yor va odatlar majmuasiga aytildi. Islomni qabul qilgan musulmonlarda u shariat me'yorlari bilan parallel ravishda butun jamaa turmushini tartibga solishda muayyan rol o'ynab kelmoqda. Urf-odat ko'pincha moddiy va ma'naviy hayotning turli xil jihatlariga, oila va turmush tarziga taalluqli bo'ladi. An'ana deganda biz insonlar moddiy va ma'naviy hayot faoliyati turli shakllarining avloddan avlodga o'tib turadigan, oldingi avlod turmush tarzi, faoliyat yo'llari, usullari va mazmunining to'la yoki qisman takrorlanishi anglatadigan tushunchani tushunamiz. O'zbek xalqining an'analari o'ziga xos va takrorlanmasdir. Unda umuminsoniy, baynalminallik kabi xususiyatlarning mavjudligi o'ziga xosligidan dalolat beradi. Marosim bu shartli, an'ana naviy xarakterli, bevosita amaliy maqsadli muvofiqlikdan xoli bo'lgan, biroq muayyan ijtimoiy munosabatlarning ramzi bo'lib xizmat qiladigan, ularni amaliy ifoda etadigan shaklidir.

Hozirgi globallahuv zamonida millat taqdiri, milliy o'zlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish kabi qadriyatlar har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo o'z millatiga mansublik omili etnik o'zlikni anglashning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. O'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonlik yoshlarning aksariyat qismi kundalik turmush tarzida u yoki bu qadriyat, urf-odat va an'analarga rivoja qilishadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar esa yoshlar kundalik hayotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy yoshlar kundalik hayotining ajralmas qadriyati birinchi navbatda vatanparvarlik va insonparvarlikdir. Bu borada yoshlarda ma'naviyat va milliy o'zlik tushunchalarini shakllantirishning muhim jihatlaridan biri, ular o'zlarini yashayotgan mamlakatning fuqarolari deb his etishlaridadir. Shu asnoda "Vatan deganda Siz nimani tushunasiz?" degan savolga berilgan javoblar e'tiborga molikdir. Ko'plilik yoshlar uchun vatan avvalo ularning tug'ilgan joyi (59,0%) va o'sgan makonidir (29,8%). Respublika yoshlarning 10,1 foizi "Vatan" tushunchasini "Mustaqil O'zbekiston" bilan tenglash-tirmoqdalar. Ular ichidan: o'zbeklar – 10,6 foiz, qoraqalpoqlar – 8,2 foiz, O'rta Osiyo millatlari – 8,1 foiz, rus millatiga mansub bo'lganlar esa – 3,1 foizni tashkil etadi.¹¹²

¹¹¹ Tuychieva T.T. O'zbek ma'naviy qadriyatlari tizimida urf-odat, an'analarning o'mi. Falsafa fan. nomz. diss. O'zMU. Toshkent. 2000. 144-bet 27-bet

¹¹² Qayumov O'. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O'zbekiston yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlari.

Bugungi O'zbekiston yoshlarida vatanga bo'lgan sevgi va sadoqat hislari nihoyatda yuqori darajada. "Vatanparvarlik deganda Siz nimani tushunasiz?" degan savolga javob bergenlarning yarmidan ko'pi (66,4%)ni nuqtai-nazari bo'yicha "Vatan sevgida", 55,5% - "Vatanga sidqidildan xizmat qilishda", 41,3 foiz yoshlarning fikricha - "Vatanni himoya qilishga tayyorligida", 24,7% - "milliy an'analarni va urf-odatlarni qadrlashda", 21,1% yoshlarning ko'rsatishicha - "o'zining xalqini jahonshumul obro'sini ko'tarishda" deb ifodalangan. Ko'rinish turibdiki O'zbekiston yoshlari orasida vatanparvarlik, vatanga muhabbat tuyg'usi kabi sifatlar har qachongidanda yuqori darajaga ega. O'z an'analari, tarixi va madaniyatini bilish, ularga hurmat hissi 21,7 foiz o'zbeklar uchun xosdir, ayniqsa rus millatiga mansub bo'lganlar uchun bu ko'rsatkich yuqoridir (56,3%).¹¹³ Ko'rinish turibdiki, qadriyatlarni avvalo vatan qadrini tushunish va ularga munosabat, millatiga, yurtiga, eliga, ularning aholisiga tegishli qadriyatlarni jamlash, avaylash, ularning ahamiyatini asoslash, yurtining milliy qadriyatlarini ongingin tarkibiy qismiga aylantirish kishiarda o'ziga ishonch va hurmatni mustahkamlaydi, yoshlarni o'z Vatanining istiqboliga katta umid bilan qarashga undaydi. Har bir millat o'z milliy qadriyatini qanchalik e'zozlasa, uni ko'z qorachig'idek asrasa, shu millatning jahon hamjamiyatidagi o'rni, obro'si, unga ajratiladigan e'tibor, hurmat shu darajada baland bo'ladi. Shu ma'noda milliy o'zlikni anglash omili xalq taqdiri va ertangi kuni uchun katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston ko'pmillatli mamlakat. Mamlakatimizda qabul qilayotgan qonun-qoidalalar, farmon va farmoyishlar millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar hududda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar uchun tngdir. Shunday ekan mamlakatimizda istiqomat qilayotgan juda ko'p millat va elatlarga O'zbekiston vatan hisoblanadi va ular mamlakatimizda yashayotganliklari bilan faxrlanadilar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, respondentlarning har ikkinchisi (49,9%) o'zbek olilarida milliy o'zlikni anglash shakllangan deya hisoblaydi. (1-jadvalga qarang)

1 – jadval

Millati	Mening turmush tarzim an'ana va urf-odatlarga asoslangan	O'z ona tilimda gapiraman va fikrtyaman	O'z xalqiga mansublik tuyg'usi	O'z kindik qoni to'kilgan yerga muhabbat	Millatning boy tarixiga egalgidan gurvanish	Evropacha tarbiya topganman, ammo mamlakatning tarixi va madaniyatini o'rganishga ehtiyoj sezaman
O'zbeklar	49,9	49,2	42,9	41,2	35,3	4,7
Markaziy Osiyo millatlari	50,5	39,2	28,9	44,3	23,7	7,2
Slavyanlar	50,0	55,6	27,8	16,7	66,7	27,8
Boshqa millatlar	47,6	57,1	33,3	14,3	38,1	38,1

*Manba: Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Quronov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi. Toshkent.: - "Ijtimoiy fikr". 2012, 77- bet.

Ko'rinish turibdiki o'zbeklarda milliy o'zlikni anglashning shakllanganlik darajasi ancha yuqori ko'rinish hosil qilgan. Milliy o'zlikni anglash esa tarixiy xotirani o'rganishdangina iborat bo'lib qolmay, balki qadriyatlarga, madaniyatga, tarixga, milliy manfaatlarga emotsiyal kuyinishidir.¹¹⁴

Har bir mamlakat hayotida milliy urf-odatlar, an'analar muhim o'rinn tutadi. Chunki. Bu bir tomonidan shu mamlakatning o'ziga xos tomonlarini anglashga va bilib olishga yordam bersa, ikkinchidan agar jamiyat o'z imkoniyatlarini, urf-odat va an'analarini hisobga olmasa "odamlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur qila olmaydi".¹¹⁵

O'zbekiston yoshlari kundalik turmushining ajralpas qismi bo'lgan oila muhim milliy qadriyat hisoblanadi. Oilada avvalo yoshlarga tarbiya va ilm berish orqali madaniy-ma'naviy qadriyatlar qadriyatlar singdirib boriladi. Kundalik hayotda sog'lom turmush tarziga rioya etish, oilada, jamoatchilik orasida o'zini tutish, kiyinish, ovqatlanish odobi yoshlarga aynan oilada o'rgatiladi. Oilada, avvalo yosh avlod oilaviy hayotga tayyorlana boshlaydi. Bu ota-onal oldidagi o'ta mas'uliyatli, yoshlar tarbiyasida axloqiy, jismoniy, ma'naviy, jinsiy tarbiyani o'zida mujassamlashtiruvchi vazifa hisoblanadi. Shu ma'noda, masalaga jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, dunyodagi yirik va nufuzli xalqaro tashkilot - Birlagan millatlar tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan e'tiboran har yili 15 mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani tahsinga sazovordir. O'zbekiston prezidenti yoshlar kundalik hayotida oila va farzand kabi hayotiy qadriyatlarning ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, "Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydiganma'naviyat qo'rg'oni bo'lmissi oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim", - deb ta'kidlagani oila qadriyatining milliy qadriyatlar tizimidagi o'rning beqiyosligidan dalolatdir.

O'zbekiston yoshlari uchun oila – 81,2% (2005 yilda – 74,3%), vatanga xizmat qilish va jamiyatga foyda keltirish – 52,6% (2005 yilda – 51,3%), salomatlik – 28,4% (2005 yilda 44,6%) eng asosiy, ustivor qadriyatga ega hisoblanadi. Yoshlarning barcha guruuhlarida, O'zbekistonning turli mintaqalarida ushbu qadriyatlar bir necha yillardan beri eng ustivor ahamiyat ahamiyat kash etib keladi. Sevgi, yoqtirgan ishi (tegishli ravishda 21,4% va 19,6%) va ta'lim (16,1%) singari hayotiy qadriyatlar keyingi o'rinnarni egallagan. Eng muhimmiyuqoridagi omillar yoshlarning fikricha kundan kunga o'sib bormoqda.¹¹⁶

Yoshlar, xususan yosh oilalar kundalik hayotida farzand qadriyati o'ziga xos ahamiyatga egadir. Bu borada mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi taraqqiyotning eng ustivor omili hisoblanib kelinayotganligi ham tasodifiy emas. "Kishilik tarixi paydo bo'lgandan buyon, ming yillar davomida har qanday mamlakatning, har qanday millatning, ota-onal bo'lish baxti nasib etgan har qanday insonning eng mo'tabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi – sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga yetkazishdan iborat bo'lib kelgan".¹¹⁷

¹¹⁴ Атамурадов С. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновления общества. – Ташкент: "Ўзбекистон" 1992. – 195-бет.

¹¹⁵ Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 5-bet

¹¹⁶ Qayumov O'. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O'zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuv jarayonlari. Toshkent: "Ijtimoiy fikr". 2011. 73-bet.

¹¹⁷ Karimov I. "Ozod va obod vatan, erkin va arovon hayot pirovard maqsadimiz". - Toshkent. O'zbekiston, 2000.- 425-bet

Bugun mamlakatimizga, xalqimizga xos bo'lgan o'zgacha madaniyat va qadriyatlar butun dunyo e'tirofidadir. Bu kabi qadriyatlarning brigan sari umuminsoniy qadriyat sifatida tan olinayotganligini mammuniyat bilan tilga olmoq darkor. Turli millat vakillaridan o'zbek xalqi nimasi bilan dunyoga mashhur masalasidagi fikrlari o'rganilganda ham juda qiziqarli tahlillar kelib chiqdi. (2-jadvalga qarang)

2 – jadval

Afzal ko'rish	O'zbeklar	Markaziy Osiyo millatlari	Slavyanlar	Boshqa millatlar
Mehmono'stligi bilan	57,6	52,6	83,3	76,2
Buyuk ajoddlari bilan	42,6	49,5	55,6	47,6
Mehnatsevarligi bilan	32,1	28,9	66,7	61,9
Ilmiy merosi bilan	31,3	18,6	5,6	23,8
Tarixiy merosi bilan	28,8	32,0	22,2	42,9
Ma'naviy-axloqiy merosi bilan	27,5	38,1	27,8	38,1
Tinchliksevarligi bilan	24,1	18,6	55,6	23,8
"Oq oltin" – paxtasi bilan	22,1	24,7	16,7	9,5
Adabiy merosi bilan	16,6	19,6	-	14,3
Sportdag'i yutuqlari bilan	1,8	4,1	5,6	4,8

*Manba: Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Quronov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi. Toshkent.: - "Ijtimoiy fikr". 2012, 80- bet.

Xulosa qilib, O'zbekiston yoshlarining eng muhim qadriyatlarini tahlil qilish va ularni quyidagi guruhlarga ajratga holda tadqiq etish muqsadga muvofiqdir:

birinchidan, universal hayotiy qadriyatlar: oila, salomatlik, sevgi-muhabbat, sevimli mashg'ulot, ta'lim va boshqalar;

ikkinchidan, ijtimoiy qadriyatlar: vatanparvarlik, Vatanni, qonunni va tartiblarni himoya qilishga tayyorlik, ish, insonlarga foyda keltirish, milliy an'analar va urf-odatlar qadriyati.

Ushbu qadriyatlar yoshlar va katta avlodni bir biriga bog'lovchi hayotiy qadriyatlar sanaladi, bu esa O'zbekiston yoshlarining jamiyatda munosib o'rinn egallashining va muhim ahamiyatga egaligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

SURXON MADANIY HAYOTINING YUKSALISHDA BOYSUN FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ ANSAMBLLARNING AHAMIYATI

*Kamol Toshev,
Termiz DU "O'zbekiston tarixi" kafedrasи 2- bosqich magistri*

O'zbek xalqi folklor etnografik xalq og'zaki ijodining rivoj topishi va yuksalishda Boysun tumaning alohida o'mni bo'lib, ajoddlarimizning o'tmish madaniy hayotidagi milliy qo'shiqlar hamda raqlarni o'rganish, tiklash va yanada zamонави talqinlarini yaratishda asosiy tayanch hisoblanib kelmoqda. Respublikada katta obro'ga ega bo'lgan «Shalola» ashula va raqs xalq ansamblı 1967 yilda tashkil etilgan. Ansambliga 1969 yilda xalq ansamblı unvoni berilgan. "Shalola" ansamblining nomlanishi sabab ilk baxor kunlarda Boysun tog' etaklari ajoyib manzarani kashf etidi. Tog'dagi qorlar erib, kichik-kichik jilg'alar hosil qilib, pastga oqib tushadi. Suvlarning mayin shildirashi shaloladay

mavjlanadi. Ana shunday go'zal manzara kishi qalbini zavqqa to'ldiradi. Hamyurtimiz O'zbekiston Xalq yozuvchisi Sh. Xolmirzaev ana shu go'zal manzaraga qiyoslab ansamblning nomini «Shalola» deb qo'yan.

«Shalola» ashula va raqs xalq ansambl tarkibida 10 yoshdan 60 yoshgacha bo'lган yosh xavaskor ijrochilar, sozanda-yu xonandalar, raqqosalari, ustoz-xofizlar, aktyorlar faoliyat ko'rsatadi. «Shalola» ashula va raqs xalq ansamblining yukori natijalarga erishishining bosh sabablaridan biri, kuy, qo'shiq, raqs va ijroning uyg'unligidadir. «Shalola» ashula va raqs xalq ansambl ijodiy faoliyat davrida Respublikamizdagi ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishish bilan bir qatorda ko'plab ijodiy safarlar va xalqaro festivallarda faol ishtirok etib kelmoqda. 1975 yilda Pqlsha davlatining Zakopani shaxrida bo'lib o'tgan Tog'li xalqlarning VIII jahon festivalida faxrli II o'rinni egallagan. 1980 yilda ansamblning dasturi sobiq ittifoq markazi televideniyasidan namoyish qilingan. 1985 yilda Bolgariyada, 1986 yil Afg'onistonda, 1990 yil Angliyada, 1998 yil Turkiyada xizmat safarida bo'lib qaytdi. Ansamblning asosiy vazifasi ashula va raqs yo'naliishi hisoblanadi. Xalqimizning o'lmas merosi bo'lган maqomlarimiz, mumtoz kuy-qo'shiqlarimiz, an'anaviy ijro yo'naliishidagi asarlarimizni o'rganib ularni albatta kelajak yosh avlodga qoldirish maqsadida xayrlı ishlар qilindi va bu ishlар davom ettrilmoqda.

«Boysun» folklor-etnografik xalq ansambl, u o'zbek milliy xalq an'analarini, musiqa va qo'shiqlarini qayta tiklashni o'ziga maqsad qilib faoliyat ko'rsatayotgan ansamblidir. «Boysun» ansambl o'z dasturida qadim folklorimizning bugungi zamон saxnaviy ko'rinishi orqali xalq og'zaki ijodiyoti an'analarini tiklash va takomillashtirish, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, e'zozlashda o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Istiqlol tufayli an'ana va marosimlarimizni tiklab bu kungi avlodlarimizga qadimda o'zbek folklori qanday bo'lsa shundayligicha kuylash, ijro mahoratini ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar. «Boysun» ansambl, bobolarimiz, momolatimiz qalb qo'rini berib kuylagan qo'shiqlarini nafaqat ijro etib, balki unga hozirgi zamон ruhini ham qo'shib O'zbekiston badiiy san'atida o'ziga xos uslub bilan joy olgan yagona folklor maktablaridan biridir. O'sha yagonaligi tufayli «Boysun» ansambl yillar davomida xalq ijodiyotiga, urf-odatlariga marosimlariga qanchalik tayanib dastur tayyorlagan bo'lsa, shunchalik san'at sirlarini mukammal o'rganib, katta tajribalar to'plab, havaskor jamoadan professional darajasiga chiqib oldi.

«Boysun» ansambl o'z repertuarida qadimiy etnik turmush bilan bog'liq urfatdarlar, o'ziga xos marosim va udumlarni badiiy g'oyaviyligini sahnaviy ko'rinishlar orqali yanada to'ldirib, sayqal berib o'z muxlislariga ega bo'lib bormoqda. Ansambl xalq amaliy san'ati an'analarini namoyish etishi bilan bir qatorda xalq qo'shiqlari, laparlar, aytishuvlar, o'lan va yor-yorlar, alla aytishuvlarini ayrimlari sozsiz, ayrimlari milliy musiqa asboblari yordamida (doira, nay, g'ijjak, rubob, dutor) yoki qadimiy musiqa asboblari (chanqovuz, sibizg'a, ushpullak, qovoqnog'ora, loyko'za nog'ora, ducho'ba, dumbira) jo'rligida ijro etib kelmoqda. «Boysun» ansamblining dasturlari asosida 1987 – yil «Boysunda qor eriganda», «Unitilgan ohanglar», 1988 yil – «Ko'pkari», 1989 yil – «Tandir, olov, non», «Bolalar o'yini», 1990 yil – «Sharq bozori», 2005 yil - «Boysunning bir kuni», nomli bir-biridan ajoyib filmkontsertlar Respublikamizdagi rejisiyorlar tomonidan ishlangan. Ayni paytda bu durdona filmlar Respublikamiz televideniyasi orqali namoyish qilinib kelinmoqda.

«Boysun» ansamblida voqelikka munosabatlari o'ziga xos ifodasini topgan. Mavso'm va marosim qo'shiqlari ijrochi tomonidan kuylashdan oldin, ma'rosimlarni uyushtiradilar. Ularning o'tkazilish tartiblarini ham, rasm-rusumlarini, kuy, qo'shiq va

raqslarni mavsumiy marosimlarga bag'ishlab sayqal berib, ijro etadilar. «Boysun» ansamblining o'ziga xos qiyofaga, xusiyatlarga ega bo'lishining mazmuni, xalqning tur mush tarzini, e'tiqodini, milliy ruhini, xarakterini chuqurroq ochishi va urf-odatlar, marosimlari ga qanchalik tayanishi esa mustaqillik tufayli bu jarayon kuchaydi.

«Quralay» bolalar folklor etnografik namunali xalq ansamblisi 1991 yilda tashkil etilgan. «Quralay» bolalar folklor etnografik namunali xalq ansamblisi badiiy rahbari Usmon Yuldashev ansamblining Quralay deb nomlanishini shunday ta'riflaydi. Ansambl sozandalari qadimiy cholg'u-asboblardan chanqovuz, sibizg'a, shuvilloq, dumbira, surnay, nay, doira kabi musiqa cholg'ularida, Surxon vohasiga xos urf-odat va marosimlarni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlarni ijro etib kelmoqda. «Quralay» bolalar folklor etnografik namunali xalq ansamblining milliy liboslari hamda ular tomonidan ijro etiladigan kuy-qo'shiq va raqslari bilan Surxon vohasiga xos bo'lgan urf-odat va marosimlarni o'zida mujassamlashtirgan asamblining liboslari ga nazar tashlar ekanmiz o'zimizning milliy kiyimlardan kelib chiqqan holda kashtali kiyimlar, lola gul do'ppi po'paklar, kovush, mo'kkilardan iborat.

Mustaqillik yillarda Boysunlik taniqli shoir-yozuvchilar ijodiga alohida e'tibor berilmoqda. Boysun tumanida milliy qadriyatlar, unitilgan urf-odatlardan targ'ib qilgan "Boysun bahori" ochiq Xalqaro folklor festivali YUNESKO homiyligida o'tgani munosabati bilan Boysun «Osmon ostidagi ochiq muzei» deb tan olindi. Boysunda saqlanib qolgan milliy qadriyatlar, qo'shiqlar, xalq hunarmandchiligi, urf-odatlari "Insoniyat nomoddiy merosi durdonasi" deb e'tirof etildi. Boysun tumanida 2002-2005 yillarda o'tkazilgan "Boysun bahori" festivalining barkamol avlodni tarbiyalashda, ahamiyati beqiyos bo'ldi. Boysun tumanida tug'ilib ijod qilgan va hozir ham samarali ijod qilayotgan O'zbekiston Xalq yozuvchisi marhum Shukur Xolmirzaevning 60 yillik va 70 yillik yubiley tantanalarining o'tkazilishi, Tojikiston Xalq yozuvchisi Sattor Tursunning 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan yubeley tantanalari ayniqsa, Boysunlik barkamol avlodlar qalbida yanada Vatanga iftixon, Vatan g'ururi tuyg'ularini o'stirdi. O'zbekiston Xalq shoiri Usmon Azimning respublikada xamda xorijiy mamlakatlarida o'zining hikoya va povestlari, kinosenariyalari bilan shuhrat qozonayotgan Erkin A'zamovning 60 yillik to'ylari munosabati bilan o'tgan tadbirlari yoshlar qalbida Vatan tuyg'usini mustahkamlamoqda.

TURKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARI FAOLIYATI HAQIDA

U.Jo'rabyoyev,
Nam DU «Tarix fanlari» kafedrasini magistranti

XX asr birinchi choragiga kelib Turkistonda ro'y bergan o'zgarishlar tufayli, o'lka xalqlari hayotida sog'liqni saqlash sohasi bilan bog'liq bir qator yangiliklar kirib kela boshladi. Bu davrga kelib aholi salomatligi, uning tibbiy masalalari bilan bog'liq tushunchalar, jiddiy ahamiyat kash eta boshladi. Ocharchilik, moddiy qiyinchiliklar odamlar salomatligiga salbiy ta'sir o'tkazganini inobatga olinadigan bo'lsa, qator kasalliklar epidemiyasi tusiga kira boshladi. O'lka bezgak, traxoma, rishta va boshqa kasalliklar ham ancha ko'p uchrar edi. Turkistonga ko'plab kelgan och-qochoqlar yuqumli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Yerli aholi shaharlardagi kasalxonalar, poliklinikalarga kam murojaat qilgan. Shuning uchun eski shaharlarda, qishloq joylarda tibbiyot punktlari tashkil qilina boshlandi, vrachlar, hamshiralalar sonini ko'paytirishga e'tibor qaratildi. Natijada o'lka xalqlari hayotida yangi tibbiy muassasalar, jumladan,

1920-yil Toshkentda silga qarshi dastlabki dispenser ish boshladi.¹¹⁸ Keyinchalik esa , 1924-yil Toshkentda teri-tanosil kasalliklari dispanseri Buxoroda tropik meditsina instituti¹¹⁹ tashkil etildi. Shu tariqa XX asr birinchi choragiga kelib Turkistonda faoliyat yuritayotgan umumiy tibbiyot va sog'lijni saqlash muassasaları soni – 53 ta kasalxonha – 2135 kishiga mo'ljallangan, 151 ta ambulatoriya, 40 ta feldsher-akusherlik punkti, 317 vrach, 292 ta vrach yordamchisi, 412 o'rta meditsina xodimi, shu jumladan, 118 ta akusherka, 5 ta ayollar va bolalar konsultatsiyalari, 2 ta sanitariya maorifini tashkil etdi¹²⁰.

Bu davrning o'ziga xos xususiyatlardan biri, mavjud barcha kasalxonalar, dorixonalar va boshqa davolash muassasaları davlat ixtiyoriga o'tkazilgandi. 1918-yilda Turkiston o'lkasidagi hamma sog'lijni saqlash hodimlari hukumat ro'yxatidan o'tkazildi. Sog'lijni saqlash bo'yicha markaziy va mahalliy organ hamda muassasalar tuzildi. 1917-yil 19-noyabrda tashkil etilgan Sog'lini saqlash xalq komissarligi qoshida prof. A.D. Grekov, N.I.Tixomirov, vrach A.P. Spiridov va boshqalardan iborat Kollegiya tashkil qilindi. Ayni vaqtida, mahalliy sharoitda keng tarqalgan kasalliklarga qarshi kurash avj oldi. Respublikada sog'lijni saqlash moddiy bazasi tashkil etildi. Toshkentdagı Poltaratskiy nomli kasalxona 100 o'ringa ko'paytirildi va ko'z, quloq, bolalarva asab kasalliklari bo'limi tashkil etildi. Respublikaning Samarqand, Qo'qon, Farg'ona shaharlarida maxsus kasalxonalar ochildi. Toshkentda xususiy fizioterepevtik kasalxona asosida 1922-yilda fizik usullar bilan davolaydigan Davlat instituti tashkil etildi.¹²¹ Sovet hukumati davrida Sog'lijni saqlash xalq komissarligi Markaziy hukumatga qilgan murojaatiga javoban o'lkaga Moskva, Peterburg, Xarkov, Kiiev va boshqa shaharlardan zarur tibbiy asbob-uskunalar jo'natildi. 1922-yil oktabr-noyabr Turkistonga 800 kg xinin, 3 ta mikroskop, 2 ta avtoklav, bakteriyalogik labaratoriya uchun zarur buyumlar va jarrohlik asboblari yuborilgan. Hammasi bo'lib 4 vagon har xil buyumlar, dorilar va tibbiyot jihozlari keltirildi. Bundan tashqari bu yillar davomida o'lkaga nafaqat sovet hukumati tomonidan , balki ayrim chet davlatlardan ham tibbiyot asbob-uskunalarini keltirila boshlandi. Xususan, Berlindan klinika jihozlari sotib olindi va bu jihozlar 1923-yilda Buxoro XSR hududiga joylashtirildi.

Zamonaviy tibbiyot sohasini o'rganish, xalq ommasini mavjud turli kasalliklarga qarshi salomatligini qayd etish va shunga o'xshash masalalarni hal etish maqsadida, XX asr 1-choragiga kelib yangi turdag'i tibbiyotga ixtisoslashgan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini tashkil etila boshlanishi ham aynan shu davrning o'ziga xos yutug'i bo'ldi. Garchi, chor hukumati davridan boshlab tibbiy muassasalar faoliyat ko'rsata boshlagan bo'lsada, ularning aksariyat ko'pchiligi chor hukumati ma'murlari va ularning askarlarini orasida faoliyat ko'rsatardi, xolos. Masalan, chor ma'muriyatining dastlabki faoliyat davrida, Turkistondagi o'z qo'shnulari manfaatini ko'zlab, 1868-yil Toshkentda harbiylar va amaldorlar uchun kasalxona, ya'ni lazaret tashkil etildi. Faqat 1880-yil Toshkentda hayriya yo'li bilan atigi 4 o'rinni tug'ruqxona tashkil etildi, ayollar va bolalarga mo'ljallangan ambulatoriyalar ochildi. XX asrning boshlarida Turkistonda xususiy tibbiy muassasalar paydo bo'la boshladi. Chunonchi, 1908-yilda Toshkentda A.N. Predtchenskaya ismili shifokor xususiy ayollar shifoxonasini ochdi. 1909-yilda aka-uka Monsey va Solomon Slominlar Toshkentda birinchi bo'lib xususiy fizioterepeya ixtisoslashgan shifoxona ochdilar. Shuningdek, 1920-yil 7-sentabrda tashkil etilgan Turkiston davlat Universiteti tarkibida ham tibbiyot fakul'teti ochilgan bo'lib, bu fakultet rus

¹¹⁸ Salomatlik ensiklopediyasi. Toshkent. 1985. 382- bet.

¹¹⁹ Hozirgi Samarqanddagı meditsina parazitologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

¹²⁰ Salomatlik ensiklopediyasi. Toshkent. 1985. 382- bet.

¹²¹ Hozirgi Semashko nomidagi Kurortologiya va fizioterepiya ilmiy tadqiqot instituti

ofitserlarini tayyorlaydigan sobiq kadet maktabi binosiga joylashtirildi. Shu yerda 400 o'rinci kasalxonha ham ochildi. U fakul'tenting o'quv bazasi bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib 1920-yil 7-sentabrda O'zbekistonda birinchi oliy tibbiy bilim yurtiga asos solindi.

1931-yilda tibbiyot fakul'teti mustaqil institut bo'lib ajralib chiqdi. 1930-yilda esa Samarqandda ikkinchi tibbiyot oily o'quv yurti ta'sis etildi. 1932-yilda toshkentda vrachlar malakasini oshirish instituti ochildi. Bundan tashqari yurtimizda bu davrga kelib, 1918-yilda „Musulmon tibbiy maktabi” deb ataluvchi o'rta tibbiy xodimlar tayyorlovchi maktab tashkil etildi. So'ng u Respublika o'rta tibbiy xodimlar maktabi¹²² ga aylantirildi.¹²² 1937-yilda Toshkentda farmasevtika instituti ochildi.

Bu vaqtidagi muhim masalalardan biri aholining sanitariya madaniyatini yuksaltirish edi. Shu maqsadda 1929-yil mart oyidan boshlab, rasmlar bilan bezatilgan „Sog'lom turmush” nomli jurnal nashr qilindi. Bundan tashqari, „Qizil O'zbekiston” gazetasiga bepul ilova sifatida „Sog'liq varaqasi” ham chiqarib turildi. Ularda aholiga salomatlikni saqlash uchun nimalar qilish kerakligi haqida maslahatlar, tavsiyalar berilgan. Har xil kasalliklarning oldini olish yo'llari ko'rsatilgan. XX asr 30-yillardan boshlab respublikada yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi va turli xil konklarni tashkil etilishi natijasida yirik korxonalar qoshida maxsus tibbiyot-sanitariya qismi (MSQ) tashkil etildi. Bu qismi tarkibiga kasalxona, poliklinika, sanatoriy-profilaktoriylar kirardi. Vaqt-i vaqt bilan korxonalarining ishchi-xizmatchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, dispanserizatsiya qilib turilgan. Anaa shunday say-harakatlar tufayli respublikada nisbatan sog'liqni saqlash muassasalariga bo'lgan e'tibor va ularning moddiy bazasi bir oz mustahkamlandi. Natijada, O'zbekiston hududida 2594 ta yuqori malakali vrach, 11536 tao'rta tibbiy xodim, 244 ta tish doktori aholiga tibbiy xizmat qilish bilan shug'ullanar edi. Kasalxonalar soni 368 taga, ulardag'i o'rinalar soni 19498 taga yetgan edi.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ ПО ИСТОРИЧЕСКОЙ КАРТЕ

*Бахриддинов Шохруҳ
Нам ГУ студент 4 курса направление история*

Исторические события происходят как во времени, так и в пространстве. Лишь в связи с определенными пространственными условиями могут быть поняты многие исторические события. Отнесение событий к конкретному пространству и описание географической среды, в которой оно произошло, называется локализацией.

Локальность исторических событий изучается при помощи таких схематических пособий, как исторические карты, планы местности, картосхемы. Все они применяются для демонстрационных целей и помогают выявить связи между историческими событиями, их сущност и динамику. Схематические пособия применяются как источник исторических знаний и как средство их систематизации. Особое место занимают контурные карты, помогающие в усвоении исторического материала.

В отличие от других наглядных пособий, например учебных картин, карты не дают конкретизированного наглядного представления о событиях, а лишь воспроизводят пространственно-временные структуры, используя абстрактный язык символов.

Исторические карты создаются на географической основе и представляют собой уменьшенные обобщенные образно-знаковые изображения исторических

¹²² A.A. Qodirov O'zbekistonda tibbiyotning vujudga kelish tarixi, rivojlanishi va taraqqiyoti. 155-bet

событий или периодов. Изображения даются на плоскости в определенном масштабе с учетом пространственного расположения объектов. Карты в условной форме показывают размещение, сочетания и связи исторических событий и явлений, отбираемых и характеризуемых в соответствии с назначением данной карты¹²³.

Исторические карты отличаются от географических. Привычные учащимся цвета географических карт получают иное значение на исторических картах. Зеленым цветом показывают не только низменности, но и оазисы, а также древнейшие районы земледелия и скотоводства. Другая особенность исторических карт – раскрытие динамики событий и процессов. На географической карте все статично, а на исторической легко увидеть возникновение государств и изменение их территорий или пути движения войск, торговых караванов и т.д. Передвижения людей на карте показывают целые и прерывистые стрелки; военные удары – стрелки с более коротким древком и широким основанием; места сражений – скрещенные мечи, районы восстаний – точки.

Исторические карты подразделяются по охвату территории (мировые, материковые, карты государств); по содержанию (обзорные, обобщающие и тематические); по своему масштабу (крупномасштабные, средне- и мелкомасштабные). На обобщающих картах в пределах определенного места и времени отражены все основные события и явления, предусмотренные разделами школьной программы и Госстандарта. В названии указано место и время событий. Обзорные карты показывают события определенного периода.

Обобщающие карты конкретизируют и более подробно раскрывают карты тематические. Последние так называются, потому что на них отражены события и явления учебных тем. На географическом фоне тематических карт отображены отдельные события или стороны исторического процесса. Эти карты разгружены от обозначений, не имеющих отношения к теме. На них более подробно, ярко и красочно представлены фрагменты важнейших событий и явлений обобщающих карт.

При работе с картами следует учтеть, что учащимся бывает сложно соотнести общую и тематическую карты. Поэтому на уроке в начале изучения темы следует иметь две карты, показывающие местоположение того или иного объекта (государства) на общей карте, например карте мира, а потом уже на тематической. Применение карт целесообразно с использованием разных видов наглядности, например апликаций¹²⁴.

В старших классах карта выполняет роль источника исторических знаний, поэтому и задания учащимся должны иметь более глубокий, аналитический характер. Целесообразно применение проблемных заданий по карте.

Исторические события происходят как во времени, так и в пространстве. В истории пространственно-временные связи «выражаются в утверждениях, что после такого-то события в таком-то месте произошло нечто, что такие-то события имели место в то же самое время в других местах или какой-то процесс продолжается в какой-то стране (месте) столко-то лет»¹²⁵.

¹²³ Запорожец Н. И. Развитие умений и навыков учащихся в процессе преподавания истории (5 – 8 кл.). – Москва: Просвещение, 1992. – С.14.

¹²⁴ Вяземский Е.Е., Стрелова О.Ю., Короткова М.В., Ионов И.М. Историческое образование в современной России. — Москва: Просвещение, 1997. – С.72.

¹²⁵ Гора П.В. Повышение эффективности обучения истории в средней школе. — Москва: Педагогика, 2000. – С.41

Лиш в связи с определенными пространственными условиями могут быть поняты многие исторические события. Отнесение событий к конкретному пространству и описание географической среды, в которой оно произошло, называется локализацией. Так, значение рек как путей сообщения в Древнем мире ученики поймут лишь в том случае, если им объяснит, что Восточно-Европейская равнина была покрыта непроходимыми лесами и болотами.

Локальность исторических событий изучается при помощи таких схематических пособий, как исторические карты, планы местности, картосхемы. Все они применяются для демонстрационных целей и помогают выявить связи между историческими событиями, их сущност и динамику. Схематические пособия применяются как источник исторических знаний и как средство их систематизации.

В отличие от других наглядных пособий, например учебных картин, карты не дают конкретизированного наглядного представления о событиях, а лишь воспроизводят пространственно-временные структуры, используя абстрактный язык символов.

Глобальные изменения, произошедшие с тех пор в системе общего среднего образования, его личностно – ориентированная и практическая направленность, предопределили необходимость переориентации системы картографических знаний и умений с изучения теоретических основ картографии на обучение «пользователя» исторической информации, т. е. на преимущественное освоение практически значимых умений.

Присутствующая сегодня в школе система картографических знаний и умений, кроме того, отражает во многом устаревшие представления о картографической науке. В современном информационном обществе приоритетное развитие получили науки, так или иначе связанные с хранением, систематизацией, передачей и отображением информации. Важное место в числе таких наук занимает картография. Испытывая острый интерес общества к увеличению средств передачи информации, улучшению их качественных характеристик и методов использования, современная картография претерпела значительные изменения. Эти изменения еще не нашли своего отражения в школном историческом образовании.

Odiljon Topildiyev,

Nam DUMilliy g'oja, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

Bugungi globallashuv davrida barkamol avlod haqida qayg'urish, sog'lom, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashga intilish jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifadir. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir"¹. shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridan oq yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunda yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. shuningdek, 1997 yili 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi, "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili", "Mustahkam oila yili", "Sog'lom bola yili" davlat dasturlari, 2014 yil 6 fevralda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-2124-sonli qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar sog'lom, ma'naviyati yuksak barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Darhaqiqat, "mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitida kamol topgan yosh barkamol avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda"². shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash faqat davlat organlari, o'quv yurtlarini emas, balki keng jamoatchilikning ishtirokini ham talab qiladi. Bu o'rinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rini "Biz yoshlarimiz tarbiyasini birovlarga berib qo'yamaymiz"³. Darhaqiqat, yoshlar tarbiysi faqat mакtabda yoki oilada emas, balki butun jamoatchilik oldidagi o'ta muhim vazifadir. Bugun bizga bitiruvchilar emas, balki mакtab ta'limi va tarbiyasini ko'рган ma'naviyati teran, o'z fikriga ega yoshlar kerak. Ushbu muhim strategik vazifani hal qilish hozirgi kunda ko'p jihatdan oila, mahalla, umumta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyatni institutlarini birgalikda samarali ish olib borishini talab etadi.

Yoshlar ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nkmalar majmui asosan oilada shakllanadi. shu ma'noda, oila - haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy tarbiyaga xos ilk tushunchalar yoshlar ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng qulay yo'li - avvalo ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak ma'naviy

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 11

² Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir //Xalq so'zi, 2012, 8 dekabr.

³ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 28

dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'rifatli, mustaqil fikrli va barkamol inson bo'lib kamolga yetadi.

Yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiya mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrimadolatsizliklar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ta'sir etishi mumkin. shuning uchun yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim.

Yoshlarning xulq atvoriga, ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar asosan quyidagilari:

- turli xayosiz, pornografik mazmundagi axborot vositalari (qo'l telefonlari, disklardagi filmlar, kliplar, rasmlar va x.k.);
- "ommaviy madaniyat"ga qiziqishning ortishi;
- nosog'lom turmush tarzi;
- ota-onalarda tarbiyaviy saviyaning pastligi;
- nazoratsizlik va qarovsizlik (ijtimoiy yetimlik);
- ta'llimga bo'lgan qiziqishning pastligi;
- farzandni ota-ona tomonidan xaddan tashqari erkalatish;
- moddiy muammolar tufayli kelib chiqadigan ziddiyatlar;
- bo'sh vaqtning besamara o'tishi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, yoshlarning ma'nani yetuk, jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishi uchun avvalo ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni bartaraf etishimiz lozimdir. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, mahalla, umuman har bir fuqarodan mas'uliyat va fidoiylikni talab etadi.

Bugungi kunda tarbiyaning barcha yo'nalishlari va sohalarining yaxlitligini talab etadigan tarbiyaviy ishlarga kompleks sistemali yondashuvni ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, yoshlarda ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirish masalasini kun tartibiga qo'yamoqda.

Shuningdek, jamiyatni modernizatsiya va liberallashtirish jarayonlaridan kelib chiqqan holda yosh barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalash samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish maqsadiga muvofiq:

1. Yoshlarga oid faoliyat bilan shug'ullanadigan nodavlat tashkilotlar, harakatlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

2. Yoshlar faoliyati bilan bog'liq ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish va bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish, mahallalarda yoshlarga ibrat bo'ladigan urf-odat, an'analarini keng targ'ib etish maqsadida televiedenie, radio, ommaviy axborot vositalari orqali muntazam chiqishlar tashkil etish;

3. Maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatini yanada jonlantirish;

4. Yoshlar turmush tarzi, ruhiyati va qiziqishlarini davomli o'rganadigan psixologik markazlarni tashkil etish va ular ishini maxsus reja, dastur asosida olib borish;

5. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini kuchaytirish va ota-onalar kunini tashkil etish;

6. Yoshlar ishtirokida "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qiluvchi kinofilmlar, multfil'mlar, video roliklar, qo'shiqlar, rasmlarni tarbiyaviy ahamiyatini tanqidiy tahlil etish va yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish;

7. Milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda yoshlarning yosh davrlari xususiyatini hisobga olish va ularda mehnatsevarlik, intizom, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish;

8. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samaralı tashkil etish uchun foydali mashg'ulotlarga keng jalb qilish va turli ilmiy hamda sport to'garaklari faoliyatini rivojlantirish;

9. Yoshlar nazoratini amalga oshirish uchun oila, mahalla, ta'lim muassasalarini hamkorligini yanada keng yo'lga qo'yish va ularda "ochiq muloqot kuni"ni belgilash;

10. Yoshlarda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlash uchun ularni narkomaniya, ma'naviyatsizlik, o'zga yot madaniyatlar, tahdidlar va tashqi ta'sirlardan saqlash maqsadida mahallalarda, ta'lim muassasalarida doimiy ravishda yoshlarni o'rtaida terrorizm, missionerlik, giyohvandlik kabi salbiy holatlar bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish;

11. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlatni, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularda tibbiy savodxonlikni oshirish;

12. Ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik-pedagogik va fiziologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirdarni amalga oshirish;

13. Yoshlardagi ijtimoiy faollik, o'z ustida mustaqil ishslash, yangilikka intilish, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash va yoshlarni tadbirdorligiga yanada keng imkoniyatlar yaratish;

14. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida targ'ibot-tashviqot ishlari ni tizimli va manzilli tashkil etish;

15. Yoshlarda atrof-muhit va ekologiyaga ongli munosobatini tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirdarni mahalla va ta'lim muassasalarini hamkorligida doimiy o'tkazish lozim.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, xilma-xil usullarda olib borilayotgan ta'lim va tarbiya ishlari jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yangi ming yillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, balki intellektual salohiyati yetuk va yuksak ma'naviyatli yoshlarni hal qiladi. shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatda ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi, uzbekligini ta'minlash borasida samarali ishlarni amalga oshirilmoqda.

O'TMISH ALLOMALARIMIZNING AXLOQIY QARASHLARI

Akmaljon Abdullayev

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston bugungi kunda o'zi tanlab olgan taraqqiyot yo'lida ildamlab borayotgan mustaqil mamlakatdir. Mamlakatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishimizga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni o'zi hal etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Milliy-ma'naviy tiklanish yo'lidagi harakatlarni xalqimiz to'g'ri tushunib, tanlab olgan taraqqiyot va yuksalish yo'limizni ongli ravishda qabul qildi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi tarixiy bosqichi kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishni ma'naviyatimiz zimmasiga yukladi. Komil insonni voyaga yetkazish oson emas. Odob-axloqli, madaniyatli komil inson birinchi navbatda o'z Vatanini, milliy tili, urf-odatlari, tarixi, marosimlarini sevmog'i, avlod-ajdodlari yaratgan ilmu hunar javohirlarini egallamog'i, umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo'lmog'i lozim. Bu nihoyatda murakkab va ancha qiyin ish, albatta.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, komil insonlarni voyaga yetkazish bo'lgan intilishlar insoniyat tamadunining ma'no-mazmunini tashkil etganligini ko'otsak bo'ladi. Insoniyat tarixining barcha davrlarida komillikning eng aso ko'rsatkichi insonning egzilikka, ijtimoiy baxt-saodatga bo'lgan intilishida namoy bo'ladi, ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat tamaduniga ijobiyligi ta'ko'rsatuvchi komillik mezoni shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni baht-saoda qilishdan iborat bo'lib kelgan. Insondag'i komillik, eng avvalo uning fikri, tafakkru amaliy faoliyatda ekanligini anglashdir.

Komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda ajdodlarimizning axloqiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy meros hamma zamonlarda ham o'zida jamiyat xos bo'lgan barcha o'zgarish va ziddiyatlarni aks ettirib kelgan. Axloqiy meros ijtimoiy tur mushning oddiy yoki kundalik qoidalarini bo'lib, ular bir necha ming yillardan mobaynich shakllanib vujudga kelgan. U bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga "sof" holda o'tmaga Ulardan ba'zilari yangi sharoitda yashay olmasliklarini ko'rsatgan. Boshqalari esa o navbatida salbiy rol o'ynagan. Ayrimlari zamonlar almashuvli bilan o'z mohiyatini mazmunini yo'qtgan. Ayrimlari esa, davr ruxi ta'siri ostida qayta o'zgarilish takomillasib, xalq ma'naviy-madaniyatining mustahkam xazinasini boyitgan.

Donishmandlar peshvosi Zardo'sht tomonidan yaratilgan "Avesto"da o'z dav uchun muhim bo'lgan ma'naviy-axloqiy tamoyillar, pandnomalar, hikoya va rivoyatla bayon etilgan bo'lib, ular xozirgi kunda mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikani fuqarolarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim omillardan biriga aylangan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda falsafiy-axloqiy ta'limot asoschilaridan biri Abu Nas Forobiydir.¹ U fanning barcha sohalariga qiziqqan, nodir asarlarni yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan.

Forobiy axloqiy merosining muhim xususiyatlaridan biri axloqiy kamolotni "baxt" tushunchasi orqali bayon etganligidadir. "Baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'lli barcha ezgu ishlarni xayrli niyatlar ila bajarish, fazilatli amallarga tayanish barobaride razolat va baxtsizlik kelib chiqarishi mumkin bo'lgan ishlardan o'zini tiya bilishdir... Fazilatning jozibasi uning xayrli amallar ildizidan kelib chiqqanligidandir..." Ushbu dalilga ko'ra, baxt-saodat xayrli amal va fazilat bilan uzviy bog'liqdir² - deb ta'kidlaydi mutafakkir.

Forobiy axloqiy merosining bu xususiyatlari keyingi davr mutafakkirlari axloqiy fikri rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu hol Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Pahlavon Mahmud kabi qator mutafakkirlar falsafiy-axloqiy merosida yaqqol ko'rindi.

Beruniy axloqiy merosining muhim xususiyatlaridan biri, xalqlar o'rtasidagi do'stilikni ulug'lashdir. U o'zining «Hindiston» asarida turli dinlarga e'tiqod qiluvchi musulmonlar va hindlarni do'st bo'lib yashashga chaqirdi. Alloma xindlarning urf-odati, tur mush tarzi va marosimlarini chuqur o'rgandi, ularga hurmat bilan qaradi.

Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, ular ongiga singdirish shularga qaratilmog'i lozim. Busiz barkamol insonga xos bo'lgan axloqni shakllantirish og'ir kechadi. shuning uchun barkamol insonning axloqiy tarbiyasi milliy g'oya va milliy g'ururga qaratilmog'i lozim. Ularda mustaqillikni mustaxkamlash milliy iftixor g'oyalarini shakllantirishga yo'naltirilmog'i kerak. Milliy g'oya va milliy g'ururi yuksak bo'lgan insonlar ma'naviyati xam yuksak bo'lib, ular xalqning yordamchi vakiliga aylanib, boshlariga qilich kelsa-da e'tiqod-imonlarini sotmaydilar.

¹ Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Toshkent: 2001, B.12

Barkamol inson ma'naviy kamoloti ijtimoiy hayotdagi eng murakkab soha hisoblanadi. Uning kamolot darajasiga ko'tarilishi uchun turli yo'llar va omillar taqozo etiladi. Ana shunday omillardan biri, Prezidentimiz aytganlaridek, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, axloqiy merosga ijobiy munosabatdir.

Kishilarning ma'naviy axloqiy tarbiysi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

SURXONDARYODA YOSH AVLOD TARBIYASI DA TA'LIM TIZIMINING AHAMIYATI

*Malikov Anvar
Termiz DU 2- kurs magistranti*

Surxondaryo viloyati xalq ta'limi tizimi mustaqillik yillarda katta ijobiy natijalarga erishib, zamonaviy maktablar, maktabgacha tarbiya, maktabdan tashqari tarbiya sohasi bilan shug'ullanuvchi sport va sog'lomlashtirish muassasalari qurib ishga tushirildi. Amalga oshirilgan islohotlar tufayli tumanlarda, tog'li hududlarda zamonaviy moddiy- texnika ta'minotiga ega bo'lgan tarbiya muassasalari tuliq jihozlanib, yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilindi. O'zbekistonda milliy mustaqillikni qo'lga kiritishlishi natijasida xalqimiz ma'naviy va ma'rifiy hayotida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Chunonchi, ana shu davrdan e'tiboran yosh avlodni tarbiyalash usullari va yo'nalishlarida milliy ruhiyatimizga mos tomonlar ishlab chiqildi, yosh avlodni tarbiyalashning yangi tizimi qaror topa boshladi. Xalqimiz qo'lga kiritgan istiqlol hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli yosh avlodga ta'lif va tarbiya berishning ko'plab ijobiy usullari, milliy dunyo-qarashimizga hamohang bo'lgan tizimi qaror topa boshladi.

O'zbekistonda xalq ta'lmini moddiy jihatdan qullab- quvvatlanishi natijasida yoshlarga berilayotgan ta'lif va tarbiyaning qay ahvolda ekanligi bilan belgilanadi. Chunki har tomonlama rivojlangan yoki rivojlanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan davlat, avvalo, bo'lg'usi avlodning yuksak darajada malakaga ega bo'lishi uchun har tomonlama g'amxo'rlik qilmog'i lozim. Xalqimiz qo'lga kiritgan istiqyaol sharofati bilan respublikamiz xalq ta'limi tizimi ham har tomonlama yangilanish jarayonini o'z boshidan kechirmoqtsa. Chunonchi, o'tgan yigirma ikki yil davomida xalq ta'limi va tarbiya berishning yangayangi usullari ishlab chiqilib hayotga tatbiq etildi. Yosh avlodni jahon jamoatchiligi talablariga javob beradigan darajada qilib tarbiyalash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Ta'lif-tarbiya maskanlarining miqtsor va sifati o'zgardi, umumiyy mакtablar bilan bir qatorda maxsus ixtisoslashgan mакtablar, litsey va gimnaziyalar tashkil etildi. shuni qayd qilib o'tish joizki, viloyatda faoliyat ko'rsatib, yoshlarga ta'lif va tarbiya berayotgan ziyo maskanlari xisoblangan umumiyy ta'lif mакtablarining miqdori yildanyilga ortib bormoqda. Chunonchi, 1990-91 o'quv yilida viloyatda 652 ta umumiyy ta'lif mакtabi faoliyat ko'rsatdi, 2011-2012 o'quv yilida esa ularning soni 878 taga yetdi.

Surxondaryo viloyat xalq deputatlari kengashining navbatdan tashqari 2008 yil aprely oyida chaqirilgan sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov viloyatda yig'ilib qolgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qatorida ta'lif tizimidagi jumboqlarni ham ro'y-rost ko'rsatib bergen edi. Mamlakatimiz rahbari viloyat faollarining yig'ilishida viloyatdagi 43 ta mакtabning ahvoli xarob ekanligini, 483 ta mакtabda esa o'qish ikki smenada olib borilayotganligini qattiq tanqid ostiga olgan edi. 2008-2010 yillarda 1700 o'rinali 38 ta mакtablar to'la qayta ta'mirlandi. Bu mакtablarning 10 tasi ilgari xarob holatda bo'lgan mакtablar o'rnila qurildi, 43 ta

maktab qoshida esa 820 o'rini qo'shimcha sinf xonalari qurildi, shuningdek, yaroqsiz holga kelib qolgan 14 ta maktab yangitdan qurildi. 1993–1994 yillar oralig'ida viloyatda qurilgan maktablar butun respublikada buniyod etilgan maktablarning to'rtdan bir qismini tashkil qilishi ham ushbu bir yil mobaynida viloyat xalq ta'limgiz tizimiga katga e'tibor berilganidan dalolat beradi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov yangi davr sharoitida ta'limgiz tizimida islohotlarning zarurligi haqida to'xtalib. "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi islohotlarimizning pirovard maqsad yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qili borishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlancha insonni tarbiyalash, ta'limgiz va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g'oyasini ro'yobg' chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan bu bo'lib qoladi", deb bejiz ta'kidlamagan edi. Zero, ta'limgiz tizimida tub islohotlar o'tkazmasdar uni eski tuzum qoddigilaridan tozalamasdan, jahon ta'limgiz andozalariga ko'tarmasdan turit O'zbekistonning mavqeini oshiradigan, har tomonlama bilimdon va barkamol insonlarni voyaga yetkazib bo'lmaydi.

Respublikamiz xalq ta'limi sohasida bo'lgani singari viloyatimiz xalq ta'limi tizimida har keyingi yillarda sifat va miqdor o'zgarishlarga erishildi. Buni quyidagi misol orqali bilib olis mumkin: agar 1991 yilda viloyatda faoliyat ko'rsatgan 714 ta umumiy o'rta ta'limgiz maktabid 335658 nafar o'quvchi ta'limgiz olgan bo'lsa, 1997 yilda 772 ta maktabda 411686 nafar o'quvchiga ta'limgiz oldi yoxud 2000–2010 o'quv yilida umumiy o'rta ta'limgiz maktablarining soni 87 taga, ushbu maktablarda ta'limgiz olayotgan o'quvchilar soni esa 466772 nafarga yetdi. Oraliqdagagi o'n yil mobaynida maktablar soni 66 taga, o'quvchilar soni esa 131144 tag ortdi. Yangi turdagiga ta'limgiz muassasalarini ochishga ham alohida e'tibor berildi. 1993–94 o'quv yili mobaynida viloyatda tashkil etilgan 6 ta litseyda 1000 nafar o'quvchi, maktablar qoshidaq litsey sinflarda 541 nafar o'quvchi, 443 ta maktabda esa chuqurlashtirilgan reja asosida 169 nafar o'quvchi tahsil ola boshladи. Bu davrda viloyat maktablarida yosh avlodga ta'limgiz tarbiya berib kelayotgan o'qituvchilar soni ham yildanyilga ortib bordi. Buni quyidaq misol orqali ham bilib olish mumkin. Agar 1990–91 o'quv yilida viloyatdagi jami umumiya ta'limgiz maktablarida 25200 nafar o'qituvchi mehnat qilgan bo'lsa, 1992–93 o'quv yilida b ko'rsatkich 27700 nafarni, 1993–94 o'quv yilida esa 29100 kishini tashkil qildi. Shuningdel o'tgan davr mobaynida viloyat maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarining ma'lumdarajasi ham anchagina yuksalib bordi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'limgiz to'g'risida" qonunini hayotga izchil jalb etayotgan viloyat xalq ta'limi xodimlari ham keyingi yillarda qator yutuqlarga erishdilar. Xususan, ana shu davr oralig'ida yangi, zamona viy hamda jahon talablariga mos tarzda yoshlarga ta'limgiz beradigan o'quv dargohlari buniyod etildi. Ana shunda o'quv dargohlaridan litsey-gimnaziya va chuqurlashtirilgan maktab-internatlarning ochilishlari yuqoridaq fikrimizning isbotidir. Mana, bir necha yıldırki, Al-Hakim at-Termiziyy nomidagi viloyat yosh matematiklar va fiziklar maktabinternati murabbiylari yoshlarga aniq fanlari samarali usullar asosida o'rgatayotgan bo'lsalar, Termiz iqtidorli bolalar litseyi murabbiylari esa viloyatning yuzlab ilmga chanqoq bolalariga jahon tili hisoblangan ingliz tilini, informatik asoslarini hamda iqtisodiy bilimlarni o'rgatishda qator yutuklarni qo'lga kiritdilar.

AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI VA TA'LIM TIZIMINING CHEKIZ IMKONIYATLARI

Soliyev Bekzo,

NamDU Ijmotimoiy-iqtisodiy fakulteti tarix yo'nalishi 4- kurs talaba

Hozirgi davrda ta'limgiz tizimi rivojini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi ayniqsa, "yangi pedagogik texnologiyalar" tushunshasi ham mana shu asrimiz mo'jizasini sabab mazmunan boyib, yanada rivojlanib bormoqda.

Ma'lumki, birligina shaxsiy kompyuterning paydo bo'lishi bilan ta'limgiz tizimi imkoniyatlari tubdan o'zgarganligi bugungi kunda barchaga ma'lum. Internet ta'limgiz tizimi, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada katta imkoniyatlarni beradi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ta'limgiz tizimini isloh qilish birinchi navbatda ilg'or axborot texnologiyalarini ta'limgiz va tarbiya tizimiga tatbiq etish bilan bog'liq. Ma'lumki

axborot kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektraloqasi va optoelektronika – mikroprosessorlar, yarim o'tkazgichlar va optik tolali kabellar sohasidagi kashfiyotlar bilan bevosita aloqador.

Bu kashfiyotlar juda katta hajmli axborotlarni qayta ishlab chiqish va saqlash hamda ularni kommunikatsiya tarmoqlari bo'ylab tezda tarqatishga imkon beradi. Kompyuterlarning ulanishi va bir-biri bilan aloqada bo'lishlari uchun sozlanishi yangi qudratli texnologik tuzilmani – umumiy protokoldan foydalanuvchi axborot tizimlarini yaratadi. Ular insonlarni, ularning uylarini va muassasalarini birlashtiradi va juda qisqa vaqt mobaynida katta sonli topshiriqlarni bajaradi. Bu axborotdan foydalanish xususiyatlarni va kommunikatsiya tuzilmalarini tubdan o'zgartiradi.

Shu bilan birga, kompyuterlar yer kurrasining har qanday nuqtasi bilan aloqa o'mata oladi. Ta'lif tizimi uchun ta'lif muassasasi bilan talabalar, ota-onalar, o'quvchi va o'qituvchilar, shu sohaga bog'liq barcha o'rtaida aloqalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yangiligi va o'ziga xosligi inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan doirada va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insonning rivojlanishi jarayonida uchta asosiy yo'nalishda to'siqlarni ilgari mumkin bo'lмаган katta samara bilan yengi bo'tishga imkon beradi:

1) Bilim olish yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish insonning imkoniyatlarini shakllantirish uchun ta'lif kabi muhim ahamiyatga ega. Agarda ta'lif kognitiv ko'nikmalarini rivojlanishiga olib kelsa, axborot bilimlarni to'plash jarayoni mazmunli jihatini ta'minlashu chun zarur. Internet va "Jahon axborot tarmog'i" turli yoshdag'i va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar, barcha insonlar uchun axborotlar izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etishni ta'minlash yo'lida to'siqlarni yengish. Internet orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyatlari oxirgi yillarda ko'plab dolzarb fuqarolik tashabbuslarini amalga oshirishga imkon berdi, misol uchun ta'lif sohasida qayta aloqani ta'minlash harakati amalga oshirilmoqda.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ular bilan bog'liq sohalar ta'lif sohasining ham eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlari hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborot va aloqlarga, electron pochta, electron kutubxonalardan foydalanishni keskin kengaytiradi – saytlar ta'lif tizimi uchun cheksiz imkoniyatlarga ega, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkoniyatlarini yaratadi.

AT vositalari bilan muhim bilimlar bo'yicha axborot bazasi to'planishi mumkin, bu foydalanuvchilarni yangi ijodiy izlanishlarga undaydi. Bu maqsad uchun talabalarga qulay axborot bazasi ham, shuningdek, bir o'quv muassasasi ichida hamda boshqa ta'lif muassasasi talabalari o'rtaida tajriba almashish imkonini beruvchi ta'lif muassasasi Web-resursi xizmat qilishi mumkin. Ijodiy ishlamalar virtual klub iqtidorli foydalanuvchilarni birlashtirishga imkonberadi.

Ta'lilda AT vositalaridan foydalanish olamni global tarzda ma'naviy, ijtimoiy, yaxlit anglashni rivojlantirishi kerak. Hozirgi vaqtida juda katta sonli Internet resurslari, shujumladan, shubhalixususiyatdagi ham mavjud. Shu sababli ham foydalanuvchilarda tarmoqdagi xavflarni to'g'ri tasavvur qilish, ularda yaxshilik, tinchlik, inson qadri va huquqlariga hurmatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi g'oyalarga asoslangan resursga qarshi immunitetni shakllantirish kerak. Ulardan foydalanishda talabalarning axborotni to'g'ri qabul qilishlari, ularning psixologik xususiyatlari va kompyuter oldida o'tkazilgan vaqt sanitار-gigiyenik me'yorlari bilan tanish bo'lishlari zarur.

TILNING SALOHIYATI

*A.M.Jabborov professor, I.A. Jabborov o'qituvchi,
Qarshi Davlat Universiteti*

Insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi va uning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida tilning ahamiyati beqiyosdir. Abu Nasr Forobiyning (873-950) ta'kidlashicha, kishilarning dastlabki etnik guruhlari shakllanishida til hal qiluvchi rol o'ynagan. Birlashish uchun kishilar bir hududda qo'shni bo'lib yashashi, bitta tilda gaplashishi kerak edi. Shuning uchun ham til va hududning birligi odamlar tirikchiligining asosiy sharti va tabiiy zarurati bo'lib, ayni paytda etnos (millat)ning shakllanishi va rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblangan¹.

Turmush tarzi va etnosning o'ziga xosligi sababli u yoki bu til mavjud narsalarni ifodalashga moslashgan. Agar mazkur soha millatning turmush tarzida mavjud bo'lmasa, u tilda ham ifodalanmagan.

Turli milliy tillarda fikrni tegishli tarzda ifodalashga turlicha talablar qo'yilgan. Shuning uchun ham boshqa-boshqa tillarda so'zlashadigan kishilar bir-birlari bilan aloqa qila olmaganlar va birgalikdagi harakatning amalga oshirilishi amri mahol bo'lgan. Tildagi axborot ayrboshlash vositasi sifatida qo'llaniladigan belgilar, jumladan, so'z, imo-ishora, ieroglif va hokazolar zamiridagi mohiyat munosabatda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo'lgan taqdirdagina axborot ayrboshlash mumkin bo'ladi. Mohiyat belgining tevarak-atrofdagi voqelikni ifoda etadigan qismi sifatidagi mazmunga ega bo'lgan jihatdir. Belgilar insonning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi. Jumladan, so'zlar voqelikdagi muayyan *bir* narsa yoki *hodisaniнg* mohiyatini ifoda etadi. Odam u yoki bu so'zni ishlatganda uning o'zi ham, uni tinglayotgan kishilar ham ayni bir narsa yoki *hodisani* nazarda tutishi kerak, aks holda anglashilmovchilik yuz beradi.

So'zlar-belgilar tizimi sifatida hayot mazmunini, ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va uzatish vositasi bo'lib, tilni tarkib toptiradi. Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etmasligi bilan doimiy ravishda to'ldirilib turadi va natijada fikr ayrboshlash yoki axborot almashish jarayoni ro'y beradi.

Ana shu tarzda nutq yordamida aloqaga kirishish orqali mohiyatlar sistemasi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Beruniy ta'biri bilan aytganda, «...Qadingi odamlarda turli xohishlarini ifodalash uchun zarur bo'lgan so'z va iboralar ehtiyoj tug'ilgan. Zamonalr o'tishi bilan so'z va iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan»². Til yordamida odamlarning o'zaro munosabatga kirishish jarayonining, ya'ni nutqning yuzaga kelishi kishilik jamiyatni taraqqiyoti tarixida sifat burilishi bo'lgan.

Yozma nutq og'zaki nutqdan keyin shakllangan. U bir-biridan makon va zamon bilan ajralib turuvchi odamlar o'rtaida munosabat qilish ehtiyojinining natijasi sifatida paydo bo'lgan va kishilar fikri shartli sxematik suratlar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlangan³. Yozuv tufayli odamlar to'plangan tajribani avloddan-avlodga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Insonga xos psixik jarayonlar va psixologik xususiyatlar kabi, nutqni egallash va undan foydalananish mahorati ham odamni tug'ilganidan so'ng faqat ijtimoiy muhitda,

¹ Xayrullaev M. Farobi va uning falsafiy risololari.- Toshkent: 1963. - 261 bet.

² Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. - Toshkent: Fan, 1968.- 231 bet.

³ Umumiyl psixologiya /A.V.Petrovskiy tahriri ostida.- Toshkent: O'qituvchi, 1992.-142 bet.

odamlar bilan bo'ladigan o'zaro muloqotlar jarayonida, mashaqqatli ta'lif-tarbiyaning ta'siri ostida shakllanib rivoj topadigan murakkab aqliy faoliyatdir.

Nutqni egallash va undan foydalanish jarayonida shakllanadigan nutq mahorati esa bir qator nerv-fiziologik va psixologik qonuniyatlarga muvosiq ro'y beradi. Nutqdan foydalanish mahorati shaxsnинг nafaqat so'z boyligiga bog'liq, balki ushbu so'z boyligidan foydalana olish uslubiga, odobiga, malaka va mahoratiga ham bog'liqdir. Bular, o'z navbatida, shaxsnинг psixik jarayonlari: sezgilar, idrok, xotira, tafakkur, xayol; emotsional-irodaviy tomonlari: his-tuyg'u, iroda va har bir shaxsda mustahkam qaror topgan individual psixologik xususiyatlar: fe'l-atvor xislatlari, temperament turlari va qobiliyatlarning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Nutqni tinglay olish, shunga binoan fikr yuritish va so'z tanlab, fikrni ifodalash, subbatdoshning kimligini hisobga olish, nutq ohangini tanlash, qisqa, to'la, aniq va asosli gapirish, gavdani, gavda harakatlarini va yuz ifodasini nutqqa moslash, o'rnida kulish yoki xafa bo'lish, o'zining his-hayajonlarini ifodalovchi vositalarni me'yorida qo'llash va ulardan o'rinni foydalanish shaxsdsagi mavjud psixologik imkoniyatlarga asoslangan holda yuz beradi. Shu bois bolalarga so'zlashish qoidalarini tushuntirishda va o'rgatishda, ularda nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda oilada ota-onalar, bog'chada murabbiylar, o'quv maskanlarida esa o'qituvchilar yuqoridagilarga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, til etnosning eng muhim belgisi va u etnos madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Tafakkur bilan bevosita bog'liq bo'lgan til o'zining tuzilishi jihatidan murakkabligi tufayli ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham gavdalanadi. Keng ma'noda esa psixikaning belgililigi uning ijtimoiy mavjudligini bildirib, fanda millatning mohiyati va madaniyatini o'rganish chegarasini anche kengaytiradi.

O'ZBEK AN'ANAVIY TEATRI: ILK SAHNAVIY SHAKLLAR VA VOSITALAR

Baxtiyor Bo'ronov,

Nam DU Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrasи o'qituvchisi

Abdurauf Abdullaev,

Ijtimoiy madaniy faoliyat yo'naliши 2-kurs talabasi

O'zbek an'anaviy teatri jamiyat shart-sharoitlariga moslashgan, katta professional sahnaga xos bo'lgan kulis, parda, taxta supadan xoli, biroq o'z sahna maydonini yaratgan.

Amaliyotda asosan sahna maydonining ikki turi qo'llanilib kelingan. Sahna maydoni turlari o'z navbatida turli shakllarga bo'lingan. Birinchisi - ochiq keng maydon bo'lib, bayram kunlari ba'zida shahar markazida - registon, bozorlarda, ba'zida shahar chetidagi katta sayilgohda ishlatalib kelingan. Tomoshalar ertayu-kech davom etgan, kunduz kuni tabiiy yorug'likda, kechqurun mash'alalar, gulxanlar, fonuslar yordamida yoritilgan.

Tomoshabinlar improvizatsion sahnaning atrofida doira yoki yarim doira shaklida joylashishgan. Shu bilan birga voqealarni bevosita kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lgan. Uzoqdagi tog' va qir manzaralari, daraxtlar, inshootlar, uylar - barchasi tabiiy landshaft dekoratsiya xizmatini o'tagan.

Biron bir xonodonning dahlizlik katta xonasi yoki ichki hovli supasi ham sahna sifatida xizmat etgan. Bu an'anaviy teatrning ikkinchi sahna maydonidir. Bunda uya mavjud barcha atributlar dekoratsiya sifatida qo'llanilgan. Tomoshalar tashqarida supada ko'rsatilganda, atrofdagi uylar, daraxtlar, ishkom, supa tepasi va yonlarida osilgan

pardalar, chiroqlar, gullar sahna makoni tasavvurini bergen. Tomoshabinlar uyda to'rburchak solingen ko'rpachalarda, hovli atroflarida moslashib tomoshani kuzatganlar.

Lekin an'anaviy teatrda qanday sahna maydoni ishga solinmasin, qat'iy chegaralar bo'lмаган. Uning makoni aktyorlar tomonidan belgilangan. Bu yerda sahna va tomoshabin zalini ajratuvchi rampa yo'q bo'lib, ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmagan. Tomoshabinlar bilan bevosita muloqot qilish, voqealar davomida zarur bo'lган tol, to'g'on, do'kon, o'rmon, ariq, mozor kabi ko'rinishlarni, kiyik, ot, eshak, sigir, qo'y, tuya kabi hayvonlarni gavdalantirishda tomoshabinlarni ja'b etish sahna makonini nihoyat darajada ham kengaytigan, ham o'zgartirib borilishiga imkoniyat yaratgan. U ba'zida kengayib, ba'zida toraygan. Tomoshabinlar va aktyorlar o'rtasidagi masofa ba'zida qisqargan bo'lsa, ba'zida masofa mutlaqo olib tashlanib, shartli "sahna" bilan "zal" qo'shilib ketgan. Tomoshabinlar sahnaning chegaralarini hayolan tasavvur qilishgan. Ya'ni, voqealar o'mi va vaqt shartli belgilangan. Chunki, an'anaviy teatrda voqealar istagan joyda kechishi mumkin. Sahnaviy makon illyuziyasini berish qahramonlar harakatiga bog'liq. Harakatlar cheklanmagan, chegaralaranmagan. Makon personajlarning tezkor xatti-harakatiga, monolog va dialoglardan kelib chiqadigan joy tasviriga qarab yangidan yangi tasviriy imkoniyatlarga ega bo'lib boraveradi. Xalq aktyori so'z va xatti-harakat bilan tomoshabin hayolini ishga solib, uni turli holatlarga, vaziyatlarga tushirib, xilma xil joylarga sayohat qilishga majbur etadi. Umumiy sahna makonida nainki ijrochi, balki tomoshabin ham kutilmaganda o'ynalayotgan tomosha qahramoniga aylanishi mumkin. Shartli makon turli shakllarni qabul qilib, tomosha oxirida tomoshabinni yana o'z makoniga qaytaradi.

An'anaviy teatrda ishlataligant sahna bezaklari ham mana shunday ochiq va yopiq sahna makonlariga muvofiq usullarda ishlataligan.

Voqealar davomida ishlataligant buyumlar ham shartli, bo'rttirma bo'lган. Birgina tayoq, masalan, masxaraning qo'lida bevosita tayoqligidan tashqari gulga, qilichga, nayzaga, otga, kamonga, ilonga aylanishi mumkin. Masxara va qiziq harakatlari, holatlari bilan tomoshabinni shunga ishontiradi. Xalq aktyorlarining to'n, do'ppi, doyra, belbog', ketmon, tesha va boshqa buyumlarni ishlatalishdagi kashfiyotchiligi to'g'risida ham aynan shu gaplarni aytish mumkin. "Qozibozlik" komediyasida, masalan, masxaraboz oddiy choponni goh ketmon, goh bug'doy solingen qop, goh sholcha, goh darraga aylantiradi.

An'anaviy teatrda libosda, pardozda, voqe o'mi va vaqtini belgilashda, buyumlarni ishlatalishda bo'rttirma va shartlilikdan foydalanilgani bejiz emas. Bunga sabab bor: birinchidan, mazkur teatr hazil va hajv (yumor va satira) yo'nalishiga ega bo'lган, ikkinchidan, aksar hollarda uning "sahna"si tomoshabinlar doirasidan hosil bo'lган maydondir. Voqe o'mi va payti shartli ko'rsatilgan. Komediyalardagi ko'rinishlar, buyumlar, mavjudotlar statist ijrochilar yoki tomoshabinlar tomonidan gavdalantirilib, "jonli dekoratsiya" hosil qilingan. "Jonli dekoratsiya" voqealarga aralashib, kulgi manbalaridan biriga aylangan. "Tol sotdi" qiziqchilik komediyasida, masalan, tomoshabinlar orasidan bir kishi davraga chiqarilib, unga tol bo'lib turishi uqtiriladi. Voqe davomida "tol"ni yiqitadilar, barglarini yuladilar, butoqlarini chopadilar, arralaydilar. "Tol" bo'lib turgan kishi avvalida o'zini noqulay sezadi, hazillashib luqma tashlab turadi, spektaklning eng qizg'in joyida esa ranjiydi, azob berayotganlaridan shikoyat qilib qoladi.

An'anaviy teatr faqat kulgili-hajviy yo'nalishda rivojlanib qolmasdan, qissago'ylik, voizlik, maddohlilik kabi jiddiy dramatik shakllardan, tragikomedik xususiyatga ega qo'g'irchoq teatri turlaridan tashkil topgan. Raqs san'atining ko'pgina turlari va turkumlari ham teatr xususiyatiga ega bo'lган: voqeabandlik, turli xil qahramonlar

bo'lib, ular o'rtasidagi muayyan tortishuv, ziddiyat aks ettirilgan. Mana shu turli-tuman teatr tomoshalarida niqob va pardoz, libos va anjomlar (dekoratsiya)ga katta ahamiyat berilgan. Shunday qilib, yaratilgan yevropa shaklidagi yangi o'zbek teatri o'zining ilk qadamlarida hamda oktyabr to'ntarishi tufayli sho'ro hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarda (1917-1927) binoda, tomoshabindan ajratilgan sahnada maxsus dekoratsiyalar, libos va jihozlar, chiroqlar yordamida, yozma dramaturgiya negizida muayyan tarixiy va zamonaviy voqealarni aks ettirishga, tomoshabinlarga ma'rifatparvarlik g'oyalarini singdirish orqali ularda milliy ong, milliy g'ururni tarkib toptirishga intilar ekan, avvalambor ozarbayjon, tatar va qisman rus teatridan ta'sirlandi. Shu bilan birga, tabiiyki, milliy san'at, an'anaviy teatr muhitida tarbiya topgan dramaturglar va yangi sahna ijodkorlari o'z faoliyatlarida mahalliy tomoshabinlar didimi, talab-ehtiyojlarini ham hisobga olishga, milliy musiqa, an'anaviy teatrga xos vosita va shakllardan foydalanishga majbur edilar.

Bu davrda ikki yo'naliш ko'zga tashlangan: biri - tarixiy yoki zamonaviy vogelikni aynan, naturalistik ko'rsatish bo'lsa (bu uslub "sharq kechalari" nomli instsenirovkalarda keng qo'llanilgan), ikkinchisi - voqealar o'rnini, tiplarni shartli belgilashdan iborat bo'lgan. Shundan shartlik birmuncha murakkabroq bo'lib, komediylar bilan dramalarning sahnaviy talqinlarida o'zaro farq qilib turgan. Shuningdek, drama sahnaviy talqinlarida tazod (kontrast) uslubi ham qo'llangan. Tarixiy asarlar talqinlarida, shu jumladan dekoratsiyalarida tarixiy haqiqatga yaqinlashish harakatida bo'lingan. Umuman olganda, deklarativlik, soddalik, xalq hayoti bilan bog'liqlik - respublikaning birinchi truppalari va ularning rassomlari qo'llagan tamoyillardir. Spektaklni bezashda soddalik va yengillik talab qilingan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek an'anaviy teatrining sahna vositalari o'zbek stsenografiya san'atining birlamchi ko'rinishi (predstsenografiya)dir. Bir tomondan, jahon teatri, ikkinchi tomondan, an'anaviy o'zbek teatri stsenografiyasi tamoyillari, turlari, usulblari, usullari XX asrda vujudga kelgan yevropacha rusumli yangi o'zbek teatri stsenografiyasi uchun poydevor xizmatini o'tadi. Yangi o'zbek teatri yozma dramaturgiya assosida ubti yopiq bino ichida ish olib borar ekan, jahon teatri va an'anaviy o'zbek teatrida mavjud sahna makonlarini, tartib-qoidalarini, tushunchalarini, atamalarini o'zlashtirdi, shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ularni sintezlashtirib bordi.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA VATAN MADHI

*Dildora O'rinova,
To'raqo'rg'on tumani 13-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning "Muhammad Yusufning 60 yillik yubeley yoshini munosib tantanali nishonlash to'g'risida"gi qarori biz adabiyot ixlosmandlarini yanada xushnud etdi.

Muhammad Yusuf she'riy kitobini o'qir ekanman A.Oripovning ushbu fikri yodimga keladi "Ona vatan madhini erkalanib kuylagan shoir chinakam shoirning qalbidagi allaqanday soxir qush doim sayrab turadi, degan gapni ko'p bor eshitgan edik. O'sha qush aynan Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurganiga men astoydil ishonaman".

Darxaqiqat, M.Yusufning qalbidagi qush sayraydigan kuy bu albatta Vatanni madh etuvchi kuylar hisoblanadi. U ona Vatanni erkalanib kuylaydi.

U o'z xalqini, Vatanini chin dildan sevuvchi haqiqiy el farzandi edi. Aksariyat she'rlarida Vatan farovonligi va ozodligi, el-yurt tinchligi, osoyishtaligini aks ettirar edi.

Vatanni shoirchalik sevadigan, u kabi qadriga yetadigan va ardoqlaydigan shaxs ekanligini uning she'rlarida ko'rishimiz mumkin. She'riyat M.Yusuf uchun chin manoda qismatga aylandi. M.Yusuf she'rlari xayoli uning hayot yo'li, umri taqdirini belgilab beradi.

M.Yusuf she'rlarini rayxonlarday ekib ketdi. Uning she'rlarini yurtimzda nimaiki go'zal bo'lsa hamma-hammasiga qiyoslash mumkin. Uning she'rlari yulduzlarday jimirlaydi.

Sher xalqona, oxangining satrlarida ajib sado beradi. Uning she'rlari dilga yaqin bo'lganligi sababli deyarli barcha she'rlari qo'shiq bo'lib qanot yozardi. Bu qo'shiqlarda xalq dardi bor edi, Vatanni go'zalligi ufurib turardi.

Vatan! Bu so'zdan ulug'roq nima bor jaxonda? Uni ulug'lamagan shoir bormikar dunyoda? Yana shunisi malumki, har bir ijodkor o'z qalbidagi Vatanni o'zicha kashi etadi. M.Yusufning "Vatan" haqidagi she'rlari ham o'ziga xos Vatanga bo'lgan mehi natijasi, yuksak ilhom samarasini deb aytish mumkin. U Vatanni farzand diliga qanchalik yaqin va bir butunlikdan kelib chiqib madh etadi.

Shoir "Men dunyoda nima qildim" deb o'ziga savol berar ekan, shu "Ulug'lardar ulug' Vatanga har damda quvonchda ham, tashvishida ham sherik hamdamligi mehrida o'z tug'ishganlari kabi yezozligiga urg'u berib, "Oftobdan ham ulug'imsan Vatanim" deya yurakka yaqin olinadi. Albatta yurakka yaqin olgach, uning dardiga sheriklik o'z o'zidan ravshanlasha boshlaydi.

Biz uning har bir satrini o'qiganimizda, qalbimizda ajib hislar uyg'onadi. Tug'ma shoirning she'rlari har bir o'qigan insonning dilidan joy oladi.

Biz Muhammad Yusuf ijodini sevib o'qiyimiz va ardoqlaymiz.

TEOMORFIK METAFORANING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI HAQIDA

*Shohista Maxmaraimova
Termiz DU o'qituvchisi*

Rezyume:

Maqolada jahon tilshunosligida fundamental deb qaratayotgan¹ metaforala tizimidagi teomorfik metaforaning xususiyatlariga doir mulohazalar yuritiladi. Teomorfizm – ilk insonning asosiy bilish aspekti bo'lgani holda, bugungi kunda teomorfik metaforaning madaniy va individual amaliyotda o'z o'rniga ega ekanligig' urg'u berilib, mazkur metaforaning fenomen hodisa ekanligi qayd etiladi.

В статье приводятся рассуждения о свойствах теоморфической метафоры, рассматривающейся на сегодняшний день как фундаментальная. Так же, на ряду понятием, что теоморфизм – основной познавательный аспект первобытного человека, данная метафора отмечается как феноменальное явление акцентирует её роль в индивидуальной и культурной жизни общества.

In article reasonings on properties of the teomorphic metaphor which is considered for today as fundamental was result. As, on a number with concept that teomorphizm the basic informative aspect of the primitive person, the metaphor are mark as the phenomenal phenomenon are accent the role in individual and cultural life of a society are more its.

Fanda teologik tushunchalarning kontseptuallashishi nominatsiyaning to'g'ridar to'g'ri amalga oshadigan usullari bilangina emas, balki, ma'no ko'chimlarining alohid olingan turlari asosida ham yuzaga chiqishi ma'lum hodisa. Zero, Aristotelchin

metaforizatsiya nazariyasida “metafora buyumga aslida birovga tegishli bo’lgan nomni beradi”(Aristotel. Poetika. Aristotel. // A79-Politika: [per. s drevnegrech.Jebelev S. A., Gasparov M. L.] / Aristotel.M.: AST, Xranitel, 2006.) deyiladi. Binobarin, ob’ektlar xususiyatiga tegishli lisoniy ma’noning in’iko etilish jarayonida ishtirok etuvchi kognitiv metafora kontseptual vazifani bajaradi hamda mavhum ma’noli kontseptlarga nom beradi. Teomorfik metaforaning o’ziga xos xususiyati shundaki, uning asosiy maqsadi mavhum yoxud “botiniy olam” ob’ektlarini atash, kognitiv jarayonning zaruratidan kelib chiqib, tushunchalarni sharhlashdir. Vaholanki, ana shu “kuzatilmaydigan” mohiyatlarning jami lisoniy-teomorfik xususiyatga ega bo’lib, ular kontseptuallashtirish jarayonida keng ko’larda metaforizatsiyaga yuz tutadi. Ushbu va yuqorida bayon etilgan fikrlar mavzuning tadqiqottalab ekanini ko’rsatadi va u bugungi kun tilshunosligining dolzarb muammolarini o’zida qamraydi.

Metafora - inson ongi muqobil imkoniyatlarining namoyishchisi bo’lib, o’z diqqat markaziga borliq-voqelikni kategoriyalashtirish muammosini qo’yuvchi kognitiv tilshunoslikning shu muammoning yechimiga dahldor tushuncha. Xususan, metafora bilishning o’ziga xos usuli bo’lib, unga olamni anglash, munosabat bildirish, kategoriyalash, kontseptuallashtirishning asosiy omili sifatida qaraladi. U bugungi kunda falsafa, mantiq, psixologiya, psixoanaliz, germenevtika, adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik, nafis san’atlar nazariyasi, semiotika, ritorika, lingvistik falsafa, turli tilshunoslik maktablarining tadqiqot ob’ektiga aylanmoqda. Shu jumladan, tilshunoslar teomorfik metaforani ham unutmagan holda, u haqda o’z qarashlarini bayon etarakanlar, uning tildagi o’rnini deyarli yo’qolgan hisoblab xulosha chiqarmoqdalar⁴.

Nazardan soqit qilmaslik kerakki, ilk ilmiy qarashlar ham (antik davrda bo’lgani kabi) mifologik tasavvurdan soqit bo’lmagan. Demak, bayon qilinayotgan har bir fikrning ta’sirchanligi, yuqori pafosni ta’minalash maqsadida, faylasuflarning mifik tushunchalarga murojaat qilganligi tabiiy hisoblanadi. Modomiki, metaforaga jozibador so’zlash vositasi sifatida qaralar ekan, Aristotelning o’zida etik ideal-regulyativlarni mujassam etgan “g’ururli odam” g’oyasi inobatga olinib, uning (metaforaning) teomorfik negizdan mosuvo bo’lmagan degan tahmin haqiqatga yaqin.

Metaforani so’zlovchining lisoniy-mental faoliyati bilan chegaralash qiyin, tabiiyki, insonning metaforogen faoliyati uni Yerdagi qolgan mavjudotlardan farqlantirib turuvchi hodisadir. Metaforaning o’zi esa allaqachon poetik-ritorik ko’lamdan chiqib ketgan bo’lib, hozirda landshaft unsurlari, dizayn predmetlari, ijtimoiy-tarixiy voqealar, badiiy stillar va vositalar, axborot texnologiyalari rivojining yo’nalishi va h. sifatida qabul qilinadi.

Ibtidoiy odamning tevarak-atrof, borliqni anglashga bo’lgan barcha harakatlarining debochasida teomorf yondashuv va talqinning ustuvor ahamiyatga ega bo’lgani sir emas. Hatto, zamon va makon o’zining fizik o’lchamlarini antik va o’rta asr ilm-faniga o’zga evrilishlar bilan taqdim etguniga qadar, fazoviy va davriy teomorfizm bilishning asosiy aspektlaridan bo’lib keldi. Qayd etilgan evrilishlar davrida fazoviy va davriy teomorfizm tushunchasi dematerializatsiyaga yuz tutdi, Yevklid tomonidan fizikaviy fazo nazariyasi, Aristotel va Lukretsiy tomonidan vaqt kontseptiyasi fanga ma’lum qilindi. Fazoning o’z-o’zidan mavjud bo’lishi haqidagi antik qarashlar I.Nyuton tomonidan mutlaqlashtirildi. Bundan so’ng, G.Leybnits, Berkli va R.Dekart bu borada o’z qarashlarini, nazariyalarini

⁴ Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar. — M.: Sovetskaya entsiklopediya. Gl. redaktsiya: L. F. Ilichov, P. N. Fedoseev, S. M. Kovalyov, V. G. Panov. 1983. Shuningdek, Filosofiya: Entsiklopedicheskiy slovar. — M.: Gardariki. Pod redaktsiey A.A. Ivina. 2004. http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/936.

ilgari surdilar. Garchi, fazoviy harakatlarning barchasi nisbiylik kuchiga ega ekanligi R.Dekartgacha ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, Eynshteyn tomonidan fazo haqidagi barcha mumtoz va absolyut nazariyalarga jiddiy zarba berildi hamda fazo bilan vaqt o'zaro mustaqil, alohida olingen hodisalar emas, aksincha, yuqori turuvchi tizimli tartibning tarkibiy komponentlari ekanligi ko'satib berildi.

Bir tomonidan R.Dekart(*extensio* kabi fazoning falsafiy kontseptsiyasi), I.Kant (hissiy formalar), boshqa tomonidan substrat va substantsiyaning materialistik kontseptsiyalari falsafaning botiniy qatlamlari sirasida sifat va fenomen asosida joylashar ekan, fazoni vaqt o'lchovidan mahrum qiladi. Biroq, Platonga ko'ra –mavjudlikning sifati va niqdori intellektual halokatilik (*intelligibilnost*) darajasiga ko'ra o'chanadi². Uning e'tirofi qadar aytish mumkin bo'lgan mohiyat shuki, na mavjudlik va na yo'qlik hisoblanmish shunday haqiqat borki, uni na dialektika, na o'zga filosofema tushuntirib bera oladi.

Maxsus tayyorgarliksiz ham keltirilgan dalillar negizida inson ongi hali-hamon olamning yaralish sirini, yashamoqning muddaosini anglash borasida tugal xulosaga kela olmaganligi, anglab yetgani esa – barisining nisbiylikka bo'yundirilgan qonuniyatlardan iborat ekanligini, bundan kelib chiqib teomorfizmning hamon global muammolar girdobida qolib ketayotganligini qisman tushunib yetish mumkin.

Fizik nuqtai nazardan fazoviy o'qning uch va to'tr o'lchamli ekanligi davrlar osha o'rganilib kelinar ekan, doimiy ravishda vaqt vektorining e'tiborda bo'lib kelgan. Vaqtini ortga qaytarib bo'lmasligi, uning bitta yo'nalihsida kechishining izohlab bo'lmas masala ekanligi fandagi global muammolarning biri (Ya.F.Askin, A.Gryunbaum tomonidan vaqtning ortga qaytmasligi o'z-o'zidan, ibtidoiy tarzda paydo bo'lgan va hech bir qonuniyatga bo'yusunmaydigan masala ekanligi qayd etiladi). Binobarin, insonning zakovati yechib bera olmaydigan hodisotlar mavjud bo'lar ekan, uning teomorfik tushunchalarga murojaat qilishi vaqt o'tishi bilan davom etaveradi.

Darhaqiqat, teomorsizm – ilk insonning asosiy bilish aspekti bo'libgina qolmay, mana, davrlar o'tmoqdaki, intellektual insonning diqqat nazarida yashab kelmoqda. U mutlaqlig xarakteridan butunlay yiroq tushuncha. Illo, tom ma'nodagi dunyo tamadduni (tsivilizatsiya)da uning o'rni beqiyos.

Teomorfik metaforani diniy metaforadan farqlash lozim. Solishtiramiz:

Mening ko'zlarimga qaraysan halol,

Ko'zlarimga porlaydi, yurishing zavqli...

Shaytonlar hamdam, farishta ayol,

Nahotki unutish shunchalar zavqli?

...Rejissyor buyurdi: endi men – *shayton...*

Yo'q, yo'q *farishtaman*, hali *farishta*.

Oolloh pokligimga qilgan yo'q gumon,

Xizmatim - beminnat, ishim – sarishta. (U.Azim)

Yoki:

- Aferist u. Yomonam *shayton odam*. Lyuboyni aldaydi... (S.Ahmad.)

- Qo'shnimmi? U *alvasti* bugun ham janjal boshlab, ko'chani boshiga ko'tardi. (*kundalik nutqdan*)

Foniylar bo'lganlar haqo farzandidir,

O'zni sevgan butparastdir, bandidir! (*Koshifiy*)

Ham *qiblai iqbol* harimi johi,

Ham *ka'bai omol* biylik dargohi,

Shohlarning dardmandiyu ogohi,

Bu turfaki dardmandlarning shohi. (*Navoiy*)

Kuzatilganidek, diniy metaforadan farqli o'laroq, teomorfik metafora inson tasavvurining mevasi o'laroq abstrakt, ammo aniq chizgi va shakl-shamoyildan yiroq bo'Imagan obrazni ifoda etadi. Shu jihat bilan u antropomorfik metaforaga yaqin turadi.

Teomorfik metaforaning antropomorfik metafora bilan "qardoshligi" masalasini tahmin qilarkanmiz, X.Plessnerning falsafiy antropologiya borasidagi qarashlarini keltirishni ma'qul bildik.

U o'zining "Organik shakllanish bosqichlari va inson" ("Die Stufen des Organischen und der Mensch", 1928), "Kulgi va yig'i" ("Lachen und Weinen", 1941) asarlarida falsafiy antropologiyani insonni bevosita mavjudlik chegaralaridan chiquvchi, doimiy ravishda o'z-o'ziga qarshi chiquvchi va shunga ko'ra "o'rinsizlik" hamda "yo'qsizlik"da namoyon bo'luvchi ektsentrik mavjudot sifatida talqin qiluvchi maxsus falsafiy fan sifatida asoslashga intiladi. Shu yo'l bilan u inson xarakteri va hayotiy pozitsiyasidagi sobitlik, maqsadga yo'nalgalik aspektlaridan ko'ra ko'proq o'z-o'zidan begonalashish va turli ma'naviy-ruhiy transformatsiyalarni qayd etadi. Dualistik qarash va insondagi qandaydir yuksak ma'naviy ibtidio voqelikni derealizatsiya etib, o'ziga xos erkin va ozod dunyoni paydo qiladi degan g'oya egasi - Shelerning antropologik kontseptsiyasidan farqli ravishda, Plessner insonni uning biofizik va madaniyatdagi yutuqlarini ifoda etuvchi ma'naviy jihat bilan ko'rishni istagan. Inson mavjudligining uch asosiy: tabiiy sun'iylik qonuni, utopik makon qonuni va bilvosita bevositalilik qonunini shallantirgan faylasuf o'zlik va olamning cheksizligini anglamoq Xudoni (Allohni-ta'kid maqola muallifiniki) anglamoqqa undaydi deb xulosa qiladi. Hamda absolyut mohiyatini aniqlovchi antropomorfizmga inson mohiyatini aniqlovchi teomorfizmni tenglashtirmoq zarur deya ta'kidlaydi. So'nggisi insonga tartibga solish, hayot va o'lim o'rni, panoh topish, taqdirga bo'yusunish, voqelikni, vatanni idrok etish imkoniyatini faqat din bera oladi.

Olamni bilih – o'zaro ziddiyatli va murakkab jarayon bo'libgina qolmay, insonning u qadar samarador bo'Imagan kognitiv usullardan shu bugunga qadar foydalanib kelayotganligi boisidan ham abstrakt yechimlarni kasb etib kelayotgan hodisa.

Zero, anglanganlarning reprezentatsiyasi muammosi oson izohlanadigan masalalardan emas. Mazkur muammoning tugal yechimga ega emasligini ko'hna davrlardayoq an'anaviy sharq falsafasining vakili Bodxidarma ham qayd qilgan edi: "Nomalarda donishmandlik yo'q – so'z va belgilari bilan Qonunni anglatmoq mushkul"⁹.

Shakldagi ma'noni, mohiyatni ishoraga ko'ra ig'ash, anglash texnikasi bevosita, insonning olamdagи mavjud shakllar haqidagi bilimlari – kognitiv kategoriyalarga borib taqaladi. Demak, bu borada lisoniy birliklarning semantik ta'rifi tom ma'noda kognitiv xarakterli bo'lib qolmasdan, semantik eksplikatsiyada kognitiv ko'laming fenomi bo'l mish metaforani namoyon eta oladi.

Aynan mana shu munosabat biz tekshirayotgan teomorfik metaforalarning tabiatiga niyoyat darajada mosdir.

Lingvistik birliklar teomorfik metaforaning tushuncha va akustik obrazini (timsolini) aks ettirsa, semiotik tashkil etuvchilar mental ko'lamdagi ikki ob'ekt o'rtaсидаги munosabatni, undagi kognitiv xususiyatlar esa alohida olingan aniq vaziyatlardagi ichki tizim mutanosibligini ta'minlaydi.

Teomorfik metaforaning xususiyatiga doir bir qator aspektlarni qayd etish mumkin. Bular:

- teomorfik metafora madaniy va individual amaliyotda o'zining ishlatalish darajasiga ko'ra yuqori ko'rsatkichni egallaydi. Teomorfik metaforani ba'zi tilshunoslar

faraz qilganidek, fundamental deb qaralgan zoomorfik va texnomorfik metaforalar tizimida ko'rib chiqib, uning so'nggilarga nisbatan past salmoqqa ega ekanligini tasdiqlash mushkul. Zotan, bugungi texnologik jarayonlar avj olib, shiddat bilan davom etayotgan bir vaqtida, teomorfik metaforaning ishlab chiqarishda va keng ilm-fan jabhasidagi o'rnnini bemalel kuzatsa bo'ladi. Faqat, uni boshqa turdag'i metaforalar yohud ko'chimlardan to'g'ri farqlay olish lozim. Fundamental metaforalar tizimida aynan teomorfik metaforagina insoniyatning olamdag'i mavjud bo'lish sabablarini izohlay oladi. Bu esa, uning murakkab va ko'p qirrali fenomen ekanini isbotlaydi.

- Teomorfik metafora teng ma'noda antropomorfik metafora bilan bir kesimda joylasha olish imkoniyati natijasida insonning olamdag'i anglash faoliyatida ko'plab ziddiyatlarni tug'diradi. Teomorfik metafora tashuvchi noturg'un tushuncha va ma'nolar uning yuqoridagi tabiatiga asos tug'diradi. Biroq, teomorfik metafora nutqning barcha turlarida o'zining shakllangan tugal konstruktivalariga ega (teomorfik metaforani teologik bilimga ega bo'lgan va bu haqda umuman tushunchasi yo'q til egasi barobar, qo'llashi kuzatildadi Hatto, aksar hollarda omi odamlarning nutqida ko'proq uchrashi tabiiy voqelik hisoblanadi – bilimli bu turdag'i metaforalarni o'z o'rniда ishlashishga qanchalar e'tibor qilsa, tushunchasiz odam bu metaforalardan ehtiyojsizlik bilan foydalanadi. Shunga qaramay, har ikki vaziyatda ham mazkur metafora til egasi tomonidan mohiyatan to'g'ri ishlatilgan bo'ladi). Teomorfik metafora bilan antropomorfik metaforaning "qardoshligi" inson ongidagi olam haqidagi ideal obrazlarni birmuncha yakdillashtiradi, natijada teomorfik metafora tizimiga birlashuvchi semantik birliliklar boshqa turdag'i metaforalardan farqli o'laroq aniq "ijobiy" va aniq "salbiy" qutblarga birlashadi. Ayni vaqtida uning asha shu xususiyati teomorfik metaforaning bugungi global dunyodagi ahamiyatini bir qadar oshiradi.

- Ta'kidlanganidek, teomorfik metafora antropomorf shakldoshlariga yaqin turganligi sababli, uning reprezentatsiyasi masalasi adresatning favqulodda individual qaroriga ko'ra hal etiladi. Bunda metafora substantsiyasida yotgan ma'nolar, tushunchalar adresat tomonidan rekonstruktsiya qilinmaydi, shunchaki "qayta ishlanadi".

- Teomorfik metafora tufayli tilda milliy o'ziga xoslik saqlanadi. Unga muvofiq, har bir til egasining qo'llagan teomorfik metaforaning kognitiv jihatiga qarab, milliy tafakkur, mafkura, e'tiqod va qarashlarga baho berish mumkin bo'ladi. Shu singari, kognitiv xususiyatiga ko'ra, teomorfik metaforaning universal tabiatи uning turli lingvomadaniyatlardagi nisbatan o'xshash xarakterli talqin etilishiga asos bo'ladi.

DEMOSFEN USLUBI

B. Ibrohimov,

Nam DU milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

1. Demosfen nutq matnida ham, nutq talqini jarayonida ham arxaizmdan qochadi, juda latif va jozibador so'zlarni qo'llamaydi, yangicha so'z, ibora va terminlar to'qimaydi. Faqatgina, gohi-gohida xalq hikmatlaridan va maqol-matallardangina foydalanadi.

2. U nutqlarida biror tushunchani ifoda etuvchi sinonimlarni ko'p qo'llaydi. Masalan, «mayli gapirsin va maslahat bersin», «shodlanmoq va quvonmoq», «yig'lamoq va ko'z yoshi to'kmoq», «so'zlar va nutqlar» kabi sinonimlar uning nutq matnlarida ko'plab uchraydi.

3. U nutqda uzuq-yuluqliklardan qochar, qisqa bo'g'in, kalta-kalta jumlalarni ishlatmasdi, aksincha, uzun, cho'ziq bo'g'lnlarni ko'plab qo'llashni xush ko'rardi.

4. Nutq matnlarini tayyorlash jarayonida gapning boshi va oxiriga mantiqiy urg'u tushuvchi, muhim ma'no kasb etuvchi so'zлarni qo'yardi.

5. Nutqda musiqiylik va ta'sirchanlikka erishish uchun jumlalarning oxiri nasriy she'r bilan, muayyan vazn bilan tugashiga alohida e'tibor berardi.

6. Demosfen nutqlaridagi davrlanish kompozitsion yaxlitlikka va mutanosiblikka ega edi. Uning har bir nutqiy davri oldingi va keyingisi bilan mantiqiy mustahkam bog'lanib, ulardan birortasini isloh etish mazmunga ham, shaklga ham katta putur etkazardi.

7. Ayrim, o'zi uchun muhim tuyulgan so'zлarni ongli ravishda bir necha marta qaytarishni yoqtirardi.

8. So'z va jumlalarni o'zaro qarama-qarshi qo'yib ifodaviylik va obrazlilikka erishishni xush ko'rgan. Jumladan, «Gulchambar haqida» nomli nutqida esxinga qarata deydi: «Sen savod chiqararding, men bo'lsam maktabga qatnardim, sen maqtovlar tayyorlarding, men maqtanuvchi edim, sen xorda raqsga tusharding, myon xorning xo'jayini edim, sen kotib eding, men bo'lsam xalq majlisida qatnashardim, sen mayda rolda chiquvechi aktyor eding, men esa tomoshabin edim, sen rasvo qilib o'ynarding, men bo'lsam hushtak chalardim».

9. Ritorik savollardan unumli va o'rini foydalanardi. Shuning uchun ham, uning nutqlarida «Xo'sh, buning xammasiga sabab nima», «Nega endi men buni xozir gapirayapman?» kabi ritorik savollar ko'plab uchraydi.

10. Demosfening nutqlari eng avval o'zining chuqur mazmundorligi, siyosiy o'tkirligi kabi xislatlari bilan diqqatga sazovor edi. Shuningdek, uning fikrlari nihoyatda oljanob, vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, samimiya pafosi bilan xarakterlanar edi.

11. U nutq talqini jarayonida emotsiyonal hayajon, jestikulyatsiya, mimika kabi psixofizik va tashqi ifoda vositalardan unumli foydalanardi.

12. Demosfen o'zining notiqqlik missiyasiny faqatgina Vatanga va xalqiga halol xizmat qilishdan iborat, deb tushunardi. Uzi aytganidek, «notiqning ovozi va so'zлari qimmatli emas, aksincha, undagi eng qimmatli narsa shuki, xalq nimagaki intilayotgan bo'lsa u ham shunga intilsin, vatan ni kimni sevsaga yoki yomon ko'rsa u ham ana shu kishilarni sevsin yoki yomon ko'rsin».

Xullas, Demosfen Afina notiqligining yirik namoyondasi bo'lib, uning texnik mashqlari, nutq talqini jarayonidagi usullari, nutq ustida ishslash usulublari, til imkoniyatlaridan foydalanish va notiqqlikning talqiniy ifoda vositalarini mohirona ishga sola olishi kabi fazilatlari hozirgi davr notiqligi uchun ham amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

O'ZING MENING ULUG'LARDAN ULUG'IMSAN, VATANIM.

O.Mirzaahmedova,

Namangan tuman Irvadon Iqtisodiyot kolleji o'qituvchisi

Ko'klamning iliq nafasi urib borliq yasharib yangilanganda, xalqimizning sevimli shoiri yodimizga keladi. Unda chin insoniylik xislatlari bor edi: kamtarinlik, soddalik, samimiylilik. Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim.

Alpomishga alla aytgan momolarim

Ruhini shod etay desang –xalq bo'l, elim!

Muhammad Yusuf chindan-da sohir so'zлarni soddalik, samimiylik ila o'quvchisiga tortiq eta olgan.Yurtimizning go'zal tabiat manzaralari shoir she'rлarini o'qiganimizda, ko'z oldimizga keladi.

U yoqda shotutlar
To'kilar suvg'a,
Qovunlar yorilar,
Sen yo'l qaraysan.
Tuproq ko'chalarda ,
Mushtoq kechalarda,
Yoz- meni sog'inib sarg'aygan maysa

Uning she'rлarini o'qiganimizda, shoirning o'ziga xos, hech kimda takrorlanmaydigan yo'nalihsda ijod qilganini his qilamiz.

O, ota makonim,
Onajon O'lkam,
O'zbekiston, jonio to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Ayniqsa, uning fasllar kelinchagi ko'klam bilan bog'liq "Qizg'aldoq", "Ko'klamoyim", "Binafsa" kabi she'rлarini o'qiganimizda yurtimizdagи bahor fasli kirib kelishi bilan bog'liq tabiat manzaralari ko'z oldimizdan o'tadi.Yurtimizning qir-u adirlari va bepoyon kengliklari ko'z oldimizga keladi.Sharqirqb oqayotgan soylar, ariqlarnig tovushini eshitgandek bo'lamiz.

Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,
Kokiliga tolpopukdan soch ilinsin,
Boychechakka borar yo'llar ochilsin-
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim

Uning she'rлarida musiqiylik va o'zgacha ohang bor. Uning vatan mavzusidagi she'rлarini o'qiganimizda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning vorislari ekanligimizdan faxr, iftixor, g'urur tuyg'ularini his etamiz.

Sen Xo'jandsan, Chingizlarga
Darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,

Muqannasan qorachig'i
Olov larga sachraghan,
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon
Cho'lig'imsan, Vatanim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalq shoiri, tom ma'nodagi xalqchil shoir Muhammad Yusuf noyob, xotirasi mangulikka daxldor inson, zamonaviy o'zbek she'riyatining porloq nur socha olgan so'nmas yulduzi bo'lib qoldi. U betakror she'rлari bilan barchamizning tilimizda,dilimizda. Bunga uning hayoti va ijodi haqida bir-birini to'ldirib dunyoga kelayotgan ilmiy izlanishlar, kitoblar misolida ham guvoh bo'lismumkin.

MUNDARIJA:

MILLIY G'OYA, MA'NAVİYAT VA MAFKURA

<i>O.V.Mamatov.</i> Mafkuraga yondoshuvning o'ziga xos jihatlari	3
<i>S.Norqo'ziyev.</i> Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning ba'zi bir masalalari	5
<i>O.Topildiyev.</i> Globallashuv va yoshlar ma'naviyatiga internetning mafkuraviy ta'siri	10
<i>Rahimbayeva Dilbarxon.</i> Jamiyat, oila va shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni	12
<i>O.V. Mamatov.</i> Oila ijtimoiylashuvning muhim instituti sifatida	14
<i>B.Bo'ronov, A. G'aniyev.</i> XX asrning 20-yillarda o'zbek teatri ahyoli	16
<i>A.Abdullayev, M.Sodirjonov.</i> Shaxs tafakkuri shakllanishida oilaning o'rni	18
<i>B.Tillayev, Z.Isoqov.</i> Milliy ma'naviyatimiz yuksalish yo'lida	20
<i>B.B.Ibrohimov.</i> O'zbekistonning ma'naviy yuksalishi va muzeylear taraqqiyoti	22
<i>S.Yo'ldoshev., I.Toshpo'latov.</i> Mustaqillik sharoitida sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi	23
<i>S.V. Yo'ldoshev.</i> Milliy qadriyatlar tizimida kurash	25
<i>D.Abduqahhorov, I.Parpiyev, O.Abduhalilov.</i> Oilada shaxs axloqiy tarbiyasi masalalari	27
<i>Iqboljon Orziyev, T.Q.Qozoqov.</i> Jamiyatning boshlang'ich asosi	28
<i>U.Boyzoqova,</i> Pifagor hikmatlari	29
<i>U.Dedaxanov, O.Topildiyev.</i> Qadimiy ma'naviyatimiz izlari	31
<i>U.Boyzoqova.</i> Ma'naviy tahdidlar	32
<i>G. Mo'minxo'jayeva, M.Tojahmedova.</i> Ma'naviyatli yoshlar yurt ishonchi!	33

SIYOSAT VA HUQUQ

<i>O.V.Mamatov,</i> Vorislik taraqqiyotning muhim va zarur sharti sifatida	35
<i>B.A.Talapov,</i> Milliy demokratik taraqqiyotga o'tish-ob'ektiv ijtimoiy zaruriyat	37
<i>A.Qambarov.</i> O'zbekistonda Konstitutsionalizm va demokratik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari	43
<i>O.Chuboyeva, A.Qosimov.</i> Oilaning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari	45
<i>G.Rafiqova.</i> Fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatni shakllantirishning asosiy printsiplari hamda o'ziga xos jihatlari	46
<i>A.Jo'rayev.</i> Sovet hokimyatining jamoalahtirish siyosatining asosiy mohiyati	49
<i>B.Tillayev.</i> O'zbekiston Respublikasida yosh avlodga qaratilgan davlat siyosatining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>A.Qambarov.</i> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning o'ziga xosligi	56
<i>R.Asqarov., I.Omonov, T.Q.Qozoqov.</i> O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati	57
<i>G.Abdusalomova, R.Zamilova.</i> Konstitutsiya – bahtimiz qomusi	58
<i>M.Umarov, T.Q.Qozoqov.</i> Diniy ekstremizm, yohud jaholat iskanjası	60

ISLOHOT VA IJTIMOIY HAYOT

<i>B.Tillayev.</i> Demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi islohotlar	62
<i>H.Botirova.</i> Qishloq xo'jaligining moddiy jihatdan mustahkamlashda mulkdor fermer mutaxassislarga munosabat	65
<i>A.Tursunov.</i> O'zbekistonda urbanizatsion jarayonlarning mazmuni va mohiyati	67

K.Toshev, A. Malikov. Madaniyat sohasidagi islohatlar samarasi va natijalari.....	72
H. Botirova. Fermerlarning xo'jalik boshqaruvidagi ishtirot va uning omillari.....	74
O.Sobirov, B.Tillayev. Hozirgi kun yoshlari O'zbekiston taraqqiyotining yetakchi kuchi.....	76

TARIX VA ETNOGRAFIYA

E.Qobilov. Buxoro amirligi xo'jaligidagi soliqlar turi.....	78
T.Qozoqov. Vatanning asl farzandi.....	81
Z.Haydarov. O'zbekiston Respublikasida Ta'lism to'g'risidagi qonunlar va ularning rivojlanish bosqichlari.....	82
Z.Madrahimov. Qo'qon xonligining xiva xonligi bilan savdo aloqalari tarixidan.....	85
S.Mirsoatova, M.Yuldasheva. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari tarixiy manba sifatida.....	88
U.K. Xudoyqulov, Q. Toshaliyev. Temur va temuriylar davrida to'qimachilik sanoatining tutgan o'mni.....	90
T.Qozoqov. Sayyid Nosirxonto'ra.....	93
N.Abdulahatov, Majzub Namangoniy va Marg'ilon ulamolari.....	94
Б.Т. Мирзаджисанов, Л.М. Соколова. Партия Дашинаков в Ферганской долине: как проявление непродуманной кадровой политики большевиков.....	95
N.Ismoilova, Turkistonga Rossiya imperiyasidan ko'chib kelganlarning ijtimoiy tavsifi.....	97
B.Tillayev. Milliy davlatchiligimiz tarixiga oid nazariy manbalarni o'rGANISHING ahamiyati.....	101
M.Umironqova. Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida soliqlarning tutgan o'mni: muammo va ziddiyatlar.....	103
B.Ibrohimov, A.Qosimov. O'rta Osiyoda muzeylarning shakllanishi.....	106
B.Jalolov. Sovet mustamlakachiligi davrida ocharchilik masalasi va uning yechimida temiryo'l transportining tutgan o'mni.....	108
K.Toshev. Surxon madaniy hayotining yuksalishda Boysun folklor-etnografik xalq ansamblarning ahamiyati.....	112
U.Mansurov. Farg'ona vodiysi shaharlari tarixini o'rGANILISHINING tarixshunosligi.....	114
H.Mansur. Amir Temur siyosiy hokimiyatini mustahkamlashda Surxon vohasining tarixiy ahamiyati.....	115
L.Uemonov, Q.Akbarov. Jadid maktablarida ta'lism va tarbiya.....	122
X.Haqnazarov. Zamonaviy O'zbekiston yoshlari kundalik hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar.....	125
K.Toshev. Surxon madaniy hayotining yuksalishda Boysun folklor-etnografik xalq ansamblarning ahamiyati.....	129
U.Jo'rabyev. Turkistonda sog'liqni saqlash muassasalari faoliyati haqida.....	131
III.Бахридинов. Методика организации работы по исторической карте.....	133

TA'LIM

O.Topildiyev, Barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalash yo'nalishlari.....	136
A.Abdullayev. O'tmisht allomalarimizning axloqiy qarashlari.....	138
A.Malikov. Surxondaryoda yosh avlod tarbiyasida ta'lism tizimining ahamiyati.....	140
B.Soliyev. Axborot kommunikatsion texnologiyalari va ta'lism tizimining chekiz imkoniyatlari.....	141

ADABIYOT VA SAN'AT

- A.M.Jabborov, I.A. Jabborov.* Tilning salohiyati.....
- B.Bo'ronov,A.Abdullaev.* O'zbek an'anaviy teatri: ilk sahnaviy shakllar va vositalar.....
- D. O'rinoval.* Muhammad Yusuf she'rлarida Vatan madhi.....
- Sh.Maxmaraimova.* Teomorfik metaforaning lingvomadaniy xususiyatlari haqida.....
- B. Ibrohimov.* Demosfen uslubi
- O.Mirzaahmedova.* O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, vatanim.....

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ ASOSLARI KAFEDRASI

SALOHIYAT – MEZON *(ilmiy maqolalar to 'plami)*

5-SON

Terishga berildi: 25.06.2014. Bosishga ruxsat etildi: 20.07.2014.

Bichimi 60x84. 1/16. Shrift garniturası Times New Roman.

Hajmi 9,75 bosma taboq. Oq qog' ozga ofset usulda bosildi.

Adadi 150 nusxa. Buyurtma№ 39.

"Namangan" nashriyotida tayyorlandi.

Namangan shahri, Navoiyko'chasi, 36.

"Matbuot uyi" ning 3-qavati. Tel.: (8 369) 227-92-14.

Nashriyot litsenziya raqami AI №156, 2009-yil 14-avgustda berilgan.

"Start Print Poligraf" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Namangan shahri, Marg'ilon ko'chasi, 5-uy.

ISBN 978-9943-4340-6-6



A standard barcode representation of the ISBN number.



9 789943 434066